

2212 (045)  
345

M.M. KURGANBEKOV, A. MOYDINOV

# MASHINA DETALLARI

II qism


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**M. M. KURGANBEKOV, A. MOYDINOV**

# **MASHINA DETALLARI**

## **II qism**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtta maxsus ta'lif  
vazirligining muvofiqlashtiruvchi Kengashi tomonidan  
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*



**«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»  
Davlat ilmiy nashriyoti**

Toshkent – 2014

**UO'K: 621.81(075)**

**KBK 34.44ya722**

**M-34**

*Texnika fanlari doktori, professor Sh.A. Shoobidovning umumiy tahriri ostida*

*Taqrizchilar:*

**A. A. Rizayev** – O'zR Fanlar akademiyasining «Mexanika va inshootlarning seysmik mustahkamligi instituti» direktori, texnika fanlari doktori, professor;

**U. H. Qo'chqorov** – Toshkent davlat texnika universiteti, texnika fanlari nomzodi, dotsent.

**Mashina detallari:** O'quv qo'llanma: II qism / **M. M. Kurganbekov, A. Moydinov.** Toshkent.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2014 y. 224 bet.

**UO'K: 621.81(075)**

**KBK 34.44ya722**

«Mashina detallari» o'quv qo'llanmasining II qismida mexanik – tasmali va zanjirli uzatmalar, val va o'qlar, podshipniklar, muftalar va mashina detallarining ajraladigan (rezbali, shponkali, shlitsali, klemmmali) va ajralmaydigan (payvand va parchin mixli) birkilmalari to'g'risida asosiy ma'lumotlar va ularni hisoblash tartibi keltirilgan. O'quv qo'llanma «Mashina detallari» fanining namunaviy va ishchi o'quv dasturlariga binoan ishlab chiqilgan bo'lib, mexanika-mashinasozlik ta'lim yo'nalishlari talabalari va professor-o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Во II части учебного пособия приведены основные сведения и расчет ременных, цепных передач, валов и осей, подшипников, муфт, разъемных (резьбовых, шпоночных, зубчатых (шлицевых), клеммовых) и неразъемных (сварных и заклепочных) соединений. Учебное пособие соответствует типовой и рабочей учебной программам изучения курса «Детали машин». Предназначено для студентов и профессорско-преподавательского состава механико-машиностроительных направлений в высших учебных заведениях.

The second part of the tutorial gives an information about and calculations of belting and chain transmissions, shafts and axles, bearings, Coupling, detachable (threaded, key, spline, clamping) and permanent (welded, rivet) joints. Tutorial complies to reference и working curriculum for the course of 'Machine Elements'. Purposed for the students and professional and teaching staff in higher educational establishment in a field of Mechanics.

© «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»

Davlat ilmiy nashriyoti, 2014.

© Toshkent davlat texnika universiteti, 2014.

ISBN 978-9943-07-327-2

---

## KIRISH

«Mashina detallari» (II qism) o'quv qo'llanmasi nashr etilgan ushbu nomdagi o'quv qo'llanmaning uzviy davomidir. Shu sababli ham II qism tasmali uzatmalardan boshlanadi. So'ngra zanjirli uzatma bayon etilishi, bu uzatmaga ta'rif va tasniflar tasmali uzatmaga nisbatan berilishi bilan bog'liq. Keyingi bo'lim va bobda vallar hamda o'qlar bo'yicha ma'lumotlar, so'ngra val va o'qlarning tayanchlari – sirpanish va dumalash podshipniklarning tuzilishi, turlanishi, ularning belgilanishi, ishdan chiqish sabablari, hisoblash tartiblari bayon etilgan.

«Mashina detallari» fanining keyingi bo'limida mustalarining turlari, vazifasi, ular asosiy konstruksiyalarining tuzilishi hamda hisoblari keltirilgan.

O'quv qo'llanmaning so'nggi bo'limida mashina detallarining ajraladigan va ajralmaydigan birikmalari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Birikmalarni bayon etishda ularning turlari, qo'llanilishi, geometrik o'lchamlari, ishdan chiqish turlari, hisoblash me'yorlari, asosiy hisoblash ifodalarini hamda birikmalar uchun ruxsat etilgan kuchlanishlar berilgan. Ajraladigan birikmalar qatorida rezba (bolt)li, shponkali, tish (shlitsa)li, kleimmali birikmalar, payvandli va parchin mixli ajralmaydigan birikmalar ko'rsatilgan.

Mazkur o'quv qo'llanmaning mazmuni, hajmi va tuzilishi «Mashina detallari» fanining namunaviy va ishchi o'quv dasturlariga mos keladi. Undagi matn, jadval, asosiy holat va ifodalar talabalarga o'quv materiallarini oson anglash va o'zlashtirishga yordam beradi.


# BIRINCHI BO'LIM

## MEXANIK UZATMALAR

### I. TASMALI UZATMALAR

#### 1.1. Tasmali uzatmalar. Ularni hisoblashning asoslari

**Harakatni uzatish tarzi.** 1.1-shakldagi tasmali uzatma – vallarda o’rnatalgan ikki shkiv (yetaklovchi va yetaklanuvchi) va shkivni qamrab turadigan tasmadan tuzilgan bo’ladi. Tasmali uzatma harakatni shkivlar va tasma orasida tasmani taranglash hisobiga paydo bo’ladigan ishqalanish kuchi hisobiga uzatadi.



1.1-shakl. Tasmali uzatma va tasma turlari

**Turlari.** Tasmaning ko’ndalang kesim shakliga qarab: yassi tasmali (1.1-a shakl), ponasimon tasmali (1.1, b-shakl) va doiraviy tasmali (1.1-d shakl) uzatmalar farqlanadi.

Tasmali uzatma mexanik uzatmalardan eng qadimgi turi bo’lib, bu uzatma hozirgi kunda ham o’z ahamiyatini yo’qotgani yoq. Boshqa tur uzatmalarga qaraganda tasmali uzatma bir qator o’ziga hosliklarga ega bo’lib, ular bu uzatmani qo’llashning maqsadga muvofiqligini belgilaydi. Tasmali uzatmaga baho berish uchun uni eng ko’p tarqalgan tishli uzatma bilan taqqoslanadi.

**Bunda tasmali uzatmaning quyidagi afzalliliklarini ta’kidlash mumkin:**

- harakatni nisbatan uzoq ( $15 \text{ m}$  gacha va undan ko’p) masofalarga uzatish;
- tasma elastik bo’lgani uchun ravon va shovqinsiz hamda katta tezlikda ishlash imkoniniyati;

- tasmaning elastikligi sababli yuklanishning keskin o'zgarishlariga ta'sirsizligi;
  - o'ta yuklanish holatlarida tasmaning shkivdagi sirpanishi sababli mexanizmlarni buzilishdan saqlashi;
  - tuzilishi oddiy, ishlatalishi oson, moylashni talab etmasligi;
  - tannarxining nisbatan arzonligi.
- Tasmali uzatmalarining asosiy kamchiliklari:**
- tashqi o'lchamlari katta (bir xil sharoitlarda shkiv diametrleri tishli gildiraklar diametridan taxminan besh marta katta);
  - tasmaning yuklanishiga bog'liq sirpanishidan uzatish nisbatining o'zgaruvchanligi;
  - tasmaning dastlabki katta tarangligidan val va ularning tayanchlariga tushadigan yuklanishning kattaligi (tishli uzatmaga nisbatan vallarga 2–3 marta ko'p yuklanish tushadi);
  - tasmalarning past chidamliligi (1000 soatdan 5000 soatgacha).
- Tasmali uzatmalar ko'pincha vallar bir-biridan ancha uzoqda (katta masofada) joylashganda ishlataladi. Zamonaviy tasmali uzatmalarning quvvati, odatda, 50 kW dan ortmaydi. Yuritmada tishli uzatma bilan aralash qo'llanganda, tasmali uzatmani kam yuklanish uzatishi sababli, odatda, tezyurar pog'onaga o'rnatiladi.
- Tasmali uzatmalar avtomobilsozlikda, stanoksozlikda va qishloq xo'jalik mashinalarida keng ko'lamba qo'llaniladi. Zamonaviy mashinasozlikda ponasimon tasmalar eng ko'p tarqalgan bo'lib, eski konstruksiyali yassi tasmalarning ishlatalishi ancha kamaydi. Yangi konstruksiyali yassi tasmalar (plastmassalardan tayyorlangan qobiqli tasmalar) tezyurar uzatmalarda ishlatalmoqda. Doiraviy tasmalar kam quvvatli yuritmalar: priborlar, uyro'zg'or mashinalarida ishlataladi.
- Tasmali uzatmani hisoblashning nazariy asoslari hamma turdagи tasmalar uchun umumiy bo'ladi.
- Tasmali uzatmalar ishchanlik qobiliyatining asosiy mezonlari – tortish qobiliyati va tasmaning chidamliligidir. Uzatmaning tortish qobiliyati tasma bilan shkivlar orasidagi ishqalanish kuchi orqali aniqlanadi, tasma chidamliliği normal sharoitlarda foydalanishda tasmaning toliqishidan yemirilishi bilan chegaralanadi. Hozirgi davrda tasmali uzatmalar uchun tortish qobiliyati bo'yicha hisoblash asosiy hisoblanadi. Tasmaning chidamliligi uzatmaning parametrlarini tanlashda amaliy tavsiyalar asosida qabul qilinadi.

## Tasmali uzatmaning kinematik va geometrik parametrlari

**Tasmali uzatmaning kinematikasi.**  
Tasma shkivlaridagi aylana tezliklar

$$v_1 = \frac{\pi d_1 n_1}{60}, \quad v_2 = \frac{\pi d_2 n_2}{60}. \quad (1.1)$$

Tasmaning elastik sirpanishi  $\varepsilon$  e'tiborga olinsa,

$$v_2 = v_1 (1 - \varepsilon). \quad (1.2)$$


bu yerda,  $\varepsilon$  – sirpanish koeffitsienti. Tasmali uzatmaning uzatish nisbati

$$i = \frac{n_1}{n_2} = \frac{v_1 d_2}{v_2 d_1} = \frac{d_2}{d_1 (1 - \varepsilon)}. \quad (1.3)$$

$\varepsilon$  ning qiymati amalda  $\varepsilon \approx 0,01 - 0,02$  bo'lsa, ifodani quyidagicha yozishimiz mumkin,

$$i = \frac{d_2}{d_1}. \quad (1.4)$$

### Tasmali uzatmaning geometrik parametrlari



1.2-shakl. Tasmali uzatmaning geometrik o'lchamlari

Tasmali uzatmaning geometrik o'lchamlarini hisoblashda (1.2-shakl), odatda,  $d_1$ ,  $d_2$  va tasma uzunligi  $l$  aniqlanadi. Tasma cho'zilib qolishi sababli  $\alpha$  va  $l$  ning qiymatlari aniq bo'lmaydi, ulamining taxminiy hisobi aniqlanadi:

$$\alpha = 180^\circ - \beta; \quad \sin\left(\frac{\beta}{2}\right) = \frac{(d_2 - d_1)}{2a},$$

bu yerda,  $\alpha$  – tasmaning kichik shkvini qamrash burchagi,  $\beta$  – tasma tarmoqlari orasidagi burchak. Amalda  $\frac{\beta}{2}$  ning qiymati  $15^\circ$  dan katta bo'l-maganligi uchun sinusning qiymatini uning argumentiga teng qilib olamiz:

$$\beta \approx \frac{d_2 - d_1}{a} \text{ (рад)} \approx 57 \frac{d_2 - d_1}{a}.$$

Bunda

$$\alpha = 180^\circ - 57 \frac{(d_2 - d_1)}{a}, \quad (1.5)$$

yoki

$$\alpha = 180^\circ - \frac{57d_1(i-1)}{a}.$$


Tasmaning uzunligi to'g'ri chiziqli qismlar va qamrash yoylari yig'indi-si ko'rinishida aniqlanadi:

$$l \approx 2a + 0,5\pi(d_2 + d_1) + \frac{(d_2 - d_1)^2}{4a}. \quad (1.6)$$

Tasmaning berilgan uzunligida o'qlararo masofa quyidagicha ifodala-nadi:

$$a = \frac{2l - \pi(d_2 + d_1) + \sqrt{[2l - \pi(d_2 + d_1)]^2 - 8(d_2 - d_1)^2}}{8}. \quad (1.7)$$

## 1.2. Tasma tarmoqlaridagi kuchlar va ular orasidagi munosabat



1.3-shakl. Tasma tarmoqlaridagi kuchlar

1.3-shaklda tasma tarmoqlarining ikki holdagi yuklanishi ko'rsatilgan  $T_1=0$  (1.3-a shakl) va  $T_1>0$  (1.3-b shakl). Bu yerda,  $F_0$  – tasmaning dastlabki tarangligi;  $F_1$  va  $F_2$  yuklanish uzatayotgan uzatmada yetaklovchi va yetaklanuvchi tarmoq tarangliklari;  $F_r = \frac{2T_1}{d_1}$  – uzatmadagi aylana kuch.

Shkivning muvozanat shartidan  $T_1 = 0,5d_1(F_1 - F_2)$

$$\text{yoki} \quad F_1 - F_2 = F_r. \quad (1.8)$$

$F_0$ ,  $F_1$  va  $F_2$  kuchlar orasidagi munosabatni quyidagi mulohazalar asosida aniqlash mumkin.

Tasmaning geometrik uzunligi yuklanishga bog'liq bo'lmaydi va yuklanishsiz holda ham, yuklanish uzatganda ham o'zgarmas bo'ladi. Demak, yetaklovchi tarmoqning cho'zilishi yetaklanuvchi tarmoqning teng qisqarishi bilan tenglashadi. Bundan

$$F_1 = F_0 + \Delta F, \quad F_2 = F_0 - \Delta F$$

yoki

$$F_1 + F_2 = 2F_0. \quad (1.9)$$

(1.8) va (1.9) tengliklardan

$$F_1 = F_0 + \frac{F_r}{2}, \quad F_2 = F_0 - \frac{F_r}{2}. \quad (1.10)$$

Uchta noma'lumli ikki tenglamali sistemani hosil qilamiz. Bu tenglamalar yetaklovchi va yetaklanuvchi tarmoqlarning tarangligini va  $F_r$  kuchga bog'liqligini aniqlaydi, lekin bu yuklanishning uzatish qobiliyatini yoki tasma bilan shkiv orasidagi ishqalanish kuchi bilan bog'liq uzatmani tortish qobiliyatini ochib bermaydi. Bunday aloqa L. Eyler tomonidan o'matilgan.

Eyler ta'lilotining asosiy natijalari:

$$F_1 = F_2 e^{f\alpha}; \quad (1.11)$$

$$F_1 = F_t \frac{e^{f\alpha}}{e^{f\alpha} - 1}; \quad F_2 = F_t \frac{1}{e^{f\alpha} - 1}; \quad F_0 = \frac{F_t}{2} \left( \frac{e^{f\alpha} + 1}{e^{f\alpha} - 1} \right). \quad (1.12)$$

(1.12) formulalar harakat uzatayotgan uzatma tarmoqlarining taranglik kuchlarini  $F_t$  yuklanish va ishqalanish omillari  $f$  va  $\alpha$  orasidagi bog'lanishlami o'rnatadi. Uning yordamida yana tasmaning minimal zarur tarangligi  $F_0$ ni berilgan yuklanish  $F_t$  qiymatida aniqlash imkonini beradi.

Agar

$$F_0 < \frac{F_t}{2} \left( \frac{e^{f\alpha} + 1}{e^{f\alpha} - 1} \right), \quad (1.13)$$

bo'sha, tasma to'la sirpanib, yetaklovchi shkiv aylanadi, yetaklanuvchi shkiv esa aylanmaydi.

(1.13) formuladan ko'rinishicha,  $f$  va  $\alpha$  ortishi uzatmaning ishlashi-shiga ijobji ta'sir ko'rsatadi. Bu hulosalar ponasmimon tasmalar va taranglovchi rolikli uzatma konstruksiyalarini yaratishga asos bo'lgan. Ponasmimon tasmali uzatmalarda tasmani shkiv ariqchalarida pona qilib joylashtirish hisobiga ishqalanish sun'iy oshiriladi. Tasmali uzatmalarda taranglovchi rolik o'rnatilib, qamrov burchagi  $\alpha$  oshiriladi.

Tasmada hosil bo'ladigan markazdan qochirma kuch

$$F_v = \rho A v^2, \quad (1.14)$$

bu yerda,  $\rho$  – tasma materialining zichligi;  $A$  – tasma ko'ndalang kesimi-ning yuzasi;  $v$  – tasma tezligi.

$F_v$  kuch dastlabki taranglik kuchi  $F_0$ ta'sirini kamaytiradi. U ishqalanish kuchini ham kamaytiradi va shu bilan uzatma yuklanish qobiliyatini pasaytiradi.

Hisoblarining ko'rsatishicha, markazdan qochma kuchlarni uzatma ishchanlik qobiliyatiga ta'siri katta tezliklar  $v > 20$  m/s da sezilarli bo'ladi.

### 1.3. Tasmadagi kuchlanishlar

Eng katta kuchlanish tasmaning yetaklovchi tarmog'ida hosil bo'ladi. Ular  $\sigma_1$ ,  $\sigma_v$  va  $\sigma_{eq}$  ning yig'indisidan iborat bo'ladi:

$$\sigma_l = \frac{F_l}{A}, \quad \sigma_v = \frac{F_v}{A} = \rho v^2. \quad (1.15)$$

(1.10) formula hisobga olinsa,  $\sigma$  kuchlanishni quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$\sigma_l = \frac{F_0}{A} + 0,5 \frac{F_t}{A} = \sigma_0 + 0,5 \sigma_t, \quad (1.16)$$

bundan


$$\sigma_t = \frac{F_t}{A}, \quad (1.17)$$

bu yerda,  $\sigma_t$  – foydali kuchlanish;  $\sigma_0$  – dastlabki taranglikdan kuchlanish. (1.8) formulaga binoan foydali kuchlanishni yetaklovchi va yetaklanuvchi tarmoqlardagi kuchlanishlarning ayirmasi ko'rinishida ko'rsatish mumkin:

$$\sigma_t = \sigma_1 - \sigma_2.$$

Tasmaning shkiv bukiladigan qismida eguvchi kuchlanish hosil bo'ladi (1.4-shakl). Guk qonuniga binoan,

$$\sigma_{eg} = \varepsilon E,$$



1.4-shakl. Tasmada eguvchi kuchlanish hosil bo'lishi

bunda:  $\varepsilon$  – nisbiy cho'zilish,  $E$  – tasma elastiklik moduli. Tasmaning nisbiy cho'zilishi

$$\varepsilon = \frac{\delta}{d},$$

bunda

$$\sigma_{eg} = E \frac{\delta}{d}, \quad (1.18)$$


bu yerda,  $\delta$  – tasma qaliligi;  $d$  – shkiv diametri.

(1.18) formulaga ko'ra, eguvchi kuchlanish qiymatini aniqlovchi asosiy omil tasma qaliligining shkiv diametriga nisbati bo'ladi. Bu nisbat qancha kam bo'lsa, tasmadagi eguvchi kuchlanish shuncha kichik bo'ladi.

Tasmani kichik shkivni qamrash nuqtasidagi yetaklovchi tarmoqdag'i jamlovchi maksimal kuchlanishi

$$\sigma_{max} = \sigma_I + \sigma_v + \sigma_{eg} = \sigma_0 + 0,5\sigma_I + \sigma_v + \sigma_{eg}. \quad (1.19)$$

Tasma uzunligi bo'yicha kuchlanishlarni taqsimlanish epyurasi 1.5-shaklda tasvirlangan.



1.5-shakl. Tasma uzunligi bo'yicha kuchlanishlarning taqsimlanish epyurasi

**Jamlovchi kuchlanishning alohida tashkil etuvchilarini uzatma tortish qobiliyati va tasma chidamliligiga ta'siri.** Uzatmaning tortish qobiliyati aylana kuchi  $F_1$  ni maksimal ruxsat etilgan qiymati yoki foydali kuchlanish  $\sigma$ , bilan tasniflanadi. (1.13) formulani hisobga olsak, to'la sirpanish bo'lmasslik shartidan ruxsat etilgan  $\sigma$ , ni dastlabki taranglikdan kuchlanish  $\sigma_0$  ortishi bilan oshishini anglash qiyin emas:

$$\sigma_t = 2\sigma_0 \frac{I^{t^\alpha} - 1}{I^{t^\alpha} + 1}. \quad (1.20)$$

Lekin amalda  $\sigma_0$  ortishi bilan tasmaning umrboqiyligi sezilarli pasayishi namoyon bo'ladi. Shu sababli tasmalar uchun quyidagilar tavsiya etiladi: ponasimon tasma uchun  $\sigma_0 \leq 1,5$  MPa, yassi tasma uchun  $\sigma_0 \leq 1,8$  MPa. Foydali kuchlanish (yuklanish) qiymatining tasma umrboqiyiliga ta'siri xuddi  $\sigma_0$  ta'siriga o'xshash bo'ladi,  $\sigma_0$  ning ko'rsatilgan tavsiya qiymatlarida  $\sigma_0$  ning ruxsat etilgan qiymatlari 2,0 – 2,5 MPa dan oshmaydi.

Markazdan qochirma kuchning kuchlanishini baholash uchun tasmaning zichligi e'tiborga olinsa,  $\rho \approx 1000$  kg/m<sup>2</sup> – ip gazlama, jun va charm tasmalar uchun:  $\rho = 1100$ – $1250$  kg/m<sup>3</sup> – rezina to'qimali yassi va ponasimon tasmalar uchun.

Hisoblarda  $\rho = 1000$  kg/m<sup>2</sup> olinsa,

$v = 10$  m/s da  $\sigma_v = 0,1$  MPa;

$v = 20$  m/s da  $\sigma = 0,4$  MPa;

$v = 40$  m/s da  $\sigma_v = 1,6$  MPa bo'ladi.

Shunday qilib, amalda ko'p tarqalgan o'rta tezlikda ishlaydigan ( $v \leq 20$  m/s) va sekinyurad ( $v < 10$  m/s) tasmali uzatmalar uchun markazdan qochirma kuchdan hosil bo'lgan kuchlanish sezilarsiz bo'ladi.

Tasmaning egilishdan hosil bo'lgan kuchlanishni baholash uchun (1.18) formula bo'yicha  $E$  o'rta qiymatini ( $E$  ning qiymati tasmaning turli materiallari uchun 100–350 MPa)  $E = 200$  MPa olamiz. Unda

$d/\delta = 200$  da  $\sigma_{eq} = 1$  MPa;

$d/\delta = 100$  da  $\sigma_{eq} = 2$  MPa;

$d/\delta = 50$  da  $\sigma_{eq} = 4$  MPa;

$d/\delta = 25$  da  $\sigma_{eq} = 8$  MPa.


Jamlovchi kuchlanishni alohida tashkil etuvchilarli qiymatlarini solishtirsak va tasmali uzatmalarni ixcham bo'lish talabidan kelib chiqib,  $\frac{d}{\delta}$  ning ki-

chik qiymati qabul qilishni e'tiborga olinsa, eguvchi kuchlanishning qiymati boshqa kuchlanishlardan eng katta bo'lishini ta'kidlash mumkin. Ko'pincha bu kuchlanish qiymati tasmadagi boshqa kuchlanishlar qiymatidan bir necha baravar ortiq bo'ladi.

$\sigma_0$  va  $\sigma$ , dan farq qilib  $\sigma_{eg}$  ning ortishi uzatmaning tortish qobiliyatini oshishiga olib kelmaydi. Aksincha, eguvchi kuchlanishlar, davriy o'zgaruvchan bo'lib, tasmani toliqishdan yemirilishining asosiy sababchisi bo'ladi.

Aslida  $\sigma_{eg}$  ning qiymatini  $d/\delta$  ning nisbatini minimal ruxsat etilgan qiymatlar yordamida cheklashga harakat qilinadi [27-betga qarang].

Tasmaning umrboqiyligi kuchlanishlar qiymatidan tashqari, buklanishning xarakteri va o'zgarish siklining takrorlanishlariga ham bog'liq bo'ladi (1.6-shakl).



1.6-shakl. Tasma tarmoqlaridagi kuchlanishlarning o'zgarishi

Kuchlanishlar siklining takrorligi tasmaning o'tishlar takroriyliklari teng bo'ladi:

$$U = \frac{v}{l}, \quad (1.21)$$

bunda:  $v$  – aylana tezlik;  $l$  – tasma uzunligi.

$U$  qancha katta bo'lsa, tasmaning umrboqiyligi shuncha kam bo'ladi. Shu sababli, tasmaning o'tishlar takroriyliklariga chegaralar qo'yilgan:

$$\text{yassi tasmalar uchun } U \leq 3 - 5 \text{ s}^{-1}; \quad (1.22)$$

$$\text{ponasimon tasmalar uchun } U \leq 10 - 20 \text{ s}^{-1}$$


*U* ning ruxsat etilgan qiymatlari tasmaning minimal uzunligi yoki o'qlararo masofaning kamayishiga sabab bo'ladi. O'qlararo masofalar maxsus tavsiyalardan tanlanadi. Tasmaning qizishi ham mustahkamligi pasayishiga sabab bo'ladi.

Tasmali uzatmadan foydalanish amaliyotida asosiy parametrlarni tashlash bo'yicha yuqoridaqgi tavsiyalarga rioya qilinganda, tasmali uzatmaning umrboqiyligi 2000–3000 soatga teng bo'ladi.

#### 1.4. Tasmali uzatmadagi sirpanish. Uzatmaning taranglash usullari

Rus olimi N. E. Jukovskiyning tadqiqotlari tasmali uzatma tasmasini shkivda ikki xil sirpanishini isbotladi: elastik sirpanish va to'la sirpanish. To'la sirpanish faqat o'ta yuklanish hollarida sodir bo'ladi.

Elastik sirpanish tabiatini quyidagi tajribalaridan tushunish mumkin. 1.7-shaklda to'xtatilgan shkivdagi tasma tasvirlangan.




1.7-shakl. Tasmaning shkivda elastik sirpanishi

*T* to'xtatish momenti. Tajriba boshlanishida tasma uchlariga teng yuklar  $G$  osiladi. Bu yuklar ta'sirida shkiv va tasma orasida ma'lum bosim va unga mos bo'lgan ishqalanish kuchi hosil bo'ladi. Tasmaning chap tarmog'iiga qo'shimcha yuk  $G_1$  osiladi. Agar yuk tasma bilan shkiv orasidagi ishqalanish kuchidan katta bo'lsa, muvozanat holati buziladi va tasma shkivdan sirpanib tushadi. Aksineha bo'lsa, muvozanat holati saqlanadi. Biroq, istalgan kichik yuk  $G_1$  osilsa, tasmaning chap tarmog'i biror qiymatga

qo'shimcha cho'ziladi. Nisbiy cho'zilish qiymati tasma erkin tarmog'i uchun doimiy bo'lib, qamrash yoyi bo'yicha asta-sekin kamayib boradi va biror nuqtada nolga tenglashadi.  $C$  nuqtaning holati  $G_1$  yuk va  $AC$  yoy bo'ylab tasmaga qo'yilgan uumumiy ishqalanish kuchining tenglik shartidan aniqlanadi. Tasmaning qo'shimcha elastik cho'zilishi uning shkivda sirpanishi bilan birga boradi. Bu sirpanish elastik sirpanish,  $AC$  yoyi esa elastik sirpanishi yoyi deyiladi.  $BC$  yoyida tasma tinch holatda bo'ladi. Bu yoyni tinch turish yoyi deyiladi. Elastik sirpanish va tinch turish yoylarining yig'indisi qamrov burchagi  $\alpha$  bilan aniqlanadigan yoya teng bo'ladi.  $G_1$  qancha katta bo'lsa, elastik sirpanish yoyi shuncha katta va tinch yoy kichik bo'ladi.  $G_1$  ning qiymati ishqalanish kuchining zaxirasiga teng bo'lsa, tinch yoy nolga teng bo'ladi, elastik sirpanish yoyi esa qamrov burchagini hammasiga tarqaladi, bunda muvozanat buziladi (to'la sirpanish).

Bu tajriba misoliga o'xshash, harakat uzatayotgan tasmani uzatmada  $G$  yuklar rolini yetaklanuvchi tarmoq taranglik kuchi  $F_2$ , qo'shimcha yuk  $G_1$  rolini esa aylana kuch bajaradi. Yuklanish natijasida hosil bo'ladian yetaklovchi va yetaklanuvchi tarmoqlar tarangligining ayirmasi tasmali uzatmada elastik sirpanishni hosil qiladi. Bunda elastik sirpanish yoyi tasmaning uzoqlashayotgan tarmog'i tarafda joylashadi, yetaklanuvchi shkivning yuklanishi 1.7-shaklda ko'rsatilganga o'xshash bo'ladi.



1.8-shakl. Tasma tarmoqlarida elastik sirpanishning joylashishi

Yuklanish uzatmayotgan uzatmada tasmaning biror  $\lambda$  uzunligi belgilanadi va yuklanish beriladi: Belgilangan qism yetaklovchi tarmoqdan o'tsa,  $(\lambda + \Delta)$ ga cho'ziladi, yetaklanuvchi tarmoq esa  $(\lambda - \Delta)$ ga qisqaradi. Shkiv aylana tezliklari tinch turish yoyi qismida tasma bilan birgalikda harakatlansini e'tiborga olinsa,

yetaklanuvchi shkiv uchun  $v_1 = (\lambda + \Delta)/t$ .

yetaklanuvchi shkiv uchun  $v_2 = (\lambda - \Delta)/t$

yoki  $v_1 < v_2$ ,

bu yerda,  $t_1$  – tasma belgilangan qismining shkivlarni qamrash vaqt. Tezliklar farqi (1.2) va (1.3) formulalarda sirpanish koeffitsienti  $\varepsilon$  bilan hisobga olinadi. Yuklanish ortishi bilan ( $\Delta$  ortadi) aylana tezliklar farqi ortadi, uzatish nisbati esa o'zgaradi. Elastik sirpanish tasmalni uzatmadagi uzatish nisbatining biroz o'zgaruvechanligiga sabab bo'ladi va ish-qalanishdagi yo'qotishlarni ko'paytiradi.

**Uzatmadagi yo'qotishlar va foydali ish koeffitsienti.** Tasmalni uzatmadagi quvvat yo'qotishlari – val tayanchlaridagi yo'qotishlar tasmaning shkivlarda sirpanishi, deformatsiya, asosan, eguvchi kuchlanishda deformatsiyaning davriy o'zgarishlari, tasmadagi ichki ishqalanish tufayli hamda tasma va shkivlar harakatidagi havo qarshiligidan hosil bo'ladi.

Bu hamma yo'qotishlarni hisobiy yo'l bilan baholash qiyin, shu sababli tasmalni uzatmaning foydali ish koeffitsienti ekperimental yo'l bilan aniqlanadi.


Tavsiyalarda ko'pincha yassi tasmalni uzatmalar uchun  $\eta = 0,97$ , ponasimon tasmalni uzatmalar uchun  $\eta = 0,96$  bo'ladi.

**Tasmalni uzatmaning sirpanishi va foydali ish koeffitsientlari egri chiziqlari.**

Tasmalni uzatmaning ishchanlik qobiliyatini sirpanish va foydali ish koeffitsientlari egri chiziqlari (1.9-shakl) bilan tasniflash qabul qilingan. Bunday egri chiziqlar turli tip va materiallaridan tayyorlangan tasmalarni sinnov natijalaridan hosil bo'lган. Grafikda ordinata o'qi bo'yicha nisbiy sirpanish  $\varepsilon$  va foydali ish koeffitsienti  $\eta$  qo'yilgan, abssissa o'qi bo'yicha tortish koeffitsienti  $\varphi$  orqali ifodalangan uzatma yuklanishi qo'yilgan:

$$\varphi = \frac{F_t}{2\varphi_0} = \frac{\sigma_t}{2\sigma_0}.$$

Tortish koeffitsienti  $\varphi$  dastlabki taranglik  $F_0$  ning qanday qismi uzatmada foydali yuklanish  $F_t$  uchun sarf bo'lishini baholashga imkon beradi, ya'ni uzatmaning yuklanish darajasini tasniflaydi. Uzatmaning yuklanishini o'lchamsiz koeffitsient  $\varphi$  orqali ifodalashning maqsadga muvofiqligini sirpanish va foydali ish koeffitsienti yuklanishning absolyut qiymati emas, aynan uzatmaning yuklanish darajasi bilan bog'liqligi bilan tushuntiriladi.



1.9-shakl. Tasmali uzatmaning sirpanish va foydali ish koeffitsientlari egri chiziqlari

Sirpanish egri chizig'ining boshlang'ich qismida 0 dan  $\varphi_0$  gacha faqat elastik sirpanish kuzatiladi. Tasmaning elastik deformatsiyalari taqriban Guk qonuniga bo'ysungani uchun, bu qism to'g'ri chiziqliga yaqin bo'ladi. Yuklanishning keyingi ortishi dastlab qisman, keyin esa to'la sirpanishga olib keladi.  $\varphi_0 - \varphi_{max}$  qismida ham elastik, ham to'la sirpanish kuzatildi. U  $\varepsilon$  ning to'g'ri chiziq qismi bilan tutash shtrix chiziq bilan ko'rsatilgan.

Uzatmaning ishchi yuklanish qiymatini tasmali uzatma ish sharoiti yuklanish qiymati  $\varphi_0$  ning kritik qiymati zonasida va undan chap tomonda tanlash tavsiya etiladi. Bu qiymatga foydali ish koeffitsientining ham eng katta qiymati mos keladi. Qisman to'la sirpanishda ishlashga faqat qisqa muddatli o'ta yuklanish holatlarida, masalan, mashi-nani ishga tushurishda ruxsat etildi. Bu zonada foydali ish koeffitsienti tasma sirpanishidan yo'qotilish oshishi sababidan keskin pasayadi, tasma esa tez yeyiladi. Qisman to'la sirpanish zonasining o'lchami uzatma-ning qisqa muddatli o'ta yuklanishni qabul qilish qobiliyatini tasniflaydi.

$\frac{\varphi_{max}}{\varphi_0}$  ning tasmalar uchun qiymati:

- yassi charm va jun tasmalar uchun – 1,35–1,5;
- rezina to'qimali yassi tasmalar uchun – 1,15–1,3;
- ip-gazlama yassi tasmalar uchun – 1,25–1,4;
- ponasimon tasma uchun – 1,5–1,6.

Uzatmaga qanchalik katta yuklanish tushsa, sirpanish hodisasi shunchalik ko'p seziladi. Agar harakatdagi uzatmaning yetaklanuvchi shkivdagi qarshilik momenti ma'lum qiymatdan ortib ketsa, shkiv butunlay aylanmay qo'yadi. Bu holatda tasma yetaklanuvchi shkiv ustidan sirpanib ketadi. Bu hodisa **to'la sirpanish hodisasi** deyiladi. Tasmaning bunday sharoitda ish-lashiga yo'l qo'ymaslik kerak.

**Tasmadagi ruxsat etilgan foydali kuchlanish.** Sirpanish egri chiziqlari bo'yicha  $\sigma_0$  ni aniqlab, sinalayotgan uzatma uchun ruxsat etilgan foydali kuchlanish aniqlanadi:

$$[\sigma_t]_0 = \frac{2\varphi_0\sigma_0}{S}, \quad (1.23)$$

bu yerda,  $S \approx 1,2-1,4$  – to'la sirpanish bo'yicha tortish qobiliyatining zaxirasi.

Yassi tasmalar uchun ruxsat etilgan foydali kuchlanish qiymati  $\sigma_0 = 1,8$  MPa holat uchun 1.1 – jadvalda ko'rsatilgan.

*1.1-jadval*

Yassi tasmalar uchun ruxsat etilgan foydali kuchlanish

Tasma turi	$d_t/\delta$									
	20	25	30	35	40	45	50	60	75	100
1. Rezina to'qimali	–	(2,1)	2,17	2,21	2,25	2,28	2,3	2,33	2,37	2,4
2. Charm	(1,4)	1,7	1,9	2,04	2,15	2,23	2,3	2,4	2,5	2,6
3. Ip-gazlama	(1,35)	1,5	1,6	1,67	1,72	1,77	1,8	1,85	1,9	1,95
4. Jun	(1,05)	1,2	1,3	1,37	1,47	1,47	1,6	1,55	1,6	1,65

*Eslatma.* 1.  $\sigma_{t0} = 2.0$  MPa bo'lsa,  $[\sigma_t]_0$ ning jadvaldagisi oshiriladi,  $\sigma_{t0} = 1,6$  MPa da esa 10% ga kamaytirish zarur bo'ladi. 2. Plastmassa va yog'ochdan tayorlangan shkivlar uchun  $[\sigma_t]_0$  taxminan 20% ga oshiriladi. 3. Nam va chang xonalarda ishlaganda  $[\sigma_t]_0$  10...30% ga kamaytiriladi.

Tipovoy uzatma uchun  $[\sigma_t]_0$  qiymatidan loyihalanayotgan uzatma uchun ruxsat etilgan foydali kuchlanishga o'tish tuzatuvchi koefitsientlar yordamida amalga oshiriladi:

$$[\sigma_t] = [\sigma_t]_0 C_\alpha C_v C_p C_0, \quad (1.24)$$

bu yerda,  $C_a$  – qamrov burchagi koeffitsienti. Qamrov burchagi kamayishi bilan uzatma tortish qobiliyatining pasayishi hisobga olinadi:

$\alpha_1$ grad	150	160	170	180	200	220
$C_a$	0,91	0,94	0,97	1,0	1,1	1,2

$C_v$  – tezlik koeffitsienti faqat avtomatik taranglanmaydigan uzatmalar uchun kiritiladi va markazdan qochirma kuch ta'siridan tasmaning shkivga siqilishining kamayishini hisobga oladi:

$V_1$ m/s	5	10	15	20	25	30
$C_v$	1,03	1,00	0,95	0,88	0,79	0,68

$C_p$  – yuklanish sharoiti koeffitsienti, yuklanish davriy tebranishlarini tasma umrboqiyligiga ta'sirini hisobga oladi:

Yuklanish	Tekis	Past tebranishlar	Sezilarli tebranishlar	Zarbli va tez o'zgaruvchan
$C_p$	1 – 0,85	0,9 – 0,8	0,8 – 0,7	0,7 – 0,6


$C_0$  – tasmani taranglash usuli va uzatma o'qlarini gorizontga nisbatan qiyaligini hisobga oluvchi koeffitsient (vertikal uzatmalarda tasmaning o'z massasi uni pastki shkivga siqilishini kamaytiradi):

Uzatma markazining gorizontga nisbatan qiyaligi	0 – 60°	60 – 80°	80 – 90°
Avtomatik taranglanadigan uzatmalar, $S_0$	1	1	1
Davriy taranglanadigan uzatmalar $S_0$	1	0,9	0,8


(1.24) formula hamma tipdag'i tasmali uzatmalar uchun umumiyyidir. Amalda bu ko'rinishda formula faqat yassi tasmali uzatmani hisoblashda ishlataladi. Ponasi mon tasmali uzatmani hisoblash esa quyida ko'rildi.

**Tasmani taranglash usullari.** Yuqorida  $F_0$  ni taranglash qiymati uzatmaning umrboqiyligi, tortish qobiliyati va foydali ish koeffitsientiga sezilarli ta'sir etishi ko'rilgan edi. Eng samarali va uzoq ishlaydigan uzatmalar ishqalanish koeffitsienti zaxirasi kichik ( $F_0$  ning zaxirasi kichik) uzatmalar bo'ladi. Amalda ko'p tasmali uzatmalar yuklanish sharoitida ishlaydi, uzatmaning hisobi esa yuklanishlardan eng maksimali bo'yicha bajariladi. Bunda dastlabki tarangligi o'zgarmas bo'lgan uzatmalarda yuklanish kamaygan sharoitlardagi ortiqcha yuklanish umrboqiylik va foydali ish koeffitsientini pasaytiradi. Shu nuqtayi nazardan, tasmaning tarangligi yukla-

nish o'zgarishi bilan avtomatik o'zgaradigan uzatma konstruksiyalar maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda  $F/F_0 = \text{const}$  bo'ladi. Bunday uzatma 1.10-shaklda ko'rsatilgan. Bunda tasmali uzatma tishli uzatma bilan aralash qo'llangan. Shkv 1 tebranuvchi richag 2 ga o'rnatilgan, bu richag bir vaqtda tishli uzatma yetaklanuvchi g'ildiragi 2 ning o'qi bo'ladi. Tasmaning tarangligi  $2F_0$  tishli uzatma ilashmasidagi aylana kuchga teng bo'ladi, ya'ni yuklanish momentiga proporsional bo'ladi. Uzatmaning afzalligi – markazdan qochirma kuchlar tortish qobiliyatiga ta'sir etmaydi (uzatma katta tezliklarda ishlashi mumkin). Uzatmaning kamchiliklari: konstruksiyaning murakkabligi va o'ta yuklanish holatlarida buzilishdan o'zini asrash qobiliyatining yo'qolishi.




1.10-shakl. Avtomatik taranglanadigan tasmali uzatma



1.11-shakl. Tarangligi elektrodvigatel massasi bilan avtomatik boshqariladigan tasmali uzatma

1.11-shaklda ko'rsatilgan uzatmaning tarangligi avtomatik ravishda doimiy saqlab turiladi. Bunda taranglik tebranadigan plitada o'rnatilgan elektrodvigatel massasi bilan amalga oshiriladi. Doimiy taranglik taranglanuvchi rolikli uzatmalarda ham ta'minlanadi (1.14, g-shaklga qarang).

Taranglashning uchinchi usuli tasmani davriy tortish (cho'zilishiga qarab) bo'lib, bu usul vint va unga o'xshash qurilma vositasida amalga oshiriladi (1.12-shakl).




1.12-shakl. Tasma tarangligini vint yordamida sozlash

Bunda dvigatel plita yo'naltiruvchilarida harakatlanadi. Davriy taranglash uchun uzatmani muntazam ravishda kuzatish zarur bo'ladi. Agar uzatmani kuzatish amalga oshirilmasa, unda to'la sirpanish va tasmaning yejilishi sodir bo'lishi mumkin.

**Tasmali uzatma val va tayanchlariga tushadigan yuklanish.** Tasma tarmoqlaridagi taranglik kuchlari ( $F_1$  dan tashqari) tasmali uzatmaning val va tayanchlariga tushadi (1.13-shakl). Bu yuklanishning teng ta'sir etuvchisi

$$F_r = \sqrt{F_1^2 + F_2^2 + 2F_1F_2 \cos \beta} \approx 2F_0 \cos\left(\frac{\beta}{2}\right). \quad (1.25)$$

Odatda,  $F_r$  kuch  $F_1$ dan 2–3 bor katta bo'ladi (tishli uzatmada  $F_r \approx F_1$ ). Bu narsa tasmali uzatmaning kamchiliklaridan biri hisoblanadi.




1.13-shakl. Tasmali uzatma val va tayanchlariga tushadigan yuklanish

## 1.5. Yassi tasmalı uzatmalar

Bunday uzatmalarda ishlataladigan tasmalar ko'ndalang kesimining yon tomoni eniga qaraganda sezilarli darajada kichik bo'lgan to'g'ri to'rtburchakdan iborat. Shuning uchun ham ular **yassi tasmalar** deb yuritiladi.

Ponasimon tasmali uzatmalar paydo bo'lguna qadar yassi tasmali uzatmalar ko'p qo'llangan. Ular oddiy tuzilgan, katta tezlikda ishlashi mumkin, tasmaning katta qayishqoqligi tufayli nisbatan yuqori umrboqiylikka va foydali ish koeffitsientiga ega bo'ladi. Mashinasozlikda eni 15 mm dan 1200 mm gacha bo'lgan yassi tasmalar ishlataladi.

**Yassi tasmali uzatmaning turlari.** Yassi tasmali uzatma sxemalarining ko'plab turlari qo'llanadi. Bu sxemalardan eng tipiklarini ko'rib chiqamiz. Amalda ko'pincha oddiy tuzilgan ochiq uzatma (1.14-a shakl) ko'p qo'llaniladi.



1.14-shakl

Yassi tasmalı uzatmalar:

a – ochiq uzatma; b – ayqash uzatma; c – yarim ayqash uzatma; e – burchakli uzatma;  
f – pog'onasimon shkivli uzatma; g – taranglovchi rolikli uzatma

Ochiq uzatma vallar parallel joylashganda va shkivlar bir tomoniga aylanganda qo'llaniladi. Boshqa sxemalarga qaraganda bu sxemada qo'llangan tasmaning ishchanlik qobiliyati va umrboqiyligi yuqori bo'ladi. Ayqash uzatmada tasma tarmoqlari kesishadi (1.14-b shakl), shkivlar esa teskari tomoniga aylanadi; yarim ayqash uzatma (1.14-c shakl)da val o'qlari biron-bir burchakda ayqash bo'ladi. Burchakli uzatma (1.14-e shakl)da val o'qlari biron-bir burchakda kesishadi. Ayqash va burchakli uzatmalarda yetaklovchi va yetaklanuvchi tarmoqlarning qo'shimcha buklanishi, buralishi va o'zaro ishqalanishi oqibatida tasma tezroq yeyiladi. Bu uzatmalardagi yuklanish ochiq uzatmalar yuklanishining 70-80% idan ko'p olinmaydi.

Pog'onasimon shkivli boshqariladigan uzatma (1.14-f shakl) uzatish nisbatini boshqarish zarur bo'lgan hollarda qo'llanadi.

Taranglovchi rolikli uzatma (1.14-g shakl) kichik o'qlararo masofa va katta uzatish nisbatlarida qo'llanadi. U avtomatik ravishda tasmaning doimiy tarangligini ta'minlaydi. Bu uzatmada qamrov burchagi  $\alpha$ , demak, tasmaning tortish qobiliyati ham o'qlararo masofa va uzatish nisbatiga bog'liq bo'lmaydi. Amalga oshirish mumkin bo'lgan  $\alpha$  va  $i$  ning xohlagan qiymatida  $\alpha > 180^\circ$  ni olish mumkin. Taranglovchi rolikni tasmaning yetaklanuvchi tarmog'iga o'rnatish tavsiya etiladi. Bunda rolikni tasmaga siqish uchun zarur bo'lgan kuchning qiymati kamayadi, tasmaning rolikda qo'shimcha bukilishi esa tasma umrboqiyligiga kam ta'sir etadi, chunki yetaklanuvchi tarmoq kam yuklanadi. Bunday uzatmaning asosiy kamchiligi tasma umrboqiyligining teskari ishorali qo'shimcha buklanishidan kamayishi hisoblanadi. Taranglovchi rolikli uzatmaning qo'llanishi ponasimon tasmalni uzatma ixtiro etilgandan so'ng ancha kamaydi, chunki ular ham  $\alpha$  ni kamaytirib  $i$  ni qisqarishiga imkon beradi.

**Yassi tasmalarning asosiy turlari.** Mashinasozlikda yassi tasmalarning quyidagi turlari ishlataladi.

**Charm tasmalar** yaxshi tortish qobiliyati va yuqori chidamlilikka ega. Ular o'zgaruvchan yuklanish ta'sir etadigan va tezligi 40–45 m/s bo'lgan uzatmalarda ishlataladi. Charm tasmalarning kamchiligi shundan iboratki, ularni yuqori haroratli va zax joylarda ishlatib bo'lmaydi. Charm tasmalarning yuqori narxi va kamyobligi ularning qo'llanishini sezilarli kamaytiradi. Charm tasmalarning mustahkamlik chegarasi  $\sigma_v = 200 - 250$  MPa.

**Rezina to'qimali tasmalar.** Bu turdag'i tasmalar sanoatda eng ko'p tarqalgan. Ular nisbatan chidamli bo'lib, 30 m/s gacha tezlik bilan harakatlanadigan uzatmalarda ishlataladi.

Bu tasmalar vulkanizastiyalangan rezinalar yordamida bir-biriga yopishtirilgan bir necha qavat gazlamadan iborat. Tasma gazlama qismining elastiklik moduli rezinanikiga nisbatan katta bo'ladi va yuklanishning asosiy qismini qabul qiladi. Tasmada rezina gazlama qavatlari bir butun qilib yopishtiradi va zarur ishqalanish koeffitsienti hamda egiluvchanlikni ta'minlaydi, gazlama to'qimalarni buzilishdan saqlaydi. Tasmadagi gazlama qavatlari soni 2–9 ta bo'lishi mumkin. Bu tasmalar mustahkam, elastik, namlik va harorat o'zgarishlariga kam ta'sirchan bo'lib, charm tasmalarni almashtirishi mumkin. Rezina-to'qimali

tasmalarni yog'; benzin, kerosin va ishqor tushishidan asrash kerak, chunki bu moddalar rezinani buzishi mumkin. Bundan tashqari, ularni kichik diametrli shkivlarda ishlatib bo'lmaydi. Chunki bunday hollarda tasma qavatlari ajralib ketishi mumkin. Rezina-to'qimali tasmalarning mustahkamlik chegarasi  $\sigma_1 = 30 - 40$  MPa ni tashkil etadi.

**Ip-gazlama tasmalar.** Bu tasmalar bir necha qavat asos va maxsus tarkib (bitum, ozokerit) shimdirligani arqoqdan iborat yaxlit mato shaklida tayyorlanadi. Bunday tasmalar yengil va egiluvchan bo'lib, nisbatan kichik diametrli shkivlarda katta tezlik bilan ishlashi mumkin. Ip-gazlama tasmalarning tortish qobiliyati va chidamliligi rezinalangan tasmalardan past bo'ladi. Ular, asosan, kam quvvatli, tez harakatlanuvchi uzatmalarda ishlataladi. Bu tur tasmalar arzon turadi, ammo boshqa tasmalarga qaraganda tez ishdan chiqadi, chunki titilib ketadi. Bu tasmalarning mustahkamlik chegarasi 50 MPa dan kam bo'ladi.

**Jun tasmalar** – asosi ko'pqatlamli jun va maxsus tarkib (alif asosidagi surik bo'yog'i) shimdirligani ip-gazlama arqoqdan iborat to'qima. Jun tasmalar egiluvchan bo'lganligi uchun to'satdan o'zgaruvchan yuklanishli uzatadigan uzatmalarda, shkivlar diametri kichik bo'lganda ishlatalishi mumkin. Jun tasmalar harorat, namlik, chang, kislotalar ta'siriga kam ta'sirchan bo'ladi, lekin ularning tortish qobiliyati, boshqa tur tasmalardan past. Bu tasmalar quvvati o'rtacha va katta bo'lgan uzatmalarda ishlataladi.

**Yupqa qobiqli tasmalar** – poliamid smolalar asosidagi plastmassa va kapron yoki lavsan kordlardan iborat tasmaning yangi turi. Bu tasmalar yuqori statik mustahkamlik va toliqishga qarshilikka ega. Yupqa qalinlikda (0.4–1.2 mm) ular sezilarli yuklanish (15 kW gacha) uzatishi mumkin, shkivlarning kichik diametri va tezyurar uzatmalarda ( $v \leq 60$  m/s) ishlatalishi mumkin. Tasmaning tortish koefitsientini oshirish uchun maxsus friksion qoplama ishlataladi. Yupqa qobiqli tasmalar va kichik shkiv minimal diametrining qiymatlari quyidagi tavsiya bo'yicha qabul qilinadi:


$\delta$ , mm	0,4	0,5	0,6	0,7	0,8	0,9	1,0	1,1	1,2
$D_1$ , mm	28	36	45	56	63	75	80	90	100

**Tasma uchlarini ularish.** Yassi tasmalar ko'pincha uzun tasmalar tarzida tayyorlanadi va rulon holida saqlanadi. Shuning uchun uzatmalarda tasmalardan foydalanishda keragicha uzunlikdagi tasma qirqib olinib, ikki uchi ulanadi. Tasmali uzatmaning ishiga, ayniqsa, katta tezlikda tasma uch-

larini biriktirish (ulash) katta ta'sir etadi. Tasma uchlarini sifatsiz ulash uni muddatidan ilgari ishdan chiqishiga sabab bo'ladi va uzatmaning tortish qobiliyatini pasaytiradi. Tasma uchlarini ulash usullari uchta asosiy guruhga bo'linadi: tikish, yelimlash hamda metall ulagichlar vositasida ulash.

So'nggi yillarda sanoatda ma'lum uzunlikdagi uzlucksiz tasmalar ko'rinishida yassi tasmalar (masalan yupqa qobiqli) ishlab chiqarila boshlandi. Unday tasmalarning chidamliligi odatdagidan yuqori bo'lib, uzatmalaming tezligini oshirishga imkon beradi.

**Yassi tasmalni uzatmalarning shkivlari.** Shkivlar mumkin qadar yengil va mustahkam bo'lishi kerak. Tasmaning yeyilishini kamaytirish maqsadida shkivlarning sirtiga alohida ishlov beriladi. Shkivlar cho'yan, po'lat, yengil qotishma va plastmassadan tayyorlanadi. Eng ko'p tarqalgani quyma cho'yan shkivlardir. Ulardan tezligi 30 m/s gacha bo'lgan uzatmalarda foydalaniлади. Tezlik bundan ortiq bo'lganda po'lat shkiv (Cr-25J1 dan kam emas) ishlatish tavsiya etiladi. Juda katta tezlik bilan ishlaydigan uzatmalarda yengil (alyuminiy) qotishmalardan tayyorlangan shkivlar ishlatilgani ma'qul. Odatda, shkiv uchta asosiy qism: gardish (to'g'in) 1, gupchak 3 va kegay yoki disk 2 dan iborat bo'ladi (1.15-shakl).



1.15-shakl. Shkivning tuzilishi


Shkiv diametri hisobdan aniqlanadi va standart qiymat bo'yicha qabul qilinadi. Standart qator bo'yicha shkiv diametrining qiymatlari (mm da): 40; 45; 50; 56; 63; 71; 80; 90; 100; 112; 125; 140; 160; 180; 200; 224; 250; 280; 315; 355; 400; 450; 500; 560; 630; 710; 800; 900; 1000; 1120; 1250; 1400; 1600; 1800; 2000.

Shkiv gardishining eni  $B$  uzatmani hisoblashda aniqlanadi, qalinligi esa puxtalik va texnologik nuqtayi nazardan olinadi. Tasma shkiv gardishidan oson chiqib ketmasligi uchun shkivning sirti ma'lum darajada qavariq qilib tayyorlanadi (1.16-shakl). Qavariqlikning balandligi (salqiligi) 1.2-jadvaldan tanlanadi.

### Shkiv diametrining qavariqlik balandligi

Gardish eni $B$ , mm	Shkiv diametri				
	250 – 280	315 – 355	400 – 450	500 – 560	630 – 1000
125 gacha	0.8	1,0	1,0	1,0	1,0
125 dan 160 gacha			1,2	1,5	1,5
160 dan katta				2,0	

Gardishning chekkadagi qalinligi  $S = 0,005d + 3$  mm. Gardishning disk bilan ravon birikishi uchun chiqig'ining qalinligi (rist balandligi deyiladi)  $e = S + 0,02B$ .



1.16-shakl. Yassi tasma shkivining asosiy geometrik o'lchamlari

Gupchak o'lchamlari ( $d_1$ ,  $l_1$ ) teshik diametri  $d$  bilan quyidagicha bog'liq bo'ladi:

$$d_1 = (1,8 \div 2,0)d,$$

$$l_1 = (1,5 \div 2,0)d.$$

Diametri 300 mm gacha bo'lgan shkivlar, odatda, rist (spist)siz qili-nadi. Ular diskalarining qalinligi  $S_1 \approx (0,8 \div 1)S$ . Diametri 500 mm gacha bo'lgan shkivlarning spislari soni  $z = 4$ .  $d > 500$  mm da esa  $z = 6$  qilib tayyorlanadi. Sharqli ravishda  $F$ , kuchini  $z/3$  spislar qabul qiladi deb hisoblanadi. Elliptik kesimdagи spislар egilishga hisoblanadi. Spislар-

ning hisobiy kesimini shartli ravishda shkiv markazidan spist o'qiga perpendikulyar diametral tekislikda joylashtiriladi. Ellips o'qlarining nisbati  $a:h = 0,4$ .

Shartli kesmda bitta spistning qarshilik momenti:

$$W = \frac{\pi a h^3}{32} = \frac{\pi}{32} 0,4 h^3.$$

Mustahkamlik sharti:

$$\sigma_{eg} = \frac{3M_{eg}}{zW} = \frac{3F_id}{2zW} \leq [\sigma_{eg}],$$

bunda

$$h \geq \sqrt[3]{\frac{38F_id}{z[\sigma_{eg}]}}.$$

Gardishga yaqin kesimda ellips o'qlari o'lchamlari:

$$a_1 = 0,8; h_1 = 0,8 h.$$

### **Yassi tasmali uzatmalarni hisoblash**

Odatda, loyihalovchi hisobni bajarish uchun quvvat  $P_1$  (kW), aylanishlar takroriyliklari  $n_1$  ( $\text{min}^{-1}$ ), uzatish nisbati ( $i$ ) ma'lum bo'lishi kerak. Hisoblash natijasida shkiv diametrлari  $d_1, d_2$  o'qlararo masofa  $a$  va tasma turi hamda uning o'lchamlari ( $b, \delta, l$ ) aniqlanadi.

Hisoblash jarayonida yuqorida keltirilgan hamda quyidagi tavsiyalami e'tiborga olish kerak:

$\alpha \geq 150^\circ, i \leq 5$	ochiq uzatma uchun;
$i = 10; u \leq 8(10)s^{-1}$	taranglovchi rolikli uzatma uchun;
$a \geq 2(d_1 + d_2), u \leq 3(5)s^{-1}$	ochiq uzatmalarda;
$d_1/\delta \geq 25$	charm tasmalar uchun;
$\delta_1/\delta \geq 30$	rezina to'qimali tasma uchun.

Yassi tasmali uzatmalar quyidagi tartibda hisoblanadi:

1. Yetaklovchi shkivning diametri aniqlanadi:

$$d_1 = 6 \sqrt[3]{T_f} \text{ mm.}$$

bu yerda,  $T_f$  – yetaklovchi shkivdagи burovchi moment, Nm.

Topilgan qiymat bo'yicha  $d_1$  ning standart qiymati qabul qilinadi.

2. Yetaklanuvchi shkivning diametri hisoblanadi:

$$d_2 = d_1 i(1 - \varepsilon) \text{ mm}$$

bu yerda,  $\varepsilon$  – sirpanish koeffitsienti.

$d_2$  ning standart qiymatini qabul qilamiz.

3.  $d_1, d_2$  ning standart qiymatlari bo'yicha uzatish nisbatini hisoblaymiz:

$$i' = \frac{d_2}{d_1 (1 - \varepsilon)}.$$

Topilgan uzatish nisbatidan foydalanib, yetaklanuvchi shkivning haqiqiy aylanishlar takroriyligi aniqlanadi.

4.  $n_2$  ning qiymati dastlabki (kinematik hisobdagi) miqdoridan 5% gacha farq qilishi mumkin.

5.  $d_1, d_2$  larning qiymatidan o'qlararo masofa hisoblanadi:

$$a = 2(d_1 + d_2), \text{ mm.}$$

6. Tasmaning kichik shkivdagи qamrov burchagi hisoblanadi:

$$\alpha = 180^\circ - 57 \frac{d_2 - d_1}{a}.$$

7. (1.6) formula bo'yicha tasma uzunligi hisoblanadi.

8. Tasmaning tezligi aniqlanadi:

$$v = \frac{\pi d_1 n_1}{60} \text{ m.s.}$$

9. Ma'lum quvvat  $P_f$  kW va topilgan  $v$  asosida aylana kuch hisoblanadi:

$$F_f = \frac{P_f 10^3}{v_f} N.$$

10. 1.3–1.5-jadvallardan yassi tasma turini tanlaymiz.

**Rezina to'qimali yassi tasmalar (ГОСТ 23831-79 bo'yicha)**

Texnik xarakteristikalar	Gazlama qavat			
	Б-800	БКНЛ	ТА-150 TK-150	TK-200
1. Eni qavatining nominal mustah-kamligi, (N/mm): asosi bo'yicha; arqoq bo'yicha.	55 16	55 20	150 65	200 65
2. Qavatga tushadigan eng katta ruxsat etilgan yuklanish $P_0$ N/mm	3	3	10	13
3. Rezina qatlamlili qavatning hisobi y qalinligi, mm	1,5	1,2	1,2	1,3
4. Rezina qatlamlili qavatning sirt zichligi, kg/m <sup>2</sup>	1,6	1,3	1,3	1,4
5. Tasmaning B (mm) enidagi qavatlar soni: 20-71 80-112 125-560	3-5 3-6 3-6	3-5 3-6 3-6	- -- 3-4	- -- 3-4

**Eslatma.** 1. Qavat to'qimalari: Б-800 – ip-gazlama; БКНЛ – poliesfir va paxta; TK-150, TA-150, TK-200 sintetik.

2. Tasmaning eni standart qatorдан tanlanadi: 20; 25; 32; 40; 50; 63; 71; 80; 90; 100; 112; 125; 140; 160; 180; 200; 224; 250; 280; 315; 355; 400; 450; 500; 560 (qator ГОСТдан qisqartirilgan holda keltirilgan).

**Charm yassi tasmalar (ГОСТ 18679-73 bo'yicha)**

Qalinligi δ, mm	Eni b, m
3	16; 20; 25
3,5	32; 40; 50;
4	63; 71
4,5	80; 90; 100; 112
5	125; 140
5,5	160; 180; 200; 240; 250; 280; 355; 400; 450; 500; 560

## Ip gazlama tasmalar (ГОСТ 6982-75 dan)

Qalinligi δ, mm	Eni b, m
4,5	30; 40; 50; 60; 75; 90; 100
6,5	30; 40; 50; 60; 75; 90; 100; 115; 125; 150; 175
8,5	50; 60; 75; 90; 100; (115); 125; 150; (175); 200; (224); 250

**Eslatma.** Qavs ichida tasma enining tavsiya qilinmaydigan qiymatlari keltirilgan.

Tasma turi uchun jadvallardan olingan qiymatlar bo'yicha ( $z$  – qatlamlar soni,  $\delta_0$  – qatlam qalinligi,  $p_0$  – qavatga tushadigan eng katta yuklanish).

$$\delta = \delta_0 z \leq 0,025 d_1$$

shart tekshiriladi.

11. Tasma qavatining 1 mm eniga tushadigan ruxsat etilgan ishchi yuklanishi hisoblanadi:

$$[p] = p_n C_\alpha C_v C_p C_{n_0},$$

bu yerda,  $C_\alpha, C_v, C_p, C_{n_0}$  – koeffitsientlar qiymatlarini (1.24) formuladagi izohdan qarang.

12. Tasmaning eni hisoblanadi:

$$b \geq \frac{F_t}{z[p]},$$

hisoblab topilgan qiymat standart qator bo'yicha tanlanadi.

13. Tasmaning dastlabki tarangligi hisoblanadi:

$$F_0 = \sigma_0 b \delta,$$

bundan

$$\sigma_0 = 1,8 \text{ MPa}$$

olinadi.

14. Tasmaning yetaklovchi va yetaklanuvchi tarmoqlaridagi kuchlar hisoblanadi:

$$F_1 = F_0 + 0,5 F_t,$$

$$F_2 = F_0 - 0,5 F_t.$$

15. Tasmada hosil bo'ladigan kuchlanishlar hisoblanadi (1.15, 1.18, 1.19 formulalar):

$$\sigma_1 = \frac{F_1}{b\delta}, \quad \sigma_{eg} = E \frac{\delta}{d_1}, \quad \sigma_v = \rho v^2,$$

$$\sigma_{max} = \sigma_1 + \sigma_{eg} + \sigma_v.$$

16. Tasma umrboqiyligi hisoblanadi:

$$H_0 = \frac{\sigma_{-1}^6 10^7 C_i C_{yu}}{\sigma_{max}^6 \cdot 2 \cdot 3600 u} \text{ soat.}$$

bu yerda,  $u = \frac{V}{L}$  – tasma o'tishlar soni;  $C_i$  – uzatish nisbatini hisobga oluvchi koefitsient,  $C_i \approx 1,5 \sqrt[3]{i} - 0,5$ ;  $C_{yu}$  – yuklanish o'zgarishini hisobga oluvchi koefitsient, davriy o'zgaruvchan yuklanishida  $C_{yu}=2$ , o'zgarmas yuklanishda  $C_{yu} = 1$ ,  $\sigma_{-1}$  – tasmaning toliqish chegarasi, rezina to'qimali va charm tasmalar uchun  $\sigma_{-1} = 7 \text{ MPa}$ .

Tasmning umrboqiyligi  $N_0$  ni 2000 soatdan kam bo'lmasligi tavsiya etiladi.

17. Uzatmaning valiga tushadigan yuklanish hisoblanadi:

$$F_v = (2 \div 3) F_0 \sin \frac{\alpha_1}{2},$$


bunda uzatma avtomatik taranglansa 2, davriy taranglansa 3 olinadi.

18. Tasmali uzatma shkivining konstruktiv o'chamlari hisoblanadi. Bunda shkivning eni  $B = 1,1b + (5 - 15) \text{ mm}$ . Shkivning valga o'tkazildigan o'chami valning hisobidan aniqlanib, qolgan o'chamlari yuqorida keltirilgan tavsiyalardan hisoblab belgilanadi.

## 1.6. Ponasimon tasmali uzatmalar

O'qlararo masofa kichik, uzatish nisbati esa katta bo'lgan uzatmalarda yassi tasma qoniqarli ishlamaydi. Bunday hollarda ponasimon tasmodan foydalanish ma'qul bo'ladi. Shu sababli yuritmalarda ponasimon tasmali uzatma ko'proq tarqalgan.

**Konstruksiyaning prinsipial asoslari.** Bu uzatmada tasma ko'ndalang kesimi ponasimon yoki trapetsiya shaklida bo'lib, shkivning mos ariqchalarida joylashadi (1.1, 1.17-shakllar). Uzatmada bir yoki bir necha tasma bo'lishi mumkin. Eguvchi kuchlanishni kamaytirish maqsadida bitta qalin tasma o'miga bir necha yupqa tasmalarni qo'llash mumkin.



1.17-shakl. Ponasimon tasmaning shkiv ariqchasiga joylashuvi


Bunday tasmalar kiydiriladigan shkivlarda shu tasmalarga mos tayyorlangan ariqchalar bo'ladi. Lekin shkiv ariqchalarining chuqurligi tasma ko'ndalang kesimining balandligidan kattaroq bo'lishi kerak, chunki tasma shkivdagagi ariqchaga joylashganda, uning pastki sirti bilan shkiv orasida ochiq joy qolishi lozim. Shunday qilgandagina tasmaning ishchi hisoblangan yon yoqlari shkivdagagi ariqchaning yon yoqlariga butunlay yopishadi. Shu bilan birga tasma shkiv diametri  $D_1$  dan tashqariga chiqishi kerak emas, chunki, bu holda, ariqcha qirralari tasmani kesishi mumkin.

Shkivning hisobiy diametri tasma ko'ndalang kesim og'irlilik markazi yoki tasma eni  $b$  egilishdagi neytral qatlama joylashgan aylana diametri hisoblanadi. Shkiv ariqchasi shaklini aniqlovchi o'lchamlar ( $H$ ,  $\varphi$ ,  $b_p$ ,  $e$ ,  $f$ ,  $d_L$ ,  $d_p$ ) ni standartning mos jadvallaridan tasma ko'ndalang kesimi (ular ham standartdan olinadi) bo'yicha tanlanadi (1.6-jadval).

Ponasimon tasmaning qo'llanishida uzatmaning tortish qobiliyati ish-qlanishni oshirish hisobiga ko'paytiriladi. Tasma tarangligidan uni  $dl$  uzunlikdagi elementi shkivga  $dR$  kuch bilan siqilganda, aylana kuch yo'nalishida ta'sir etuvchi elementar ishqalanish kuchi 1.18-shaklda keltirilgan.


### 1.6-jadval

#### Ponasimon tasmali uzatma shkivi ariqchalarining (ГОСТ 20889-80 dan) o'lchamlari, mm da



Tasma		Ariqcha o'lchamlari				Ariqcha profil burchaklari			
						34°	36°	38°	40°
kesimi	$l$	$h$	$h_0$	$f$	$e$	$d_x$			
О	8,5	7,0	2,5	8,0	12,0	63–71	80–100	112–160	$\geq 180$
А	11,0	8,7	3,3	10,0	15,0	90–112	125–160	180–400	$\geq 450$
Б	14,0	10,8	4,2	12,5	19,0	125–160	180–224	250–500	$\geq 560$
В	19,0	14,3	5,7	17,0	25,5	200–315	200–315	355–630	$\geq 710$
Г	27,0	19,9	8,1	24,0	37,0	–	315–450	500–900	$\geq 1000$
Д	32,0	23,4	9,6	29,0	41,5	–	500–560	630–1120	$\geq 1250$

**Eslatma.** Shkiv eni  $B = (z - 1)e + 2f$ .  $z$  – tasmalar soni.



1.18-shakl. Shkivning elementar qismiga ta'sir etuvchi kuchlar

$$dF = dF_n f = dR f / \sin(\varphi/2).$$

O'xshash sharoitda yassi tasma uchun  $dF = dR f$ .


Bu formulalami taqqoslab, ponasimon tasmalari uzatmada  $\varphi$  ponasi burchagi kamayishi bilan ishqalanish ortishini ta'kidlash mumkin.

Qiymat

$$\frac{f}{\sin \frac{\varphi}{2}} = f' \quad (1.26)$$

keltirilgan ishqalanish ko'effitsienti deyiladi. Standart tasmalar uchun  $\varphi$  burchak  $40^\circ$  ga teng. Bunda

$$f' = \frac{f}{\sin 20} \approx 3f. \quad (1.27)$$




1.19-shakl. Tasma uzoqlashuvchi tarmog'ining qo'shimcha bukilishi

Tasmaning ponasimon shakli uning shkiv bilan ilashishini taxminan 3 marta oshiradi. Ilashish  $\varphi$  burchakni yana ham kamaytirib ortishiga

tasmaning shkiv ariqchalarida o'zi qisilib qolishi halaqit beradi. O'zi qisilib qolishda tasma uzoqlashuvchi tarmog'ida qo'shimcha egilish boladi (1.19-shakl), tasma qisilishidan u qo'shimcha bukiladi va tasma toliqishdan tez yemiriladi.

Shkiv ariqchasi profil burchagini aniqlashda tasma yon tomonida bosim notejis tarqalishi hisobga olinadi (1.20-shakl). Bunda tasmaning umrboqiyligi kamayadi. Bosimni tenglashtirish maqsadida ariqcha burchagi tasma profil burchagidan kichik olinadi. Ponasmimon tasmali uzatmalar shkivlari o'lchamlarida standart bo'yicha ariqchalar  $30\text{--}40^\circ$  burchakda tayyorlanadi.



1.20-shakl. Tasma yon tomonida  
bosimning notejis taqsimlanishi


Ponasmimon tasmali uzatmada ishqalanish sezilarli ortishi yassi tasmali uzatmaga nisbatan ancha kam qamrov burchaklarida ham yukanish qobiliyatini saqlab qolishga imkon beradi. (1.12) formulaga binoan,  $F_0 = \text{const}$  da bu uzatmalarning tortish qobiliyati (yoki  $F_t$  kuchning qiymati) quyidagi tartibda doimiy bo'ladi:

$$\alpha_n f' = \alpha_{vo} f,$$

bu yerda,  $\alpha_n$  va  $f'$  – ponasmimon tasmali uzatmaning qamrov burchagi va ishqalanish koeffitsienti;  $\alpha_{vo}$  va  $f$  shularning yassi tasmali uzatmaga tegishlisi.  $f' = 3f$  ekanligi, shartga binoan,  $\alpha_{vo} \geq 150$  bo'lishini e'tiborga olsak,


$$\alpha_n = \alpha_{vo} / 3 \quad \text{yoki} \quad \alpha_n \geq 50.$$

Amalda ponasmimon tasmali uzatmaning imkoniyatlaridan yaxshiroq foydalanish uchun  $\alpha_n \geq 120^\circ$ , ayrim holatlarda esa  $\alpha_n = 70^\circ$  gacha olish tavsiya etiladi. Ruxsat etilgan qamrov burchaklari  $\alpha$  ning kichik qiymatlari ponasmimon uzatmadan kichik o'qlararo masofada va katta uzatish nisbatida foydalanish hamda harakatni bir yetaklovchi shkivdan bir necha yetaklannuvgiga uzatish imkonini beradi (1.21-shakl).



1.21-shakl. Yetaklovchi shkivdan harakatni bir necha yetaklanuvchi shkivga uzatish

Ponasimon tasma konstruksiyasi eguvchi kuchlanishlarni kamaytirishi uchun yetarli elastiklikka ega va shu bilan bir vaqtida sezilarli bo'ylama va ko'ndalang bikirlilikka ega bo'lishi kerak. Ko'ndalang kesimi turlicha strukturali tasmalar ishlataladi. Eng tipik va ko'p tarqalgan kesim 1.22-shaklda tasvirlangan. Tasmaning asosiy tortuvchi elementi shnurli (yoki to'qimali) kord qatlami 1 hisoblanadi. Ular tasmaning elastikligini oshirishi uchun neytral qatlam  $b_p$  zonasida joylashgan. Tasmaning qobig'i 3 rezinalangan gazlamadan iborat bo'lib, u tasmaning mustahkamligini oshiradi va uni yeyilishidan asraydi. Rezina 2 to'ldiruvchi material sifatida tasmani yaxlit yagona qilib birlashtiradi va unga elastiklik beradi.



1.22-shakl. Ponasimon tasma

Ba'zi tasmalar 4 qismidan iborat bo'ladi: kord, rezina, tasmaning qobig'i, mata. Rezinalangan mata bir necha qavatdan iborat bo'ladi.

Ponasimon tasmalar uzlusiz yaxlit tasma ko'rinishida tayyorlanadi. Umumiyl vazifali uzatmalar uchun ГОСТ 12841-80 bo'yicha ponasimon tasmaning yetti turi: *O, A, B, В, Д, Г, Е* tayyorlanadi. Ular ko'ndalang kesim o'lchamlari bo'yicha farq qiladi. Kesim o'lchamlari mos ravishda *O* turdan *E* turgacha o'zgaradi 1.7-jadvalda misol tariqasida uchta kesim o'lchamlari ko'rsatilgan.

### Ponasimon tasma o'lchamlari

Tasma kesimi	h, mm	$b_o$ , mm	$b_p$ , mm	$I_s$ , mm		[ $d_p$ ] min. mm	A, m <sup>2</sup>	$q$ , kg/m
				min	max			
0	6	10	8,5	400	2500	63	$47 \cdot 10^{-6}$	0,06
A	8	13	11	500	4000	90	$81 \cdot 10^{-6}$	0,10
B	10,5	17	14	800	6300	125	$138 \cdot 10^{-6}$	0,81

*Eslatma:* A – kesim yuzasi;  $q$  – 1 m uzunlikdagi massa;  $I_p$  – neytral qatlarni bo'yicha hisobiy uzunlik;  $I_s$  uzunlik qatori, mm: 400, 450, 500, 560, 630, 710, 800, 900, 1000, 1120, 1250, 1400, 1600, 1800, 2000, 2240, 2500, 2800, 3150, 3550, 4000, 4500, 5000, 6000.

### Ponasimon tasmalari uzatmalarini hisoblash

Standart ponasimon tasmalarning tur o'lchamlari chegaralangan bo'l-gani sababli, har bir tasma tur o'lchami uchun ruxsat etilgan yuklanishi aniqlangan bo'lib, uzatmaning hisobi ГОСТ 1284.3 – 80° bo'yicha tasma turi va sonini aniqlashga keltirilgan.

Ponasimon tasmalari uzatmani loyihalovchi hisobini bajarish uchun uzatilayotgan hisobiy quvvat  $P_i$ , ishlatalish sharoiti, yetaklovchi shkiv aylanishlar takroriyligi  $n_i$  va uzatish nisbati  $i$  ma'lum bo'lishi kerak.

Hisoblash jarayonida quyidagi tavsiyalarga rioya qilish kerak:

$$\alpha \geq 120 \quad (90) \\ i \leq 7(10).$$

$$2(d_1 + d_2) \geq a \geq 0,55(d_1 + d_2) + h \quad (1.28)$$

bunda:  $h$  – tasma ko'ndalang kesiminining balandligi.

#### Uzatmani hisoblash tartibi.


1. Nomogramma bo'yicha tasma kesimi tanlanadi (1.23-shakl)
2. Yetaklovchi (kichik) shkiv diametri hisoblanadi

$$d_1 \approx (3 \div 4)\sqrt{T_1}, \text{mm}$$

Hisoblab topilgan qiymat standartdan tanlanadi (25-betga qarang).

3. Yetaklanuvchi shkiv diametri hisoblanadi:

$$d_2 = d_1 i (1 - \varepsilon)$$



1.23-shakl. Ponasimon tasma kesimini tanlash uchun nomogramma

$$d_2 = d_1(1 - \varepsilon).$$

$d_2$  ning qiymati standartdan tanlab olinadi.

4. Uzatish nisbatining haqiqiy qiymati aniqlanadi:

$$i = \frac{d_2}{d_1(1 - \varepsilon)}.$$

5. (1.28) formulalardagi tavsiyalardan o'qlararo masofaning oraliq qiymatlaridan dastlabki hisob uchun qabul qilinadi.

6. (1.6) formuladan tasma uzunligi hisoblanadi va standart qatordagi qiymatdan tanlab olinadi.

7. (1.7) formuladan o'qlararo masofaning aniqlashtirilgan qiymati hisoblanadi.

8. (1.5) formuladan qamrov burchagi hisoblanadi.

9. Bir tasma uzatishi mumkin bo'lgan nominal qiymat  $P_0$  aniqlanadi (ГОСТ 1284.3-80 dan).

10. Uzatmani ma'lum ishlatalish sharoitida bir tasma uzatishi mumkin bo'lgan quvvat hisoblanadi:

$$P_i = P_0 C_a C_s C_r / C_p,$$

bunda  $C_s$  – qamrov burchagini hisobga oluvchi koefitsient:

$\alpha$ , grad	180	170	160	150	140	130	120	110	100	90	80	70
$C_a$	1	0,98	0,95	0,92	0,89	0,86	0,82	0,78	0,73	0,68	0,62	0,56

$C_t$  – tasma uzunligi koefitsienti (ГОСТ 1284.3-80 dan olinadi);  $C_z$  – uzatish nisbati koefitsienti (ГОСТ 1284.3-80 dan);  $C_p$  – yuklanish sharoiti koefitsienti.

Yuklanish xarakterlari	tekis	sezilarsiz turkilar	sezilarli turkilar	zarbiy yoki keskin turkilar
$C_p$	1–1,2	1,1–1,3	1,3–1,5	1,5–1,7
$K_t$	2,5	1,0	0,5	0,25

11. Tasma soni hisoblanadi:

$$Z = \frac{P}{P_c C_z},$$

bu yerda,  $P$  – uzatmaning yetaklovchi validagi quvvat;  $C_z$  – tasma soni koefitsienti:

$Z$	1	2–3	4–6	>6
$C_z$	1	0,95	0,9	0,8

Tasma soni oshgan sayin ulardagi yuklanishlar notekisligi ko'payadi. Tasma va shkiv ariqchalarini o'lchamlarining xatoliklari sababli tasmalar turlicha taranglanadi, qo'shimcha sirpanish, yeyilish va quvvat yo'qotishlari paydo bo'ladi. Shu sababli

$$z \leq 6 \quad (8)$$

olish tavsiya etiladi.

12. Bitta tasmaning dastlabki taranglash kuchi hisoblanadi:

$$F_0 = \frac{0.85 P C_p C_t}{Z V C_a C_z} + F_v. \quad (1.29)$$

(1.29) formulaning ikkinchi hadida avtomatik taranglanadigan uzatmalar uchun  $F_v = 0$ , davriy taranglanadigan uzatmalarda  $F_v$  (1.14) formulaidan hisoblanadi.

13. Tasmali uzatma valiga tushadigan yuklanish hisoblanadi.

14. Uzatmaning xizmat resursi hisoblanadi:

$$T = T_{o'r} K_1 K_2 \quad (1.30)$$

bu yerda,  $T_{o'r}$  – o'rtacha ishlash vaqtı,  $T_{o'r} = 2000$  soat;  $K_1$  – yuklanish sharoiti koeffitsienti;  $K_2$  – ob-havo sharoiti koeffitsienti; yozgi mavsumda  $K_2 = 1$ , qishki mavsumda  $K_2 = 0,75$ .

## 1.7. Tishli tasmali uzatmalar

So'nggi yillarda mashinasozlikda plastmassadan yasalgan tasma va shkiv ishlatila boshlandi. Bunday tasmali uzatmalar mavjud tasmali uzatmalarga nisbatan bir qancha afzallikkлага ega.

### 1. Tishli tasmali uzatmalar bo'yicha umumiy holatlар

Tishli tasmali uzatmalar yaxlit, uzuksiz, ichki tomonida ko'ndalang do'nglik – tishli qilib tasma ko'rinishida tayyorlanadi. Shkivlarda tasma tishlariga mos ravishda o'yiplar tayyorlanadi, uzatma tasmali uzatma kabi ishqalanish hisobiga emas, ilashish hisobiga harakatni uzatadi. Tishli tasmali uzatmalar tasmali uzatmalarga faqat shartli ravishda – tortuvchi elementi – tasmaning nomi va konstruksiyasi bo'yicha kiritiladi. Harakat uzatish tarzi bo'yicha bu uzatma ko'proq zanjirli uzatmaga yaqin bo'ladi. Ilashish tarzi hisobiga bu uzatmada sirpanish hodisasi bo'lmaydi, uzatmani katta kuch bilan taranglashga hojat qolmaydi, bu esa foydali ish koeffitsientini oshiradi. Tishli tasmali uzatmada qamrov burchagi va o'qlararo masofani uzatma tortish qobiliyatiga ta'siri kamayadi, bu esa uzatmaning gabarit o'lchamlarini ixchamlashtiradi va uning nisbatini oshirishga imkon beradi. Tasma tishlari va o'zining elastikligi (zanjirni bikr shamirli bog'lanishi o'miga) shovqin va dinamik yuklanishni kamaytiradi.


Demak, tishli tasmali uzatmalarning quyidagi afzalliklari bor: gabarit o'lchamlari kichik; uzatish nisbati o'zgarmas va katta bo'ladi, foydali ish koeffitsienti yuqori ( $\eta = 0,92 \dots 0,98$ ), dastlabki taranglik kuchining va valga tushadigan kuchning kichikligi, katta quvvat uzatishi.

Tishli tasmali uzatmaning kamchiligi: yuritma tasmada sirpanish bo'lmagan uchun o'ta yuklanish holatlardan himoya qilinmagan.

Tishli tasmali uzatmalar yuqori tezlik (50 m/s gacha), katta uzatish nisbati ( $i=12$  gacha), katta quvvat uzatishda ( $P=100$ , ba'zan 200 kWt gacha) qo'llanishi mumkin.

Tishli tasmadan foydalanish prinsipi ancha davrdan beri taklif etilgan, lekin uni amalga oshirish faqat plastmassalar paydo bo'lgandan keyin mumkin bo'ldi.

Tishli tasma ikki ko'rinishda tayyorlanishi mumkin: quyma (800 mm uzunlikkacha) yoki yig'ma. Tasma *neopren* nomli materialdan tayyorlanib, orasiga metall sim qo'yilgan bo'ladi. Ayrim hollarda neopren o'miga *poliuretan* deb ataladigan plastmassadan foydalilanadi. Aytarli katta bo'limgan quvvat uzatish uchun mo'ljallangan tasmalarda simning o'miga *mimatola* yoki *poliamiddan* tayyorlangan shnurlar ishlataladi. Umuman olganda, tishli tasma rezina (yoki polimer material)dan qilingan elastik asos va asosiy yuklanishni qabul qiluvchi shnur (metall sim yoki oynali tola)dan iborat bo'ladi. Tasma tishlari trapetsiya yoki yarimdoiraviy profilli (1.24-shakl) bo'ladi. Yarimdoiraviy profilli tishli tasmada kuchlanish tekis taqsimlanadi, uzatilayotgan yuklanishni 40% ga oshirish imkonini tug'iladi, tish ilashmaga ravon ilashadi.



1.24-shakl. Trapetsiya (a) va yarimdoiraviy profilli  
(b) tishli tasmalar

## 2. Tishli tasmalari uzatmalarning geometrik o'lchamlari

Tishli tasmalari uzatmaning asosiy geometrik parametri – modul  $m = \frac{P}{\pi}$ , bu yerda,  $P$  – tasma tishi qadami. Tish balandligi  $h = (0.6 - 0.9)$  m, tish uchining qalinligi eni  $S = (1 \div 1.2)$  m; profil burchagi  $\gamma = 50^\circ$  yoki  $40^\circ$ . Trapetsiya profilli tasmalarning modullari 1–10 mm gacha oraliqda standartlashtirilgan. Yarim doiraviy profilli tishli tasmalar 3, 4 va 5 mm modul bilan tayyorlanadi.

Shkivning tuzilishi tishli g'ildiraklarga o'xshash bo'ladi. 1.8 ÷ 1.9-jadvallarda trapetsiya shaklidagi tishli tasma va uning shkiv o'lchamlari berilgan.

### 1.8-jadval

Trapetsiya profilli tishli tasmlar. O'lchamlar mm da

$m = \frac{P}{\pi}$	$P$	$S$	$h$	$H$	$\delta$	$\gamma$ , grad	$b$	$Z_T$
1,0	3,14	1,0	0,8	1,6	0,4	50	3,0 – 12,5	40 – 160
1,5	4,71	1,5	1,2	2,2	0,4	50	3,0 – 20,0	40 – 160
2	6,28	1,8	1,5	3,0	0,6	50	5,0 – 20,0	40 – 160
3	9,42	3,0	2,0	4,0	0,6	40	12,5 – 50,0	40 – 160
4	12,57	4,4	2,5	5,0	0,8	40	20,0 – 100	48 – 250
5	15,71	5,0	3,5	6,5	0,8	40	25,0 – 100	48 – 200
7	21,99	8,0	6,0	11,0	0,8	40	40,0 – 125	56 – 140
10	31,42	12,0	9,0	15,0	0,8	40	50,0 – 200	56 – 100

1.  $z_T$  – tasma tishlarining qatori: 40; 42; 45; 48; 50; 53; 56; 60; 63; 67; 71; 75; 80; 85; 90; 95; 100; 105; 112; 115; 125; 130; 140; 150; 160; 170; 180; 190; 200; 210; 220; 235; 250. 2. Tasma eni  $b$  ning qatori 3,0; 4,0; 5,0; 8,0; 10,0; 12,5; 16,0; 20,0; 25,0; 32,0; 40,0; 50,05; 63,0; 80,0; 100,0; 125,0; 160,0; 200,0 mm. 3. Tasma uzunligi  $L_T = \pi m Z_T$ .

### 1.9-jadval

Trapetsiya profilli tishli tasmaning shkivlari, o'lchamlar mm da

$m = \frac{P}{\pi}$	$S_{sh}$	$h_{sh}$	$r_1$	$r_2$	$2\gamma$ , grad	$Z_I$
1,0	1,0	1,3	0,3	0,3	50	12–100
1,5	1,5	1,8	0,4	0,4	50	10–100
2,0	1,8	2,2	0,5	0,5	50	10–45
3,0	3,2	3,0	0,7	1,0	40	10–120
4,0	4,0	4,0	1,0	1,3	40	14–120
5,0	4,8	5,0	1,5	2,0	40	14–120
7,0	7,5	8,5	2,5	3,0	40	17–120
10,0	11,5	12,5	3,0	3,5	40	17–82

Kichik shkivning tishlar soni shkiv aylanishlar takroriyiligi va modulga bog'liq ravishda 10 dan 26 gacha olinadi.

Katta shkivning tishlar soni:

$$z_2 = z_1 i,$$

bu yerda,  $i = n_1/n_2$  – uzatishlar nisbati.

Shkivlarning bo'lувчи (metall simlar o'tgan) diametrlari, mm:

$$d_1 = mz_1; \quad d_2 = mz_2 \quad (1.31)$$

Shkivlarning tashqi tish ustidan o'tuvchi diametrlari, mm:

$$d_{1T} = mz_1 - 2\delta + K_1; \quad d_{2T} = mz_2 - 2\delta + K_2 \quad (1.32)$$

bu yerda,  $K_1$ ,  $K_2$  ning hisobi quyida berilgan,  $\delta$  – tasma tubidan tros o'qigacha bo'lgan masofa (1.8-jadval).

Uzatma o'qlararo masofasi ma'lum bo'lganda tasma tishlarining soni:

$$z_T = \frac{2a_T}{p_T} + \frac{z_1 + z_2}{2} + \frac{(z_2 - z_1)^2 p_T}{40a_T} \quad (1.33)$$

yoki

$$z_T = L_T / p; \quad (1.34)$$

bu yerda,  $a_T$  – uzatmaning o'qlararo masofasi.

Tasma uzunligi:

$$L_T = \pi m z_T = p z_T. \quad (1.35)$$

O'qlararo masofaning haqiqiy qiymati:

$$a = \frac{L_T - 0.5 p(z_1 + z_2) + \sqrt{[(L_T - 0.5 p(z_1 + z_2))]^2 - 8m(z_2 - z_1)^2}}{4} \quad (1.36)$$

Kichik shkiv bilan ilashishda bo'lgan tasma tishlarining soni:

$$z_u = \frac{z_1 \alpha_1}{360}, \quad (1.37)$$

bu yerda,  $\alpha_1$  – kichik shkivdagи qamrov burchagi,  $z_1$  – shkiv tishlari soni.

$$\alpha_1 = 180^\circ - \left[ \frac{m(z_2 - z_1)}{a} \right] \cdot 57^\circ . \quad (1.38)$$

### 3. Tishli tasmali uzatmalarni hisoblash tartibi

Tishli tasmali uzatmalarning hisobi tasma mustahkamligini ta'minlashga qaratiladi. Loyihalovchi hisob uchun dastlabki ma'lumotlar quyidagilardan iborat: parametrlar  $P_1$ , kWt,  $n_1$ , i va uzatmaning ishlash sharoiti.

Hisoblash tartibi quyidagicha bo'ladi:

1. Soddalashtirilgan munosabatdan modulning dastlabki qiymati hisoblanadi:

$$m = 3,5 \sqrt{\frac{P_1 \cdot 10^4}{n_1}} \text{ mm} , \quad (1.39)$$

Hisoblangan modulning standart qiymati 1.10-jadvaldan qabul qilinadi.

1.10-jadval

#### Tishli tasmali uzatmaning parametrlari

Parametrlar	Moduli num.							
	1	1.5	2	3	4	5	7	10
$F J_0$ , N/mm	2.5	3.5	5.0	9.0	25.0	30.0	32.0	42.0
$[F]_0$ , N/mm	—	—	—	12.0	35.0	42.0	—	—
$i_{\max}$	7.7	10.0	11.5	12.0	8.0	8.0	5.7	4.7
$z_{1\min}$	13	10	10	10	15	15	18	18
$z_{2\max}$	100	100	115	115	120	120	120	85
$z_1 n_1$ da. $\text{min}^{-1}$	1000	13	10	10	12	16	16	22
	1500	14	11	11	14	18	18	24
	3000	15	12	12	16	20	20	26
$q \cdot 10^4$ , kg / (m · mm)	2.0	2.5	3.0	4.0	6.0	7.0	8.0	11.0
$\lambda \cdot 10^4$ , mm <sup>2</sup> /N	7	8	9	14	6	8	11	16

$[F]$  – ruxsat etilgan solishtirma kuch;  $[F]_0$  – yarim doiraviy ariqcha uchun ruxsat etilgan solishtirma kuch;  $i_{\max}$  – eng katta uzatish nisbati;  $z_{1\min}$  – eng kichik ruxsat etilgan tishlar soni;  $z_{2\max}$  – eng ko'p tishlar soni;  $q$  – uzunlik birligidagi massa;  $\lambda$  – 1 mm enli tasmani bitta qadam uzunligidagi beriluvchanligi.

2. 1.10-jadvaldan tishlar soni  $z_1$  tanlanadi.

3. Shkv bo'luvchi diametrlari hisoblanadi (1.31).

4. Tasmaning aylana tezligi hisoblanadi:

$$v = \frac{\pi d_1 n_1}{60}.$$

5. O'qlararo masofaning minimal qiymati:

$$a_{\min} = 0,5(d_1 + d_2) + c, \quad (1.40)$$

bu yerda,  $m < 5$  mm da  $C=2$  m,  $m > 5$  mm da  $C=3$  m.

6. Tasmaning dastlabki uzunligi hisoblanadi:

$$L_T = 2a + 0,5\pi(d_1 + d_2) + \frac{1}{4a}(d_2 - d_1)^2.$$

7. Tasma tishlari sonining taqribiy qiymati hisoblanadi:

$$z_T = \frac{L_T}{\pi \cdot m},$$

$z_T$  ning qiymati 1.8-jadvaldan butun yaqin songa teng olinadi.

8. (1.36) formuladan o'qlararo masofa hisoblanadi. Bunda  $L_T = \pi m z_T$ ,  $z_T$  – tasma tishlari sonining aniqlashtirilgan qiymati.

9. Tishli tasma uzatayotgan hisobiy kuch. N:

$$F_T = 10^3 \cdot K_F' \frac{P}{v},$$

bu yerda,  $K_F'$  – ish sharoiti (dinamik) koefitsienti,  $K_F' = (1,3 \dots 1,5) K_F$ ,  $K_F$  ning qiymati ponasimon tasmalı uzatmani hisoblashdagı  $C_p$  ga yaqin bo'ladi (39-bet).

10. 1.10-jadvaldan tasma moduli va turiga bog'liq ravishda uzatmaning nominal ish sharoiti uchun ruxsat etilgan solishtirma kuch  $[F]_0$ , H/mm qabul qilinadi.

11. Haqiqiy ish sharoitlari uchun ruxsat etilgan solishtirma kuch. N/mm

$$F_c = (F)_0 C_i C_z C_p \quad (1.41)$$

bu yerda,  $C_i$  – harakatni tezlashtiradigan uzatmalar uchun kiritiladigan koefitsient:

$i$	1,0 … 0,8	0,8 … 0,6	0,6 … 0,4	0,4 … 0,3	0,3
$C_i$	1	0,95	0,9	0,85	0,8

$C_z=1-0,2(6-z_0)$  – kichik shkiv tishlar sonida ( $z_0 < 6$ ) kiritiladigan koefitsient;  $C_p=0,9$  – kontur ichida bitta rolik bo’lsa,  $C_p=0,8$  – ikki rolik bo’lsa,  $C_p=0,7$  – rolik konturdan tashqarida bo’lsa.  $z$ , (1.37) formula bo'yicha hisoblanadi.

12. Tasma eni:

$$b = \frac{F_t}{(F_t - qv^2)C_k}, \quad (1.42)$$

bu yerda,  $q = 1$  mm kenglikdagi tasma 1 metrining massasi (1.10-jadval);  $C_k$  – tasma chetki qirralarida to’la bo’lmagan kirimlarini hisobga oluvchi koefitsient.

$b \leq$	16	20	25	32; 40	50; 63	80; 100	$>100$
$C_k$	0,7	0,95	1	1,05	1,10	1,15	1,20

13.  $z_0 > 6$  bo’lsa, tasma tishlaridagi bosim tekshiriladi:

$$p = \frac{F_t \varphi}{z_0 b h} \leq [p]_z, \text{ MPa}, \quad (1.43)$$

bu yerda,  $\varphi = 2$  – tish balandligi va uzunligi bo'yicha yuklanish to'planish koefitsienti;  $[p]_z$  – ruxsat etilgan bosim.

$n_1, \text{ min}^{-1}$	100	200	400	1000	2000	5000	10000
$(p)_z$	2,5	2,0	1,5	1,0	0,75	0,50	0,35

14. Shkiv tashqi diametrлari hisoblanadi:

$$d_{a1} = d_1 + 2\delta + k_1,$$

$$d_{a2} = d_2 + 2\delta + k_2,$$

bu yerda,  $k_1 = 0,2\lambda z_1 \frac{F_t}{b}$ ;  $k_2 = 0,2\lambda z_2 \frac{F_t}{b}$ ;  $\lambda$  – metall kordning beriluvchanligi (1.10-jadval).

15. Shkivning ishchi kengligi hisoblanadi:  $B_{sh} = b + m$ ;

$i \geq 3$  va uzatma vertikal joylashganda ikki shkivda ham flaneslar qilinadi. 1.9-jadvalda shkivning parametrлari berilgan.

Tishli tasmali uzatmaning tekshiruvchi hisobi loyihalanayotgan uzatmaning nominal sharoitga keltirilgan solishtirma kuch  $[F]_0$  ni aniqlashga

keltiriladi va shart  $[F]_0 \leq [F]'_0$  bajarilishi tekshiriladi, bunda  $[F]'_0$  tasmaning ko‘rilayotgan moduli va turiga qarab 1.10-jadvaldan olinadi.


### **Nazorat savol va topshiriqlari**

1. Tasmali uzatmaning qanday afzallik va kamchiliklarini bilasiz?
2. Tasmali uzatmaning kinematik va geometrik parametrlari qanday munosabatda bo‘ladi?
3. Tasma tarmoqlaridagi kuchlar qanday munosabatda bo‘ladi?
4. Tasmada qanday kuchlanishlar hosil bo‘ladi?
5. Tasmali uzatmadagi sirpanish va foydali ish koeffitsientlari egrи chiziqlarining qanday amaliyati bor?
6. Tasmani taranglashning qanday usullarini bilasiz?
7. Yassi tasmali uzatmalarning qanday turlarini bilasiz?
8. Yassi tasmaning turlariga qiyosiy baho bering.
9. Yassi tasmali uzatmalmanni hisoblash tartibi qanday?
10. Ponasimon tasmali uzatmaning qanday asosiy afzalliklari bor?
11. Ponasimon tasmali uzatmaning hisoblash tartibi qanday?
12. Tishli tasmali uzatmaning qanday afzallik va kamchiliklarini bilasiz?
13. Tishli tasmali uzatmaning afzallik va kamchiliklarining asosiy sababini nimada, deb o‘ylaysiz?
14. Tishli tasmali uzatmaning qanday asosiy geometrik parametrlarini bilasiz?
15. Tishli tasmali uzatmalarni hisoblash tartibi qanday bo‘ladi?

## II. ZANJIRLI UZATMALAR


### 2.1. Umumiy ma'lumotlar

Zanjirli uzatma zanjir 1 va yulduzcha 2 ning ilashishi asosida (2.1-shakl) harakatni uzatadi. Ilashish tarzi hamda tasmaga nisbatan po'lat zanjirning yuqori mustahkamligi zanjir bilan tasmaga nisbatan teng sharoitlarda katta yuklanish uzatish imkonini beradi (lekin tishli uzatmaga nisbatan kam bo'ladi).



2.1-shakl. Zanjirli uzatma

Sirpanishning bo'lmasligi, uzatish nisbatining o'zgarmas bo'lishi (bir aylanishda o'rta) qisqa muddatli yuklanishda ishlash imkonini beradi. Ilashish prinsipi zanjirni dastlabki taranglashga hojat qoldirmaydi, bu esa val va tayanchlarga tushadigan yuklanishni kamaytiradi. Yulduzehanining qamrash burchagi shkvivni tasma qamrashi kabi muhim ahamiyatga ega bo'lmaydi. Shu sababli zanjirli uzatmalar kichik o'qlararo masofada va katta uzatish nisbatlarida hamda bir yetaklovchi 1 valdan bir necha yetaklanuvchi val 2 larga quvvat uzatishda qo'llanishi mumkin (2.2-shakl).



2.2-shakl. Bir necha yetaklanuvchi vallarga harakatni zanjirli uzatma orqali taqsimlash

Zanjirli uzatmalarining asosiy kamchiligi zanjir bir necha bikir zvenolardan tuzilib, yulduzchada aylana bo'yicha emas, balki ko'pburchak bo'yicha joylashishi sababli bo'ladi. Bu esa zanjir sharnirlarining yeyilishiga, shovqin va qo'shimcha dinamik yuklanishlarga hamda moylash tizimining zarur bo'lishiga olib keladi.

**Qo'llanish sohalari.** Zanjirli uzatmalar katta o'qlararo masofalarda hamda bir yetaklovchi valdan bir necha yetaklanuvchi vallarga harakatni uzatishda tishli uzatmalarini qo'llash imkonini bo'lmaganda, tasmali uzatmalarining esa ishonchligi past bo'lgan hollarda ishlatalidi. Zanjirli uzatmalar qishloq xo'jaligi mashinasozligida, transport va kimyo mashinasozligi, stanoksozlik, tog'-kon uskunalarini va ko'tarish-tashish qurilmalarida ko'p qo'llanadi.

## 2.2. Zanjirli uzatmaning asosiy tasniflari

**Uzatmaning quvvati.** Zanjirli uzatmalar ko'pincha 100 kWt gacha quvvat uzatish uchun xizmat qiladi:

$$P = F_v v. \quad (2.1)$$

**Zanjirning tezligi va yulduzchaning aylanishlar takroriyiligi:**

$$v = \frac{n_z p_z}{60}, \quad (2.2)$$

bu yerda,  $z$  – yulduzcha tishlarining soni,  $p_z$  – zanjir qadami,  $n$  – yulduzchaning aylanishlar takroriyligi,  $\text{min}^{-1}$ .

Zanjirning tezligi va yulduzchananing aylanishlar takroriyligi yeyilish, shovqin va yuritmaning dinamik yuklanishiga sabab bo'ladi. Sekinyurar va o'rtacha tezlikda  $15 \text{ m/s}$  va aylanishlar takroriyligi  $n < 500 \text{ min}^{-1}$  bo'lgan uzatmalar ko'p tarqalgan. Lekin aylanishlar takroriyligi  $3000 \text{ min}^{-1}$  gacha bo'lgan uzatmalar ham uchrab turadi. Tezyurar dvigatellarda zanjirli uzatma, odatda, reduktordan keyin o'rnatiladi.

### Uzatish nisbati:

$$i = \frac{n_1}{n_2} = \frac{z_2}{z_1}, \quad (2.3)$$

*i* ning eng tarqalgan qiymatlari 6 (10) gacha. *i* ning katta qiymatlarida bir pog'onali uzatmani tayyorlash katta gabarit o'lchami tufayli maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

**Uzatmaning foydali ish koeffitsienti.** Zanjirli uzatmada quvvat yo'qotishlari zanjir sharnirlari, yulduzchaning tishlari va val tayanchlari-dagi ishqalanishlardagi yo'qotishlardan iborat bo'ladi. Zanjirni moyli vannaga botirib moylashda yana moy aralashtirish ham hisobga olinadi. Foydali ish koeffitsientining o'rtacha qiymati yopiq uzatmalarda  $\eta \approx 0,96-0,98$ ; ochiq uzatmalarda  $\eta \approx 0,90-0,95$  ni tashkil etadi.

**O'qlararo masofa va zanjir uzunligi.** Minimal o'qlararo masofa yulduzchalar orasidagi minimal joiz tirqish bilan chegaralanadi (30–50 mm):

$$a_{\min} = (d_{a1} + d_{a2})/2 + (30 - 50). \quad (2.4)$$

$d_a$  – yulduzchalarining tashqi diametrlari.

Amalda zanjir umrboqiyligi talablaridan

$$a = (30 - 50) p_z \quad (2.5)$$

olish tavsiya etiladi.

Past qiymatlar  $i$  ning kichik qiymatlari  $i \approx 1-2$ , yuqori qiymatlar  $i \approx 6-7$  uchun tavsiya etiladi.

Zanjirning qadami yoki zanjir zvenolarining soni bo'yicha ifoda-langan uzunligi:

$$L_p = \frac{2a}{p_z} + \frac{z_1 + z_2}{2} + \left( \frac{z_2 - z_1}{2\pi} \right)^2 \frac{p_z}{a}. \quad (2.6)$$

Ushbu formula tasma uzunligi formulasiga o'xshash va taqribiy hisoblanadi.  $L_p$  qiymati butun juft son qilib yaxlitlab olinadi. Agar toq olinsa, u holda zanjirni ularash uchun maxsus biriktiruvchi zveno qo'llash kerak bo'ladi. Qabul qilingan  $L_p$  uchun  $a$  ning qiymati anqlanadi:


$$a = \frac{p_z}{4} \left[ L_p - \frac{z_1 + z_2}{2} + \sqrt{\left( L_p - \frac{z_1 + z_2}{2} \right)^2 - 8 \left( \frac{z_2 - z_1}{2\pi} \right)^2} \right]. \quad (2.7)$$

Uzatma bo'sh (salt) tarmog'inining ozgina osilib turishida yaxshi ishlaydi. Shu sababli hisobiy o'qlararo masofani taxminan (0,002–0,004) $a$  ulushga qisqartirish tavsiya etiladi. Zanjir uzunligi sharnirlar yeyilishi hisobiga ko'payib boradi. Shuning uchun konstruksiyada zanjir osilishini sozlab turish uchun maxsus qurilmalar qo'llash kerak bo'ladi. Odatda, bu val tayanchlaridan birini surish yoki maxsus taranglovchi yulduzcha o'rnatish hisobiga amalga oshiriladi.

### 2.3. Zanjirli uzatma asosiy elementlarining tuzilishi

**Yurituvechi zanjirlar.** Zamonaviy yurituvchi zanjirlarning asosiy turlari: sharnirli rolikli, vtulkali va tishli zanjirlardan iboratdir. Bu zanjirlar standartlashtirilgan bo'lib, maxsus zavodlarda ishlab chiqariladi. Zanjirlarning asosiy xarakteristikalari: zanjir qadami, eni va uzuvchi kuch.

**Rolikli zanjirda** valik 3 tashqi zveno 2 ga, vtulka 4 esa ichki zveno 1 teshigiga tig'izlik hisobiga biriktirilgan (2.3-shakl). Vtulka valikda, rolik 5 esa vtulkada erkin burilishi mumkin. Zanjirning yulduzcha tishi 6 bilan ilashishi rolik orqali bo'ladi. Vtulkaning qo'llanilishi valikni butun uzunligi bo'yicha yuklanishni tekis taqsimlash va sharnirlar yeyilishini kamaytirishga imkon yaratadi. Rolikni tish bo'yicha g'ildirashi qisman sirpanib ishqalanishini dumalab ishqalanish bilan almashtiradi, bu esa tish yeyilishini kamaytiradi. Bundan tashqari, rolik vtulkada to'plangan bosimini tenglashtiradi va yeyilishni yanada kamaytiradi.




2.3-shakl. Rolikli zanjir

Rolikli zanjirli uzatmalar aylana tezligi 20 m/s gacha bo'lganda qo'llaniladi. Bir qatorlidan tashqari ikki, uch va to'rt qatorli zanjirlar ham qo'llanadi (2.3, b shakl). Ular ham bir qatorli zvenolardan yig'iladi, faqat valik hamma qatorlardan o'tadi. Ko'p qatorli zanjirlar katta tezlik bilan katta yuklanishlarda qo'llanadi.

**Vtulkali zanjirlar** rolikli zanjirlarga o'xshash, lekin ularda rolik bo'lmaydi. Natijada, zanjir massasi va tannarxi kamayadi, ammio zanjir va yulduzcha yejilishi ko'payadi.

**Tishli zanjirlar** ikkita tishsimon chiqiqlardan tuzilgan plastinalar to'plamidan iborat (2.4-shakl). Zanjir plastinalari yulduzcha tishlari bilan o'zlarining yon tekisligi bo'yicha ilashadi. Ponaliq burchagi  $\beta$ , odatda,  $60^\circ$  qilib olinadi. Zanjirlar konstruksiyasi ularni enli qilib tayyorlashga va katta yuklanish uzatishga imkon beradi. Tishli zanjirlar, odatda, nisbatan katta tezlikda 35 m/s gacha ishlataladi.




2.4-shakl. Tishli zanjirlar

**Yuritma zanjirlarning yulduzchalari.** Konstruktiv tuzilishi bo'yicha ular tishli g'ildiraklarga o'xshash bo'ladi. Yulduzcha bo'luvchi aylanasi zanjir sharnirlari markazidan o'tadi. Bu aylananan diametri quyidagicha aniqlanadi (2.5-shakl):


$$d = \frac{P_t}{\sin\left(\frac{\pi}{z}\right)}. \quad (2.8)$$

Bu formula tishli zanjirlarga ham taalluqlidir. Tishli zanjirlar tuzilishining xususiyati shundaki, yulduzchaning bo'lувчи diametri uning tashqi diametridan katta bo'ladi. Yulduzcha tishlari va profili zanjir turi hamda o'lchamiga bog'liq. Standart zanjirlar uchun yulduzcha tishlarining hamma o'lchamlari standartlashtirilgan. Tishli zanjirlar yulduzchalari profilining ishechi qismi to'g'ri chiziqli shaklda bo'ladi.



2.5-shakl. Zanjirli uzatma yulduzchasi

Rolikli va vtulkali zanjir yulduzchalarining tishlar profili botiq, to'g'ri chiziqli va qavariq bo'ladi (2.6-shakl). Tishning pastki qismi botiq, tish uchida esa dumaloqlangan qavariq, o'rta qismida esa ozgina to'g'ri chiziqli o'tish qismi bo'ladi. Hozirda botiq profil asosiy deb olingan.



2.6-shakl. Yulduzcha tishlar profili

Rolikli zanjirlarning yulduzchalarini tashqi aylanalari diametrining ifodasi:

$$d_o = P_z \left( ctg \frac{180^\circ}{z} + 0,70 \right) - 0,31 d_i,$$

bu erda,  $d_i$  – zanjir roliklarining diametri.

**Zanjir va yulduzcha materiallari.** Zanjir va yulduzchalar yeyilish va zarbiy yuklanishga turg'un qarshilik ko'rsatadigan bo'lishi kerak. Shu mulohazalar asosida ko'pchilik zanjirlar va yulduzchalar uglerodli hamda legirlangan po'latlardan tayyorlanib, keyinchalik ularga termik ishlov (yaxshilash, toplash) beriladi. Maxsus ma'lumotnomalarda zanjir va yulduzchalarning materiallarini hamda ularning termik ishlov turini tanlash bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. Ko'pincha yulduzchalarni stal' 45, 40X va boshqa, zanjir plastinalarini 45, 50 va boshqa, zanjir valik va roliklarini esa stal' 15, 20, 20X va sh.k.dan tayyorlash tavsiya etiladi. Zanjir sharnirlari detallari ko'p hollarda sementatsiya qilinadi, bu esa ularning zarbiy mustahkamligini saqlab, yeyilish bardoshliligini oshiradi. Uzatma detallarini plastmassadan tayyorlash istiqbolli hisoblanadi, bu esa dinamik yuklanish hamda shovqinni kamaytiradi.

## 2.4. Zanjirli uzatmadagi kuchlar

Zanjirli uzatmaga kuch ta'sir etish sxemasi tasmali uzatmaga kuch ta'sir etish sxemasiga o'xshash bo'ladi. Bu uzatmada ham quyidagilarni ko'rsatish mumkin:  $F_1$  va  $F_2$  – zanjir yetaklovchi va yetaklanuvchi tarmoqlarining tarangligi;  $F_t$  – aylana kuch;  $F_o$  – dastlabki taranglik kuchi;  $F_v$  – markazdan qochirma kuchdan taranglik. Tasmali uzatmaga o'xshash.

$$F_1 = F_2 = F_t, \quad (2.9)$$

$$F_v = qv^2, \quad (2.10)$$

bu yerda,  $q$  – zanjir uzunlik birligining massasi;  $v$  – aylana tezlik.

Zanjirli uzatmada  $F_o$  qiymati xuddi zanjir erkin tarmog'idagi og'irlik kuchidan taranglik kabi aniqlanadi:

$$F_o = K_a aq g, \quad (2.11)$$

bu yerda,  $a$  – zanjir erkin tarmog' i uzunligi, taxminan o'qlararo masofaga teng;  $g$  – og'irlilik kuchining tezlanishi;  $K_f$  – yuritma zanjirlari joylashishi va zanjir osilishidagi salqilikka bog'liq osilish koeffisienti.

Yetaklanuvchi tarmoq tarangligi  $F_2 - F_0$  va  $F_v$  tarangliklarning kat-tasiga teng bo'ladi.

Amaliy hisoblarda zanjirli uzatma uchun

$$F_1 = F_i; F_2 = 0 \quad (2.12)$$


deb olish mumkin.

Zanjir salqiligining tavsiya etigan qiymatlari uchun  $f \approx 0,01 - 0,02$  da taxminan quyidagilar tavsiya etiladi: zanjirli yuritma gorizontal joylashishida  $K_f = 6$ ; gorizontga nisbatan  $40^\circ$  burchak ostida joylashganda  $K_f = 3$ ; zanjirli yuritma vertikal joylashishida  $K_f = 1$ .  $K_f$  ning qiymati  $f$  ortishi bilan kamayadi.

Zanjirli uzatma ilashish tamoyili bo'yicha harakat uzatgani uchun, tasmali uzatmadagidek,  $F_v$  ning qiymatidan atigi bir necha foizini tashkil etadi. Amaliyotda ko'p tarqalgan sekinyurar va o'rtacha tezlikda ishlaydigan uzatmalar uchun ( $v \leq 10 \text{ m/s}$  da  $F_v$ ) taranglik ham kichik qiymatga ega bo'ladi.

## 2.5. Zanjirli uzatmaning kinematika va dinamikasi

**Harakat notekisligi va zanjir tebranishi.** 2.7-shaklda zanjir sharnirlari va yetaklovchi yulduzcha tezliklari ko'rsatilgan. Ko'rsatilgan lahzada A sharnir ilashmada bo'ladi, B sharnir esa C tish bilan ilashishga yaqinlashadi.



2.7-shakl. Zanjirli uzatma zanjirlarining sharniri va yetaklovchi yulduzcha tishining tezliklari


A sharnir tezligi yulduzchaning sharnir markaziga mos keladigan nuqtasi aylana tezligiga teng bo'ladi. Bu tezlikni tashkil etuvchilarga ajratish mumkin:  $v_2$  – zanjir tarmog'i bo'yicha yo'nalgan va  $v_1$  – zanjirga perpendikulyar.

Yetaklovchi sharnir holatlari bo'yicha tezlik tashkil etuvchilari ham o'zgaradi:

$$v_2 = v \cos \theta, \quad v_1 = v \sin \theta, \quad (2.13)$$

bunda  $\theta$  burchak qiymatlari  $-\frac{\varphi}{2} \leq \theta \leq +\frac{\varphi}{2}$  oraliqlarda o'zgaradi.  $\left(-\frac{\varphi}{2}\right)$  burchak A sharnirning ilashmaga kirgan lahzasiga,  $\left(+\frac{\varphi}{2}\right)$  burchak esa B sharnir ilashmaga kirgan vaqtga to'g'ri keladi,  $\varphi = \frac{2\pi}{Z}$ .

2.8-shaklda  $v_2$  va  $v_1$  tezliklar o'zgarishining grafiklari keltirgan. Bu tezliklar  $t$  vaqtning davriy funksiyalari bo'ladi.  $t$  vaqtning davri  $\varphi/\omega$  bo'ladi. Grafikda  $t = 0$  da  $\theta = -\frac{\varphi}{2}$ ,  $t = \varphi(2\omega)$  da  $\theta = 0$  va  $t = \frac{\varphi}{\omega}$  da  $\theta = \frac{\varphi}{2}$ .



2.8-shakl.  $v_1$  va  $v_2$  tezliklarining o'zgarish grafiklari

Yetaklanuvchi yulduzchaning harakati  $v_2$  tezlik bilan aniqlanadi. Bu tezlikni davriy o'zgarishi uzatish nisbatining o'zgaruvchanligi va qo'shimcha dinamik yuklanishlar bilan birga qo'shilib boradi.  $v_1$  tezlik bilan tarmoqlar ko'ndalang tebranishlari zanjir sharnirlarini yulduzcha tishlariiga urilishi bilan bog'liq bo'ladi. Tebranishlar va zarbalar o'z navbatida qo'shimcha dinamik yuklanishlarni hosil qiladi.

(2.13) formulalardan kuzatilishicha, ko'rsatib o'tilgan uzatmaning salbiy kinematik va dinamik xususiyatlari yulduzcha tishlari soni z qancha kam bo'lsa, shuncha ko'p seziladi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, rezonans tebranishlari bo'lmasa,  $v_1$  va  $v_2$  tezliklar qiymatini tebranishing salbiy ta'siri zanjir elastikligi va osilishi hisobiga ancha kamayadi. Parametrlarning tavsiya etilgan qiymatlari uchun ( $z$ ,  $p_z$ ,  $a$  va boshq.) uzatish nisbatining o'zgaruvchanligi 1–2% ni, dinamik yuklanishlar esa aylana kuch  $F_1$  ning bir necha foizini tashkil etadi. Zanjirli uzatmalarning ko'p ishchi sharoitlari uchun rezonans tebranishlari namoyon bo'lmaydi.

Kritik aylanishlar takroriyligini quyidagi formula bo'yicha baholash mumkin ( $n_{lk}$ , min<sup>-1</sup>):

$$n_{lk} = 30 \sqrt{\frac{F_1}{q \cdot z \cdot a}},$$

bu yerda,  $a$  – o'qlararo masofa,  $m$ ;  $F_1$  – yetaklovchi tarmoq tarangligi,  $N$ ;  $q$  – 1 m uzunlikdagi zanjir massasi.

**Sharnirning tishga urilishi va zanjir qadamining chegaralanishi.** B sharnirning tish C bilan ilashmaga kirishi vaqtida ularning tezliklarini vertikal tashkil etuvchilari  $v_1$  va  $v'_1$  bir-biriga qarama-qarshi yo'naladi, sharnirni tish bilan tutashuvi zarb bilan bo'ladi. Ketma-ket zarblar uzatmada shovqin keltirib chiqaradi va zanjir sharnirlari hamda yulduzcha tishlari yemirilshining sabablaridan biri bo'ladi. Ba'zi hollarda zarblar roliklarning ajralib ketishiga olib keladi. Zarblarning havfli ta'sirini kamaytirish uchun uzatmaning tezyurarligiga qarab zanjir qadamini tanlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan (2.1-jadval).

2.1-jadval

Aylanishlar takroriyligi $n_1$ , min <sup>-1</sup> : rolikli zanjirlar uchun $z_1 \geq 15$ da	1250	1000	900	800	630	500	400	300
tishli zanjirlar uchun $z_1 \geq 17$ da	3300	2650	2200	1650	1320	--	--	--
Zanjirning eng katta ruxsat etilgan qadam [ $P_z$ ] <sub>max</sub> , mm	12,70	15,87	19,05	25,40	31,75	38,10	44,45	50,80

#### Eslatma:

- Amalda qadamni ruxsat etilgandan kam tanlash tavsiya etiladi.
- Aylanishlar takroriyligi ko'rsatilgan oraliqdan oshib ketsa, uzatmani yuqori aniqligi va to'kis moylash talab etiladi.

## 2.6. Zanjirlar uzatmalarning ishchanlik qobiliyati va ularni hisoblash mezoni

Standart zanjirlarning hamma detallarini teng mustahkamlik qilib loyihalanadi. Bu detal o'chamlarini ularning materiallari va termik ishlownga tegishli moslash bilan amalga oshiriladi. Ko'pchilik zanjirlar uzatmalar uchun ishdan chiqishning asosiy sababi zanjir sharnirlarining yeyilishi bo'ladi. Aytilganga binoan, asosiy hisob sifatida sharnir yeyilish bardoshligini hisoblash, asosiy mezon sifatida esa sharnirdagi bosim qabul qilingan:

$$p = \frac{F_t}{(Bd)} \leq [p], \quad (2.14)$$

bu yerda,  $p$  – sharnirdagi bosim;  $F_t$  – aylana kuch;  $d$  va  $B$  – zanjir valigining diametri va zanjirlarning eni ( $l$  vtulka uzunligiga teng).


**Zanjir sharnirlarining yeyilishi va uning uzatma asosiy parametrlari bilan bog'liqligi.** Zanjirlar uzatma ishlaganda sharnirlarda  $\varphi = \frac{2\pi}{z}$  – burchakka burilish amalga oshiriladi.

Zanjirning bir yurishida har bir sharnirda to'rtta burilish amalga oshiriladi: ikkitadan yetaklovchi va yetaklanuvchi yulduzchalarda. Bu burilishlar vtulka va valiklarning yeyilishiga sabab bo'ladi. Ularning markazlari  $\Delta P_z$  ga uzoqlashadi (2.9-shakl). Zanjirning xizmat qilish muddati o'qlararo masofa  $a$ , kichik yulduzchaning tishlar soni  $z_1$ , sharnirdagi yuklanish yoki bosim, moylash sharoiti, sharnir detallari materialining yeyilishga bardoshliligi, ruxsat etilgan nisbiy yeyilishga bog'liq bo'ladi.

Zanjirni xizmat qilish muddati o'qlararo masofa  $a$  ortishi bilan ko'payadi, chunki bunda zanjir uzunligi  $L$  ortadi va vaqt birligida zanjir yurishlarining soni kamayadi.

$z_1$  ortishi bilan sharnirdagi burilish burchagi kamayadi, bunda ruxsat etilgan yeyilish  $\frac{\Delta p}{P_z}$  kamayadi.

Zanjirni umrboqiyligiga eng ko'p ta'sir qiladigan omil sharnirdagi bosim qiymati bo'ladi.



2.9-shakl. Zanjir sharnirlari markazlarining uzoqlashishi

**Yulduzcha tishlari sonini tanlash.** Yulduzcha tishlari sonini tanla-ganda ikkita qarama-qarshi holatlarga duch kelamiz: birinchidan, tishlar sonining katta qiymatlarida yulduzchaning tishi kamroq yeyiladi. lekin kam yeyilgan, o'zining mustahkamligini saqlagan zanjirning yulduzcha bilan ilashishi buziladi. Ikkinchchi tomondan, tishlar sonining kichik qiymatlarida zanjir tezroq yeyiladi, ammoy, hatto katta yeyilishda ham, zanjir yulduzcha bilan ilashishini yo'qotmaydi. Bu holda zanjir o'zining mustahkamligini to'liq yo'qotgunga (uzilgunga) qadar ishlashi mumkin. Ayonki, yulduzcha tishlari sonining optimal qiymatida zanjir mustahkamlik va ishlash qobiliyatlarini saqlagan holda, maksimal xizmat qilish muddatiga ega bo'ladi.

Rolikli zanjirlar uchun kichik yulduzchaning tishlar soni  $z_1$  ni quyidagi qiymatlar bo'yicha tanlash tavsiya etiladi:

Uzatish nisbati $i$	1-2	2-3	3-4	4-5	5-6	6
$z_1$	30-27	27-25	25-23	23-21	21-17	17-15

*Eslatma:*

1.  $z_1$  ning katta qiymatları - tezyurur uzatmalar uchum.  $v > 25 \text{ m/s}$  da  $z_1 > 35$  olish tavsiya etiladi.

2. Sekinyurur uzatmalar uchum  $z_1$  ning qiymatini jadvaldagidan kichik olish mumkin, lekin  $z_{min} = 7$  dan kam emas.

3. Yeyilgan zanjirni ilashishdan chiqish sharti bo'yicha katta yulduzchaning maksimal tishlar sonini 100 – 120 dan kam olish tavsiya etiladi.

Muhandislik amaliyotida yulduzcha tishlar sonini quyidagi munosabat bo'yicha ham hisoblash mumkin:

$$z_1 = 31 - 2i;$$

$$z_2 = iz_1.$$

**Zanjir sharnirlaridagi ruxsat etilgan bosim.** Ruxsat etilgan bosim qiymatini maxsus sinovlar va ishlatish natijalari bo'yicha tuzilgan jadvaldan tanlash tavsiya etiladi. Ruxsat etilgan bosim  $[p_0]$  ning jadvaldagi qiymatlari ishlatishning o'rta sharoitlarida ishlatiladigan, yuklanish doimiy va tekis taqsimlangan, zanjirli uzatma gorizontal joylashgan, taranglash me'yor darajasida ushlab turilganda, moylash va moy iflosanishidan himoya qilish qoniqarli,  $z$ ,  $a$ ,  $P_z$ ,  $i$  hamda zanjir sisati tavsiya etilgan me'yorlarda, zanjir umrboqiyligi 3000–5000 soatdan kam bo'limgan hollardagi tipik uzatmalar uchun tegishli bo'ladi.

Hisoblanayotgan va tipik uzatmalar orasidagi farq yuklanish koefitsienti yordamida hisobga olinadi. Bunda hisoblanayotgan uzatma uchun

$$[p] = [p_0] / K_E. \quad (2.15)$$

O'z navbatida,

$$K_E = K_d K_a K_g K_{soz} K_{moy} K_{shar}, \quad (2.16)$$

bu yerda,  $K_d$  – dinamik yuklama koefitsienti;  $K_a$  – o'qlararo masosa yoki zanjir uzunligi koefitsienti;  $K_g$  – uzatmaning gorizontga nisbatan qiyalik burchagi koefitsienti;  $K_{soz}$  – zanjir tarangligini sozlash usuli koefitsienti;  $K_{moy}$  – uzatmani moylash va uning iflosanishini hisobga oluvchi koefitsient;  $K_{shar}$  – uzatma sharoitni hisobga oluvchi koefitsient yoki uzatmani sutka davomida ishlash muddatini hisobga oluvchi koefitsient.

Koefitsientlarning qiymati tavsiyqlarda beriladi.

## 2.7. Zanjirli uzatmaning amaliy hisobi

Zanjirli uzatmaning amaliy hisobida berilgan  $P$ ,  $n_i$  va  $i$  bo'yicha  $p_z$ ,  $z$  va  $a$  ni topish kerak bo'ladi.

**Zanjir qadamini tanlash.** Standart zanjirlar shunday tuzilganki, zanjir qadami oshishi bilan uning statik mustahkamligi va sharnir tayanch sirtining yuzasi, demak, sharnirdagi bosim bo'yicha yuklanish qobiliyatini ham oshadi. Shunday qilib, zanjir qadami uzatmadagi yuklanish bilan bog'liq. Yuqorida ko'rildigan (2.14), (2.15) larga binoan,

$$F_r = [p] Bd = [p_0] Bd / K_E.$$

Zanjirli uzatmaning quvvati  $P_l = [p_0] B dz_l n_l p_z / (K_E \cdot 60)$ .

$K_z = \frac{z_{01}}{z_1}$  – tish soni koefitsienti va  $K_n = \frac{n_{01}}{n_1}$  – aylanishlar takroriyligi koefitsientlarini belgilab formulaga kirmsak,

$$P_l = [p_0] B dz_{0l} n_{0l} p_z / (K_E K_z K_n \cdot 60). \quad (2.17)$$

$P_l$ ,  $K_E$ ,  $K_z$ ,  $K_n$  ko'paytmani hisobiy quvvat deb qarash mumkin, uning zanjir umrboqiyligiga ta'siri, bazaviy uzatma sharoitidagi  $P_{his}$  quvvatga ekvivalent bo'ladi:

$$P_{his} = P_l K_E K_z K_n = [p_0] B dz_{0l} n_{0l} p_z / (\cdot 60). \quad (2.18)$$

Amaliy hisoblashlami soddalashtirish uchun oxirgi formula asosida hisobiy quvvatlar bilan zanjir qadamlarining bog'liqligi bo'yicha jadval tuzilgan. Bunda  $[p_0]$ ,  $n_{0l}$  va  $P_z$  ning bog'lanishlari e'tiborga olingan. Bundan tashqari,  $z_{01}=25$   $n_{01}$  ning qiymatlari esa  $n_0=50, 200, 400, 600, 800, 1000, 1200, 1600$  min<sup>-1</sup> qatordan olingan.

Hisobiy quvvat aniqlangach, loyihalanayotgan uzatma uchun

$$P_h = P_l K_E K_z K_n \leq [P_h] \quad (2.19)$$

bo'ladi. Jadvaldan zanjir qadami tanlanadi, bunda  $p_z \leq [p_z]_{max}$  bo'lishi kerak.

Agar bir qatorli zanjir yetarli bo'lmasa yoki u juda katta qadamga ega bo'lsa, u holda ko'p qatorli zanjir qo'llanadi. Bu holda,

$$P'_h = \frac{P_h}{K_{qat}} \leq [P_h], \quad (2.20)$$

bu yerda,  $K_{qat}$  – qatorlar soni koefitsienti, u zanjir qatorlari bo'yicha yuklanish notekis tarqalishini hisobga oladi.

## **Nazorat savol va topshiriqlari**

1. Zanjirli uzatmaning qanday afzallik va kamchiliklarini bilasiz?
2. Zanjirli uzatmaning qanday tasniflarini bilasiz?
3. Yuritma zanjirlar tuzilishiga baho bering.
4. Zanjirli uzatmada qanday kuchlar hosil bo'ladi?
5. Zanjirli uzatmaning kinematika va dinamikasi qanday hodisalarga olib keladi?
6. Zanjirli sharnirming yulduzcha tishiga urilishi qanday natijalarga olib keladi?
7. Zanjirli uzatmani hisoblashda asosiy me'zon qaysi bo'ladi?
8. Zanjirli uzatmalarni amaliy hisoblash tartibi qanday?


\* \*

# IKKINCHI BO'LIM


## VALLAR, PODSHIPNIKLAR, MUFTALAR

### III. VALLAR VA O'QLAR

Val va o'qlarda aylanadigan detallar: tishli g'ildiraklar, shkivlar, barabonlar va sh. k. o'rnatiladi. Valning o'qdan asosiy farqi bir detaldan ikkinchisiga burovehi momentni uzatadi, o'q esa uzatmaydi.



3.1-shakl. Yarimmuftadan shesternyaga burovchi momentni uzatish



3.2-shakl. Yuk ko'tarish mexanizmi barabanining o'qlari:  
 a – aylanadigan; b – aylanmaydigan

Masalan, 3.1-shaklda burovchi moment yarimmufta 3 dan shesternya 1 ga val 2 orqali uzatiladi. 3.2-shakldagi yuk ko'tarish mexanizmi barabanida burovchi moment tishli gardishdan arqonga barabanning o'zi orqali uzatiladi. Val doimo aylanadi, o'q esa aylanishi ham, aylanmasligi ham mumkin (3.2- a, b shakllar).

### **3.1. Val va o'qlarning turlari. Ularning materiallari**

Vallar to'g'ri, tirsakli va egiluvchan bo'ladi. O'qlar doimo to'g'ri bo'ladi. Bularidan eng ko'p tarqalgani to'g'ri val hisoblanadi. Tirsakli vallar porshenli mashinalarda qo'llaniladi. Egiluvchan vallar katta egilishlarda ham aylanma harakatni uzatishi mumkin (masalan, tish davolashda ishlatalidigan bormashinalar). Tirsakli va egiluvchan vallar maxsus detallarga kiritiladi, ular «Mashina detallari» fanida o'rganilmaydi.

Konstruksiyasi bo'yicha val va o'qlar silliq (3.2-shakl), shakldor yoki pog'onasimon (3.1-shakl) hamda yaxlit va kovak bo'ladi. Vallarni pog'onali qilib tayyorlash ularda detallarni o'q bo'yicha yoki vallarning o'zini mahkamlash hamda tig'izlik bilan o'rnatiladigan detallarni o'rnatish imkoniyati bilan bog'liq bo'ladi. Kovak vallar ularning massasini kamaytirish, val ichidan boshqa detallarni yoki moyni o'tkazish maqsadida qo'llanadi.

To'g'ri vallar ko'pincha uglerodli va legirlangan po'latlardan tayyoranadi. Ko'pincha termik ishlov berilmaydigan vallar uchun Ст5 po'lati; termik ishlov beriladigan (yaxshilanadigan) vallar uchun stal' 45 yoki 40X po'lati; sirpanish podshipniklarida o'rnatiladigan tezyurar vallar uchun esa stal' 20 yoki 20X po'lati qo'llanilib, ular sapfalar yeyilish bardoshliligini oshirish uchun sementatsiya qilinadi.

### **3.2. Vallarning loyihalovchi hisobi**

Loyihalovchi hisobni bajarish uchu, odatda, quyidagilar ma'lum bo'lishi kerak: burovchi moment  $T$  yoki quvvat  $P$  va aylanishlar takroriyligi  $n_1$ , valda o'rnatilgan asosiy detallar (masalan, tishli g'ildiraklar)ning yuklanishi va o'lehamlari. Valning o'leham va materialini aniqlash kerak bo'ladi.

*Vallar mustahkamlik, bikirlik va tebranishga hisoblanadi.* Asosiy hisobiy yuklanishlar – momentlar  $T$  va  $M$  bo’lib, ulardan valda buralish va egilish hosil bo’ladi. Valni siquvchi yoki cho’zuvchi kuchlar, odatda, kichik qiymatli bo’ladi va ular hisobga olinmaydi. O’qlarning hisobi vallarning  $T = 0$  dagi xususiy holati bo’ladi.

Valning hisobini bajarish uchun uning konstruksiyasi (yuklanish qo’yilgan joy, tayanchlar joylashishi va sh. k.)ni bilish zarur bo’ladi. Shu bilan birga valning konstruksiyasini yaratish uchun uning diametrini taxminiy bo’lsa ham baholamasdan turib amalga oshirib bo’lmaydi. Amalda valning loyihalovchi hisobini bajarishning quyidagi tartibi qo’llaniladi:

1. Dastlab valning o’rtacha diametrini faqat buralishga ruxsat etilgan kuchlanishning kichik qiymatlardan aniqlanadi (bunda eguvchi moment ma’lum bo’lmaydi, chunki tayanchlarning joylashishi va yuklanish qo’yilgan joy ma’lum emas).

Burovchi kuchlanish

$$\tau = \frac{T}{W_p} = \frac{T}{0,2d^3} \leq [\tau]$$

yoki

$$d = \sqrt[3]{T/(0,2[\tau])}, \quad (3.1)$$

bu yerda,  $[\tau]$  – buralishdagи ruxsat etilgan kuchlanish bo’lib, Cr40, 45, Cr6 po’latlaridan tayyorlangan vallar uchun  $[\tau]=15-25$  MPa. Loyihalanayotgan valning diametrini aniqlashda u bilan birikadigan val diametri qiymatidan (vallar bir xil burovchi moment uzatadi) foydalaniлади. Masalan, val (3.1-shakl) elektrosvigatel (yoki boshqa mashina) bilan biriktiriladigan bo’lsa, unda val chetki qismi diametrini elektrosvigatel chetki qismi diametriga  $d_{el.k.}$  teng yoki yaqin qilib olish mumkin, ya’ni

$$d = (0,75-1) d_{el.k.}$$

2. Val diametri aniqlangach, uning konstruksiyasi yaratiladi (3.1-shakl).

3. Valning yaratilgan konstruksiyasi bo’yicha uning tekshiruvchi hisobi bajariladi. Bu hisob quyida ko’rib chiqiladi. Agarda tekshiruvchi hisob qanoatlantirmasa, unda val konstruksiyasiga zarur tuzatishlar kiritiladi. Bunda valning diametri podshipnikning diametri va yuklanish

qobiliyatini aniqlovchi asosiy parametrlardan biri ekanligi nazarda tutiladi. Amaliyotda ba'zi hollarda valning diametri uning o'z mustahkamligidan emas, podshipnik mustahkamligidan aniqlanadi. Shu sababli val va podshipniklarning hisoblari o'zaro bog'liq bo'ladi.

### 3.3. Vallarning aniqlashtirilgan hisobi


**Hisobiy sxemani tanlash va hisobiy yuklanishlarni aniqlash.** Vallarning hisobi «MATERIALLAR QARSHILIGI» fanining bir jinsli bo'limgan kuchlanishlar ko'rildigani va o'zgaruvchan yuklanishlar ta'sir etadigan holatlari bo'yicha bajariladi. Bunda valning haqiqiy ishslash sharoitlari shartlisi bilan almashtiriladi va ma'lum hisobiy sxemalardan biriga keltiliradi. Konstruksiyadan hisobiy sxemaga o'tganda, valning yuklanishi, tayanchlari va shakli bir tizimga keltiriladi. Bunday sxemalashtirishdan keyin valning hisobi taqribiy bo'lib qoladi.

Hisobiy sxemalarda tayanchlarning uchta turi qo'llanilishini eslatib o'tamiz: qo'zg'almas sharnir, qo'zg'aluvchan sharnir, qistirib tiralgan tayanch. Qistirib tiralgan tayanch ba'zan qo'zg'almas o'qning tayanchi sisatida qabul qilinadi. Aylanadigan o'q va vallar uchun qistirib tiralgan tayanch qo'llash ruxsat etilmaydi.

Hisobiy sxemalar tanlashda vallarning deformativ ko'chishlari, odatda, juda kichik bo'ladi va agar haqiqiy tayanch konstruksiysi juda kichik burilish yoki ko'chishga yo'l qo'ysa, uni sharnirli yoki qo'zg'aluvchan deb hisoblash mumkin bo'ladi. Bunda bir vaqtning o'zida o'q bo'yicha va radial yuklanish qabul qiladigan podshipniklar sharnirli qo'zg'almas tayanchlar, faqat radial yuklanishni qabul qiladigan podshipniklar esa sharnirli qo'zg'aluvchan tayanchlar bilan almashtiriladi.

Bu mulohazalarni misolda ko'rib chiqamiz. 3.1-shakldagi val uchun shesternya tishi yo'nalishi va  $T$  moment yo'nalishini e'tiborga olib, chap tayanchni sharnirli qo'zg'almas, o'ng tayanchni esa sharnirli qo'zg'aluvchan deb olamiz (3.3-shakl).

Valning haqiqiy yuklanishlari to'plangan bo'lmay, ular gupchak uzunligi, podshipnik kengligi bo'yicha taqsimlangan bo'ladi. Hisobiy yuklanishlarni, odatda, to'planma deb qaraladi. Ko'rayotgan misolimizda (3.1-shakl) val ilashma qutbiga ta'sir etadigan  $F_r$ ,  $F_a$  va  $F_c$ , kuchlar va yarimuftadagi  $T$  moment bilan yuklangan (3.3, a-shakl). 3.3 b-shaklda valga ta'sir etuvchi kuchlar  $F_r$ ,  $F_a$ ,  $F_c$  val o'qiga keltirilib, vertikal va gorizontal tekislikda alohida ko'rsatilgan.



3.3-shakl. Valning hisobiy sxemasi

Sxemada  $F_M$  – valga muftani biriktirishda vallarning o'qdosh emasligidan kelib tushadigan kuch. Umumiy mashinasozlikda ishlatalidigan bir pog'onali reduktorlarning kirish va chiqish vallari uchun

$$F_M \approx 125\sqrt{T},$$

ko'p pog'onali vallarning chiqish vallari uchun

$$F_M \approx 250\sqrt{T}$$

bo'ladi, bu yerda,  $T - Nm$  da.

Bu sxemalardan valga yarimmufta emas, balki shesternya, yulduzcha yoki shkiv o'rnatilgan bo'lsa ham foydalanish mumkin.

Sxemada kuchlardan hosil bo'ladijan kuch juftlari  $T=0,5F$ ,  $d_1$  va  $M_a=0,5F_a d_1$  alohida ko'rsatilgan. Bu holda,  $d_1$  – shesternyaning bo'luvchi diametri.

Ilisobiy sxema ostida hamma ta'sir etadigan yuklanishlardan vertikal va gorizontal tekislikdagi eguvchi va burovchi momentlar epyuralari qurilgan (3.3, d, e, f). Bu epyuralar bo'yicha valning xohlagan kesimidagi natijaviy eguvchi momentni aniqlash mumkin. Masalan, I-I kesim uchun eguvchi moment


$$M = \sqrt{\left(F_r \frac{ab}{l} + M_a \frac{a}{l}\right)^2 + \left(F_t \frac{ab}{l} + F_M \frac{ca}{l}\right)^2}.$$

**Mustahkamlikka hisoblash.** Amalda kuzatilishicha, vallar uchun asosiy yemirilish turi toliqish bo'ladi. Statik yemirilish juda kam kuzatiladi. U, odatda, tasodifiy qisqa muddatli o'ta yuklanish holatlarida yuz beradi. Shu sababli, vallar uchun toliqishga qarshilik bo'yicha hisob asosiy bo'lib, statik mustahkamlikka hisoblash esa tekshiruvchi bo'ladi.

Toliqishga qarshilikni hisoblashda eng avval kuchlanishlar sikli xarakterini aniqlash zarur. Valning aylanishi sababli, uning ko'ndalang kesimining turli nuqtalarida eguvchi kuchlanish hatto doimiy yuklanishda ham simmetrik sikl bo'yicha o'zgaradi (faqatgina yuklanish val bilan aylangandagina bundan istisno holat yuzaga keladi).

Burovchi kuchlanish yuklanish o'zgarishiga proporsional o'zgaradi. Ko'pgina hollarda mashinadan foydalanish jarayonida yuklanishning haqiqiy siklini aniqlash qiyin bo'ladi. Bunda hisob shartli ravishda

nominal yuklanish bo'yicha bajariladi. kuchlanishlar sikli esa eguvchi kuchlanish uchun simmetrik (3.4, a shakl) va burovchi kuchlanish uchun noldan yuqori (3.4, b shakl) deb qabul qilinadi. Burovchi kuchlanish uchun noldan yuqori siklning tanlanishi, ko'pgina mashinalar o'zgaruvchan burovchi moment bilan ishlashi, momentning ishorasi esa faqat reversiv mashinalarda o'zgarishi bilan izohlanadi. Bunday hisobning xatoligi mustahkamlilik zaxirasi koeffitsientini tanlash bilan kompensatsiya qilinadi.



3.4-shakl. Valdag'i sikllar o'zgarishi:  
a – eguvchi kuchlanish; b – burovchi kuchlanish

Hisobga kirishar ekanmiz, val uchun xavfli kesimlarni tanlaymiz: I-I va II-II kesimlarda valning mustahkamligini tekshirish zarur bo'ladi (3.3-shakl). Bunda eguvchi va burovchi momentlar epyuralari xarakteri, valning pog'onasimon shakli va kuchlanishlar to'planish joylarini hisobga olamiz. Xavfli kesimlar uchun toliqishga qarshilik zaxirasi (ehtiyyot koeffitsienti) aniqlanadi va ularni ruxsat etilgani bilan taqqoslanadi. Burovchi va eguvchi kuchlanishlar bir vaqtida ta'sir etganda toliqishga qarshilik zaxirasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S = \frac{S_\sigma S_\tau}{\sqrt{S_\sigma^2 + S_\tau^2}} \geq [s] \approx 1,5 ; \quad (3.2)$$

bu yerda,

$$\left. \begin{aligned} S_\sigma &= \frac{\sigma - 1}{\sigma_a K_\sigma + \psi_\sigma \sigma_m} ; \\ S_\tau &= \frac{\tau - 1}{\tau_a K_\tau + \psi_\tau \tau_m} ; \end{aligned} \right\} \quad (3.3)$$

formulalarda  $s_\sigma$  – faqat egilishdan toliqishga qarshilik zaxirasi;  $s_\tau$  – faqat buralishdan toliqishga qarshilik zaxirasi.

Bu formulalarda  $\sigma_a$  va  $\tau_a$  – kuchlanishlar sikllarini o'zgaruvchan tashkil etuvchilarining amplitudalari,  $\sigma_m$  va  $\tau_m$  – doimiy tashkil etuvchilar.

Avval qabul qilingan shartga binoan, (3.4-shakl) vallarni hisobida

$$\left. \begin{array}{l} \sigma_m = 0; \quad \sigma_a = \frac{M}{0,1d^3}; \\ \tau_m = \tau_a = 0,5\tau = \frac{0,5T}{0,2d^3}; \end{array} \right\} \quad (3.4)$$

$\psi_\sigma$  va  $\psi_\tau$  – kuchlanish siklini doimiy tashkil etuvchisini toliqishga qarshilikka ta'sirini to'g'rilovchi koefitsientlar.

$\psi_\sigma$  va  $\psi_\tau$  ning qiymatlari materialning mexanik xarakteristikalariga bog'liq bo'ladi. Odatda, quyidagicha qabul qilinadi:

$$\left. \begin{array}{ll} \text{uglerodli yumshoq po'latlar uchun} & \psi_\sigma = 0,05; \quad \psi_\tau = 0; \\ \text{o'rtacha uglerodli po'latlar uchun} & \psi_\sigma = 0,1; \quad \psi_\tau = 0,05; \\ \text{legirlangan po'latlar uchun} & \psi_\sigma = 0,15; \quad \psi_\tau = 0,1; \end{array} \right\} \quad (3.5)$$

bu yerda,  $\sigma_{-1}$  va  $\tau_{-1}$  – chidamlilik chegaralari.

Ular jadvallardan yoki taxminiy formulalar bo'yicha aniqlanadi

$$\left. \begin{array}{l} \sigma_{-1} \approx (0,4...0,5)\sigma_h; \\ \tau_{-1} \approx (0,2...0,3)\sigma_h; \\ \tau_h \approx (0,55...0,65)\sigma_h; \end{array} \right\} \quad (3.6)$$

bu yerda,  $K_d$  va  $K_F$  – masshtab ya sirt g'adir-budirligi omillari;  $K_\sigma$  va  $K_\tau$  – egilish va buralishda kuchlanish to'planishlari koefitsientlari.  $K_d$ ,  $K_F$ ,  $K_\sigma$  va  $K_\tau$  qiymatlari maxsus ma'lumotnomalardagi grafik va jadvallardan aniqlanadi.

(3.3) formula valni uzoq muddat xizmat qilishda hisoblash uchun qo'llaniladi. Statik mustahkamlikka tekshirish plastik deformatsiyalarning oldini olish va qisqa muddatli o'ta yuklanishlarda (masalan, ishga tushirishda va sh.k.) buzilishning oldini olish uchun bajariladi.

Bunda ekvivalent quchlanish aniqlanadi:

$$\sigma_{ek} = \sqrt{\sigma_{eq}^2 + 3\tau^2} \leq [\sigma]. \quad (3.7)$$

bundan

$$\left. \begin{array}{l} \sigma_{eq} = M/(0,1d^3); \\ \tau = T/(0,2d^3); \end{array} \right\} \quad 3.8)$$


bu yerda,  $M$  va  $T$  – xavfli kesimdagи o‘ta yuklanish holatida eguvchi va burovchi momentlar.

Ruxsat etilgan kuchlanishning chegaraviy qiymatining oquvchanlik chegarasi  $\sigma_{eq}$  ga yaqin olinadi

$$[\sigma] \approx 0,8 \sigma_{eq}. \quad (3.9)$$

### 3.4. Valni bikirlikka hisoblash

Valning elastik siljishlari tutash detallarning, ya’ni podshipniklar, tishli g’ildiraklar, friksion uzatmalarining disklari va sh. k. larning ishiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Valning egilishidan (3.5-shakl) tishli ilashmada tish uzunligi bo'yicha yuklanish to'planishi hosil bo'ladi. Katta burilish burchaklari  $\theta$  da podshipnikda val qisilib qolishi mumkin (3.5-shakldagi o'ng tayanch). Metall qirquvchi stanoklarda valning siljishi (ayniqsa shpindellarda) ishlov berishning aniqligini va detalning sirti sifatini pasaytiradi. Bo'luvchi va hisoblovchi mexanizmlarda elastik siljishlar o’lchash aniqligini pasaytiradi.



3.5-shakl. Valning egilishi

Ruxsat etilgan elastik siljishlar konstruksiya uchun konkret talablarga bog'liq bo'ladi va har bir holat uchun alohida aniqlanadi. Ba'zi bir tavsiyalarni keltiramiz:

tishli uzatma vallari uchun g'ildirak ostidagi val salqiliqi:  $[y] \approx 0,01 m$  – silindrik uzatmalar uchun;  $[y] \approx 0,005 m$  – konussimon, gipoid, globoid uzatmalar uchun, bu yerda,  $m$  – uzatma moduli.

Shesternyalar ostidagi vallarning o'zaro qiyalanish (og'ish) burchagi  $\gamma \leq 0,001$  rad.

Stanoksozlikda umumiy vazifali vallar uchun  $[y] = (0,0002 - 0,0003)l$ ,  $l$  – tayanchlar orasidagi masofa.

Sirpanish podshipnikdagi valning burilish burchagi  $[\theta] = 0,001$  rad; radial sharikli podshipnikdagi val uchun  $[\theta] = 0,005$  rad.

Ruxsat etilgan siljishlarning kichik qiymati shunga olib kelishi mumkinki, ba'zan valning o'lehamini mustahkamlik emas, bikirlirkdan aniqlashga to'g'ri keladi. Bunday holda valni qimmat narxli yuqori mustahkamli po'latlardan (agar bunda boshqa shartlar, masalan, stapfaning yeyilishga bardoshliligi talab etilmasa) tayyorlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Egilishdagagi siljishlarni umumiy holda Mor integrali va Vereshchagin usulidan foydalanib topish mumkin («Materiallar qarshiligi» fani darsligiga qarang). Oddiy hisobiy sxemalar uchun ma'lumotnomalardagi tayyor yechimlardan foydalanish mumkin. Bunda val bir diametrli doimiy kesimga ega deb qaraladi.

Doimiy diametrli valning buralishdagagi siljishi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\varphi = \frac{Tl}{GJ_p},$$

bu yerda,  $\varphi$  – val buralish burchagi, rad;  $T$  – burovchi moment;  $G$  – siljishdagi elastiklik moduli;  $l$  – valning buralayotgan qismi uzunligi;  $J_p = \frac{\pi d^4}{32}$  – val kesimining qutb inersiya momenti.

Agar val pog'onali bo'lsa va bir necha moment  $T$  bilan yuklansa, u holda  $\varphi$  burchak uchastkalar bo'yicha aniqlanadi, so'ngra yig'indisi jamlanadi.

Ruxsat etilgan buralish burchaklarining qiymati mexanizmga qo'yilgan talablarga binoan katta oraliqda o'zgaradi. Masalan, tizimlar, bo'luvchi

mexanizmlar va sh. k. larda ruxsat etilgan buralish burchaklari 1 metr uzunlikka sekund va minutlar bilan chegaralanadi, avtomobil kardan vallarida esa metrga bir necha gradusni tashkil etadi.

### 3.5. Valni tebranishga hisoblash

Elementar tizimlarning tebranishlarini hisoblash me'yorlariga binoan. bitta erkinlik darajasiga ega tizimning majburiy tebranishlari quyidagi tenglama bilan yoziladi:

$$y = \frac{P_a}{m(\omega_e^2 - \omega_m^2)} \sin \omega_m t. \quad (3.10)$$

bu yerda,  $y = m$  massa majburiy tebranishlarining amplitudasi;  $P_a = P(t) = P_a \sin \omega_m t$  uyg'otuvchi kuchning amplitudasi;  $\omega_m$  – uyg'otuvchi kuchning doiraviy takrorlanishi yoki tizimning majburiy tebranishlari takrorlanishi;  $\omega_e$  – tizimning erkin tebranishlari doiraviy takrorlanishi.

(3.10) tenglama eng oddiy val tebranishiga ilova holda ko'rildi (3.6-shakl). Bunda  $\omega_m$  burchak tezlik bilan aylanayotgan valda  $m$  massali disk  $e$  ekssentrisitet bilan o'rnatilgan.  $m$  massaga nisbatan valning shaxsiy massasi kichik deb hisoblanadi va hisobga olinmaydi (bitta erkinlik) darajasiga ega elastik tizim. Valga markazdan qochirma kuch ta'sir etadi:

$$P_a = m\omega_m^2 e. \quad (3.11)$$

bunda uning vektori  $\omega_m$  burchak tezlik bilan aylanadi.


$P_a$  kuchning  $y$  va  $z$  o'qlari bo'yicha tashkil etuvchilar:

$$P_y = P_a \sin \omega_m t, \quad P_z = P_a \cos \omega_m t. \quad (3.12)$$

$P_y$  va  $P_z$  kuchlar garmonik uyg'otuvchi kuch bo'lib, ular  $y$  va  $z$  o'qlari yo'nalishida valning egilishdagи tebranishini qo'zg'aydi.  $P_y$  kuchning tebranishi (3.10) tenglama bilan yoziladi,  $P_z$  kuchdan esa unga o'xshash

$$z = \frac{P_a}{m(\omega_e^2 - \omega_m^2)} \cos \omega_m t$$

tenglama bilan aniqlanadi.



3.6-shakl. Valning tebranishdagagi holati

Egilishdagagi tebranishning shaxsiy takrorlanishlari:

$$\omega_{sh} = \sqrt{1/(m\delta)} = \sqrt{g/y_{st}}, \quad (3.13)$$

bu yerda,  $\delta = y_{st}/(mg)$  – valning beriluvchanligi yoki birlik kuchdan salqiligi;  $y_{st}$  – valning disk  $mg$  og'irlik kuchi ta'siridan statik egilishi.

(3.10) tenglamadan  $\omega_m \rightarrow \omega_e$  da  $y \rightarrow z$ ,  $\omega_m = \omega_y$  bo'lganda esa rezonans sodir bo'ladi.

Shunday qilib, rezonans holatida hatto juda kichik muvozanatlanmagan massa ta'siridan mashinaning buzilishi mumkin.

Rezonans sodir bo'ladiغان aylanishlar takroriyligi ( $\text{min}^{-1}$ ) kritik deb ataladi:

$$n_{kt} = \left(\frac{30}{\pi}\right) \omega_{kt} = \left(\frac{30}{\pi}\right) \omega_e = \left(\frac{30}{\pi}\right) \sqrt{g/y_{st}}. \quad (3.14)$$

Agar burchak tezlik  $\omega_m$   $\omega_{kt} = \omega_e$  dan katta bo'lsa, unda tizim tezlanishida rezonans zonasidan o'tadi va yana stabillashadi. Sinishlarning oldini olish uchun rezonans zonasini tez o'tish kerak bo'ladi. Bu zonada ushlanib qolishga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

$\omega_m > \omega_e$  da tebranishlar amplitudasi o'zining ishorasini o'zgartiradi (3.10 formulaga qarang). Buni amalda nimaga olib kelishini ko'rib chiqamiz.

To'liq amplituda

$$r = \sqrt{y^2 + z^2} = \frac{P_o}{m(\omega_e^2 - \omega_m^2)} = \frac{\omega_m^2}{\omega_e^2 - \omega_m^2} e. \quad (3.15)$$

Bunda  $\sin^2 \omega_m t + \cos^2 \omega_m t = 1$ ;  $P_a = m\omega_m^2 e$ .

$\omega_m > \omega_e$  bo'lganda  $r$  ning amplitudasi  $e$  ga qarama-qarshi bo'ladi va  $\omega_m \geq \omega_e$  bo'lsa  $r \rightarrow (-e)$ . Shunday qilib, kritik zonadan o'tgan, muvozanatlanmagan massaning og'irlik markazi geometrik aylanish o'qiga yaqinlashadi. Bu hodisadan tezyurar mexanizmlarda foydalaniadi, bunda ustivorlikni saqlab qolish uchun past shaxsiy takrorlanishli  $\omega_e$  ga ega egiluvchan val o'rnatiladi.

Vibratsiya (titrash)dagи ustivorlik chegarasini quyidagicha olish tavsija etildi: bikir vallar uchun  $n \leq 0.7 n_{kr}$ , egiluvchan vallar uchun  $n \geq 1.3 n_{kr}$ .

Tizimga o'zgaruvchan burovchi momentlar ta'sir etsa, unda burovchi tebranishlar hosil bo'lib, ularni ham yuqoridagi usulda tahlil etish mumkin.

### Nazorat savol va topshiriqlari

1. Nima sababdan valning hisobi ikki: loyihalovchi va tekshiruvchi bosqichdan iborat bo'ladi?
2. Valning loyihalovchi hisobi qanday kuchlanish bo'yicha bajariladi va bunda ruxsat etilgan kuchlanish nima sababdan kamaytiriladi?
3. Valning hisobiy sxemasini ishlab chiqishda uning real ishlash sharoiti, konstruksiyasi, tayanchlari va yuklanish qanday sxemalashtiriladi?
4. Nima uchun, hatto o'zgarmas yuklanishda ham, val toliqishga hisoblanadi?
5. Valning toliqishga qarshiligi zaxirasini aniqlashda qanday omillar hisobga olinadi va val qanday kuchlanishlar bo'yicha hisoblanadi?
6. Nima sababdan valning bikirligini tekshirish kerak bo'ladi va unda qanday parametrlar aniqlanadi?
7. Val tebranishing sababi nima?
8. Valning shaxsiy va majburiy tebranishlar takroriyligi nima hamda ularning qanday nisbatiga yo'l qo'yish kerak emas?

---

## IV. PODSHIPNIKLAR

### SIRPANISH PODSHIPNIKLARI

Podshipniklar val va aylanadigan o'qlarning tayanchi bo'lib xizmat qiladi. Ular valga ta'sir etadigan radial va o'q bo'yicha yo'nalgan yuknislarni qabul qiladi va valning zarur aylanish o'qini saqlab qoladi. Mexanizmda foydali ish koeffitsientining kamayishini pasaytirish maqsadida podshipniklarda yo'qotishlar minimal bo'lishi kerak. Mashinalarning ishchanlik qobiliyati va chidamliligi ko'p jihatdan podshipniklar sifatiga bog'liq bo'ladi.

Podshipniklar ishqalanish turi va qabul qiladigan yuklanishi bo'yicha turlarga ajratiladi.


Ishqalanish turi bo'yicha sirpanish va dumalash podshipniklari bo'la-di. Sirpanish podshipniklarida valning tayanch qismi podshipnik sirtida sirpanadi, dumalash podshipnigida esa podshipnik va valning tayanch sirtlari orasida sharik yoki rolik o'rnatilib, sirpanish ishqalanishi dumalash ishqalanishiga almashtiriladi.

Podshipniklar qabul qiladigan yuklanishi bo'yicha radial, tirak va radial-tirak podshipniklarga ajratiladi. Radial podshipniklar radial yuknislarni, tirak podshipniklar o'q bo'yicha yuklanishlarni, radial-tirak podshipniklar esa radial va o'q bo'yicha yuklanishlarni qabul qiladi.

Podshipniklarning hamma turlari keng tarqalgan.

#### **4.1. Sirpanish podshipniklari bo'yicha umumiy ma'lumotlar va ularning turlari**

Valning tayanch qismi sapfa deyiladi. Sirpanish podshipnigining ishechi sirti xuddi val sapfasi kabi silindrik (4.1, *a*-shakl), tekis (4.1, *b* shakl), konussimon (4.1, *d* shakl) yoki sharsimon (4.1, *e* shakl) bo'ladi. Radial yuklanishni qabul qiladigan sapfa val chekkasida joylashsa, ship va o'rtaSIDA joylashsa, bo'yincha deyiladi. O'q bo'yicha (bo'ylama) yuklanishni qabul qiladigan sapfa tovon, tayanch esa tovontaglik deyiladi.




4.1-shakl. Sapfalarning tuzilishi

Tovontagliklar, odatda, radial podshipniklar bilan just bo'lib ishlaydi (4.1. b shakl). Aksariyat radial podshipniklar oz miqdordagi o'q bo'yicha yuklanishlarni ham qabul qiladi (valni o'q bo'yicha ham mahkamlaydi). Buning uchun val pog'onali qilib, galtellari bilan tayyorlanadi, podshipnik qirralari esa dumaloqlanadi. Konussimon sirtli podshipniklar kam ishlatiladi. Ular kam yuklanish ta'sir etganda davriy ravishda podshipnik yeyilishidan hosil bo'lgan tirkishni yo'qotib, mexanizm aniqligini saqlash zarur bo'lganda qo'llanadi (4.1. d shakl). Buning uchun valda konussimon vtulka o'rnatilib, uning holati gaykalar bilan sozlanadi. Bundan tashqari, sharsimon (sferik) podshipniklar ishlatiladi. Bu podshipniklar valning qiyalanishiga yo'l qo'yadi, ya'ni o'zi o'rナshish xususiyatiga ega bo'ladi. Ular ko'pincha richagli mexanizmlar shamiri sifatida qo'llanadi, bunda ular davriy ravishda cheklangan burchaklar oralig'ida buralishi mumkin (4.1. e shakl).

Podshipnikning konstruktiv tuzilishi 4.2-shaklda ko'rsatilgan. Podshipnikning asosiy elementi tayanch sirtida yupqa qatlam antisfriksion material surtilgan ustquyma bo'ladi. Ustquymani podshipnikning maxsus korpusida yoki bevosita mashina korpusi (stanina, rama)da o'rnatish mumkin.

Sirpanish podshipniklarining qo'llanilish sohasi dumalash podshipniklarini zamonaviy mashinasozlikda ko'p ishlatilishi hisobiga ancha qisqardi. Ammo zamonaviy texnikada sirpanish podshipniklarining ahamiyati qisqargani yo'q. Ular keng ko'lamda qo'llaniladi va bir qator konstruksiyalarda ularni almashtirib bo'lmaydi. Bu quyidagi podshipniklar va ularning ish holatlari:



4.2-shakl. Sirpanish podshipnigining konstruksiyasi:

1 – ustquyma; 2 – korpus

1) yig'ish shartlari bo'yicha ajraladigan podshipniklar, masalan, tirsakli vallar uchun;

2) tezyurar podshipniklar ( $v > 30 \text{ m/s}$ ), ularning ishlash sharoitida dumalash podshipniklarning chidamliligi keskin kamayadi (vibratsiyalar, shovqin, dumalash jismlariga tushadigan katta inersion yuklanishlar);

3) o'ta aniq (prezetsion) mashinalar podshipniklari, ulardan vallarni o'ta aniq yo'naltirish va tirkishlarni sozlash imkoniyati mavjudligi talab qilinadi;

4) maxsus sharoit (suv, tajovuzkor muhit)larda ishlovchi podshipniklar, bunda dumalash podshipniklari zanglash tufayli tez ishdan chiqadi;

5) arzon sekinyurar mexanizmlar podshipniklari va boshqalar.

#### **4.2. Sirpanish podshipniklarining ish sharoitlari va yemirilish turlari. Suyuqlikda ishqalanish nazariyasining asoslari**


Sapfaning podshipnikda aylanishiga ishqalanish kuchining momenti qarshilik ko'rsatadi. Ishqalanish kuchining ishi ta'siridan podshipnik va sapfa qiziydi. Ishqalanish sirtidan issiqlik podshipnik korpusi va valga, moylovchi suyuqlik orqali esa tashqariga uzatiladi. Podshipnikka har qanday barqaror sharoit uchun issiqlik muvozanati shart bo'lib, ajralayotgan issiqlik tashqariga olib ketilayotgan issiqlikka teng bo'lishi kerak. Bunda aniq harorat o'rnatiladi. Ajralayotgan issiqlik qancha ko'p

bo'lib, issiqlik uzatish sharoiti yomon bo'lsa, issiqlik muvozanati harorati shuncha yuqori bo'ladi. Bu harorat podshipnik materiali va moy navi uchun ruxsat etilgan qiymatdan katta bo'lmasligi kerak. Harorat oshishi bilan moyning qovushoqligi kamayadi va sapfa podshipnikda qisilib qolib, yulinish xavfi oshadi. Oxir natijada yulinish ustquymaning erishiga olib keladi. Podshipnikning qizishi uning buzilishida asosiy sababchi bo'ladi.

Podshipnikning ishlashida ustquyma va sapfaning yeyilishi yana oshadi, bu esa mexanizm va podshipnikning to'g'ri ishlashini buzadi. Agar yeyilish me'yordan oshib ketsa, u yaroqsizga chiqariladi. Ishqalanish kuchi ishi bilan bog'liq yeyilish jadalligi ham podshipnik xizmat muddatini aniqlaydi.

O'zgaruvchan yuklanish ta'sir etganda (masalan, porshenli mashinalarda) ustquyma sirti toliqish ta'siridan uvalanishi mumkin. Toliqishdan uvalanish kam yeyilishli podshipniklar uchun hos bo'lib, juda kam kuzatiladi. Katta qisqa muddatli zarbiy xarakterdag'i o'ta yuklanish holatlarida podshipnik ustquymalari mo'rtligidan sinishi mumkin. Odatta, mo'rt buzilish kam mustahkamli antifriksion materiallar – babbit va ba'zi plastmassalar ishlatilganda sodir bo'ladi.

**Ishqalanish sharoitlari va hisoblash mezonlari.** Ishqalanish kuchining ishi podshipnik xizmat muddatini aniqlovchi asosiy ko'rsatkich bo'ladi. Ishqalanish podshipnik yeyilishi va qizishini hamda uning soydali ish koefitsientini aniqlaydi. Ishqalanishni kamaytirish uchun sirpanish podshipniklari moylanadi. Podshipnik ish sharoitiga qarab unda nim suyuqlikda ishqalanish yoki suyuqlikda ishqalanish hosil bo'ladi. Bu sharoitlarni 4.3-shakldan tushuntirish mumkin.



4.3-shakl. Suyuqlikda ishqalanish holatida val bilan ustquymaning o'zaro joylashuvi

Suyuqliqda ishqalanishda val va ustquymaning ishchi sirlari moy qatlami bilan ajratilgan bo'lib, uning qalinligi sirlarning g'adir-budirligi balandligidan ko'p bo'ladi (4.3-shaklda moy qatlami qalin chiziq bilan ko'rsatilgan):

$$h = R_{z1} + R_{z2}. \quad (4.1)$$

Bu shart bajarilganda moy qatlami ishchi sirlarning bevosita tutashuvi, ya'ni yeyilishining oldini olib, tashqi yuklanishni qabul qiladi. Bu holda harakatga qarshilik faqat moylovchi suyuqlikning ichki qarshiligiga bog'liq bo'ladi. Suyuqlikdagi ishqalanish koeffitsientining qiymati 0,001–0,005 oraliqda bo'ladi (bu qiymat dumalashdagi ishqalanish koeffitsientidan kam bo'ladi).

Nim suyuqlikda ishqalanish shartidagi (4.1) formula bajarilmaydi, podshipnikda – ayni vaqtida suyuqlikda – chegaraviy ishqalanish bo'ladi. Chegaraviy ishqalanishda ishqalanayotgan sirlar moyning aktiv molekulalari va ustquyma materiallari kimyoviy reaksiya ta'siri natijasida hosil bo'lgan mos yupqa parda bilan qoplangan bo'ladi. Moyning chegaraviy yupqa parda hosil bo'lishi (adsorbsiya)ga qobiliyatı moylanuvchanlik (yopishqoqliq, moylanish) deyiladi. Chegaraviy yupqa pardalar turg'un bo'ladi va katta bosimga chidaydi. Lekin bosim to'planish joylarida ular buziladi, metall sirlarning tutashuvi yuz beradi, hisbiy harakatda material qismlarining yulinishi va uzelishi hosil bo'ladi. Yarimsuyuqlikda ishqalanish sharoitida ishqalanuvchi sirtlarga hatto tashqi abraziv zarrachalar tushmasa ham yeyilish bo'ladi. Yarim suyuqlikda ishqalanish koeffitsientining qiymati moyning sifatidan tashqari ishqalanayotgan sirlarning materiallariga ham bog'liq bo'ladi. Eng ko'p tarqalgan antifriksion materiallar uchun yarimsuyuqlikda ishqalanish koeffitsienti 0,008–0,1 ga teng bo'ladi.

Podshipnikning ishslash sharoitidan eng qulayi suyuqlikda ishqalanish hisoblanadi. Suyuqlikda ishqalanish sharoitini hosil bo'lishi ko'pehilik sirpanish podshipniklarini hisoblashning asosiy mezoni hisoblanadi. Bunda bir vaqtida yeyilish va yulinish bo'yicha mezonlar ta'minlangan bo'ladi.

**Suyuqlikda ishqalanish nazariyasining asosiy holatlari.** Podshipnikning suyuqlikda ishqalanish sharoitini tadqiq qilish moylashning gidrodinamik nazariyasiga asoslangan. Bu nazariyanı asoschisi rus olimi N. P. Petrov hisoblanadi (1883-yil). Keyinchalik bu nazariya O. Rey-


N. I. Jukovskiy, S. A. Chaplin, A. Zommerfeld, A. Michel va boshlari olimlar ishlardagi rivojlantirildi. Bu nazariya gidrodinamikaning qovushiq moy differensial tenglamalari yechimiga asoslanadi. Bu tenglama qovushiq moy bosimi, tezligi va siljishiga qovushqoqliqning qarshiligidini bog'laydi.

Bu yerda tenglama yechimini keltirmay, uning natijalari bo'yicha xulosalar bilan cheklanamiz.

1. Podshipnikda hosil bo'ladiqan bosim moy qatlami qalinligiga teskari proporsional bo'ladi. Podshipnikda bu qatlama millimetrnning bir necha o'n va yuzdan bir bo'lagini tashqil etadi va shu sababli bosim juda katta qiymatga erishishi mumkin.

2. Suyuqlikda ishqalanish sharoiti hosil bo'lishi shartlaridan biri torayadigan tirkish hisoblanadi. Bu tirkish ponasimon deb ataladi. Demak, podshipnik konstruksiyasida ponasimon tirkish bo'lmasa, suyuqlikda ishqalanish hosil bo'lmaydi. Masalan, 4.1, b shakldagi oddiy tekis tovontaglikda ponasimon tirkish bo'lmay, suyuqlikda ishqalanish vujudga kelmaydi. Ponasimon tirkish bo'lmasani bois, suyuqlikda ishqalanish hosil bo'lishi uchun tovontaglikning tayanch sirtiga maxsus shakl beriladi.

Radial podshipniklarda ponasimon tirkish podshipnik konstruksiya – tuzilishiga mos bo'ladi. Ponasimon tirkish val sapfasi va ustquyma markazlari siljishlari hisobiga hosil bo'ladi (4.4-shakl).



4.4-shakl. Silindrik radial podshipnikda ponasimon tirkishning hosil bo'lishi

Burchak tezlik  $\omega > \omega_{kr}$  bo'lsa, sapfa moyda qalqib chiqadi va 4.4-b shaklda ko'rsatilganday, aylanish yo'nalishidagi trayektoriya bo'yicha suriladi. 4.4, a, b shakllarda: 1 – ponasimon tirkish; 2 – sapfa markazining aylanish tezligi oshgandagi yurish yo'li; 3 – moy qatlamida bosim epyurasi; 4 – markazlar chizig'i. Burchak tezligi oshishi bilan ajratuvchi moy qatlami  $h_{min}$  ortadi, sapfa markazi esa ustquyma markazi bilan yaqinlashadi.  $\omega \rightarrow \infty$  da markazlar orasidagi masofa  $e \rightarrow 0$ . Markazlar ustma-ust tushishi mumkin emas, chunki bunda tirkishning ponasimon shakli buzilib, suyuqlikda ishqalanish sharti bajarilmaydi.

Tadqiqotlardan kuzatilishicha, ma'lum geometrik parametrli podshipniklar uchun moy qatlaming qalinligi podshipnik ishchi sharoitining funksiyasi bo'ladi:

$$h_{min} = \Phi(\mu\omega/p), \quad (4.2)$$

bu yerda,  $\mu\omega/p$  – podshipnik ishchi sharoiti tasnifi;  $p = \frac{F_r}{(ld)}$  – podshipnik-dagi shartli o'rtacha bosim, u yuklanishni tasniflaydi;  $l$  va  $d$  – podshipnik uzunligi va diametri.

(4.2) formuladan ko'rinishicha, moy qatlami qalinligi moy qovushoqligi va sapfa burchak tezligi ortishi bilan oshadi. Yuklanish ortishi bilan moy qatlaming qalinligi kamayadi.

Shunday qilib, suyuqlikda ishqalanish hosil bo'lishining quyidagi shartlari bor.

1) sirpanayotgan sirtlar orasida ponasimon shakldagi tirkish bo'lishi kerak;

2) tegishli qovushoqli moy tirkishni uzliksiz to'ldirib turishi kerak;

3) sirtlar orasidagi nisbiy harakat tezligi moy qatlamida bosim hosil bo'lishi uchun yetarli bo'lishi kerak. Hosil bo'lgan bosim tashqi yuklanishni muvozanatlash uchun yetarli bo'lishi kerak.

Ma'lumki, hamma suyuqliklar va gazlar qovushoqlikka ega bo'ladi. Bu shuni bildiradiki, ma'lum bir sharoitlarda moylovchi suyuqlik sifatida suv va hatto havodan foydalanish mumkin. Bu holat amalda qo'llaniladi.

Suyuqlikda ishqalanish sharoiti agar  $\omega$  va  $p$  ruxsat etilgan qiymatdan oshib ketsa (masalan, ishga tushirish va to'xtatish davrlarida), buziladi. O'zgaruvchan yuklanish sharoitida  $h_{min}$ , demak, val o'qining holatlari

ham o'zgaradi. Bu vibratsiyaning sababi bo'lishi mumkin. Sirpanish podshipniklarining dumalash podshipniklariga nisbatan afzallik jihatlari o'zgaruvchan yuklanish sharoitida tez-tez ishga tushirishlar va to'xtatishlarda pasayadi.

#### **4.3. Sirpanish podshipniklarining amaliy hisobi**

**Nimsuyuqlik ishqalanish sharoitida ishlaydigan podshipniklar hisobi.** Bunday podshipniklarga aniqligi past bo'lgan sekinyurar mexanizmlar, tez-tez ishga tushadigan va to'xtaydigan, beqaror sharoitda ishlaydigan, yaxshi moylanmaydigan va shunga o'xshash mashinalarning podshipniklari kiradi. Bu podshipniklar quyidagi usullar bo'yicha hisoblanadi:

a) shartli bosim bo'yicha, sekinyurar, qisqa muddatli tanaffuslar bilan ishlaydigan podshipniklar hisoblanadi:

$$p = F_r / (l d) \leq [p], \quad (4.3)$$

b) bosimni tezlikka ko'paytmasi bo'yicha, o'rtacha tezlikda ishlaydigan podshipniklar hisoblanadi:

$$p v \leq [p v], \quad (4.4)$$

bu yerda,  $F_r$  – podshipnikdagi radial yuklanish;  $d$  – sapfa (val) diametri;  $l$  – podshipnik uzunligi;  $v$  – sifanining aylana tezligi.

$[p v]$  bo'yicha hisoblash taqrifiy shaklda yeyilish jadalligini, qizishini va yulinishini kamaytiradi. Ma'lum konstruksiyalarni ishlatishda aniqlangan  $[p]$  va  $[p v]$ ning ruxsat etilgan qiymatlari 4.1-jadvalda keltirilgan.

**Suyuqlikda ishqalanish sharoitida ishlaydigan radial podshipniklar hisobi.** Podshipnikdagi radial yuklanish

$$F_r = \left( \frac{\mu \omega}{\psi^2} \right) l d C_F, \quad (4.5)$$

bu yerda,  $\omega$  – sifanining burchak tezligi;  $\psi = \frac{s}{d}$  – podshipnikdagi nisbiy tirqish (4.4-shaklga qarang);  $C_F$  – podshipnik yuklanishining o'lchamsiz koefitsienti.

Ustquyma materiali	$\leq v_f$ , m/s	$[p]$ , MPa	$[pv]$ , MPa·m/s
1. Kulrang cho'yan СЧ 36	0,5	4	—
	1,0	2	—
2. Antifriksion cho'yan			
АКЧ-1	5	0,5	2,5
АВЧ-2	1	12	12
3. Bronza			
БРОФ 10-1	10	15	15
Бр АЖ 9-4	4	15	12
4. Latun ЛКС 80-3-3	2	12	10
5. Babbit:			
Б16	12	15	10
Б6	6	5	5
6. Metallokeramika:			
bronzagrafit	2	4	—
temirgraft	2	5,5	—
7. Poliamid plastmassalar – kapron АК-7	4	15	15
8. Plastiklashgan yog'och (suv bilan moylash)	1	10	
9. Rezina (suv bilan moylash)	—	2...6	—

$$C_F = \frac{F_r \psi^2}{(\mu \omega d)} = \frac{p \psi^2}{(\mu \omega)}. \quad (4.6)$$

$C_F$  ning qiymati nisbiy ekssentrиситет va podshipnikning nisbiy uzunligi  $l/d$  ga bog'liq bo'ladi.

Nisbiy ekssentrиситет  $\chi = l/(0,5s)$  suyuqlikda ishqalanish sharoitida podshipnikdagи sapfaning holatini aniqlaydi. Nisbiy ekssentrиситет moy qatlami qalinligi bilan bog'liq bo'ladi:

$$h_{min} = (0,5s - e) = 0,5s(1 - \chi). \quad (4.7)$$

Sirpanish podshipnigini hisoblashda, odatda, sapfa diametri  $d$ , yukanish  $F_r$  va aylanishlar takroriyligi  $n$  (yoki burchak tezligi  $\omega$ ) ma'lum bo'ladi, hisoblardan podshipnik uzunligi  $l$ , tirqish  $s$ , moy navi ( $\mu$ ) aniqlanadi. Noma'lum parametrlarning ko'pi amaldagi tajribalar asosida ishlab chiqilgan taysiyalardan qabul qilinadi. So'ngra podshipnik

suyuqlikda ishqalanishni ta'minlash sharoitida ishonchhlilik zaxirasi bo'yicha tekshiriladi. Hisoblash tartibi quyidagicha bo'ladi:

1.  $I/d$  nisbat qabul qilinadi. Eng ko'p tarqalgan qiymatlar  $I/d = 0,5 - 1$ . Kalta podshipniklar ( $I/d < 0,4$ ) past yuklanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Uzun podshipniklar ( $I/d > 1$ ) yuqori aniqlik va bikir vallarni ishlatalishni talab etadi. Aks holda, o'rnatishdagi og'ish va deformatsiyalarining salbiy jihatlari podshipnikdagi shartli bosim [ $p = F_r/(Id)$ ] ni kamayishi bilan o'zini oqlamaydi.  $I/d$  ni tanlashda konstruktiv jihatlar (gabarit o'lchamlar, massa va sh.k.)ni ham hisobga olish kerak.  $I/d$  ning qabul qilingan qiymatlari [ $p$ ] va [ $pv$ ]ning ruxsat etilgan qiymatlari bo'yicha (4.3 va 4.4 formulalar) tekshiriladi. Bu tekshirishlar suyuqlikda ishqalanish sharoitining qisqa muddatli buzilishlarida (ishga tushirish, yuklanishda, moy uzatishdagi uzilishlar) yulinish va tez yeyilishning oldini oladi.

2. Nisbiy tirqish tanlanadi. Bunda tavsiyalardan yoki nisbiy tirqishning o'rtacha qiymatidan aniqlovchi empirik formuladan foydalaniadi:


$$\psi \approx 0,8 \cdot 10^{-3} v^{0,25}, \quad (4.8)$$

bu yerda,  $v$  – sifanining aylana tezligi. Nisbatan kichik diametrli vallar uchun (250 mm gacha) tirqishni standart o'tqizishlar (odatda, H7/f7, H9/e8, H7/e8, H9/d9) bilan moslashtirib olish kerak. (4.5) va (4.6) formulalardan ko'rinishicha, nisbiy tirqish  $\psi$  ning qiymati podshipnik yuklanish qibiliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.


3. Moy navi va uning o'rtacha harorati tanlanadi. Moyning qovushoqligi va uning qo'llanilish sohalari standart bilan tavsiya etiladi. Moy qovushoqligining uning haroratiga bog'liqligi grafiki 4.5-shaklda ko'rsatilgan.

Moyning o'rtacha ishchi harorati, odatda,  $t_{0r} = 45 \dots 75^{\circ}\text{C}$  oraliqda olinadi.  $t_{0r}$  va 4.5-shakldagi grafik bo'yicha moyning o'rtacha qovushoqlik qiymati hisoblanadi.

4. (4.6) formula va podshipnik yuklanish koefitsienti hisoblanadi hamda 4.6-shakldagi grafik bo'yicha  $\chi$  aniqланади. So'ngra (4.7) formula bo'yicha  $h_{min}$  hisoblanadi.



4.5-shakl. Moy qovushoqligining uning haroratiga bog'liqligi:  
1, 2, 3, 4 – 45, 30, 20 va 12 markali industrial moylar;  
5 – 22 markali turbina moyi



4.6-shakl. Podshipnik yuklanish koeffitsienti  $S_F$  bo'yicha nisbiy ekssentrиситет  $\chi$  ni aniqlash grafigi

5. Suyuqlikda ishqalanish sharoiti buziladigan holdagi moy qatlami qalinligining kritik qiymati aniqlanadi:

$$h_{kt} = R_{z1} + R_{z2}. \quad (4.9)$$

Sirtlarning g'adir-budirliklari  $R_{z1}$  va  $R_{z2}$  (4.1) shartga binoan, standart bo'yicha 6,3–0,2 mkm oraliqda qabul qilinadi. Bunda sapfa uchun  $R_z=3,2$  dan, ustquyma uchun  $R_z=6,3$  dan yuqori bo'lmasligi kerak.

6. Moy qatlami qalinligi bo'yicha podshipnik ishonchlilik zaxirasining koeffitsienti aniqlanadi:

$$s_h = h_{min} / h_{kr} \geq [s_h] \approx 2. \quad (4.10)$$

Ishonchlilik zaxira koefitsientining hisobi sharoitlar foydalanish sharoitlaridan (tayyorlash aniqligi, yuklanish, harorat sharoiti va sh.k.) chetga chiqishi hisobga olinadi.

Shu bilan podshipnikning taxminiy hisobi tugaydi. Bu hisobda moy harorati taqriban olinadi. Haqiqatda harorat, moy qovushoqligi ham boshqacha bo'lishi mumkin, demak, podshipnik yuk ko'taruvchanligi yoki moy qatlami qalinligi  $h_{min}$  ham boshqacha bo'ladi. Taxminiy hisobning noaniqligi zaxira koefitsientining (4.10) formula bo'yicha qabul qilingan yuqori qiymatlari va quyidagi tajribaviy tavsiyalar asosida moylash turini tanlash bilan kompensatsiya qilinadi:

$\sqrt{pv^3} < 16 \cdot 10^3$  podshipnikni sovutmasdan halqaviy moylash yetarli bo'ladi;  $\sqrt{pv^3} \approx (16-32) \cdot 10^3$  da halqaviy moylashni qo'lllaganda korpus yoki korpusdagi moyni sovutish yetarli bo'ladi;  $\sqrt{pv^3} > 32 \cdot 10^3$  da bosim ostida sirkulyatsion moylashni qo'llash kerak. Mas'uliyatli holatlarda suyuqlikda ishqalanish sharoiti hisobi moylash sharoitining issiqlik hisobi bilan to'ldiriladi.


#### 4.4. Sirpanish podshipniklari konstruksiyalari va materiallari

Sirpanish podshipniklarining konstruksiyalari turliha bo'ladi. Ular ko'pincha podshipnik o'rnatiladigan mashina konstruksiyasiga bog'liqidir. Sirpanish podshipniklarining prinsipial konstruktiv turlarini ko'rib chiqqamiz.


Ko'pincha podshipniklar maxsus korpusga ega bo'lmaydi. Bunda ustquymalar bevosita mashina stanicasi (4.7, a shakl) yoki ramasi (4.7, b shakl)ga o'rnatiladi. Masalan, ko'pgina dvigatel, turbina, stanok, reduktor va boshqalarning podshipniklari shunday o'rnatilgan. Alohida kor-

pusli podshipniklar, asosan, konveyer, yuk ko'tarish mashinalari, transmissiya va sh. k. larda o'matiladi (4.2 va 4.7-shakllar). Bu holda podshipniklar ferma, devor, kolonnalarda o'rnatalidi.

Korpus va ustquyma ajraladigan yoki ajralmaydigan boladi. Ajraladigan podshipnik valni oson joylashtirish va ustquyma yeyilganda uni qayta yo'nib podshipnikni ta'mirlashga imkon beradi. Ajralmaydigan podshipniklar arzon. Bu podshipniklardagi ustquymalar korpusga presslab kiritiladi.



4.7-shakl. Sirpanish podshipniklari konstruksiyasi




4.8-shakl. Ajraladigan va ajralmaydigan sirpanish podshipniklari

Ustquyma ajralish sirtini  $F_r$  yuklanishga perpendikulyar yoki shu holatga yaqin joylashtirish tavsiya etiladi (4.8-a shakl). Bunda yuklanish qabul qiluvchi moy qatlaming uzlusizligini buzmaydi.

Valning katta deformatsiyalari yoki o'rnatishdagi qiyinchiliklar sababli o'zi o'mashadigan podshipniklarni qo'llash tavsiya etiladi (4.8-b-shakl). Bu podshipniklarning sferik sirti ularga val o'qi yo'nalishida burilish imkonini beradi.


Suyuqlikda ishqalanish sharoitida ishlaydigan tovontaglikda ponasimon tirkish hosil qilish maqsadida ponasimon moylash ariqchalar segment shaklida tayyorlanadi. (4.9, a shakl). Ikkinci holda tovontaglik tebranadigan segmentlar bilan tayyorlanadi (4.9. b shakl). Tovontaglikda aylana bo'ylab joylashgan bir necha segment bo'ladi. Segmentni tayanchi sfera bo'lib, uning o'qi simmetriya o'qiga nisbatan shunday surilgan bo'ladiki, moyning tirkishdagagi notejis bosimida ular muvozanatda bo'ldi. Tovon qo'zg'almas bo'lganda, segment u bilan to'liq tutashadi. Tovon aylanganda, segment ostiga moy tortiladi va u  $\beta$  burchakka og'ib, bu burchak aylanish takroriyligi ortishi bilan ko'payadi. Shu bilan ponasimon tirkish avtomatik sozlanadi va suyuqlikda ishqalanish sharoiti saqlanib qoladi.



4.9-shakl. Tovantagliklarni moylash konstruksiyalari

Podshipnikka moy keltirishda sapfaning aylanishi bo'yicha shunday joyda joylashtiriladiki, bu yerda gidrodinamik bosim  $p$  bo'lmasligi kerak. Podshipnikka moy keltirish ko'pincha tepadan (4.8-shakl) yoki yon tomondan (4.7-shakl) amalga oshiriladi. Moyni bosim zonasidan uzatish podshipnik yuklanish qobiliyatini sezilarli kamaytiradi (4.10-shakl). Bu shaklda moyni yuqoridan keltirish holatiga xos bosim epyurasi shtrix chiziq bilan ko'rsatilgan. Bu chiziq moy keltiriladigan joyda uzilgan bo'lib, buning sababi – moy keltiruvchi kanaldagi bosim podshipnik tirkishidagi bosimdan kichik bo'ladi.

Sapfa uzunligi bo'yicha moy moylash kanali bilan bog'langan ariqchalar yordamida taqsimlanadi (4.8. 4.9-shakllar). Podshipnikka moy maxsus qurilmalar (pilikli va tomchilatib turadigan moylagichlar, moylash halqalari va sh.k.), moslamalar yoki nasos (plunjjerli, shesternyali va boshqa)lar yordamida bosim ostida yuboriladi.



4.10-shakl. Podshipnikka moy keltirishning yuklanish qobiliyatiga ta'siri

Amalda podshipniklar suyuqlikda ishqalanish sharoitlarining barqarorligi buzilishi sapfa vibratsiyasiga olib keladi. Vibratsiya bo'lishi, asosan, tezyurar va yengil yuklangan podshipniklar uchun hos bo'ladi. Vibratsiya hosil bo'lishi belgilardan biri  $\chi$  ning kichik qiymati ( $\leq 0.5$ ) bo'ladi. Vibratsiyani yo'qotish maqsadida ustquymalar ellipssimon yo'niladi, segment podshipniklar ishlataladi, moy keltirish joyi o'zgartiriladi va sh. k. konstruktiv yechimlar qo'llaniladi.

**Gidrostatik podshipniklar.** Sekinyurar og'ir vallarda burilishga qarshilik kam bo'lishi talab etiladi, gidrodinamik ishqalanishni ta'minlash esa mumkin bo'lmaydi, shu sababli hidrostatik podshipniklar qo'llanadi. Bu podshipniklarda yuklanish qabul qiladigan moy qatlami moyni sapfa ostiga nasosda keltirilib hosil qilinadi. Nasosning bosimi shunday tanlanadiki, bunda sapfa moyda qalqib chiqishi kerak.

Gidrostatik podshipniklar yana quyidagi hollarda ishlataladi: pretsezion mashinalarda valni markazlashtirish aniqligini oshirish, og'ir yuklangan podshipniklarni ishga tushirishda moylashning hidrodinamik moylash sharoitiga yetganicha yeyilishni kamaytirish va ba'zi boshqa hollarda.

**Havo yoki gaz bilan moylanadigan podshipniklar.** Bunday podshipniklar tezyurar vallar ( $n > 10000 \text{ min}^{-1}$ ) nisbatan kichik yuklanish uzatganda hamda katta harorat bilan ishlaganda qo'llanadi.

Bunday podshipniklar aerostatik va aerodinamik bo'ladi. Aerostatik podshipniklarda, xuddi hidrostatik podshipniklardagi kabi, sapfa siqilgan

havoni uzlusiz keltirilishi natijasida hosil bo'ladigan havo yostiqchasi hisobiga ushlab turiladi, aerodinamik podshipniklarda havo yostig'i havoning ponasimon tirqish ostiga o'zi tortilishi hisobiga hosil bo'ladi (xuddi gidrodinamik podshipniklar kabi).

**Ustquyma materiali** (podshipnikning asosiy detali) quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1) suyuqlikda ishqalanish sharoitlari hosil bo'limganda (ishga tushirishlar, to'xtatishlar) ishqalanish koeffitsientining kichikligi va yulinishga yuqori qarshilikka ega bo'lishi;

2) ishlashib ketishish qobiliyati bilan birga yetarli yeyilishga bardoshli bo'lishi. Ustquymaning yeyilish bardoshliligi sapfaning yeyilish bardoshliligidan past bo'lishi kerak, chunki valni almashtirish ustquymani almashtirishga nisbatan ancha qimmatga tushadi;

3) yetarli yuqori bo'lgan mexanik xarakteristikalar va. ayniqsa, zarbiy yuklanishlar ta'sir etganda mo'rt buzilishga yuqori qarshilikka ega bo'lish.

Ustquymalar turlicha materiallardan tayyorlanadi (4.1-jadval). Qalayli, qo'rg'oshinli, kreminiyl, alyuminli va boshqa bronzalar yetarli yuqori mexanik xarakteristikalarga ega bo'ladi. lekin yomon ishlashib ketishadi va moyning achib qolishiga olib keladi. Podshipniklarni katta seriyaviy va yalpi ishlab chiqarishda bronzalar keng qo'llaniladi.

Cho'yan tarkibida erkin grafit borligi sababli yaxshi antifriksion xususiyatga ega bo'ladi. lekin bronzaga nisbatan yomon ishlashib ketadi. Cho'yan sekinyurar va kam yuklangan podshipniklarda ishlatiladi.

Qalay, qo'rg'oshin va boshqa asoslardagi babbitt sirpanish podshipniklari uchun eng yaxshi material hisoblanadi. U yaxshi ishlashib ketadi, moyni achitmaydi, val kam yeyiladi, yulinishga qarshi turg'un bo'ladi. Babbitning salbiy xususiyatlari jumlasiga erish haroratining pastligi ( $110^{\circ}\text{C}$  gacha qo'llanadi), mo'rtligi va tannarxning qimmatligi kiradi. Babbit bilan ustquymaning faqat ishchi sirti 1–10 mm qalinlikda quyiladi. Bunda ustquymaning o'zi bronza, po'lat, alyumin va sh.k. lardan tayyorlanadi.

Podshipniklar mustahkamligini oshirish maqsadida, ayniqsa o'zgaruvchan va zarbiy yuklanishlar ta'sir etganda, bimetall ustquymalar ishlatiladi. Ularda po'lat asosga yupqa qatlam antifrikstion material – bronza, kumush, alyuminiy va sh. k. qoplanadi. Bimetall podshipniklar yuqori yuklanish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Yog'och yoki ip-gazlama asosidagi plastmassalar hamda yog'och, rezina va boshqa materiallar suv bilan moylash sharoitlarida ishlay oladi. Shu sababli ularni gidroturbina va kimyoiy mashinasozlikdagi nasoslar va sh.k.larda qo'llanadi. Plastmassaning yuqori elastikligi sababli podshipniklar zarbiy yuklanishlarga chidashi va sapfa qiyaligini kompensatsiya qilishi mumkin. Kapron tipidagi va boshqa plastmassalar o'z xususiyatlarini yaxshi namoyon etdi. Bu plastmassalarning yupqa qatlami metall ustquymaning ishechi sirtlariga suriladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bunday ustquymalar moylash buzilishiga kamroq ta'sirchan bo'ladi va sezilarli yuklanishlarga chidaydi.

Metallokeramik ustquymalar bronza yoki temir kukunlaridan yuqori haroratda grafit, mis, qalay yoki qo'rg'oshin qo'shib presslab tayyorlanadi. Bunday ustquymalarning eng katta afzalligi ularning g'ovakligi hisoblanadi. G'ovaklar ustquyma hajmining 20–30% gacha qismini egallaydi va moy o'tkazuvchi ariqcha sifatida ishlataladi. Moy shmdirilgan metallokeramik podshipnik uzoq muddat davomida moylanmasdan ishlashi mumkin. Mojni to'ldirilish davriy shmdirish yoki ustquymani moyli rezervuarga botirish hisobiga bo'ladi. Moyli rezervuar podshipnik korpusida hosil qilinadi. Bunda moy sarfi 10 bora kamayadi.

### Nazorat savol va topshiriqlari

1. Podshipniklar ishqalanish turi va qabul qilayotgan yuklanishi bo'yicha qanday turlarga ajratiladi?
2. Sirpanish podshipniklarida suyuqlikda va yarim suyuqlikda ishqalanish sharoitlari qanday aniqlanadi?
3. Suyuqlikda ishqalanish hosil bo'lishining qanday asosiy shartlari bor?
4. Sirpanish podshipniklarini hisoblaganda val diametridan konstruksiyaning qaysi parametrlari aniqlanadi?
5. Sirpanish podshipniklarini tayyorlashda qanday materiallar ishlataladi?

### 4.5. Dumalash podshipniklari

Dumalash podshipniklarning qo'llanilishi sirpanib ishqalanishni dumalab ishqalanishga almash tirish imkonini berdi. Dumalab ishqalanish moyga unchalik bog'liq bo'lmaydi. Dumalashdagi shartli ishqagan

lanish koeffitsienti kichik va sirpanish podshipniklaridagi suyuqlikdagi ishqalanish koeffitsientiga yaqin bo'ladi ( $f \approx 0,0015 - 0,006$ ). Bunda moylash tizimi va podshipnikka xizmat ko'rsatish sezilarli soddalashadi, moy keltirishdagi qisqa onli uzilishlardan (masalan, ishga tushirish, yuklanish va tezlikni keskin o'zgarishi davrlarida) yemirilish ehtimolligi kamayadi.

Dumalash podshipniklarining konstruksiyasi ularni standart mahsulot sifatida ko'plab miqdorda ishlab chiqarishga imkon beradi, bu esa uni ishlab chiqarishning narxini sezilarli kamaytiradi. Dumalash podshipniklarining ko'rsatilgan asosiy sifatlari ularning keng tarqalishini ta'minladi. Katta korxona va firmalarda tayyorlanadigan podshipniklar soni bir necha yuz millionga yetadi.

Dumalash podshipniklarining kamchiliklari: ajraladigan konstruksiya bo'imasligi; nisbatan katta radial o'lchamlar; dumalash jismlarining kinematika va dinamikasi (markazdan qochma kuchlar, giroskopik momentlar va boshqalar) bilan bog'liq tezyurarlikning cheklanishi; vibratsion va zarbiy yuklanishlar hamda tajovuzkor muhitda ishlatilgan (masalan, suv)da ishslash qobiliyatining pastligi.

## **1. Dumalash podshipniklarining turlari. Ularning belgilanishi**

4.11-shaklda dumalash podshipniklarining asosiy turlari ko'rsatilgan. Dumalash podshipniklari dumalash jismlarining shakli, yuklanish qabul qilish yo'nalishi, dumalash jismlarining qatorlar soni va konstruktiv o'ziga xosliklari bo'yicha turlarga ajratiladi.

Dumalash jismining shakli bo'yicha sharikli va rolikli podshipniklaraga ajratiladi. Rolikning shakli bo'yicha ular quyidagi turlarga ajratiladi:

- qisqa silindrsimon rolikli;
- uzun silindrsimon rolikli;
- burama rolikli;
- bochkasimon rolikli;
- konussimon rolikli;
- ninasimon rolikli.


Qabul qilayotgan yuklanish – kuch yo'nalishi bo'yicha quyidagi podshipniklar bo'ladi:

a) radial – faqat radial kuchni qabul qiladigan yoki radial va qisman o'q bo'yicha kuchni qabul qiladigan;

- b) tirak, faqat o'q bo'yicha kuchni qabul qiladigan;
- d) radial-tirak, radial va o'q bo'yicha (bo'ylama) kuchlarni qabul qiladigan;
- e) tirak-radial – asosan o'q bo'yicha, qisman radial kuchlarni qabul qiladigan.

O'rashishi bo'yicha – o'zi o'rashadigan va o'zi o'rashmaydigan podshipniklarga ajratiladi.

Dumalash jismlarining qatori bo'yicha – bir, ikki, ko'p (4 va undan ko'p) qatorli podshipniklar bo'ladi.



4.11-shakl. Dumalash podshipniklarining turlari

Radial sharikli podshipniklar (4.11-shaklda 1) eng ko'p tarqalgan va arzon bo'ladi. Ular valning ozgina qiyalanishiga (1/4 gradusgacha) yo'l qo'yadi va bo'ylama kuchni (radial kuchdan kamroq) qabul qiladi. Bu podshipniklar mashinasozlikda keng tarqalgan.

Radial rolikli podshipniklar (4.11 shaklda 4) uzaytirilgan kontakt sirti hisobiga sharikli podshipnikka nisbatan ancha ko'p yuklanish qabul qiladi. Lekin ular o'q bo'yicha kuchni qabul qila olmaydi va valning qiyalanishida yomon ishlaydi. Silindrsimon va konussimon rolikli podshipniklarda kombinastiyalashtirilgan (bochkasimon) roliklar qo'llanilishi hisobiga valning muqarrar qiyalanishidan yuklanish to'planishi sezilarli kamayadi. Xuddi shunday o'xshatishni radial-tirak sharikli 3 va rolikli 5 konussimon (4.11-shaklda 5) podshipniklar orasida ham keltirish mumkin.

O'zi o'rashadigan sharikli (4.11-shaklda 2) va rolikli (4.11-shaklda 6) podshipniklarni valning qiyalanishi ancha sezilarli (2-3 gradusgacha) bo'lganda qo'llash mumkin. Ularning tashqi halqasi sferik sirt va roligi bochkasimon shaklda bo'ladi. Bu podshipniklar kichik miqdordagi o'q bo'yicha yuklanishlarni qabul qiladi.

Ninasimon podshipniklar (4.11-shaklda 7)ni qo'llanishi sezilarli yuklanishlarda gabarit o'lechamlar (diametr)ni kamaytirishga imkon beradi. Tirak podshipnik (4.11-shaklda 8) faqat o'q bo'yicha kuchlarni qabul qiladi va val o'qining qiyalanishida yomon ishlaydi.

Dumalash podshipniklari, asosan, to'rtta detaldan: sirtqi va ichki halqlari, separator va dumalaydigan element (jism)dan tuzilgan bo'ladi. Detallari juda mustahkam, podshipniklar uchun mo'ljalangan maxsus po'latdan yasaladi. So'nggi yillarda dumalaydigan detallarning hamda separatorning Al-4B shishaplastdan, tekstolitdan va kaprondan tayyorlanganligini uehratish mumkin bo'lib qoldi. Bunday detallarga ega bo'lgan podshipniklar shovqinsiz ishlaydi va ularda dinamik kuchlarning salbiy ta'siri deyarli sezilmaydi.

**Dumalash podshipniklarining shartli belgilanishi.** Podshipniklarning halqlaridan birida uning shartli belgilanishi va tayyorlovchi zavod ko'rsatilgan bo'ladi. Shartli belgi raqam va harflardan iborat bo'lib, podshipnik standartlashtirilganligining belgisidir.

Podshipnik shartli belgisida uning ichki halqasi diametri, seriyasi, turi, konstruktiv o'ziga hosligi va aniqlik darajasi ko'rsatiladi. Bu ko'rsatkichlarning hammasi raqamlar bilan belgilanadi. Podshipnik

aniqlik darajali chap tomondagi raqam bilan asosiy raqamlardan tire orqali ajratib ko'rsatiladi. Aniqlik darajasidan oldin podshipnik radial tirqishi qatori qo'yiladi. Agar podshipnik parametrlari normal qatorga bo'yusuna, radial tirqish va aniqlik darajasi ko'rsatilmaydi. Podshipnikning asosiy belgisida 3 tadan 7 tagacha raqamlar ishlataliladi.

O'ng tarafdan birinchi ikkita raqam podshipnikning ichki diametrini belgilaydi. 20 dan 450 mm gacha ichki diametrli podshipnikda bu raqam ichki diametrning 5 ga bo'linmasini bildiradi. Bu qoida  $d < 20$  mm li podshipniklarga taalluqli bo'lmaydi. Ular uchun oxirgi ikkita raqam quyidagi ichki diametrlarni bildiradi:

00–10 mm;

01–12 mm;

02–15 mm;

03–17 mm.

O'ngdan uchinchi va yettinchi raqam  $d > 9$  mm dan hamma diametrlardagi podshipnik seriyasini bildiradi:

1 – maxsus yengil;

2 – yengil;

3 – o'rta;

4 – og'ir;

5 – yengil keng;

6 – o'rtacha keng;

9 – o'ta yengil.

O'ngdan to'rtinchi raqam podshipnik turini bildiradi:

0 – radial sharikli bir qatorli;

1 – radial ikki qator sharikli sferik;

2 – radial kalta silindr rolikli;

3 – radial ikki qator rolikli sferik;

4 – uzun silindrsimon rolikli yoki ninasimon;

5 – burama rolikli;

6 – sharikli radial-tirak;

7 – konusimon rolikli radial-tirak;

8 – sharikli tirak;

9 – rolikli tirak.

Podshipnikning shartli belgilanishida o'ng tomondan beshinchgi va keyingi qo'yilgan raqam va harflar podshipnikning konstruktiv o'ziga xosligini bildiradi.


Podshipniklarning konstruktiv o'ziga xosligi shariklar kontakti bur-chagining o'zgarishi, ichki va tashqi halqalarda mahkamlovchi ariqchalar, bo'rtiqlar, himoyalovchi shaybalar borligi, separator konstruksiyasi va materiali o'zgarishi, shovqin bo'yicha maxsus talablar va sh. k. larni bildiradi. Podshipnikning aniqlik darajasi tire orqali qo'yiladi va quyidagilarni bildiradi:

- 0 – normal aniqlik darajasi;
- 2 – juda aniq (pretseziondan yuqori);
- 4 – aniq (pretsezion);
- 5 – baland yuqorilikdagi;
- 6 – yuqori aniqlikdagi daraja.

Shartli belgilashda so'nggi belgilovchi raqamlardan keyin turuvchi nollar tashlab yuboriladi.

#### 4.6. Dumalash podshipniklarining ishlash sharoitlari

##### Dumalash jismlari o'rtasida yuklanishning taqsimlanishi



4.12-shakl. Podshipnik shariklari o'rtasida yuklanish (kuch)ning taqsimlanishi

4.12-shakldagi kuchlarning muvozanatidan:

$$F_r = F_0 + 2F_1 \cos \gamma + 2F_2 \cos 2\gamma + \dots + 2F_n \cos n\gamma, \quad (4.11)$$

bu yerda,  $\gamma = 360^\circ / z$ ;  $z$  – shariklar soni.

(4.11) tenglamaga faqat shunday hadlar kirganki, ular uchun *ny* burchak  $90^\circ$  dan kichik, chunki podshipnikning yuqori yarmi yuklanmaydi.

$F_0, F_1, F_2$  kuchlar o'rtasidagi bog'lanishni shariklar va halqalar o'lchamining mutlaq aniqligi va radial tirqish bo'limganda kontakt deformatsiyalarini hisobga olib tadqiq etilganda,

$$F_1 = F_0 \cos^2 \gamma; \dots; F_n = F_0 \cos^2 n\gamma$$

ekanligini aniqlashga imkon beradi.

Bu qiyatlarni (4.11) formulaga qo'yib, tenglamani  $F_0$  bo'yicha echsak,

$$F_0 = \frac{F_1}{(1 + 2 \cos^2 \gamma + 2 \cos^2 2\gamma + \dots + 2 \cos^2 n\gamma)} \quad (4.12)$$

ni hosil qilamiz.

Podshipnikda qo'llaniladigan shariklarning istalgan soni uchun  $\frac{z}{(1 + 2 \cos^2 \gamma + 2 \cos^2 2\gamma + \dots + 2 \cos^2 n\gamma)} \approx 4.37$  ekanligi hisoblangan. Bunda

$$F_0 = 4.37 F_r / z.$$


Radial tirqishning va detallar o'lchamining xatoliklariga tuzatish kiritilsa, amalda

$$F_0 = 5F_r / z; \quad F_n = 5F_r \cos^2 n\gamma / z. \quad (4.13)$$

Yuklanish taqsimlanishi ko'p jihatdan podshipnikdagi tirqishga va detallarining geometrik shakli aniqligiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli podshipnik tayyorlanish aniqligiga yuqori talablar qo'yiladi. Podshipnikdan soydalanishda uning yeyilishidan tirqish ortadi. Bunday ishslash sharoitida podshipnik holati ishdan chiqqunga qadar beto'xtov yomonlashib boradi.

**Podshipnik detallaridagi kontakt kuchlanish.**  $F_0, F_1, \dots, F_n$  larning ma'lum qiyatlarida podshipnikdagi kontakt kuchlanishni hisoblash

mumkin. Tegishli kontaktlar uchun hisoblash formulalarini maxsus ma'lumotnomalardan topish mumkin. Amalda podshipniklar hisobi (tanlash) kuchlanish bo'yicha emas, yuklanish bo'yicha bajariladi, shu sababli kuchlanishlar hisobi formulalarini bu yerda ko'rmaymiz.



4.13-shakl. Podshipnik halqalari va shariklari tutashuvida kuchlanishning o'zgarishi

Podshipnik halqalari va shariklari tutashuvida sirtlarning har bir nuqtasida hosil bo'ladigan kuchlanish noldan boshlanuvchi sikl bo'yicha o'zgaradi (4.13-shakl), bunda ichki halqa aylanganda *a* va *b* nuqtalardagi kuchlanishlar tasvirlangan (4.12-shakl). Halqaning yurish yo'lakchalari har bir nuqtasidagi kuchlanishlar sikli davri navbatdagi sharikni shu nuqtagacha siljish vaqtiga teng bo'ladi.

O'zgaruvchan kuchlanishlar ta'siridan podshipnik detallari ishchi sirtlarining toliqishdan yemirilishi (uvalanish) sodir bo'ladi. Toliqishga qarshilik ko'rsatish podshipnikning qaysi (ichki yoki tashqi) halqasi aylanishiga bog'liq bo'ladi. Podshipnikning ichki halqasi aylangan varianti qulay bo'ladi (bunda tashqi xalqa qo'zg'almas bo'ladi). Haqiqatda ham, bir xil  $F_0$  yuklanishda halqaning *a* nuqtasidagi kuchlanish *b* nuqtasidagi kuchlanishdan ko'p bo'ladi, chunki *a* nuqtada sharik qavariq. *b* nuqtada esa botiq sirt bilan tutashadi (4.12-shakl). Bunday sharoitda teng kuchlanishlar sikli, eng avvalo, *a* nuqtada toliqishdan yemirilish bo'lishiga olib keladi. Halqalarning ishslash sharoitlarini tenglashtirish uchun *a* nuqtadagi sikllar sonini *b* nuqtadagi


sikllar soniga nisbatan kamaytirish kerak. Ichki halqa aylanganda bunday kamayish yuz beradi, chunki yarim aylanishda  $a$  nuqta butunlay yuklanmaydi, aylanishning ikkinchi yarmida esa to'liq yuklanmaydi (4.13-shakl).

**Podshipnik kinematikasi.** Podshipnik sharigi planetar harakat qiladi. 4.14-shaklda podshipnik ichki halqasi aylanganda tezliklar plani ko'rsatilgan. Bunda

$$v_1 = \frac{\omega D_I}{2}; \quad v_0 = \frac{v_1}{2}.$$

Sharikni o'z o'qi atrofida aylanishidagi burchak tezligi:

$$\omega_{sh} = \frac{2(v_I - v_0)}{D_{sh}} = 0,5\omega \frac{D_I}{D_{sh}}, \quad (4.14)$$



4.14-shakl. Podshipnik sharigida aylanma tezliklarning o'zgarishi

Sharkning val o'qi atrofidagi burchak tezligi yoki separatorning burchak tezligi:


$$\omega_s = \frac{2v_0}{D_m} = 0,5\omega \frac{D_I}{D_I + D_{sh}} \approx 0,5\omega. \quad (4.15)$$

Shunday qilib, separator val bilan bir tomon, lekin val burchak tezligining yarmiga teng burchak tezlik bilan aylanmoqda.

(4.15) formula bo'yicha separatorning burchak tezligi sharik o'lchamiga bog'liq bo'ladi. O'zgarmas  $D_1$  da  $D_{sh}$  qancha katta bo'lsa,  $\omega_s$  shuncha kam bo'ladi. Shariklar noaniq tayyorlanganda, ularning kattalari separatorni to'xtatishga, kichiklari esa uni tezlatishga harakat qiladi. Separator va shariklar orasida kattagina bosim va ishqalanish kuchlari hosil bo'ladi. Buning natijasida shariklar va separator yeyilishi, podshipnikda yo'qotishlar bo'lishi va separator sinishi mumkin. Shu sababli podshipnik detallarini tayyorlashda yuqori aniqlik talab etiladi va separatorning ma'suliyati oshadi.

Sharikning halqalar bilan kontakti biror *aba* yoy bo'yicha yuz beradi (4.14-shakl). Sharikning dumalashida  $a$  va  $b$  nuqtalar tezligi har hil bo'ladi. Agar  $b$  nuqtada sirpanish bo'lmasa,  $a$  nuqtada sirpanish bo'ladi. Shunday qilib, sharikli podshipniklarda dumalab ishqalanish bilan birga sirpanib ishqalanish ham yuz beradi. Bu sharikli podshipniklardagi qo'shimcha yeyilish va yo'qotishlarning hosil bo'lishiga olib keladi. Rolikli podshipniklarda hamma kontakt nuqtalari rolik o'qidan bir xil uzoqlashtirilgan. Bu yerda sof dumalash kuzatiladi. Rolikli podshipniklarda yo'qotish va yeyilish sharikli podshipniklarga nisbatan kam bo'ladi.

**Podshipnik dinamikasi.** Podshipnikning har bir shariji yoki roligi (4.15,  $a$  shakl) tashqi halqaga markazdan qochirma kuch bilan qisiladi.



4.15-shakl. Podshipnik sharigiga ta'sir qiladigan markazdan qochirma kuch va giroskopik moment

$$F_{mq} = m\omega_s^2 / D_m / 2, \quad (4.16)$$

bu yerda,  $m$  – sharik yoki rolik massasi.

Avval yuqorida tashqi halqadagi kontakt kuchlanishlar ichki halqadan kamligi aytilgan edi, shu sababli markazdan qochirma kuch ta'siridan qoshimcha yuklanish podshipnik ishlovchanlik qobiliyatiga deyarli ta'sir etmaydi. Bu holat ushbu podshipnik uchun normal hisoblangan aylanish takroriyigining ma'lum qiymatlari uchun haqiqiy bo'lib qoladi. Tezyurar podshipniklarda markazdan qochirma kuchning ta'siri ortadi. Markazdan qochirma kuchlar, ayniqsa, tirak podshipniklar uchun noqulay bo'ladi (4.15, *b* shakl). Bu holatda ular halqalarini ponaga o'xshash ajratadi va separatorga bosim ko'rsatadi, bunda ishqalanish va yeyilish ortadi.

Tirak podshipniklar sharigiga markazdan qochirma kuchdan tashqari, sharik o'qining fazoda o'zgarishi bilan bog'liq giroskopik moment ham ta'sir etadi (4.15, *b* shakl):

$$M_G = J\omega_{sh}\omega_C, \quad (4.17)$$

bu yerda,  $J$  – sharikning o'z o'qiga nisbatan inersiya momenti. Giroskopik moment ta'siridan sharik dumalash yo'naliishiga perpendikulyar yo'naliishda burilishga harakat qiladi.

Agar

$$M_G > M_{ishq} = F/D_H \quad (4.18)$$

bolsa, burilish mumkin bo'ladi. (4.18) formulada  $M_{ishq}$  – sharik va halqalar orasidagi ishqalanish kuchining momenti;  $F$  – sharikka tushadigan kuch. Shariklarni  $M_G$  ta'siridan buralishi qoshimcha yo'qotish va yeyilislarga sabab bo'ladi.

Radial podshipniklarda sharik yoki rolik aylanish o'qining yo'naliishi fazoda o'zgarmaydi. Shu sababli ularda giroskopik moment hosil bo'lmaydi. Radial-tirak podshipniklar oraliq holatni egallaydi.

Ularda

$$M_G = J\omega_{sh}\omega_S \sin \alpha, \quad (4.19)$$

bu yerda,  $\alpha$  – bosim burchagi (4.11-shakl).

Shunday qilib, dinamik omillarning salbiy ta'siri eng ko'p tirak podshipniklarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun tirak podshipniklar

uchun aylanish takroriyliklarining ruxsat etilgan qiymatlari radial va radial-tirak podshipniklarga nisbatan ancha past bo'ladi. Yuqori aylanish takroriyliklarida tirak podshipniklarni radial-tirak podshipniklar bilan almashtirish tavsiya etiladi.

**Podshipniklarni moylash.** Moylash podshipnikning xizmat qilish muddatiga sezilarli ta'sir etadi. U ishqalanishni kamaytirib, kontakt kuchlanishni pasaytiradi, zanglashdan himoya qiladi, podshipnikni sovutishga sabab bo'ladi. Dumalash podshipnigini moylash uchun plastik (quyuq) yog'lar va suyuq moylar qo'llanadi. Suyuq moy sovutish va yo'qotishlarni kamaytirishda samarali bo'ladi. Dumalash podshipnigini moylash uchun zarur bo'lgan miqdor juda kam bo'ladi. Moyning ortiqcha miqdori podshipnik ishini faqat yomonlashtiradi. Masalan, separatorni moyga botirib qo'yilsa, u separatorning erkin aylanishiga qarshilik ko'rsatadi, podshipnikdagagi yo'qotishlar va qizish ortadi. Podshipnikli uzellarni chang va ifloslik tushishidan himoya qilish zarur. Aks holda, ularning chidamliligi keskin kamayadi.

#### **4.7. Dumalash podshipniklarini amaliy hisoblash (tanlash)**

**Podshipnik ishchanlik qobiliyati va hisobining asosiy mezonlari.** Dumalash podshipniklari ishdan chiqishining asosiy sabablarini ko'rib chiqamiz.

Toliqishdan uvalanish podshipniklarda normal sharoitda uzoq muddat ishlagandan keyin kuzatiladi.

Yeyilish abraziv zarrachalar (chang va ifloslik) tushishidan yaxshi himoya etilmagan podshipniklarda sodir bo'ladi. Yeyilish avtomobil, traktor, tog'-kon, qurilish va shunga o'xshash mashinalar podshipniklarining asosiy yemirilish turi bo'ladi.

Tezyurar dumalash podshipniklari ancha qismining ishdan chiqishi separator buzilishi tufayli bo'ladi.

Halqalar va dumalash jismlari darz ketishi zarbiy hamda vibratsion o'ta yuklanish, podshipnikni noto'g'ri o'rnatish sababli halqalarining qiyalanishi, qisilib qolishi oqibatida ro'y beradi. Normal sharoitda ishlagan podshipniklarda bu tur yemirilish hosil bo'lmaydi.

Halqa ariqchalaridagi botiqliklar va ezilishlar ko'rinishidagi qoldiq deformatsiyalar og'ir yuklanishli sekinyurar podshipniklarda kuzatiladi.

Dumalash podshipniklarining zamonaviy hisobi faqat ikki mezon bo'yicha hisoblashga asoslangan:

1) qoldiq deformatsiyalar bo'yicha statik yuk ko'taruvchanlikka hisoblash;

2) toliqishdan uvalanish bo'yicha resurs (umrboqiyilik)ni hisoblash. Boshqa mezonlar bo'yicha hisoblar yaratilmagan, chunki bu mezonlar bir qator hisobi qiyin bo'lgan tasodifiy omillarga bog'liq bo'ladi.

Standart bo'yicha podshipniklar turlari va o'lchamlari soni cheklangan. Shu sababli har bir tip-o'lchamli podshipnikning yuk ko'taruvchanligi hisoblangan va tajribada aniqlangan.

Mashinalarni loyihalashda dumalash podshipniklari hisoblanmaydi va ularning konstruksiyasi tuzilmaydi, ularni shartli formulalar bo'yicha standartdan tanlab olinadi. Standart podshipniklarni tanlash uslubiyati ham standartlashtirilgan.

Dumalash podshipniklarini ikki xil tanlash mumkin: toliqishdan yemirilshning oldini olish uchun dinamik yuk ko'taruvchanlik bo'yicha; qoldiq deformatsiyaning oldini olish uchun statik yuk ko'taruvchanlik bo'yicha.

**Podshipniklarni dinamik yuk kutaruvchanlik bo'yicha tanlash.** Bu hisob aylanish takroriyligi  $n \geq 10 \text{ min}^{-1}$  da bajariladi.  $n = 1 \div 10 \text{ min}^{-1}$  bolsa, hisobda  $n = 10 \text{ min}^{-1}$  olinadi.

Tanlash sharti:

$$C_{(\text{talab etilgan})} \leq C_{(\text{pasport bo'yicha})}. \quad (4.20)$$

Pasport bo'yicha dinamik yuk ko'taruvchanlik  $C$  – bu shunday doimiy yuklanish bo'lib, uning ta'siridan 1 mln aylanishda sinalayotgan podshipniklarning 30% idan ko'pidan toliqish alomatlari kuzatilmaydi. C ning qiyatlari podshipniklar katalogida keltiriladi. Bunda yuklanish sifatida radial va radial-tirak (tashqi halqasi aylanmaydigan) podshipniklar uchun radial kuch, tirak va tirak-radial (halqalaridan biri aylanganda) podshipniklar uchun esa o'q bo'yicha (bo'ylama) kuch tushuniladi.

Dinamik yuk ko'taruvchanlik va resurs empirik munosabat bo'yicha bog'langan

$$L = a_1 a_2 \left( \frac{C}{P} \right)^p \quad \text{yoki} \quad C = P \sqrt[p]{L / (a_1 a_2)}, \quad (4.21)$$

bu yerda,  $L$  – resurs, mln aylanishlar;  $P$  – ekvivalent yuklanish (quyida keltirilgan); sharikli podshipniklar uchun  $p = 3$  va rolikli podshipniklar uchun  $p = \frac{10}{3} \approx 3,33$ ;  $a_1$  – ishonchlilik koefitsienti;  $a_2$  – metall sifati va ekspluatatsiya sharoitining o'zaro ta'sirini hisobga oluvchi umumlashgan koefitsient.

Kichik resurslarda  $p \leq 0,5C$  chekhanish qabul qilinadi, aks holda toliqishdan bo'limgan yemirilish sodir bo'ladi.

$C$  ning qiymati podshipnik materialining mustahkamligi bilan birga uning konstruktiv va texnologik xarakteristikalariga bog'liq bo'ladi.

Agar aylanishlar takroriyligi  $n$  doimiy bir xilda bo'lsa, nominal resursni soatlarda hisoblash qulay bo'ladi:

$$\left. \begin{aligned} L_h &= a_1 a_2 \left( \frac{C}{P} \right)^p \left[ \frac{10^6}{(60n)} \right] \text{ yoki} \\ L_h &= \frac{L \cdot 10^6}{(60n)}. \end{aligned} \right\} \quad (4.22)$$

$L_h$  ning tavsiyaviy qiymatlari jadvallarda keltiriladi.

**Ekvivalent dinamik yuklanish  $P$**  radial va radial-tirak podshipniklar uchun shunday shartli doimiy o'zgarmas radial yuklanish  $P_r$  bo'lib, uning ichki halqasi aylanadigan va tashqi halqasi qo'zg'almas bo'lgan podshipnikka ta'sir etishida podshipnik haqiqiy yuklanish va aylanishlaridagi umrboqiyligini ta'minlab beradi. Tirak va radial-tirak podshipniklar uchun ekvivalent dinamik yuklanish  $P_a$  – podshipnik halqlaridan biri aylanishidagi doimiy markaziy o'q bo'ylab yo'nalgan kuch bo'ladi:

$$\left. \begin{aligned} P_r &= (XVF_r + YF_a)K_{eht} K_T, \\ P_a &= (XF_r + YF_a)K_{eht} K_T, \end{aligned} \right\} \quad (4.23)$$

bu yerda,  $F_r, F_a$  – radial va o'q bo'ylab yo'nalgan kuchlar;  $X, Y$  – radial va o'q bo'ylab yo'nalgan yuklanishlar koefitsientlari (qiymatlari katalogda keltiriladi);  $V$  – aylanish koefitsienti, podshipnikning qaysi halqasi aylanishiga bog'liq bo'ladi (ichki halqa aylansa,  $V=1$ , tashqi halqa aylansa,  $V=1,2$ );  $K_{eht}$  – ehtiyot koefitsienti, yuklanish xarakteriga

bog'liq bo'ladi: yuklanish ohista bo'lsa,  $K_{\text{eh}} = 1$ , kuchsiz turkili yuklanishda  $K_{\text{eh}} = 1,3-1,5$ , kuchli turkili (zarbiy) yuklanishda  $K_{\text{eh}} = 2,5-3$ ;  $K_T$  – harorat (temperatura) koefitsienti (podshipnik tayyorlanadigan IIIX15 po'lati uchun  $t = 100^{\circ}\text{C}$  gacha bo'lsa,  $K_{\text{eh}} = 1$ ,  $t = 125 - 250^{\circ}\text{C}$  bo'lsa,  $K_{\text{eh}} = 1,05 - 1,4$  bo'ladi).

$X$  va  $Y$  ning qiymatlari  $F_d/(VF_t)$ ning nisbatiga qarab turlicha bo'ladi. Buning sababi shuki, bu nisbatning ma'lum bir  $c$  koefitsientga teng oralig'igacha qo'shimcha o'q bo'ylab yo'nalgan kuch podshipnik ish sharoitini yomonlashtirmaydi. Bu kuch podshipnikdagi radial tirqishni kamaytirib, dumalash jismlaridagi yuklanish (shu jumladan radialni ham) taqsimlanishini tekislaydi.

Yuklanish sharoitining o'zgaruvchanligi (4.21) formuladagi  $P$  yuklanishni ekvivalent yuklanish bilan almashtirib amalga oshiriladi:

$$P_r = \sqrt[3]{\sum P_i^3 L_i / \sum L_i}. \quad (4.24)$$

bunda  $P_i$  har bir yuklanish darajasini e'tiborga oladi (siklogrammani hisoblashga qarang);  $L_i = P_i$  yuklanishidagi mln aylanishlar soni.

Podshipniklar uchun ekvivalent yuklanishni hisoblashning noqulayligi shundaki, avvalgi tishli g'ildiraklarni hisoblashdagi ekvivalent sikllar sonini aniqlashdagi hisobdan foydalaniib bo'lmaydi. Bundan tashqari, (4.24) formula bo'yicha hisoblash uchun yuklanish siklogrammasini bilish kerak, u esa faqat ba'zi hollardagina ma'lum bo'ladi.

Agar tipovoy sharoit uchun grafiklardan foydalanilsa, hisob ancha soddalashadi. U holda,

$$L_{hE} = K_{HF} L_h, \quad (4.25)$$

bu yerda,  $L_{hE}$  – ekvivalent chidamlilik, soat;  $L_h$  – podshipnik ishlashining umumiyligi vaqt, soat;  $K_{HF}$  – yuklanish sharoitining koefitsienti.

Agar  $L_{hE}$  ma'lum bo'lsa, (4.21) formula bo'yicha,

$$L_E = 60 \cdot 10^{-6} n L_{hE} \text{ mln aylanish}. \quad (4.26)$$

$L_E$  ning qiymati (4.21) formula bo'yicha hisobni bajarishda ishlataladi, bunda  $L = L_E$  va  $P$  ni hisobiy yuklanishdan eng maksimali deb olinadi.

**Podshipniklarni statik yuk ko'taruvchanlik bo'yicha tekshirish va tanlash.** (4.21) formula bo'yicha yuklanish  $P$  resurs  $L$  ning kamayishi bilan ortadi va nazariy jihatdan uning chegarasi bo'lmaydi. Amalda yuklanish statik mustahkamlik yoki statik yuk ko'taruvchanlik yo'qolishi bilan chegaralanadi. Statik yuk ko'taruvchanlik quyidagi hollarda qo'llanadi: kichik aylanishlar takrorlanishida  $n < 1 \text{ min}^{-1}$  da podshipniklarni tanlash uchun, bunda yuklanish sikllari soni kam bo'ladi va toliqishdan yemirilishni keltirib chiqarmaydi hamda dinamik yuk ko'taruvchanlik bo'yicha tanlangan podshipniklarni tekshirish uchun. Bunda tekshirish va tanlash sharti:

$$P_0 \leq C_{\mu},$$

bu yerda,  $P_0$  – ekvivalent statik yuklanish;  $C_{\mu}$  – statik yuk ko'taruvchanlik.

Statik yuk ko'taruvchanlik deb shunday statik yuklanish tushuniladi, bunda podshipnik kontakt sirtlarining eng ko'p yuklangan nuqtalaridagi dumalash jismlari va halqalardagi qoldiq deformatsiya dumalash jismlari diametrining 0,0001 qismiga teng bo'ladi. Bunda yuklanish sifatida radial va radial-tirak podshipniklarda radial, tirak va tirak-radial podshipniklarda o'q bo'yicha kuch tushuniladi.  $C_{\mu}$  ning qiymati har bir tip-o'lchamli podshipniklar uchun kataloglarda keltiriladi.

Ekvivalent statik yuklanish:

$$P_0 = X_0 F_r + Y_0 F_a, \text{ lekin } P_0 = F_r \text{ dan kam emas.} \quad (4.27)$$

bu yerda,  $F_r$  va  $F_a$  – radial va o'q bo'ylab yo'nalgan kuchlar;  $X_0$  va  $Y_0$  – radial va o'q bo'yicha statik yuklanishlar koeffitsientlari.

**Podshipnikning chegaraviy tezyurarligi.** U. odatda, katalogda aylanishlar takrorligining chegaraviy qiymati  $n_{ch}$  bilan chegaralanadi. Bu aylanishlar takroriyligining eng katta qiymati bo'lib, undan katta qiymatlarda hisobiy xizmat muddati kafolatlannaydi. Tadqiqotlardan kuzatilishicha, dumalash podshipniklaridagi yeyilish jadalligi va ishqalanishdagi yo'qotishlar aylana tezlik bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun chegaraviy tezyurarlikni baholashda shartli tezlik (aylana tezlikka proportional bo'lган) parametri qabul qilingan:

$$[D_m n] = \text{const},$$


bu yerda,  $D_m$  – dumalash jismi aylana markazlarining diametri, mm;  $n$  – aylanishlar takroriyligi,  $\text{min}^{-1}$ .

[ $D_m n$ ] ning ruxsat etilgan qiymatlari konstruktiv va ekspulatatsion parametrlari: podshipnik turi, separator turi, aniqlik darajasi, moylash turi va sh. k. larga bog'liq bo'ladi.

[ $D_m n$ ]ning ma'lum qiymatlarda har bir podshipnik tip o'lchami uchun katalogda  $n_{ch}$  ko'rsatiladi.

**Radial-tirak podshipniklarda yuklanishni hisoblashning o'ziga xosligi** podshipnik yon tekisligiga kontakt chiziqlarini  $\alpha$  burchakka qiyaligi bilan bog'liq bo'ladi. 4.16-a, b shakllarda misol tariqasida konus-simon shesternya vali podshipniklarining konstruktiv va hisobiy sxemalari ko'rsatilgan. Ilashmadagi yuklanish val o'qiga keltirilgan:

$$F_{r,\Sigma} = \sqrt{F_r^2 + F_{r\perp}^2}, \quad M = \frac{F_a d_{m1}}{2}, \quad \text{bu yerda, } F_r, F_{r\perp} \text{ va } F_a \text{ uzatmadagi kuchlar.}$$



4.16-shakl. Konussimon shesternyaning podshipniklari:

a – konstruktiv sxema; b – hisobiy sxema; d – podshipnik halqalariga ta'sir etuvchi kuchlar

Valning o'ng uchidagi yuklanish  $F_M$  kuchi bilan belgilangan.

Podshipniklardagi radial yuklanishlar oddiy usul bilan muvozanating ikki tenglamasi bo'yicha aniqlanadi:  $\Sigma Y = 0$  va  $\Sigma M = 0$ . Bu yerda faqat  $F_{r1}$ ,  $F_{r2}$  kontaktga normal (tik) chiziqlarni val o'qi bilan kesishish nuqtalariga qo'yilganini ta'kidlaymiz. Bu nuqtalar orasidagi masofa podshipniklar joylashish sxemasi va  $\alpha$  burehak qiymatiga bog'liq bo'ladi. Agar 4.16-shakldagi har bir podshipnikni chizma tekisligida  $180^\circ$  ga burilsa, ularga mos ravishda tirkak bo'rtiqlarining holatlari ham o'zgaradi va  $F_{r1}$ ,  $F_{r2}$  kuchlarning qo'yilish nuqtalari ichkariga siljiydi, ular orasidagi masofa (kuchlarning elkasi sifatida) kamayadi,  $F_{r1}$  va  $F_{r2}$  kuchlar esa qo'payadi – bu noqulay variant.

Ikkita o'q bo'y lab yo'nalgan kuchlarni aniqlash uchun faqat bitta tenglamaga ega bo'lamiz:  $\Sigma X = 0$  yoki

$$F_a - F_{a1} + F_{a2} = 0. \quad (4.28)$$

Umumiy holda,  $F_{a1}$  va  $F_{a2}$  ga teng emas, shu sababli ularni aniqlash uchun qo'shimcha shartlar kerak bo'ladi. Bu shartlarni ko'rib chiqamiz. Radial-tirak podshipniklarda kontakt chizig'ining qiyaligi oqibatida radial yuklanishlar podshipnikning ichki o'q bo'yicha yo'nalgan  $S$  kuchlarini keltirib chiqaradi, ular o'z navbatida podshipnik halqasini o'q bo'y lab surishga harakat qiladi (4.16, d-shakl). Bunga val va korpusning tirak bo'rtiqlari tegishli  $F_{a1}$  va  $F_{a2}$  reaksiyalar bilan qarshilik qiladi. Ayonki, quyidagicha bo'lishi kerak:

$$F_{a1} \geq S_1 \text{ va } F_{a2} \geq S_2. \quad (4.29)$$

aks holda halqalar surilib ketadi.

Bundan tashqari, bu masalani yechish uchun quyidagi shart ham qabul qilinadi: podshipniklardan biridagi o'q bo'yicha yo'nalgan kuch halqalarning siljimaslik shartidan  $F_{a1} = S_1$  bo'lishi kerak. Qaysi podshipnikda bu shart bajarilishi noma'lum bo'lgani uchun masalani ketma-ket urinib ko'rish usuli bilan yechamiz. Masalan,  $F_{a1} = S_1$  da,

$$F_{a2} = S_1 - F_a \quad (4.30)$$

ni hosil qilamiz va bunda, agar  $F_{a2} \geq S_2$  bo'lsa, podshipnikdag'i o'q bo'yicha yo'nalgan kuchlar to'g'ri aniqlangan bo'ladi. Agar  $F_{a2} < S_2$  bo'lsa,  $F_{a2} = S_2$  deb qabul qilinadi va

$$F_{a1} = S_2 + F_a \quad (4.31)$$

topiladi.

Bunda  $F_{a1} \geq S_1$  shart albatta bajariladi, chunki  $F_{a1} = S_1$  bo'lganda  $F_{a2} \leq S_2$  edi,  $F_{a2}$  oshganda  $F_{a1}$  ham ortishi kerak [(4.28) tenglamaga qarang].

$S$  kuchining qiymati podshipnik turi.  $\alpha$  burchak va podshipnikni yig'ish va sozlash shartlaridan aniqlanadi. Agar podshipniklar katta tirqish bilan yig'ilgan bo'lsa, hamma yuklanishni bir yoki ikki rolik qabul qiladi. Bunda (4.16, d-shakl)  $S_1 = F_n \operatorname{tg} \alpha$ , bu yerda,  $i$  – umumiy holda tayanch tartib raqami. Katta tirqishlar podshipniklarning tez

buzilishiga olib keladi. shu sababli ularga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Odatta, podshipnik nolga yaqin bo'lgan tirqishlar bilan yig'iladi. Bu holda dumalash jismlarining taxminan yarmi yuklanish ostida bo'ladi, o'q bo'yicha yo'nalgan kuchning natijaviy qiymati

$$\left. \begin{array}{l} \text{radial-tirak podshipniklar uchun} \\ S_r = eF_{ri}, \\ \text{konussimon rolikli} \\ \text{podshipniklar uchun } S_r = 0,83eF_r \\ \text{boladi,} \end{array} \right\} \quad (4.32)$$

bu yerda,  $e$ — o'q bo'yicha yuklanish parametri (qiymati jadvallarda beriladi).


### Nazorat savol va topshiriqlari

1. Nima sababdan dumalash podshipniklari sirpanish podshipniklariga nisbatan ko'proq tarqalgan? Ularning afzallik va kamchiliklarini ko'rsating.
2. Dumalash podshipniklarining qanday asosiy turlarini bilasiz?
3. Podshipnik dumalash jismlarida radial yuklanish qanday taqsimlanadi?
4. Radial podshipnikning qaysi halqasida ko'proq kontakt kuchlanish hosil bo'ladi?
5. Dumalash podshipniklarida qanday ishdan chiqish hollari ro'y beradi?
6. Podshipnikning dinamik va statik yuk ko'taruvcchanligi nimani bildiradi?
7. Podshipnikni dinamik yuk kutaruvchanlik bo'yicha tanlash sharti qanday?
8. Podshipnikni statik yuk ko'taruvcchanlik bo'yicha tanlash sharti qanday?

## V. MUFTALAR

### 5.1. Umumiy ma'lumotlar. Ularning vazifasi va tasnifi

Mufta deb texnikada val, sterjen, quvur, elektr simlar uchlarini biriktiradigan vositalarga aytildi. «Mashina detallari» fanida faqat vallarni biriktiruvchi mustalarni o'rganib chiqamiz. Vallarni biriktirishga zaruratning sababi ko'pgina mashinalar kirish va chiqish vallari bilan tayyorlangan bo'ladi. ular musta yordamida biriktiriladi (5.1-shakl).




5.1-shakl. Mashina qismlarida mustalarning joylashishi

Zamonaviy mashinasozlikda mexanik mustalardan tashqari elektrik va gidravlik mustalalar ham qo'llanadi. Bu mustalalar maxsus fanlarda o'rganiladi. Shu sababli «Mashina detallari» fanida faqat mexanik mustalarni ko'rib chiqish bilan cheklanamiz.

### Mustalarning vazifasi va turlari

Mustalarning vallarni biriktirishda qo'llanishiga asosiy sabab, ko'pgina mashinalar alohida qismlardan tayyorlanib, ularning kirish va chiqish vallari musta yordamida biriktiriladi. Vallarni biriktirish mustalarning umumiyligi, lekin yagona vazifasi emas. Mustalalar bundan tashqari uzlusiz harakatlanayotgan dvigatelda ijro etuvchi mexanizmni ishga

tushirish va uni uzish (boshqariladigan muftalar); mashina qismini o'ta yuklanishdan saqlash (saqlagich muftalar); vallarning o'qdoshmasligidan zararli ta'sirni kamaytirish (kompensatsiyalovchi muftalar); dinamik yuklanishni kamaytirish (elastik muftalar) va sh.k. vazifalarni bajaradi.




## 5.2-shakl. Mustanining turlari

Mechanik muftalarning turlari 5.2-shaklda keltirilgan. Keng qo'llaniladigan muftalar standartlashtirilgan bo'lib, ularning pasport bo'yicha parametri uzatishga mo'ljallangan aylantiruvchi momentning qiymati hisoblanadi.

### 5.2. Boshqarilmaydigan (doimiy biriktirilgan) qo'zg'almas muftalar

Qo'zg'almas muftalar vallarning bikir va qo'zg'almas qilib biriktirishini ta'minlaydi. Bu muftalar vallarni tayyorlash va yig'ishdag'i xato va noaniqliklar ta'sirini kamaytirmaydi, shu sababli vallarni aniq markazlashtirish talab etiladi.

**Vtulkali mufta** qo'zg'almas muftalarning eng sodda turi hisoblanadi. Vtulka val bilan shtiftli (5.3. a-shakl), shponkali (5.3. b-shakl) yoki tish (shlitsa)li birikma yordamida biriktiriladi. Vtulkali muftalar vallarning diametri 60–70 mm gacha bo'lgan yengil mashinalarda qo'llaniladi. Ular sodda tuzilishi va kichik gabaritlari bilan ajralib turadi. Vtulkali muftalarning og'ir mashinalarda qo'llanilishi agregat vallarini yig'ish va ajratishda o'q bo'yicha surishlarning qiyinligi tufayli cheklanadi. Mustaning mustahkamligi shtiftli, shponkali yoki shlitsali birikmaning hamda vtulkaning mustahkamligi bilan aniqlanadi.



5.3-shakl. Vtulkali mustalar:  
a – shtifstli birikmali; b – shponkali birikmali


Mufta elementlarining mustahkamligi bir xil bo'lishi uchun o'lchamlarni tanlashda quyidagi tavsiyalarga amal qilish zarur hisoblanadi:

$$L = 3d_v; \quad l \approx \frac{3}{4}d_v; \quad D_l \approx 1,5d_v.$$

$$d_{sh} = (0,3 - 0,25)d_v$$

(odatda, kichik muftalar uchun 0,3, kattalari uchun 0,25 olinadi). Stanok-sozlikda foydalananidan vtulkali muftalarini 35 yoki 45 markali po'latlardan,  $d_b > 80$  mm bo'lganda esa cho'yandan tayyorlash tavsiya etiladi.

Ajraluvchi sirtlari va o'qiga tik bo'lgan mustalar val uchiga ma'lum tig'izlik bilan o'tkazilgan ikkita flanes (yarim mufta)dan iborat bo'ladi. Yarim muftalar aylana bo'ylab joylashgan bir necha bolt yordamida bir-biriga biriktiriladi va moment uzatish ishonechli bo'lishi uchun val-larga shponkalar vositasida mahkamlab qo'yiladi.



5.4-shakl. Ajralish sirti valga parallel bo'lgan ikki pallali flanesli mufta

**Flanesli musta.** 5.4-shaklda o'q chiziqdan yuqori va pastki qism-larida flanesli mustaning turli konstruksiyalari tasvirlangan: I variant bo'yicha yarimmuftalar tirkish bilan o'rnatiladigan, II variantda esa tirkishsiz o'rnatiladigan boltlar yordamida birikitiriladi. Birinchi holatda burovchi moment yarim mustalarning tutashuv joyida boltlarni sirib tortishdan hosil bo'lgan ishqalanish kuchi evaziga o'rnatiladi, ikkinchi holatda esa bevosita boltlar bilan uzatilib, ularda kesuvchi, ezuvchi kuchlanishlar hosil bo'ladi. Tirkishsiz o'rnatilgan boltlar bir vaqtning o'zida valni markazlashtirish vazifasini ham o'taydi. Boltlar tirkish bilan o'rnatilganda markazlashtirish 3 chiqqli qism evaziga bo'lib, bu chiqiq ko'ndalang yuklamalarni qabul qiladi.

Markazlashtiruvchi chiqiq qism birikmani yig'ish va ajratishni qiyinlashtiradi, chunki bunda valni bo'ylama surish talab etiladi.

Texnika xavfsizligi talablariga binoan, boltning chiqib turgan qismi bo'rtiqlari bilan berkitiladi (I variant). Agar mustada umumiy to'siq bo'lsa, bo'rtiqlar tayyorlanmaydi (II variant).

Muftani mustahkamlukka hisoblashda shponkali yoki shlitsali birikmalar hamda boltlarning mustahkamligi tekshiriladi. Boltlarni tirkishsiz o'rnatish musta gabarit o'lchamlarini kamaytiradi. Shu sababli ular ko'proq tarqalgan.


Flanesli mustalar mashinasozlikda keng tarqalgan. Ular vallarning diametrlari 200 mm gacha va undan katta bo'lganda qo'llanadi. Bunday mustalarning afzalligi ular tuzilishining soddaligi va nisbatan kichik gabarit o'lchamlari hisoblanadi.

Flanesli mustaning geometrik o'lchamlari va ularda ishlataladigan boltlarning diametri maxsus jadvallarda beriladi. Zarur bo'lgan hollarda geometrik o'lchamlarni taxminan belgilab olish uchun quyidagi munosabatlardan foydalanish mumkin: mustaning val bo'yicha uzunligi  $l \approx (5 - 2.5)d_h$ , uning aylana bo'ylab sirtqi diametri;  $D_s \approx (4.5...2)d_h$ ; boltlar joylashgan aylana diametri  $D_e \approx (3.5...2.5)d_h$  va boltlar soni  $z = 4; 6; 8$ . Odlatda, bunday mustalar CЧ 28-48 markali kulrang cho'yandan tayyorlanadi.

### 5.3. Boshqarilmaydigan kompensatsiyalovchi mustalar

**Vallarning o'qdoshmaslik turlari.** Tayyorlash va yig'ishdagagi xatoliklar sababli biriktiriladigan vallar geometrik o'qlarining o'zaro joylashishida har doim ma'lum bir noaniqlik bo'ladi. Vallarning nominal holatidan chetga chiqishining uch turi farqlanadi (5.5-shakl): bo'ylama

surilish  $\Delta_a$  (valning haroratdan cho'zilishidan ham hosil bo'ladi); radial surilish  $\Delta_r$ , yoki eksentrиситет; burchak surilish  $\Delta_\alpha$ , yoki og'ish. Amalda bu chetga chiqishlar bir vaqtida ta'sir qilishi mumkin, keyinchalik bu holatni valning «o'qdoshmasligi» deb ataymiz.




### 5.5-shakl. Vallarning nominal holatidan chetga chiqishi

O'qdoshmas vallar bikir qo'zg'almas mustalar bilan biriktirilganda mustani o'rnatish joyida ular bir umumiyoq o'qqa val va tayanchlarni deformatsiyalab keltiriladi. Tayanch va vallar qo'shimcha yuklanish bilan yuklanadi. Shu sababli bikir qo'zg'almas mustalardan foydalanganda vallarning joylashishida yuqori aniqlik talab etiladi. Bu talablarni hamda val va tayanchlarga tushadigan zararli ta'sirni kamaytirish uchun kompensatsiyalovchi mustalar qo'llaniladi. Vallar o'qdoshmasligining zararli ta'sirini kamaytirish uchun quyidagicha konstruksiyalar: asli bikir detallarning qo'zg'aluvchanligi hisobiga **kompensatsiyalovchi bikir mustalar** yoki elastik detallarning deformatsiyasi hisobiga kompensatsiyalovchi **elastik mustalar** qo'llaniladi.

Kompensatsiyalovchi bikir mustalardan eng ko'p tarqalgani kula-chok-diskli va tishli mustalar hisoblanadi.

**Kulachok-diskli mustalar.** Kulachok-diskli mustalar (5.6-shakl) ikki yarim musta 1 va 2, oraliq disk 3 dan iborat bo'ladi. Har bir yarim muftaning ichki yon tarafida bittadan diametral paz o'yilgan. Diskning ikkala yon sirtida bittadan chiqiq tayyorlanib, ular o'zaro perpendikulyar diametrda joylashgan. Yig'ilgan mustada diskning chiqiqlari yarimmustalar pazlarida joylashadi. Shunday qilib, disk yarim mustalarni biriktiradi.

Pazlarning perpendikulyar joylashishi mustaga ekssentrisitet va qiyalikni qisman kompensatsiya qilishga imkon beradi. Bunda chiqiqlar pazlarda sirpanadi, disk markazi esa ekssentrisitet  $\Delta_r$  radiusga teng aylana bo'ylab harakatlanadi. Disk va yarim mustalar orasidagi  $\delta$  tirqishlar vallaming bo'ylama siljishlarini kompensatsiyalaydi. Vallarning qiyaligi pazlardagi bosimning noqulay taqsimlanishiga olib kelishi sababli, kula-chok-diskli mustani, asosan, ekssentrisitetni kompensatsiyalash uchun qo'llash tavsija etiladi:  $\Delta_r = 0,004d$  gacha;  $\Delta_\alpha = 0^{\circ} 30'$  gacha bo'lishi mumkin.



5.6-shakl. Kulachok-diskli musta

Chiqiqlarning pazda siljishi ularning yeyilishiga olib keladi. Yeyilishning jadalligi vallaming o'qdoshmasligi va aylanish takroriyligi ortishi bilan oshadi. Musta ishqalanish sirtining yeyillishini kamaytirish uchun ular davriy ravishda moylanadi (5.6-shakldagi 4-teshik) va ularda katta ezuvchi kuchlanish ro'y berishiga yo'l qo'yilmaydi. So'nggi holat sirpanuvchi detallari bor hamma bikir mustalarni hisoblashning asosiy sharti sanaladi.

Kulachok-diskli mustalarni hisoblaganda, pazlarning chiqiqlarini ornatishda taranglik va tirqish nolga teng deb hisoblanadi. Bu holda tutash sirtlarning turli nuqtalaridagi deformatsiyalar va kuchlanishlar bu nuqtalardan o'qgacha bo'lgan masofaga proporsional bo'ladi (5.6, b-shakl); bunda ezilishdag'i kuchlanish shartli ravishda pazning yon taraflaridan diametrga ko'chirilgan. Yarimmustaning muvozanat sharti quyidagicha yoziladi:

$$KT = \frac{\sigma_{ez}}{2} \frac{D}{2} h^2 \frac{2}{3} D - \frac{\sigma_{ez}}{2} \frac{d_l}{2} h^2 \frac{2}{3} d_l; \quad (5.1)$$

$$\frac{\sigma_{ez}}{\sigma'_{ez}} = \frac{D}{d_l}. \quad (5.2)$$

Shularni hisobga olgan holda o'zgartirishlarni amalga oshirsak:

$$\sigma_{ez} = 6 KTD / [h(D^3 - d_l^3)] \leq [\sigma_{ez}], \quad (5.3).$$

bu yerda,  $K$  – yuklanish sharoitining dinamiklik koeffitsienti;  $h$  – chiqiq-larning ishchi balandligi (5.6,  $d$ -shakl). Amaliyotda  $\frac{D}{d} \approx 2.5 - 3$  olinadi.

Odatda, kulachok-diskli mufta detallari Ct5 (bolg' alangan) yoki 25L (quyma) po'latlardan tayyorlanadi. Og'ir yuklangan mustalar uchun 15X, 20X turidagi ishchi sirtlari sementatsiya qilingan legirlangan po'latlar qo'llanadi. Bunda

$$[\sigma_{ez}] = 15 - 20 \text{ MPa} \quad \text{deb olinadi.}$$

Mustani ekssentrисitet bilan ishlashi ishqalanishdagi yo'qotish va valga qo'shimcha yuklanish tushishi bilan birga sodir bo'ladi. Mustadan valga tushadigan qo'shimcha yuklanish  $F_m$  pazlardagi ishqalanish kuchiga teng bo'ladi:

$$F_m = \frac{\sigma_{ez} + \sigma'_{ez}}{2} (D - d_l) hf,$$

(5.2) va (5.3) ifodalar asosida o'zgartirishlarni amalga oshirsak,

$$F_m = 3KT (D^3 + d_l^3) f / (D^3 - d_l^3) \approx F_i f. \quad (5.4)$$

Bu formulada nisbat  $(D^3 - d_l^3) / [3(D^2 - d_l^2)]$  mustadagi biron-bir soxta aylana kuch  $F_i = KT / R_{o'r}$ , ning qo'yilish radiusi sifatida qabul qilinadi.

Taxminan

$$(D^3 - d_l^3) / [3(D^2 - d_l^2)] \approx R_{o'r} = (D + d_l) / 4.$$


Demak, kompensatsiyalovchi mustalarining qo'llanishi vallar va tayanchlarga o'qdoshmaslkdan tushadigan zararli ta'sirlarni sezilarli kamaytiradi, lekin to'laligicha yo'qotmaydi.

Mustaning foydali ish koefitsienti:

$$\eta \approx 0,985 \div 0,995.$$

### Tishli mustalar

U tashqi tishli yarimmustalar 1, 2 va ikki qatorli ichki tishli ajraladigan halqa 3 dan iborat bo'ladi (5.7, a-shakl).  $\alpha = 20^\circ$ ,  $h_e = 0,8$  o'cham evolventa profilli tishlar eng ko'p tarqalgan. Musta vallar o'qdoshmasligining hamma turlarini kompensatsiya qiladi. Shu maqsadda musta ilashmasida yon tarafida tirqish va yon tomonida kengaytirilgan tirqish qoldiriladi (5.7, b-shakl), yarimmustalarining tishli gardishi esa  $r$  radiusli sfera bo'yicha tayyorlanadi, bu sferalarning radiuslari val o'qlarida joylashadi. Tishli musta konstruksiyasi yo'l qo'yadigan vallarning o'zaro siljishini (radial, burchakli yoki ularning bir vaqtida ta'sir etishi) halqa o'qi va vallardan biri yoki boshqasining o'qi orasidagi burchak  $0^\circ 30'$  dan oshmaslik shartidan aniqlanadi.



5.7-shakl. Tishli musta

Mustaning ishlashidagi vallarning o'qdoshmasligini kompensatsiya qilish mufta tishlarining tutashuv joyida sirpanishi va ularning yeyilishi bilan birga sodir bo'ladi. Tishli muftalarni ishlatish natijalarida kuzatilishicha, yeyilish ular ishechanligining asosiy mezoni bo'ladi. Yeyilishni kamaytirish uchun halqa ichiga suyuq moy quyiladi.

Mustadagi haqiqiy kontakt kuchlanishni hisoblash tishlar kontakti shartining aniq emasligi sababli qiyinlashadi. Bu noaniqlik, bir tomondan, mufta tayyorlanishidagi xatoliklar, ikkinchi tomondan, vallar o'qdoshmasligining (yig'ishdagi) xatoliklari bilan bog'liq. O'qdoshmaslik holatlarida yuklanish tishlar orasida notejis taqsimlanadi, ba'zi tish justlarining yuklanishi turlicha bo'ladi. Masalan, halqa va yarim mufta val (qiyalanishi) tekisligida joylashgan tishlari parallel bo'ladi va qulayroq tutashuv shartlariga ega bo'ladi, perpendikulyar tekislikda joylashgan tishlar esa o'zaro bir-biriga nisbatan qiyalik burchagiga teng bo'lgan burchak ostida joylashib, faqat chekkalari bilan tutashadi. Boshqa tishlar ham burchak ostida joylashadi, lekin ularning qiyalanish burchagi kamroq bo'ladi. Tish chekkalari tutashuvining zararli ta'sirini kamaytirish uchun bochkasimon tishlar qo'llaniladi (5.7. b-shakl, B-ko'rinishi). Bu esa tishlarning ishlashib ketishida yuklanish taqsimlanishini tenglash tiradi va kontakt sharoitlarini yaxshilaydi.

Yuqorida ta'kidlanganlar tishli muftalarni hisoblashning faqat shartli hisob usulini taklif etishga imkon beradi, bu usulning noaniqligi amalda ruxsat etilgan kuchlanishning qiymatini tanlashda e'tiborga olinadi. Shartli hisobda yuklanish hamma tishlar orasida tekis taqsimlangan, tishlar esa butun uzunligi va balandligi bo'yicha tutashadi deb qabul qilinadi. Bu holda,

$$KT = \sigma_c A z \left( D_0 / 2 \right), \quad (5.5)$$

bu yerda,  $z$  – yarimmufta tishlarining soni;  $D_0 = zm$  – tishlar bo'luvchi diametri;  $m$  – ilashma moduli;  $A = bh$  – tish ishchi sirtining uning o'rta diametral tekislikka proeksiyasi;  $b$  – tish uzunligi;  $h$  – tishning ishchi uzunligi.

Amalda eng ko'p qo'llaniladigan mufta ilashmasi uchun (5.7. b-shakl)  $h=1,8$  m deb qabul qilish mumkin. Bu ifodani (5.5) formulaga qo'yib soddalashtirishdan keyin:

$$\sigma_{ez} = \frac{KT}{D_0^2 b \cdot 0,9} \leq [\sigma_{ez}] \quad (5.6)$$

Standart mustalar uchun  $[\sigma_{ez}] = 12 - 15 \text{ MPa}$  olish ruxsat etiladi.

Tishli musta detallari uglerodli 45, 40X, 45L po'latlaridan bolg'alanib yoki quyib tayyorlanadi. Yeyilishga chidamlilikni oshirish uchun yarimmufta tishlariga termik ishlov berilib, qattiqligi 40HRC dan kam bo'limgan holga yetkaziladi, halqa tishlarining qattiqligi esa  $< 35 \text{ HRC}$  dan kam bo'lmaydi. Loyihalovchi hisobni chiqarish uchun (5.6) formulaga  $\psi = \frac{b}{D_0}$  belgilash kiritsak, unda

$$D_0 = \sqrt[3]{\frac{KT}{0,9[\sigma_{ez}]\psi}} \quad (5.7)$$

Tishli gardish eni koefitsientining qiymatlari amalda mavjud musta konstruksiyalar uchun  $\psi = 0,12 - 0,16$  oraliqda bo'ladi. Tishli gardish kengligi  $b$  ni oshirish tishlarning ishlab ketishini qiyinlashtiradi va ular orasida yuklanishning notejisini taqsimlanishini oshiradi.

Musta diametri bo'yicha tishlar sonini belgilab, modulni aniqlash mumkin, so'ngra modulning qiymati standart bo'yicha qabul qilinadi. Amalda  $z = 30 - 80$  (katta qiymatlar – og'ir yuklanish uzatadigan mustalar uchun) olinadi. Bunda tish mustaxhamligining eguvchi kuchlanish bo'yicha yetarli zaxirasi ta'minlanadi.

Tishli mustalar ixcham bo'lib, yaxshi kompensatsiyalash xususiyatlarga ega. Ular katta burovchi moment uzatadigan uzatmada qo'llaniladi.


Tajribalar asosida musta foydali ish koefitsienti  $\eta_m = 0,985 - 0,995$  olinadi. Muftadan valga tushadigan kuch

$$F_m \approx (0,15 - 0,2)F_t,$$

bu yerda,  $F_t$  aylana kuch mustaning  $D_0$  diametri bo'yicha aniqlanadi.

#### 5.4. Boshqarilmaydigan elastik muftalar

5.8-shaklda elastik mustanining prinsipial sxemasi berilgan. Mufta yarim muftalari 1, 2 elastik jism 3 yordamida birikkan (masalan, yelimlangan yoki vulkanizatsiyalashtirilgan). Yarim muftalarning elastik bog'lanishi quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladi: vallarning o'qdoshmasligini kompensatsiya qiladi; yuklanishning davriy o'zgarishida rezonans tebranishlarining oldini oladi; zarbiy o'ta yuklanishlarni kamaytiradi.



5.8-shakl. Elastik mustanining prinsipial sxemasi

Elastik mustanining asosiy xarakteristikalaridan biri uning bikirligi bo'ladi:

$$C_{\varphi} = \frac{dT}{d\varphi}, \quad (5.8)$$

bu yerda,  $T$  – mufta uzatayotgan burovchi moment;  $\varphi$  –  $T$  moment bilan mustanining buralish burchagi.  $C_{\varphi}$  ning xarakteristikasi bo'yicha o'zgarmas va o'zgaruvchan bikirlilikli muftalar bo'ladi. O'zgarmas bikirlilikka ega muftalar uchun

$$C_{\varphi} = \frac{T}{\varphi} = \text{const.}$$


O'zgarmas bikirlilikka metall bo'lмаган elastik elementli (rezina, teri va sh.k.) muftalar hamda deformatsiyasi konstruktur tomonidan belgilangan metall elastik elementli muftalar ega bo'ladi. Elastik mustanining

bikirlik xarakteristikasi ko'p jihatdan mashina yuklanishining keskin o'zgarishi (zarlar)ga ta'sirini belgilaydi va tebranishning rezonanssiz ishlashini ta'minlaydi.

Elastik mustalarining muhim xususiyatlaridan biri uning dempferlovchi (so'ndiruvechi) qobiliyat hisoblanadi. Bu qobiliyat mustanining bir sikl davomida so'ndiradigan energiyasi bilan xarakterlanadi. Elastik mustanining so'ndiruvechanlik xususiyati dinamik yuklanishni kamaytirish va tebranishni so'ndirishga olib keladi.

Mashinasozlikda konstruksiysi turlicha bo'lgan ko'p sonli elastik mustalar qo'llanadi. Elastik elementning materiali bo'yicha bu mustalar ikki guruh: metall va metall bo'lмаган elastik elementli mustalarga bo'linadi.. Bu mustalar har bir guruhini hisoblash uslubiyatida ko'pgina o'xshashlik bo'lGANI sababli, ularning ba'zi tipik konstruksiyalari hisobini ko'rish bilan chegaralanamiz.

**Metall elastik elementli mustalar.** 5.9-shaklda mustalarining metall elastik elementlarining asosiy turlari ko'rsatilgan. *a* – burama silindrik prujinali; *b* – mustanining yasovchi yoki radiusi bo'ylab joylashgan sterjenlar, plastinalar yoki plastinalar paketi; *d* – kesilgan gilzali prujinalar paketi; *e* – ilonizisimon plastinali prujinalar. Bu elementlar buralishga (5.9,*a*-shakl) yoki egilishga (5.9,*b*-shakl) ishlaydi.




5.9-shakl. Mustalarining metall elastik elementlari

Metall bo'lмаган elastik elementlarga nisbatan metall elastik elementlar ehidamliroq va katta yuklanish uzatadigan ixcham kichik o'lchamli mustalar tayyorlashga imkon beradi. Shu sababli ularni ko'pincha katta burovchi momentni uzatishda qo'llanadi. Paketli bikir elementlar

plastinlar orasidagi ishqalanish sababli dempferlash xususiyatiga ega bo'ladi.

Metall elastik elementli mustalar elementning deformasiyalash shartiga binoan o'zgarmas yoki o'zgaruvchan bikirlikka ega qilib tayyorlanishi mumkin.

**Silindrsimon prujinali musta** (5.10-shakl) 2 qovurg'ali to'g'in 1 va disk 3 li gupchak 4 dan iborat bo'ladi. To'g'inning qovurg'asi disklar orasida, bu detallarning nisbiy buralishiga yo'l qo'yib joylashadi. Qovurg'a va disklar bir xil shakldor o'yiqlarga ega bo'lib, ularda cheklagich 6 li prujina 5 lar o'rnatiladi. Mustalar yon tarafidan disklar 7 bilan yopiladi. Disklar gardish yoki to'g'inga biriktirilib, prujinani va cheklagichni tushib qolish va ifloslanishdan saqlaydi.



5.10-shakl. Silindrsimon prujinali musta

Yuklanishsiz mustada (5.10, a-shakl) har bir cheklagich o'zining silindrik sirti bilan disk va qovurg'a bilan bir vaqtida tutashadi. prujinalar esa dastavval siqilgan holda bo'ladi. Yuklanishlar ta'siridan 5.10 b-shakl qovurg'a disklar orasida suriladi, prujinalar esa qo'shimcha siqiladi. Bunda cheklagichlardan biri faqat qovurg'a, ikkinchisi esa faqat disk bilan tutashadi.


Bunday mustalarni elastik zveno sifatida vallar bilan tishli g'ildirak yoki zanjir yulduzchasi bilan biriktirishda qo'llash maqsadga muvofiq. Bu holda to'g'in tishli gardish bo'lib, musta esa «go'yoki» tishli g'ildirak konstruksiyasi ichiga joylashib qoladi. Detallar yeyilishini kamaytirish uchun musta ishqalanadigan sirtlarini moylab turish zarur.

Silindrsimon prujinali vallarni biriktirish uchun ham qo'llanadi. Bu holda ularning konstruksiyasi biroz o'zgaradi. Stilindrik prujinali muf-taning xarakteristikasi 5.11-shaklda ko'rsatilgan.  $T_1$  kuch bilan prujinalarini dastlabki siqish sababli musta  $T_1$  momentgacha bikir sifatida ishlaydi.

Bunda

$$T_1 = F_r r z, \quad (5.9)$$

bu yerda,  $r$  – prujinalarning joylashish radiusi (5.10-shakl);  $z$  – prujinalar soni.



5.11-shakl. Silindrik prujinaning xarakteristikasi

$T > T_1$  da musta doimiy bikirlikka ega kabi ishlaydi. Prujinaning deformatsiyasi  $\lambda$  va uning o'ramlaridagi kuchlanishi  $\tau$  quyidagi formulalar bo'yicha hisoblanadi:

$$\left. \begin{aligned} \lambda &= 8FD^3 i \left( Gd^4 \right) \\ \tau &= K_e 8FD / \left( \pi d^3 \right) \end{aligned} \right\} \quad (5.10)$$

bu yerda,  $F$  – prujinani siquvchi bo'ylama kuch;  $D$  – prujinaning o'rta diametri;  $d$  – prujina diametri;  $i$  – prujina ishechi o'ramlari soni;  $G$  – sil-jishdagli elastiklik modulli;  $K_e$  – o'ramlar egriliginini hisobga oluvchi koef-fitsient.  $T > T_1$  da musta buralish burchagi

$$\varphi = \frac{8D^3 i}{Gd^4 r^2 Z} (T - T_i). \quad (5.11)$$

Mufta bikirligi

$$C_\varphi = dT / d\varphi = Gd^4 r^2 z / (8D^3 i). \quad (5.12)$$

5.11-shakldagi  $\varphi_{\max}$  burchagi cheklagichlarning tiralishiga to'g'ri keladi, bunda musta yana bikir bo'ladi:


$C = D/d$	4	5	6	8	10	12
$K_e$	1,37	1,29	1,24	1,17	1,14	1,11

Prujina o'lchamlari ( $D, d, i$ ) shunday xarakteristikaga mos bo'lishi uchun (5.11) formuladan tanlash usuli bilan mustaning konstruktiv o'lchamlari hisobga olib aniqlanadi.

Prujinaning mustahkamlik sharti:

$$T = \frac{K_e 8DT_{\max}}{\pi d^3 r z} \leq [\tau], \quad (5.13)$$


bu yerda.  $T_{\max}$  – cheklagichlarning tiralish holatiga mos moment. Prujinalarni tayyorlash uchun maxsus prujina po'latlari qo'llanadi.



5.12-shakl. Tishli-prujinali mufta

**Tishli-prujinali mufta yoki ilonizisimon prujinali mufta.**  
 5.12-shakldagi muftada yarimmuftalar 1 va 2 maxsus profilli tish 3 li bo'lib, ular orasida ilonizisimon prujina 4 joylashadi. Kojux 5 prujinani ishchi holda ushlab turib, mustani changdan himoya qiladi va moy uchun idish bo'lib xizmat qiladi.

Amaliyotda yasovchi silindr bo'yicha joylashgan tish kesimining ikki shakli qo'llanadi (5.13. a, b-shakllar). Tish shaklining birinchisi doimiy bikirlikka ega muftalarda qo'llaniladi. Bunda tishlarning prujina orasidagi masofasi  $2a$  doimiy bo'lib, mufta yuklanishiga bog'liq emas. Tishning ikkinchi shakli (doiraviy) o'zgaruvchan birlikka ega muftalarda ishlatiladi. Bu muftalarda yuklanish ortganda prujina egilib, tish bilan butun uzunligi bo'yicha tutashadi. Bunda prujinaning faol uzunligi  $2x$  masofagacha qisqaradi, uning bikirligi esa oshadi. (5.13, b-shakl).



5.13-shakl. Tishli-prujinali mufta prujinasining  
 tish bilan tutashuvi


Tishli-prujinali muftalarning asosiy qo'llanish tarmog'i – og'ir mashinasozlik (prokat jo'valari, turbinalari, porshenli dvigatellar va h.k. yuritmalarda).

Tishlar soni odatda 50–100 oralig'ida qabul qilinadi. Muftalar valarning o'qdoshmasligini kompensatsiya qiladi. O'lehamilarga bog'liq ra-

vishda mustalar quyidagi xatolargacha vallar o'qdoshmasligiga yo'l qo'yadi:  $\Delta_a$  4–20 mm gacha;  $\Delta_r$  0,5–3 mm gacha;  $\Delta_a$  1°15 (5,5-shaklga qarang).

**Metall bo'limgan elastik elementli mustalar.** Metall bo'limgan elastik elementli mustaning asosiy materiali – rezina. U quyidagi ijobiy sifat ko'rsatkichlariga ega: 1) yuqori elastiklik; agar elastiklik oraliq ida rezina  $\varepsilon=0,7\text{--}0,8$  nisbiy deformatsiyaga yo'l qo'ysa, u holda po'lat atigi  $\varepsilon \approx 0,001\text{--}0,002$  qiymatgacha erishadi; bunday deformatsiya oraliqlarida rezina massa birligida juda katta energiyani akkumulyatsiya qilishi mumkin (po'latga nisbatan 10 baravar katta); 2) ichki ishqalanish tufayli yuqori demperlik xususiyatiga ega: rezina elementli mustalarda energiyaning nisbiy tarqalishi 0,3–0,5 ga yetadi; 3) elektroizolyatsion xususiyatiga ega. Po'lat elementli mustalarga nisbatan rezinali elastik mustalar sodda va arzon bo'ladi.

Rezina elementlarning kamchiligi; 1) po'latga nisbatan chidamliligi kam; qizishi oqibatida tashqi ta'sir va o'zgaruvchan deformatsiyalardan strukturaviy o'zgarishlarning tezlashishi hisobiga rezina asta-sekin o'z mustahkamligi va elastiklik qobiliyatini yo'qotadi; 2) kichik mustahkamlik oqibatida gabarit o'lehamlari oshadi; katta burovchi momentlarni uzatish uchun bunday mustalar ratsional bo'lmay qoladi.



5.14-shakl. Rezina elastik elementli mustalarning asosiy turlari


Rezina elementli mustalar mashinasozlikning turli tarmoqlarida kichik va o'rta qiymatdagi burovchi momentlarni uzatishda keng ishlataladi.

Rezina elastik elementli muftalarning asosiy turlari va ularning yuklanish sxemalari 5.14, a-k shakllarda ko'rsatilgan. Elastik element tipini tanlashda quyidagilar hisobga olinadi: hajm bo'yicha kuchlanish holati tekis taqsimlangan elastik elementlarning katta energiya sig'imiga egaligi; buralish va siljish. egilish va siqilishga nisbatan katta energiya sig'imiga egaligi; elastik element mufta hajmining katta qismini egallashi. Bu shartlarni 5.14, h,i,k-shakllarda ko'rsatilgan elastik elementlar ko'p jihatdan qoniqtiradi.

Quyida muftalarning tipik konstruksiylari ko'rib chiqilgan.

**Rezina yulduzchali mufta** (5.15-shakl) yon tarafda chiqqlari bor ikkita yarim mufta va tishlari chiqqlar orasida joylashgan rezina yulduzchadan iborat. Yulduzcha tishlari siqilishga ishlaydi. Har bir tarafga moment uzatishda tishning yarmi ishlaydi. Mufta standartlashtirilgan bo'lib, tezyurar vallarni biriktirish uchun keng qo'llaniladi ( $T = 3\text{--}120 \text{ Hm}$  da  $n = 3000\text{--}6000 \text{ min}^{-1}$  va mos ravishda  $d = 12\text{--}45 \text{ mm}$  gacha bo'ladi).

Mufta ixcham va ishlatishda ishonchli, radial siljishi ( $\Delta \leq 0.2 \text{ mm}$ ) va qiyaligiga ( $\Delta\alpha \leq 130^\circ$ ) yo'l qo'yildi. Asosiy o'lehamlarining nisbati:  $D \approx 2.5d$ ;  $d_1 \approx (0.55\text{--}0.5)D$ ;  $h \approx (0.3\text{--}0.22)D$ ;  $h = 3d$ . Muftaning kamchiliqi uni yig'ish va ajratishda vallarni o'qi bo'yicha surishning zarurati bilan bog'liq.




5.15-shakl. Rezina yulduzchali mufta

Rezina yulduzchaning ishlovchanlik qobiliyati ezuvchi kuchlanish bilan bog'liq bo'lib, u quyidagi formula bilan hisoblanishi mumkin:

$$\sigma \approx \frac{24DKT}{z h(D^3 - d_i^3)} \leq [\sigma_{ez}], \quad (5.14)$$

bu yerda,  $z$  – yulduzcha tishlari soni;  $[\sigma_{ez}] = 2 - 2,5 \text{ MPa}$  qabul qilinadi.

**Elastik vtulka barmoqli mufta** (МУВП, ruschada «Муфта упругая втулочно-пальцевая»). Tayyorlashda osonligi va rezina elementni tez almashtirish imkoniyati tufayli bu mufta (5.16-shakl) elektrovdvigateldan kichik va o'rta qiymatdagi burovchi momentlarni uzatuvchi yuritmalarda ko'p ishlataladi. Mufta vallarning diametri 150 mm gacha va mos ravishda burovchi moment 15000 Nm gacha bo'lgan holatlar uchun normallashtirilgan.



5.16-shakl. Elastik vtulka barmoqli mufta

Bu mufta quyidagicha tayyorlanishi mumkin: I variant – gofrlangan rezina vtulkalar bilan; II variant – trapetsiya kesimli rezina halqlar bilan. Vtulkalarning nisbatan kichik qalinligi tufayli bu mustalar kichik beriluvchanlikka ega bo'ladi va vallarning o'qdoshmasligini kam oraliqda kompensatsiyalashi mumkin ( $\Delta_r \approx 1 \dots 5 \text{ mm}$ ,  $\Delta_s \approx 0.3 \dots 0.6 \text{ mm}$ ,  $\Delta_a / l$  gacha).


Mustahkamlilikni tekshirishda barmoqlarning egilishiga hisoblanadi, rezinada esa vtulkaning barmoq bilan tutashish sirtidagi ezuvchi kuchlanish hisoblanadi. Bunda hamma barmoqlar bir xil yuklangan, kuchlanish esa vtulka uzunligi bo'yicha tekis taqsimlangan deb olinadi. Barmoq va elastik vtulkaning mustahkamligini hisoblovchi formulalar:

$$\sigma_{eg} = \frac{M}{0,1d_1^3} = \frac{Fl}{2 \cdot 0,1d_1^3} \leq [\sigma_{eg}], \quad (5.15)$$

$$\sigma_{ez} = \frac{2TK}{D_1 d_1 l_z} \leq [\sigma_{ez}], \quad (5.16)$$

bu yerda,  $M$  – eguvchi moment;  $z$  – mustadagi barmoqlar soni,  $d_1$  – barmoqning diametri;  $l$  – barmoqning elastik elementi joylashtirilgan qismi uzunligi;  $[\sigma_{eg}]$  – ruxsat etilgan eguvchi kuchlanish (bu kuchlanishning qiymatini сталь 45 markali po'lat uchun 80–100 MPa qilib olish tavsiya etiladi);  $[\sigma_{ez}]$  – rezina uchun ruxsat etilgan ezuvchi kuchlanishi, uning qiymatini 1,8–2,0 MPa olish tavsiya etiladi.

**Elastik qobiqli musta.** Bu mustaning avtomobil shinasiga o'xshash elastik elementi (5.17-shakl) buralishga ishlaydi. Bu mustaning energiya sig'imi katta bo'lib, yuqori kompensatsiyalovchi xususiyatga ega bo'lishga olib keladi. ( $\Delta, \approx 2-6$  mm.  $\Delta_a \approx 2-6$ , buralish burchagi  $5-30^\circ$  gacha). Mufta standartlashtirilgan bo'lib, amaliyotda keng qo'llaniladi.



5.17-shakl. Elastik qobiqli musta


Tadqiqotlardan kuzatilishicha, mustaning yuklanish qobiliyati rezina qobig'ining ustivorligi yo'qolishi va toliqishi bilan cheklandi. Birinchi yaqinlashishda qobiqn qisqich yaqinidagi kesimda ( $D_1$  bo'yicha) siljish-dagi kuchlanish bo'yicha hisoblash tavsiya etiladi:

$$\tau = \frac{2TK}{\pi \cdot D_1^2 \delta} \leq [\tau]. \quad (5.17)$$

Eksperiment natijalari bo'yicha  $[\tau] \approx 0,4 MPA$  olinadi.


## 5.5. Ilashish asosidagi boshqariladigan muftalar

**Kulachokli muftalar.** Yarimmuftalar 1 va 2 ning yon tarafida chiqiq (kulachok)lar 3 bo‘ladi (5.18-shakl). Ishchi holatda 1 yarimmuftaning chiqqlari ikkinchisining botig‘iga kirib turadi. Muftani ishlatish va ajratish uchun yarimmuftadan biri 2 o‘q bo‘lab qo‘zg‘aluvchan holda o‘rnataladi. Qo‘zg‘aluvchan yarimmuftani ajratish uchun u maxsus vosita yordamida suriladi. Ajratkichning panshaxasi paz 4 da joylashtiriladi. Chizmada shtrix chiziq bilan yarimmufta 2 ning mufta ajratilgandagi holati ko‘rsatilgan. Halqa 5 valni markazlashtirish uchun xizmat qiladi. Vallarning o‘qdoshmasligi kulachokli muftalarning ishlovchanlik qobiлиyatini keskin tushirib yuboradi. Ko‘p hollarda kulachokli va tishli tishlashadigan (5.20–5.21-shakllar) muftalar bir valda joylashtiriladi va tezliklarni o‘zgartirish uchun ishlatiladi.



5.18-shakl. Kulachokli mufta

5.19-shakldagi eng ko‘p kulachok profillari ko‘rsatilgan (silindrsimon sirt bilan kesilgan). To‘g‘ri burchakli profil (5.19, a-shakl) yarimmuftalarni ulash vaqtida aniq o‘zaro joylashishni talab qiladi. Bundan tashqari, bunday muftalarda texnologik yon tirqishlar bo‘lib, buning oqibatida aylanish yo‘nalishi o‘zgarganda zarblar hosil bo‘ladi. Kulachoklar yeyilishidan esa tirqishlar kattalashadi.



5.19-shakl. Kulachok profilining shakllari

Trapetsiyali profil (5.19, *b*-shakl) yarimmuftalarni ulash vaqtida ularning o'zaro aniq joylashishini talab etmaydi, yon tirqishi esa kula-choklarning o'rashish chuqurligi o'zgarishi bilan kompensatsiyalanadi. Simmetrik profilli kulachoklar reversiv (reversga imkon beradigan), no-simmetrik profillilar esa noreversiv bo'ladi. Trapetsiyali profilli kula-choklarda o'q bo'ylab yo'nalgan kuchlar  $F_a$  hosil bo'ladi (5.19, *b*-shakl), ular esa yarimmuftalarni ajratishga harakat qiladi va muftani ulashni qiyinlashtiradi, bu jihatdan to'g'ri burchakli profil afzalroq hisoblanadi. Trapetsiyasimon profil burchagi  $\alpha$  ning qiymatini (odatda 2–5°) tanlashda o'zi tormozlanishni ta'minlanish yoki yarimmuftalarni ajratishda katta kuch sarf bo'lmasligi kerak. Kulachokli muftalarni ulash davrida vallarning nisbiy aylanishi hisobiga zarbiy urilishlar sodir bo'lib, ular kulachoklarning yemirilishiga sabab bo'ladi. Shu sababli bunday muftalarni yuklanish ostida mexanizmni ulash va nisbatan katta aylanish tezliklarida ( $v \leq 1 \text{ m/s}$ ) qo'llash tavsiya etilmaydi.

Kulachokli muftalarning ishchanlik qobiliyati, asosan, kulachok yejilishi bilan aniqlanadi, u esa tutashish sirtlaridagi ezuvchi kuchlanishga bog'liq bo'ladi. Bu kuchlanishni hisoblashda yuklanish hamma kulachoklar orasida tekis taqsimlangan deb faraz qilinadi (5.18-shakl):

$$\sigma_{ez} = \frac{2KT}{zD_b h} \leq [\sigma_{ez}], \quad (5.18)$$

bu yerda,  $z$  – yarimmufta kulachoklarining soni.

Yeyilishni kamaytirish uchun kulachok sirtlari qattiq bo'lishi kerak. Bunga hajmiy toblast yoki sementatsiya yordamida erishiladi. Sementatsiyani qo'llash maqsadga muvofiq. Chunki bunda o'zakning qovushoqligi saqlanadi, bu esa kulachokning zarb ta'siridan mo'rt yemirilishiga qarshilikni oshiradi. Sementatsiya qilingan muftalar 15X, 20X po'latlardan, hajmiy toblanganlari esa 40X, 30X va sh.k. po'latlardan tayyorlanadi.


Bunda ruxsat etilgan kuchlanishlar quyidagicha bo'ladi:

$[\sigma_{ez}] = 90 - 120 \text{ MPa}$  – nisbiy aylanishsiz ulashda (mufta val to'xtagannda ulanganda);


$[\sigma_{ez}] = 50 - 70 \text{ MPa}$  – sekin aylanishda ulash;

$[\sigma_{ez}] = 35 - 45 \text{ MPa}$  – tez aylanishda ulash.

**Tishli tishlashadigan mufta** (5.20-shakl). Bu mustalar tuzilishi va hisoblash uslubiyati bo'yicha tishli kompensatsiyalovchi muftalarga (5.7-shakl) o'xshash bo'ladi, ularning farqi tishlashadigan muftalarda halqa 2 qo'zg'aluvchan qilib tayyorlanadi va ajratkich yordamida boshqariladi. 5.20-shaklda ajratkich mufta ulangan holda ko'rsatilgan. Disk 1 va 3 lar cheklagich bo'ladi. Vtulka 4 esa vallarni markazlashtiradi va bir vaqtning o'zida ularning nisbiy aylanishida podshipnik vazifasini o'taydi (mufta ajratilganda).



5.20-shakl. Halqali tishli tishlagichli mufta



5.21-shakl. Sinxronizator

Halqa 2 siz ham tishli muftalar qo'llanadi, ularda yarimmuftaning biri ichki, boshqasi esa tashqi tishli qilib tayyorlanadi.

Tishli mustaning kulachokli muftadan afzalligi – uni ko'p tarqalgan tish kesish stanoklarida tayyorlash mumkinligi. Bunda yuqori aniqlik ta'minlanadi.

Tishlarni mustahkamlikka hisoblashda ezilishdagi ruxsat etilgan kuchlanish xuddi kulachokli muftalaridagi kabi tanlanadi.

Tishli muftalarini ularshda zarblarni yo'qotish uchun sinxronizatorlar ko'p qo'llanadi (masalan, avtomobil tezliklar qutisida). Sinxronizatorlar vallarning tezligini ularni biriktirishdan oldin tenglashtiradi. Sinxronizatorning ish tarzini 5.21-shakldan aniqlash mumkin. Tezliklar qutisida tezlikni o'zgartirish uchun mo'ljallangan tishli mufta konstruksiyasi bu yerda ikki tomonlama konussimon friksion mufta *I* bilan to'ldirilib, aynan u sinxronizator bo'ladi. Ichki tishli halqa 2 o'ng yoki chapga urilganda, u sharik orqali bo'ylama kuchni sinxronizatorning konusli yarimmustasiga uzatadi va shestemyalardan birining konusli yarimmustasi bilan tishlashdiradi (3.21, *a*-shakl). Sinxronizator ishlataliganda yetaklovchi val va yetaklanuvchi shestemya burchak tezliklari tenglashadi.

Halqaning keyingi surilishida tishli mufta ulanadi (3.21, *b*-shakl). Yetaklovchi elementlarni tezlatish, odatda, bo'sh yurishda amalga oshiriladi. Shu sababli sinxronizatorlarning friksion muftalarini tezlatish davrida hosil bo'ladigan inersiya yuklanishlarini yengish uchun zarur bo'lgan moment uzatishda hisoblanadi. Bu yuklanishlar, odatda, ishchi yuklanishdan ancha kichik bo'ladi. Halqani uzlusiz surilishi jarayonida tezliklar tenglashishga ulgurishi uchun bu surilishni sekin amalga oshirish zarur.

## 2. Friksion muftalar

Boshqarish mexanizmlarida friksion muftalarining juda ko'p turi ma'lum. Ular tuzilishi va ishlashiga qarab bir-biridan farq qiladi. Harakatga keltirish prinsipiiga ko'ra, bu mexanizmlar elektrromagnit, pnevmatik, gidravlik va mehanik turlarga bo'linadi.

Boshqariladigan ulovchi muftalar sifatida friksion muftalaridan ko'proq foydalilanadi, chunki bu muftalar vositasida yetaklovchi valning harakatini to'xtatmay, uni yetaklanuvchi val bilan ularsh ancha oson. Bunda yetaklanuvchi val yetaklovchi valga, uning tezligi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ulanaveradi. Kulachokli va tishli muftalarini esa yuqori tezlikda ularsh xavfli. Bundan tashqari, mexanizmda o'ta yuklanish holati

ro'y bergan taqdirda hosil bo'ladigan xavfli vaziyat muftaning yarim-muftalari orasidagi to'la sirpanish evaziga bartaraf qilinadi.

Ishqalanadigan sirtlarning nisbatan tez yeylimishi friksion muftaning asosiy kamchiligidir.

Friksion muftalar ishga tushirilganda burovchi moment ishqalanish sirtiga ta'sir etuvchi kuchning oshishi bilan ortib boradi. Bu esa valni yuklanish ostida va boshlang'ich burchak tezliklarning katta tafovutida ham biriktirishga imkon beradi. Muftani ulashda u sirpanadi, yetaklovchi valning tezlashishi esa zarbsiz ravon holda sodir bo'ladi. Mashina mustahkamligi uchun xavfsiz bo'lgan burovchi momentning chegaraviy qiymatiga moslab rostlangan friksion moment bir vaqtning o'zida saqlagich qurilma vazifasini ham bajaradi.

Hamma friksion muftalar ishchi sirtning shakli bo'yicha uch guruhga ajratiladi: diskli muftalar (ishchi sirti tekis); konussimon mufta (konussimon ishchi sirt); kolodkali, tasmali va boshqa muftalar (ishchi sirti silindr shaklida).

Friksion konussimon muftalar ham kulachok muftalar kabi o'qdoshmaslikka yo'l qo'ymaydi.

Yarimmuftalarni markazlashtirish ularni bir valda joylashtirish (5.21-shakl) yoki maxsus markazlashtiruvchi xalqalar vositasida amalga oshiriladi (5.20-shakl). 5.22–5.24-shakllarda friksion muftalarning sxemalari markazlashtirish usuli ko'rsatilmagan holda tasvirlangan.


**Diskli muftalar.** Bir juft ishqalanish sirtli oddiy diskli mufta sxemasi 5.22-shaklda ko'rsatilgan. Bunda yarimmufta 1 valga qo'zg'almas o'rnatilib, yarimmufta 3 esa o'q bo'ylab suriladi, 2 – friksion ustqo'yma. Vallarni biriktirish uchun qo'zg'aluvchan yarimmuftaga  $F_a$  kuch bilan ta'sir etiladi. Ishqalanish momenti  $T$  ni aniqlash formulasi:

$$KT = T_{ishg} = F_a f r_{o'r}, \quad (5.19)$$

bu yerda,  $r_{o'r} = \frac{(D_1 + D_2)}{4}$  – ishchi sirtlarning o'rta radiusi, u taqriban bu sirtlardagi ishqalanish kuchining keltirilgan radiusi deb qabul qilinadi.

Yeyilishning notekisligini kamaytirish uchun, odatda,  $D_1/D_2 = 2-1,5$  olinadi.

$F_a$  kuch va mufta gabaritlarini kainaytirish uchun bir emas, ko'p ishqalanish sirtiga ega muftalar – ko'pdiskli muftalar qo'llanadi (5.23-shakl). Bu muftalardagi disklar ikki guruhga ajratiladi: tashqi 3 va ichki 2. Tashqi disklar yarimmufta 1 bilan, ichkilari esa yarimmufta 7 bilan qo'zg'aluvchan shlitsali birikma yordamida biriktirilgan.




5.22-shakl. Diskli friksion mufta

O'ng chetki ichki disk sozlovchi gayka 4 larga tiraladi, chap chetki diskka boshqarish mexanizmidan bosuvchi kuch  $F_a$  ta'sir etadi. Bunda bosuvchi kuch hamma ishqalanish sirtlariga uzatiladi. (5.19) formula esa quyidagi ko'rinishni oladi:

$$KT = F_a f r_{o \cdot r} z, \quad (5.20)$$

bu yerda,  $z$  – ishqalanuvchi sirtlar juftlarining soni,  $z = n - 1$ ;  $n$  – disklar soni (5.23-shaklda ko'rsatilgan mufta uchun  $n=9$ , 5.22-shaklda ko'rsatilgan mufta uchun  $n = 2$ ).



5.23-shakl. Ko'pdiskli friksion mufta

Shunday qilib, ko'pdiskli friksion muftalarning qo'llanilishi uza-tayotgan burovchi moment qiymatini ikki diskli mustaga (5.22-shakl) nisbatan  $z$  bora oshirish imkonini beradi, bunda bosuvchi kuch  $F_a$  va disklar diametri o'zgarmaydi.

(5.19) va (5.20) formulalardan ishchi qiymatini oshirish uchun  $F_a$ , f va disklar diametri (ishqalanishning o'rta radiusi)ni oshirish kerak. Diametrlarni oshirish mustaning gabarit o'chamlarini oshiradi, shu sababli bu chora amalda oxirgi navbatda ishlataladi.  $F_a$  ni oshirish ishqalanuvchi sirtlardagi o'rtiqcha solishtirma bosim  $[p]$  ning ruxsat etilgan qiymati bilan cheklanadi:

$$[p] = \frac{F_a}{\pi \left( D_1^2 - D_2^2 \right)} \leq [p] \quad (5.21)$$

Ishqalanish koefitsientini oshirish uchun disk ustquymalari 2 ni maxsus materiallar bilan qoplab oshirish mumkin (5.22-shakl). Bunda ustquymalarning qo'llanilishi disklarning bir xil sonida mustaning bo'ylama o'chamini oshiradi.  $[p]$  esa odatda kamayadi.  $[r]$  va  $f$  qiyatlari to'g'risida ma'lumot 5.1-jadvalda keltirilgan.

Muftani ishga tushirishda chetlatkich 5 ning halqasiga ta'sir etishi zarur bo'lgan bo'ylama kuch  $F_a$  ning maksimal qiymatini aniqlash formulasi:

$$F_{at} = F_a \frac{l_1}{l_2} \operatorname{tg}(\alpha + \rho), \quad (5.22)$$

bu yerda,  $\alpha$  – halqaning konus burchagi;  $\rho$  – ishqalanish burchagi.

(5.22) formula mustani valga biriktirishdagi shponkali yoki shponkasiz birikmadagi ishqalanish kuchini hisobga olmaydi. Hisoblashlarning ko'rsatishicha, ular  $F_a$  kuchni taxminan 10–15 foizga oshiradi.

Bosuvchi richag 6 shaklini tanlash va uning hisobida elastik deformasiyasini hisobga olish lozim. Richagning prujinalovchi xususiyatga ega bo'lishi maqsadga muvofiq. Bunday holda disklarning yeyilishi bosuvchi kuch  $F_a$  ning keskin kamayishiga olib kelmaydi. Mustani navbatdagi sozlash oralig'i ortadi. Sozlash maxsus gayka 4 yordamida bajariladi.

**Konussimon mustalar.** Oddiy konussimon musta 5.24-shaklda tashvirlangan.  $F_a$  kuch ta'siridan yarimmuflar konussimon sirtida solishtirma bosim  $p$  va solishtirma ishqalanish kuchlari  $p_f$  hosil bo'ladi. Konus aylanasnining urinmasi bo'yicha yo'nalgan ishqalanish kuchlari burovchi moment uzatish uchun xizmat qiladi. O'ng yarimmustanining muvozanati shartidan:


$$F_a = pb \pi D_{o'r} \sin\alpha, \quad (5.23)$$

$$KT = T_{ishg} = p f b \pi D^2 / 2. \quad (5.24)$$

Bu tenglamalar birgalikda yechilsa,

$$KT = T_{ishg}^* = \frac{F_a D_{o'r}}{2} \frac{f}{\sin\alpha} = F_a \frac{D_{o'r}}{2} f^l, \quad (5.25)$$

bu yerda,  $f^l = f \sin\alpha$  – keltirilgan ishqalanish koefitsienti.



5.24-shakl. Konussimon musta

$\alpha$  burchak kamayishi bilan,  $f^l$  qiymati ortadi.  $f^l$  ning ortishi shuncha bor  $F_a$  ni kamaytiradi. Mana shu holat konussimon mustalarning oddiy diskli mustalardan afzalligini belgilaydi (ko'p diskli mustalarda  $F_a$  kuch konussimon mustalardan kam bo'lishi mumkin). Lekin amalda juda ki-chik  $\alpha$  burchaklar qo'llanilmaydi, chunki bunda yarimmuftalarning o'z-o'zidan qisilib qolish hodisasi sodir bo'ladi, bu esa ularni ajratishni qiyinlashtiradi. O'z-o'zidan qisilishga yo'l qo'ymaslik uchun

$$\alpha > \rho = \operatorname{arctg} f$$

bo'lishi kerak.

Odatda,  $\alpha \approx 15^\circ$  olinadi.

Ishchi sirlarning yeyilishga chidamlilik sharti:

$$p = \frac{F_a}{b\pi D_{o'r} \sin\alpha} \leq [p]. \quad (5.26)$$

Konussimon mustalar ko'p diskli mustalar bilan solishtirilganda katta gabaritli bo'ladi. Ularni tayyorlash murakkabligi sababli valni markazlashtirishdagi aniqligiga talab oshadi. Mana shu sabablar tufayli konusimon mustalar diskli mustalarga nisbatan kam qo'llaniladi.

**Friksion mustalarning ishchanlik qobiliyati, materiallari,  $[p]$  va  $f$  ning tavsiyaviy qiymatlari.** Friksion mustalarning ishchanlik qobiliyati, asosan, ishqalanadigan sirlarning yeyilishi bilan aniqlanadi. Yeyilish jadalligi ishqalanishning solishtirma quvvati (ishqalanish kuchlarining bir sekundda maydon birligida bajargan ishi)ga bog'liq bo'ladi:

$$a_{issiq} = \rho f v_c \leq [a_{issiq}] \quad (5.27)$$

bu yerda,  $v_c$  – o'rtacha sirpanish tezligi. Boshqariladigan mustalarda sirpanish mufta ulangan vaqtida sodir bo'ladi, ya'ni yeyilish ulanish vaqtiga ham bog'liqdir.

(5.27) formulani amalda qo'llash qiyin, chunki hozirgi davrda yeyilishning aniq qiymati bilan bog'liqligi aniqlanmagan,  $[a_{ishq}]$  me'yorlari o'rnatilmagan, mustaning ish rejimi to'g'risida amaliy ma'lumotlar kam va h.k.

### 5.1-jadval

#### Musta va ustquyma uchun $[p]$ va $f$ ning qiymatlari

T/r.	Material	$[p]$ MPa	$f$
1.	Moy bilan ishlaganda toblangan po'lat bilan toblangan po'lat.	0,6 - 0,8	0,06
2.	Cho'yan bilan cho'yan yoki toblangan po'lat.	0,6 - 0,8	0,08
3.	Tekstolit bilan po'lat.	0,4 - 0,6	0,12
4.	Metallokeramika bilan toblangan po'lat. Moysiz ishlaganda.	0,8	0,10
5.	Presslangan asbest yoki ferrado bilan po'lat yoki cho'yan	0,2 - 0,3	0,30
6.	Metallokeramika bilan toblangan po'lat.	0,3	0,40
7.	Cho'yan bilan cho'yan yoki toblangan po'lat.	0,2 - 0,3	0,10

*Eslatma.* 1. Past qiymatlardan diskler soni ko'p bo'lganda, yuqori qiymatlari esa kam bo'lganda. 2.  $v_c > 2,5 m/s$ da  $[p]$  bosimni kamaytirish tavsiya etiladi:  $v_c = 5 m/s$  da 15% ga;  $v_c = 10 m/s$  da 30% ga;  $v_c = 15 m/s$  da 35% ga. 3. 1 soatda ulanishlar soni 100 dan ko'p bo'lsa, ko'rsatilgan qiymatlarni har 5 ta ulanish uchun 1% ga kamaytirildi, lekin kamaytirish 50% gacha bo'ladi.

Muftaning ishchanlik qobiliyatiga uning issiqlik rejimi katta ta'sir ko'rsatadi. Muftaning me'yoridan ortiq qizishi yeyilishning ortishiga sabab bo'ladi, ba'zi holatlarda esa metall bo'lмагan ustqo'ymalarning ko'mirlashib yoki metall sirtlarning qirilib qolishiga olib keladi. Muftaning qizishi uni ulash davridagi sirpanishi bilan ham bog'liq bo'ladi. Bunda ajraladigan issiqlik miqdori ishqalanish kuchi bajargan ishga proporsional bo'ladi. Bu issiqlik mufta detallarini qizdiradi va atrof-muhitga tarqaladi. Issiqlik qisqa muddatda jadallik bilan tarqalgani sababli mufta barqaror issiqlik rejimiga ega bo'lmaydi. Bu qisqa lahzada ishqalanish sirtlari yuqori haroratgacha qizishi mumkin, shu bilan birga muftaning o'rtacha harorati pastligicha qoladi. Barqaror rejimning mavjud emasligi muftaning qizishga hisobini qiyinlashtiradi. Shu sababli, ko'pincha ishqalanish sirtlaridagi solishtirma bosimni hisoblash bilan kifoyalaniladi. [p] ning ruxsat etilgan qiymati mustani ishlatish natijalariga qarab o'rnatiladi (5.1-jadval).

Jadvaldagagi qiymatlar o'rtacha tezlik  $v > 2,5 \text{ m/s}$  gacha va bir soatda ulanishlar soni 100 dan ortiq bo'lмагan hollar uchun to'g'ri bo'ladi. Katta qiymatlarda tuzatishlar kiritiladi. Tezlik o'rta radius bo'yicha aniqlanadi:

$$v = \frac{\pi r_{\text{o}} n}{30}.$$

Friksion muftalar materialiga qo'yiladigan talablar, asosan, friksion uzatma materialiga qo'yiladigan talablarga o'xshash bo'ladi. Amaliyotda materiallarning quyidagi kombinatsiyalari eng ko'p qo'llanadi: yaxshi moylashda toblangan po'lat bilan toblangan po'lat yoki cho'yan, moysiz ishlashda asbest yoki kukanli ustqo'ymalar bilan po'lat yoki cho'yan.


## 5.6. Avtomatik boshqariladigan muftalar

**Saqlagich muftalar.** Bu muftalar mashinani o'ta yuklanishdan saqlash uchun xizmat qiladi. Har qanday friksion mufta chegaraviy momentni uzatishga sozlangan bo'lsa, saqlagich funksiyasini bajaradi. Maxsus saqlagich friksion muftalarning boshqarish mexanizmi bo'lmaydi, ularda bosim kuchlari, odatda, doimiy harakatlanadigan prujinalar bilan hosil qilinadi. Bunday muftalarning hisobi friksion boshqariladigan muftalarga o'xshash bo'ladi.

Saqlagich mustalarning yana bir vakili maxsus buziladigan elementli mufta hisoblanadi. Bunday musta ko'p sonli konstruksiya variantlaridan birining sxemasi 5.25-shaklda ko'rsatilgan. Bunda yarimmuftalar 1 va 4 orasida burovchi moment shtift 3 orqali uzatilib, o'ta yuklanish sharoitida u kesiladi. Muftaning ishlashini tiklash uchun shtift almashtiriladi. Toblangan vtulkalar 2 yarimmuftaning qattiqligi past bo'lgan materiallarini shtiftdan ezilishdan saqlaydi, bu bilan shtiftni almashtirish yengillashadi va shtiftning kesilish sharti haqiqiy hisobiy holatga yaqinlashtiriladi:

$$KT = \frac{z D_1 \pi d^2}{K_z \cdot 2 \cdot 4} [\tau] \quad (5.28)$$

bu yerda,  $z$  – shtiftlar soni.  $K_z$  – shtiftlar bo'yicha yuklanishning notejis taqsimlanish koefitsienti.




5.25-shakl. Sinadigan (kesiladigan) shtiftli saqlagich musta

Amalda  $z = 1$  yoki 2 olinadi:  $z = 1$  da  $K_z = 1$ ;  $z = 2$  da  $K_z = 1.2$ .

Yarimmuftalarning bikir qilib birkiritilishi ularning o'qdoshmaslining shtiftga zararli ta'sirini kamaytira olmaydi va shtiftning ishlash sharoitini noaniq qilib qo'yadi. Shu sababli yarimmuftalarni aniq markazlashtirish zarur bo'ladi.

Ruxsat etilgan kuchlanish [ $\tau$ ] materialning kesilishga mustahkamlik chegarasidan qabul qilinadi. Masalan, CT5 po'latidan toblanib tayyorlangan shtiftlar uchun  $[\tau] = 420$  MPa olinadi.

5.26-shaklda saqlagich kulachokli musta ko'rsatilgan. Bunda yarimmufta 1 va 3 lar  $\alpha$  burchakli trapetsiyasimon profilli kulachok 2 tishlari bilan ilashadi.



5.26-shakl. Kulachokli saqlagich mufta

Ilashmada aylana kuch  $F_t$  ta'siridan bo'ylama kuch  $F_a = F_t g \alpha$  hosil bo'ladi, bu kuch yarimmuftalarni tishlashishdan chiqarib, ajratishga harakat qiladi. Bunga prujinaning kuchi  $F$ , kulachoklar va shlitsa (shponka)li birikmadagi ishqalanish kuchlari qarshilik qiladi. Bu kuchlarni hisobga olganda yarimmufta 2 ning muvozanat shartidan:

$$F = \frac{2KT}{D_t} \left[ \lg(\alpha - \rho) + \frac{D_t}{d} f_2 \right], \quad (5.29)$$

bu yerda,  $\alpha$  – kulachokning o'tkirlik burchagi;  $\rho$  – kulachoklar tishlashidagi ishqalanish burchagi ( $6\text{--}8^\circ$ );  $f_2$  – shlitsali birikmadagi ishqalanish koefitsienti ( $\sim 0,15$ )

Bu formula qisqa ondag'i yuklanish hollari uchun to'g'ri bo'ladi. Uzoq muddatli o'ta yuklanish hollarida ishqalanish kuchlari hisobga olinmaydi, chunki ular vibratsiya ta'siridan kamayadi, ( $\rho = 0$  va  $f_2 = 0$ ).


$F$  kuchning qiymati bo'yicha prujina tanlanadi. Kulachoklar mustahkamligi xuddi odatdag'i kulachokli muftalarniki kabi hisoblanadi. Saqlagich kulachokli mustanining kamchiligi – o'ta yuklanish holatlarida kulachoklarning zarb bilan urilishi, bu hodisa katta shovqin bilan bo'ladi. Shu sababli bunday muftalarni katta aylanish takroriyligida qo'llash tavsiya etilmaydi.

**Markazdan qochirma muftalar.** Bu muftalar valning burchak tezligi biror berilgan miqdordan oshib ketganda, uni avtomatik tarzda uzb qo'yadi. Shunday qilib, bu muftalar burchak tezligi bo'yicha o'zi boshqariladigan hisoblanadi. Markazdan qochirma muftalar ijro etuvchi mexanizmni dvigatel burchak tezligini sozlash yordamida avtomatik ulash yoki ajratish uchun; dvigatearning kichik ishga tushiruvchi momentida katta aylantiruvchi momentli mashinani tezlashtirish; ishga tushirishning ravonligini oshirish; o'ta yuklanishda o'chirish (benzinli arrada benzodvigatel aylanishining kamayishi yoki o'chishi) va h.k. hollarda ishlatiladi.

Markazdan qochirma musta bitta konstruksiyanining sxemasi 5.27-shaklda ko'rsatilgan. Markazdan qochirma kuch  $F_{m,q}$  kolodka 3 ni yarimmufta 2 barabaniga qisadi. Bunga prujina 4 egilishdan hosil bo'lgan  $F$  kuch qarshilik qiladi.  $F$  kuchning miqdori vint 5 bilan sozlanadi. Kolodka va barabanning tutashuv sharti:

$$F \leq F_{m,q} = mr\omega^2. \quad (5.30)$$

bu yerda,  $t$  – kolodka massasi;  $r$  – kolodka og'irlik markazidan aylanish o'qigacha bo'lgan masofa;  $\omega$  – yarimmufta  $l$  ning burchak tezligi. (5.30) formula prujinaning zarur bo'lgan kuchini yarimmufta  $l$  erkin aylana-digan holatgacha bo'lgan burchak tezlik  $\omega_0$  ning qiymati bo'yicha hisoblashga imkon beradi.



5.27-shakl. Markazdan qochirma musta

Burovchi moment uzatish uchun  $\omega_1$  burchak tezlik zarur bo'lib, uni quyidagi shartdan hisoblaymiz:

$$KT \leq 0,5(F_{m,q} - F) t z D = 0,5mrDz f(\omega_1^2 - \omega_0^2), \quad (5.31)$$

bu yerda,  $z$  – kolodkalar soni;  $f$  – ishqalanish koefitsienti.

$\omega_1$  va  $\omega_0$  oraliq'i diapazonida musta sirpana boshlaydi va asta-sekin yetaklovchi valni tezlashtiradi. Bu holda prujinaning kuchi (5.27-shakl):

$$F = 48EJy/l^3, \quad (5.32)$$

bu yerda,  $J$  – prujina egilishidagi salqiligi;  $J = bh^3/12$  – prujina kesimi yuzasining o'q bo'yicha inertsiya momenti.


Kolodkalarning ishchanlik qobiliyati xuddi friksion mustalarga o'xshash ishqalanish sirtidagi [ $\rho$ ] bosim bo'yicha hisoblanadi.

**Erkin yurishli muftalar.** Bu mustalar faqat bir yo'nalishda burovchi moment uzatadi. Ular stanok, avtomobil, mototsikl, velosiped va h.k. larda qo'llanadi. Masalan, velosipedlarda ular burovchi momentni pedaldan g'ildirakka uzatadi va shu bilan birga g'ildirakka pedal qo'zg'almas bo'lganda erkin aylanish imkonini beradi.

Erkin yurishli mustaning eng sodda tuzilgan vakili to'siqli qurilma bo'ladi. Bo'sh yurishdagi shovqin va mustani ishga tushirishdagi keskin zarb tusayli to'siqli mufta nisbatan kam qo'llanadi, faqat kichik tezliklarda ishlatiladi.

Shovqinsiz ishlashni friksion rolikli yoki sharikli mustalar ta'minlab beradi.

Bunday muftalardan biri – shesternya va val birikmasi orasiga kiritilgan sxema 5.28-shaklda ko'rsatilgan. Agar shesternya 1 soat mili bo'yicha aylansa, rolik 5 pazning tor qismiga dumalab ketadi va bu yerda pona bo'lib qoladi. Bunda shesternya val bilan rolik orqali bikir birikma hosil qiladi. Shesternyaning qarama-qarshi tomonga aylanishida rolik pazning keng tomoniga o'tadi va shesternya val bilan ajraladi. Bu yo'nalishda u erkin aylanishi mumkin. Kuchsiz prujina 3 bilan ta'minlangan turkich 4 yordamchi vazifasini o'tab, rolikning halqa bilan doimiy tutashuvini ta'minlaydi.



5.28-shakl. Rolikli erkin yurishli musta

Burovchi moment  $T$  ni uzatishda rolikka normal kuchlar  $F_n$  va ishqalanish kuchlari  $F$  ta'sir etadi (simmetriyalilik sharti bo'yicha,  $F$  va  $F_n$ ,  $F$  va  $F_n$  kuchlar o'zaro teng bo'ladi).  $F_n$  kuchlar rolikni  $\alpha$  burchak bisektрисаси yo'nalishida pazdan itarib chiqarishga harakat qiladi. Bunga  $F=F_nf$  ishqalanish kuchlari qarshilik ko'rsatadi. Rolikning pazzdan chiqib ketmaslik sharti:

$$2F \cos \frac{\alpha}{2} \geq 2F_n \sin \frac{\alpha}{2}$$

$$2F_n f \cos \frac{\alpha}{2} \geq 2F_n \sin \frac{\alpha}{2}. \quad \text{yoki}$$

Soddalashtirishlardan so'ng:

$$\operatorname{tg} \frac{\alpha}{2} \leq f = \operatorname{tg} \rho, \alpha \leq 2\rho. \quad (5.33)$$

Geometriyadan:

$$\cos \alpha = \frac{b + d/2}{D/2 - d/2} = \frac{2b + d}{D - d}. \quad (5.34)$$

(5.33) va (5.34) formulalar bo'yicha rolikning diametri  $d$  hisoblanadi. Halqa 2 ning muvozanati shartidan:

$$KT = F \frac{D}{2} z = F_n \frac{D}{2} z \operatorname{tg} \frac{\alpha}{2}, \quad (5.35)$$

bu yerda,  $z$  – roliklar soni; ishqalanish koefitsienti  $\operatorname{tg} \frac{\alpha}{2}$  orqali ifodalandan.

Rolik hamda 1 va 2 detallar ishchi sirtlarining mustahkamligi kontakt kuchlanish bo'yicha hisoblanadi ( $\mu = 0,3$ ):

$$\sigma_H = 0,418 \sqrt{\frac{F_n E_{\text{kel}}}{l \rho_{\text{kel}}}} \leq [\sigma_H].$$

bu yerda,  $l$  – rolikning uzunligi.

Bir xil elastiklik modulli materillardan tayyorlangan detallar uchun  $E_{\text{kel}} = E$ . Detallarning tekis sirtida  $\rho_{\text{kel}} = d/2$ .

Bunda, (5.35) tenglikni e'tiborga olib, burchak kichikligi uchun  $\operatorname{tg} \frac{\alpha}{2} \approx \frac{\alpha}{2}$  ni hisobga olsak:

$$\sigma_H = 0,418 \sqrt{\frac{8KTE}{Ddl \cdot z\alpha}} \leq [\sigma_H]. \quad (5.36)$$

Muftalarda, odatda, sharikli podshipniklarning standart roligi qo'llaniladi (HRC 45–50), detallarning ishchi sirtlari esa sementatsiya qilinadi (HRC 60, IIIX15, IIIX12 turidagi po'latlar).

Bunda  $[\sigma_H] = 1200 - 1500 \text{ MPa}$  deb olinadi.

(5.36) formula bo'yicha burchakning kamayishi  $\sigma_H$  kuchlanishning ortishiga olib keladi. Buni (5.33) shartni bajarganda e'tiborga olish kerak.

Amaliyotda kuzatilishicha, ishqalanish koeffitsientining odatdag'i qiymatlari uchun hisoblangan  $\rho$  bo'yicha  $\alpha$  ning aniqlanishi oshirilgan natijalarga olib keladi. Buni quyidagicha izohlash mumkin. Muftani ishlatish jarayonida doimo zarba va vibratsiyalar bo'lib, ular haqiqiy ishqalanish koeffitsientini kamaytirib yuboradi. Yuqorida ko'rsatilgan materiallar uchun amalda  $\alpha \approx 7 - 8^\circ$  qabul qilinadi.

### Kombinatsiyalashtirilgan muftalar

Bunday muftalar vallarni biriktirishda yuqorida ko'rib chiqilgan muftalarning birortasi ham barcha talablarga javob bermaganda qo'llaniladi. Aksariyat hollarda amaliyotda elastik muftaning saqlagich yoki boshqariladigan mufta bilan kombinatsiyalashtirilib tayyorlangani ishlatiladi.

### Nazorat savol va topshiriqlari

1. Muftalar nima uchun xizmat qiladi?
2. Muftalar qanday belgilari bo'yicha guruhlarga ajratiladi?
3. Qo'zg'almas muftalarning qanday afzallik va kamchiliklari bor? Ularning konstruksiysiga misollar keltiring.
4. Vallarning o'qdoshmaslik turlari qanday bo'ladi? Ularning zararli ta'sirini qanday muftalar kamaytiradi?
5. Elastik muftalar qanday funksiyalarini bajaradi?
6. Tishlashadigan muftalar qanday funksiyalarini bajaradi? Ularning qanday turlarini bilasiz?
7. Avtomatik boshqariladigan muftalarning ish tarzi nimaga asoslangan?
8. Qanday avtomatik boshqariladigan muftalarni bilasiz?

---

# UCHINCHI BO'LIM

## MASHINA DETALLARINING BIRIKMALARI

### VI. REZBALI BIRIKMALAR

Texnikada qo'zg'almas bog'lanishlar birikmalar deyiladi. Birikmarning qo'llanishi detal va uzellardan mashinani yig'ishda yig'ma konstruksiyani masofaga ko'chirishni osonlashtirish bilan bog'liq.

Detallardan uzellar, uzellardan esa mashinalar birikmalar vositasida yig'iladi. Birikmalar ajralmaydigan va ajraladigan turlarga bo'linadi.

Uzel yoki mashinani ayrim qismlarga ajratish uchun birikma elementlarni sindirish shart bo'sa, bunday birikma *ajralmaydigan*, aks holda *ajraladigan* birikma deb ataladi.

**Ajralmaydigan birikmalar** – parchin mix, payvand, tig'izlik hisobiga biriktiriladigan birikmalar; **ajraladigan birikmalar** – rezbali, shponkali, shlitsali, shtiftli, profilli birikmalar.

Birikmalar konstruksiyaning muhim elementlari hisoblanadi. Mashina va qurilmalarning aksariyat ishdan chiqish holatlari birikmalarning sisatlari tayyorlanmaganligi bilan bog'liqdir. Masalan, samolyot *fuzelyajining* ishdan chiqishi, asosan, toliqishdan buzilish sababli yuz beradi, ishdan chiqishlarning 85% i rezbali va parchin mixli birikmalar hissasiga to'g'ri keladi. Zamonaviy katta passajir samolyotlarida 700 mingta bolt va 1,5 mln parchin mix ishlataladi.

Birikmalarning ishslash qobiliyati va hisoblashning asosiy mezoni mustahkamlik bo'ladi.

Birikmalarni loyihalashda ularning *teng mustahkamligiga* erishish kerak. Masalan, detallarni biriktirishda ishlatiladigan birkmaning mustahkamligi detal mustahkamligining 0,8 qismiga teng bo'sa, bu detalning yuklanish qobiliyati 20% ishlatilmaydi.

Ajralmaydigan birikmalarning qo'llanishi, asosan, iqtisodiyot va tayyorlashning osonligi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, quvurlarni boltlar bilan biriktirishda ularda *flanes* bo'lishi talab etiladi. Quvurlarni uchma-uch payvandlashda esa bunga hojat qolmaydi. Bundan tashqari, payvand chocklar ulangan quvurlarni yaxlitga o'xshatib yuboradi. Bu holda boltli birkmani qo'llash quvurlarning ajratilishi oson bo'lishi bilan izohlanadi.

## 6.1. Rezbali birikmalar bo'yicha umumiyyatli rezbatlar


### Rezbali birikmalarning afzalliliklari:

- katta yuklanishda yetarli darajada ishonchli ishlaydi;
- ularni ajratish oson;
- ishlab chiqarish oson;
- tayyorlanishi nisbatan arzon;
- hamma o'lchamlari standartlashtirilgan.

### Kamchiliklari:

- maxsus rezbalarni tayyorlashning texnologik qiyinligi;
- o'zgaruvchan kuch ta'siriga chidamliligi yetarli emas.

Rezbani hosil qilish uchun *abc* uchburchak biror o'q atrosida vint chizig'i bo'ylab aylantirilsa, bu tekislikning yon tomonlari rezbaning sirtini hosil qiladi.  $\Delta$  rezbaning profili deb ataladi (6.1-shakl).



6.1-shakl. Uchburchak profilli rezba

Shakliga qarab rezbalar uchburchak, to'rtburchak, trapetsiyaviy, doiraviy va boshqa profilli bo'ladi.

Mahkamlash detallari sifatida, asosan, uchburchak profilli rezbadan foydalaniladi.

Vint chizig'inining ko'tarilish yo'nalishi bo'yicha *o'ng* va *chap* rezbalar farqlanadi. O'ng rezbaning vint chizig'i chapdan o'ngga qarab yuqoriga ko'tariladi, chap rezbaniki esa o'ngdan chapga qarab ko'tariladi. Chap rezba zarur bo'lган hollardagina qo'llaniladi. Rezbalar kirimlar soni bo'yicha 1 kirimli, 2 kirimli, 3 kirimli va hokazo turlarga bo'linadi. Rezba kirimlar soni bo'yicha ikki yoki undan ko'p parallel vint chiziqlarda joylashsa, ular ko'p kirimli rezbani hosil qiladi.

Ko'pincha silindrik sirdagi rezbalardan foydalaniladi. Konussimon sirdagi rezbalar jips birikmalar hosil qilish maqsadida ishlatiladi.

Mahkamlash rezbalari, asosan, bir kirimli bo'ladi. Ko'p kirimli rezbalarning aksariyati vintli mexanizmlarda qo'llaniladi.

Rezba silindr yoki konusning ichki yoki sirtqi sirtida tayyorlanishi mumkin. Birinchisi ichki, ikkinchisi sirtqi rezba deyiladi.

Rezbaning o'lchamlari to'liq hisobda ifodalansa, *metrik rezba*, dyuym bilan ifodalanganda esa *dyuymli rezba* deyiladi.


O'zbekistonda metrik rezbalardan ko'proq foydalanoladi. Metrik rezbalarda profil burchagi  $60^\circ$ , dyuymli rezbalarda esa  $55^\circ$  ga teng.

Rezbaning asosiy geometrik o'lchamlari (6.2-shakl):

$d$  – rezbaning sirtqi diametri;

$d_1$  – rezbaning ichki diametri;

$d_2$  – rezbaning o'rta diametri;



6.2-shakl. Rezbaning geometrik o'lchamlari

$h$  – rezba profilining balandligi;


$p$  – rezbaning qadami;

$p_1$  – rezba yo'li, 1 kirimli rezbalar uchun  $p = p_1$ , ko'p kirimli rezbalar uchun  $p_1 = nr$ ;  $n$  – kirimlar soni;

$\alpha$  – rezba profilining burchagi;

$\psi$  – ko'tarilish burchagi (vint chizig'ining o'rta diametri bo'yicha yoyilmasida vint chizig'ining ko'tarilish burchagi (6.3-shakl)).


$$\operatorname{tg} \psi = \frac{p}{\pi d_2} = \frac{np}{\pi d_2}. \quad (6.1)$$



### 6.3-shakl. Vint chizig'ining ko'tarilish burchagi

*Rezbaning asosiy turlari.* Rezbalar vazifasiga ko'ra mahkamllovchi va vintli rezbalarga ajratiladi.


Mahkamlash rezbalari metrik rezba (6.2-shakl), quvur rezbasi (6.4, a-shakl), doiraviy rezba (6.4, b-shakl), yog'och vintli rezba (6.4, d-shakl) kiradi. Metrik rezba asosiy mahkamlash rezbasi hisoblanadi.



### 6.4-shakl. Mahkamlash rezbalari:

a – quvur rezbasi; b – doiraviy rezba; d – yog'och vintli rezba

Vint mexanizmlari rezbasiga to'g'ri burchak (6.5, a-shakl), simmetrik trapetsiyaviy (6.5, b-shakl), nosimmetrik trapetsiyaviy (6.5, d-shakl) rezbalari kiradi.




### 6.5-shakl. Vintli mexanizm rezbalari:

A – to'g'ri to'rtburchak; b – simmetrik trapetsiyaviy; d – nosimmetrik trapetsiyaviy

Ba'zan bunday turlarga bo'linishlardan chetga chiqib turiladi. Masalan, mayda qadamli metrik konstruksiyalar aniq o'lchov mexanizmlarida qo'l-lansa-da, trapetsiyaviy mahkamlash rezbalari sifatida ham ishlatiladi.

Mahkamlash detallarining asosiy turlariga (6.6-shakl) bolt, vint, gayka va shpilka kiradi.



6.6-shakl. Mahkamlash detallarining asosiy turlari:  
a – boltli; b – vintli; d – shpilkali


Boltli birikmaning afzalligi – biriktiriladigan detallarda rezba kesishning hojati yo'q. Uning kamchiliklari: massasining kattaligi, tashqi ko'rinishini buzib turishi hamda bolt va gayka kallagi uchun joyning zarurligi.

Boltni o'rnatish mumkin bo'lmasa, vint yoki shpilka qo'llaniladi.

Agar detalni ishlatishda ularni ajratish va qayta yig'ish tez-tez amalga oshirilsa, bu holda bolt yoki shpilkani qo'llagan ma'qul. Chunki vintlarining ko'p ishlatilishi detal konstruksiyasini ishdan chiqaradi.


**Rezbali birikmaning o'zidan o'zi buralishining oldini olish.** Mashina va mexanizmlardagi vibratsiyalar rezbaning o'zi buralib ketishi va birikmaning bo'shashiga olib kelishi mumkin. Buning oldini olish uchun bir necha usullardan foydalaniladi:

1) kontrgayka va prujinalovchi shayba qo'yish (6.7-shakl);




6.7-shakl. Gaykani kontrgayka va prujinalovchi shayba vositasida mahkamlab qo'yish

2) shplint va simlar vositasida gaykani vint sterjeniga mahkam qotirish (6.8, 6.9-shakllar);




6.8-shakl. Gaykani shplint vositasida mahkamlab qo'yish



6.9-shakl. Gaykani sim vositasida mahkamlab qo'yish

3) gaykaning detal bilan bikir bog'lanishi, masalan, maxsus shayba yoki planka vositasida (6.10-shakl).



6.10-shakl. Gaykani maxsus detal bilan mahkamlab qotirish


## 6.2. Vintli juft nazariyasining asosiy holatlari

**Gaykaga qo'yilgan burovchi moment bilan vintdag'i bo'ylama (o'q bo'ylab ta'sir etuvchi) kuch orasidagi bog'lanish.**

Agar vintga o'q bo'ylab yo'nalган  $F$  – bo'ylama kuch ta'sir etsa, unda gaykani burab kiritish uchun kalitga burovchi moment  $T_k$  ni qo'yish zarur (6.11-shakl). Kalitdag'i burovchi moment gaykaning yon sirti va rezbadagi kuch momentlarini yengish uchun zarur bo'ladi, ya'ni

$$T_k = T_{yos} + T_r, \quad (6.2)$$

bu yerda,  $T_{yos}$  – gaykaning yon sirtidagi ishqalanish kuchining momenti;  $T_r$  – rezbadagi ishqalanish kuchining momenti.



6.11-shakl. Kalitni burashdagi moment

Gaykaning yon sirtida hosil bo'ladigan ishqalanish kuchining momenti

$$T_{ys} = \frac{F f D_{yos,r}}{2}; \quad (6.3)$$

$$D_{yos,r} = \frac{(D_l + d_T)}{2}.$$

bu yerda,  $D_l$  – gaykaning tayanch sirti tashqi diametri;  $d_T$  – vint uchun te-shik diametri;  $f$  – gayka yon sirtidagi ishqalanish koefitsienti.

Rezbadagi ishqalanish kuchining momenti

$$T_r = 0,5 F d_T \operatorname{tg}(\psi + \varphi), \quad (6.4)$$

bu yerda,  $\psi$  – rezbaning ko'tarilish burchagi (6.1-formula);  $\varphi = \operatorname{arctg} f_{\text{kel}}$  – rezbadagi ishqalanish burchagi;  $f_{\text{kel}}$  – rezbadagi keltirilgan ishqalanish koefitsienti.

Momentlar qiyamatining ifodasini (6.2) formulaga qo'ysak,

$$T_k = 0,5 F d_2 \left[ \left( \frac{D_{\omega r}}{d_2} \right) f + \operatorname{tg}(\psi + \varphi) \right]. \quad (6.5)$$

Gaykani rezbadan burab olishda

$$T_k = 0,5 F d_2 \left[ \left( \frac{D_{\omega r}}{d_2} \right) f + \operatorname{tg}(\varphi - \psi) \right]. \quad (6.6)$$

Olingan natijalar bo'yicha quyidagi xulosalarni qilish mumkin. (6.5) ifoda yordamida bo'ylama kuch  $F$  ni kalitga qo'yilgan  $F_k$  kuchga nisbatan topish mumkin. Standart metrik rezbalar uchun gaykani buraydigan kalit uzunligi  $l \approx 15d$  va  $f \approx 0,15$  bo'lса,  $\frac{F}{F_k} = 70 \div 80$ , ya'ni kuchdan shuncha bor yutish mumkin.

Vint sterjeni  $F$  kuch bilan cho'zilishi bilan birga  $T$  moment bilan buraladi.

### Vintli juftning o'z-o'zidan tormozlanishi va uning foydali ish koefitsienti

Vintli juftning buralib ketmaslik shartini topishda  $T_{bmr} > 0$  dan foydalansak,  $T_{bmr}$  (6.6) formuladan topiladi. Faqat rezbadagi ishqalanishgina hisobga olinsa, vintli juftning buralib bo'shamaslik sharti  $\psi < \varphi$  bo'ladi.

Demak, rezbaning ko'tarilish burchagi undagi ishqalanish burchagidan kichik bo'lishi kerak. Mahkamlash detallari uchun ishlanadigan konstruksiyalarda  $\psi = 1,5 \div 4^\circ$  gacha  $\varphi = 6 \div 16^\circ$  bo'ladi. Shunday qilib, mahkamlash detallari uchun ishlataladigan konstruksiyalarning hammasida o'z-o'zidan tormozlanish xususiyati bo'ladi.


Vintli juftning foydali ish koefitsienti:

$$\eta = \frac{\operatorname{tg} \psi}{\operatorname{tg}(\psi + \varphi)}. \quad (6.7)$$

$\psi < \psi'$  bo'lgani uchun, vintli juftning foydali ish koefitsienti  $\eta < 0,5$  bo'ladi.

## Rezba o'ramlari bo'yicha kuchning taqsimlanishi.

6.12-shaklda vintli juft ko'rsatilgan. Rezbali birikmalarda o'q bo'ylab yo'nalgan va vint sterjenini cho'zadigan kuch rezbaning hamma o'ramlariga ham bir xilda ta'sir etavermaydi. Rezbalar ta'sir etuvchi kuchning rezba o'ramlari orasida bir tekis taqsimlanmaganligi sabablaridan biri – vintdag'i rezbaning bir tomonga, gaykadagi rezbaning esa qarama-qarshi tomonga deformatsiyalanishidir.



6.12-shakl. Vintli juftda rezba o'ramlarida kuchlarning taqsimlanishi


Vintdag'i bo'ylama kuch rezba orqali gaykaga uzatiladi va uning tayanchlaridagi reaksiya bilan muvozanatlashadi. Rezbaning har bir o'rami, mos ravishda,  $F_1, F_2, \dots, F_6$  kuchlar bilan yuklanadi.  $z$  – gayka rezba o'ramlar soni:

$$\sum_{i=1}^z F_i = F.$$

Umumiy holda o'ramdag'i kuch  $F$  lar bir-biriga teng emas. Rezba o'ramlari orasida kuchlarning taqsimlanish masalasini birinchi bo'lib rus olimi professor N. Jukovskiy 1902-yilda yechgan. O'ramlar orasidagi kuchning taqsimlanishi 6.12-shaklda ko'rsatilgan, grafikdan ko'rinishicha 6 o'ramli rezbaning 1-o'ramiga eng katta kuch 0,34  $F$  tushadi, 6-o'ramiga esa eng kam 0,07  $F$  kuch tushadi.

### 6.3. Rezban mustahkamlikka hisoblash

Rezbaning asosiy yemirilish turlari: mahkamlash rezbasining o'ramlar kesilishi, yurish vintlari o'ramlarining yeyilishi. Demak, rezbalar uchun ishslash qobiliyati va hisobining asosiy mezoni: mahkamlash rezbasi o'ramlarining kesilishi bilan bog'liq kesuvchi kuchlanish  $\tau$ , yurish vintlari uchun ezuvchi  $\sigma_{ez}$  kuchlanish bilan bog'liq yeyilishga chidamlilik (6.13-shakl).



6.13-shakl. Rezbada hosil bo'ladigan kuchlanishlar

Kesuvchi kuchlanish bo'yicha rezbaning mustahkamlik sharti

$$\left. \begin{aligned} \text{vint uchun} \quad \tau &= \frac{F}{\pi d_1 H K K_m} \leq [\tau], \\ \text{gayka uchun} \quad \tau &= \frac{F}{\pi d H K K_m} \leq [\tau]. \end{aligned} \right\} \quad (6.8)$$

bu yerda,  $H$  – gayka balandligi yoki vintni detalga burab kiritish chuqurligi;  $K = \frac{ab}{p}$  yoki  $K = \frac{ce}{p}$  – rezbaning to'lalik koefitsienti;  $K_m$  – rezba o'ramlari bo'yicha yuklanishning notekis taqsimlanish koefitsienti. Uchburchak rezba uchun  $K = 0.87$ ; to'rtburchak rezba uchun  $K = 0.5$ ; trapetsiyaviy rezba uchun  $K = 0.65$ ;  $K_m = 0.67 - 0.7$ .

Agar vint va gayka materiallari bir xil bo'lsa, unda kesuvchi kuchlanish bo'yicha faqat vint konstruksiyasi hisoblanadi, chunki  $d_v < d$  bo'ladi.

Yurish vintlari konstruksiyalari uchun yejilishga chidamlilik sharti:

$$\sigma_{ez} = \frac{F}{\pi d_v h z} \leq [\sigma_{ez}], \quad (6.9)$$

bu yerda,  $z = \frac{H}{P}$  ishchi o'ramlar soni (masalan, gayka o'ramlari soni) (6.8)

formula vint va gayka uchun ham taalluqli bo'ladi. Bu yerda koefitsient  $K_m = I$  deb olingan.

**Gaykaning balandligi va konstruksiyani burab kiritish chuqurligi.** Rezba va vint sterjenining teng mustahkamlik sharti standart gayka balandlilagini aniqlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Chegaraviy kuchlanishlar sifatida materialning cho'zilish va siljishdagi oquvchanlik chegarasini qabul qilsak va  $\tau_{eq} \approx 0,6 \tau_{eq}$  ekanligini e'tiborga olsak, rezbaning kesilishi va vint sterjenining cho'zilishdagi teng mustahkamlik shartini quyidagicha yozish mumkin:

$$\tau = \frac{F}{\pi d_v H K_m} = 0,6 \sigma_{eq} = \frac{0,6 F}{\pi d_v^2},$$

bundan  $K = 0,87$  va  $K_m = 0,6$  bo'lsa,  $H = 0,8 d_v$  bo'ladi.

bu yerda,  $\frac{F}{\pi d_v^2}$  – vint sterjenining cho'zilishidagi kuchlanish.

Yuqoridagilarga binoan mahkamlovchi normal standart gaykaning balandligi:

$$H = 0,8 d_v \quad (6.10)$$

Normal standart gaykalardan tashqari baland  $H \approx 1,2 d$  va past  $H \approx 0,5 d$  gaykalar ham qo'llanadi.

$d > d_1$  bo'lgani uchun (masalan, mahkamlash konstruksiyalarida  $d \approx 1,2 d_1$ ) normal va baland gaykalarda rezba mustahkamligi vint sterjeni mustahkamligidan yuqori bo'ladi.

Xuddi shunday mulohazalar asosida vint va shpilkani detalga burab kiritish chuqurligi o'matiladi. Po'lat detallarda  $H_l \approx d$ , cho'yan va silumin detallarda  $H_l = 1,5d$ .


Standart gaykaning balandligi (past gaykalardan tashqari) va rezbani detalga burab kiritish chuqurligi standart mahkamlash rezbalarida mustahkamlikni tekshirishga hojat qoldirmaydi.

#### 6.4. Vint sterjeni (bolt)ni yuklanish turlicha ta'sir etganda mustahkamlikka hisoblash

Boltli birikmalarni to'g'ri hisoblashda unga ta'sir qiluvchi yuklanishni to'g'ri aniqlash, sxemadagi xavfli kesimni belgilash, asosiy mezon – mustahkamlikka ta'sir etuvchi omillarni e'tiborga olish zarur bo'ladi.

Vint sterjeni (bolt)ga ta'sir etuvchi yuklanishning 5 xil holatini ko'r-satish mumkin. 5 holatning hisobiy sxemalari bo'yicha boltda hosil bo'ladigan kuchlanishlar ifodasi va ular asosida bolt diametrini aniqlash ko'rib chiqiladi.

**1. Bolt sterjeniga faqat cho'zuvchi tashqi kuch ta'sir etadi. Bolt sterjeniga ta'sir etuvchi yuklanishning 1-holati.** Bunga sirib tortilmagan, ya'ni zo'riqtirilmagan holatda osib qo'yilgan ilgak (6.14-shakl) misol bo'la oladi. Uning rezbali qismi mustahkamligi tashqi  $F$  kuch ta'siridan cho'zilishda hisobiy diametri bo'yicha tekshiriladi.



6.14-shakl. Yuk osilgan ilgakning hisobiy sxemasi


$$\sigma = \frac{F}{\pi d_t^2 / 4} \leq [\sigma]; \quad (6.11)$$

$$d_i \geq \sqrt{\frac{4F}{\pi[\sigma]}}, \quad (6.12)$$

bu yerda,  $[\sigma]$  – ruxsat etilgan cho'zuvchi kuchlanishning qiymati.

$d_i$  – ning topilgan qiymati tegishli standart bo'yicha yaxlitlab olinadi.

**2-holat. Bolt sirib tortilgan.** Bunga germetik bo'lishi talab etiladigan qopqoqlarni sirib mahkamlash uchun ishlataladigan boltlar misol bo'ladi (6.15-shakl). Bunday boltning sterjeniga sirib tortish natijasida hosil bo'ladi qopqoqni biriktiruvchi kuch  $F_{sr}$  hamda rezbadagi burovchi moment  $T_r$  ta'sir etadi.



6.15-shakl. Qopqoqni biriktiruvchi sirib tortilgan bolt

$F_{sr}$  – sirib tortuvchi kuch ta'siridan hosil bo'lgan kuchlanish:

$$\sigma = \frac{F_{sr}}{\frac{\pi}{4} d_i^2}.$$

$T_r$  – momentdan hosil bo'ladiqan burovchi kuchlanish:

$$\tau = \frac{T_r}{W_z} = \frac{0.5 F_{sr} d_i \operatorname{tg}(\psi + \varphi)}{0.2 d_i^3}. \quad (6.13)$$

Zarur bo'lgan sirib tortuvchi kuch:

$$F_{sr} = A \sigma_{cz},$$

bu yerda,  $A$  – bir boltga to'g'ri keladigan detallarning tutashish yuzasi:  $\sigma_{ekv}$  – detallarning tutashuvida hosil bo'ladigan ezuvchi kuchlanish, uning qiymati germetiklik shartidan aniqlanadi.

Boltning mustahkamligi ekvivalent kuchlanish bo'yicha aniqlanadi:

$$\sigma_{ekv} = \sqrt{\sigma^2 + 3\tau^2} \leq [\sigma]. \quad (6.14)$$

Standart metrik rezbalalar uchun:

$$\sigma_{ekv} \approx 1,3\sigma.$$

Boltning mustahkamlig sharti:

$$\sigma_{ekv} = \frac{1,3F_{ekv}}{\pi d_I^2} = \frac{5,2F_{ekv}}{\pi d_I^2} \leq [\sigma]; \quad (6.15)$$

+

bundan


$$d_I \geq \sqrt{\frac{5,2F_{ekv}}{\pi[\sigma]}}.$$

Hisoblash va amaliyotda M10, M12 dan kichik rezbalarni hatto oz kuch qiyatlari bilan uzib yuborish mumkin. Masalan, M6 bolt 45 N kuch bilan, M12 bolt esa 180 N kuch bilan ta'sir etganda uzilib ketishi mumkin. Shu sababli o'rta va og'ir mashinasozlikda kichik diametrli boltlardan (M8 dan kichik) foydalanish tavsiya etilmaydi.

**3-holat. Bolt sirib tortilgan, tashqaridan bolt sterjeniga cho'zuvchi kuch ta'sir etadi (6.16-shakl).** Bu holga bosim ostida bo'ladigan germetik idishlarning qopqog'ini biriktiruvchi boltlar misol bo'la oladi.

Bunday boltlar sirib tortilganda idishning germetikligi va qopqoqqa bosim ta'sir etganda havo yoki suyuqlikni tashqariga chiqarib yubormaslik ta'minlanadi. Bunda dastlab sirib tortilgan boltning sterjeni cho'zilgan bolt vositasida biriktirilgan, detallar esa siqilgan holatda bo'ladi. Tashqi bosim ta'sirida boltning sterjeni qo'shimcha cho'ziladi, detallarning siqiligi esa bo'shashadi.

Boltlarni sirib tortishda ulardag'i cho'zuvchi kuchning yetarli darajada bo'lishini ta'minlash zarur, ya'ni ta'sir etuvchi bosim ostida detallarning siqiligi butunlay yo'qolib ketmasligi shart.



6.16-shakl. Sirib tortilgan qopqoq ichidagi bosim ta'sir etadigan boltlar

Bolt sterjenini hisoblash uchun sirib tortishda hosil bo'lgan taranglik kuchini  $F_{\text{sr}}$  bilan belgilaymiz. Agar boltlar sonini  $z$  – deb olsak, bitta boltga tashqaridan ta'sir etuvchi kuchni  $F = \frac{R}{z}$  deb olish mumkin.

Bunday birikma elementlari orasida yuklanishni taqsimlanishi statik noaniq masala bo'ladi. Boltning  $F_{\text{sr}}$  kuch ta'sirida cho'ziq holatda bo'lgan sterjeniga tashqi kuch  $F$  qo'yilsa, u qo'shimcha  $\Delta_p$  ga cho'ziladi. Detallarning siqqligi esa shunchaga bo'shashadi. Yuklanishning bolt sterjenini cho'zishga sarflangan qismini ko'rsatuvchi koeffitsient  $\chi$  (tashqi yuklanish koeffitsienti) bo'lsa, u holda tashqi yuklanishdan boltga qo'shimcha  $\chi F$  kuch ta'sir etadi, detallarni siqib turgan kuch esa  $(1-\chi)F$  qadar kamayadi. Tashqi kuch ta'siridan sterjenlar qancha cho'zilsa, detallarning siqqligi shuncha kamayadi. Shuning uchun

$$\Delta = \chi F \lambda_b = (1 - \chi) F \lambda_d \quad (6.16)$$


bo'ladi, bu yerda,  $\lambda_b$  – boltning beriluvchanligi,  $\lambda_d$  – biriktirilayotgan detal-larning umumiy beriluvchanligi.

(6.16) tenglamadan,

$$\chi = \frac{\lambda_d}{\lambda_b + \lambda_d}; \quad \lambda_b = \frac{l_b}{E_b A_b}; \quad \lambda_d = \frac{\delta_d}{E_d A_d};$$

bu yerda,  $E_b$  va  $E_d$  – boltlar va detal materiallarining elastiklik modulli;  $A_b$  va  $A_d$  – bolt va detal kesimlarining yuzalari;  $l_b$  – boltning deformatsiya-lanuvchi qismi uzunligi;  $\delta_d + \delta_1 + \delta_2$  – detallar qalinligining yig'indisi;  $l_b \approx \delta_d \cdot F_d$  deganda detal kesimining hamma yuzi emas, balki boltni sirib

tortishdan deformatsiyalanadigan qismining yuzi nazarda tutiladi. Deformatsiya bolt kallagining sirtidan boshlanib,  $30^\circ$  burchakli konus shaklida yoyilgan bo'ladi deb taxmin qilinadi. Konus hajmini stilindr hajmi bilan almashtirib quyidagilarni yozish mumkin (6.17-shakl):



6.17-shakl. Bolt ni sirib tortishda tutash detallarning deformatsiyasi

$$D_1 = D + \frac{\delta_1 + \delta_2}{4} \quad \text{va} \quad A_d = \frac{\pi}{4} (D_1^2 - d_t^2).$$

$\lambda_d$  va  $\lambda_b$  ni aniqlash ancha qiyinchilik tug'diradi.

Amalda

$$\chi = \frac{\lambda_d}{\lambda_b + \lambda_d} \leq 0,2 - 0,3 \quad \text{deb olinadi.}$$

Keltirilgan hol uchun bolt sterjenlari quyidagi tartibda hisoblanadi:

1. Ta'sir etuvchi yuklanish statik bo'lgan hol:

$$\sigma = \frac{1,3 F_h}{\frac{\pi d_1^2}{4}} = \frac{5,2 F_h}{\pi d_1^2} \leq [\sigma]. \quad (6.17)$$

Bu yerdag'i hisobiy yuklanish:

$$F_h = F_{nr} + \chi F = K_{nr} F + \chi F, \quad (6.18)$$

bu yerda,  $K_{nr}$  - taranglik koeffitsienti,  $K_{nr}=1,25 - 2$ ; germetiklik talab qilinsa,  $K_{nr}=1,3 - 5$  bo'ladi.  $F$  - boltga ta'sir qiluvchi tashqi yuklanish.

## 2. Ta'sir etuvchi yuklanish o'zgaruvchan bo'lgan hol

Bunday hollarda birikmadagi o'zgaruvchan kuchlanishlar uchun mustahkamlit zaxirasi aniqlanib, uning qiymati ruxsat etilgan qiymat bilan taqqoslanadi:

$$S_{\sigma} = \frac{\sigma_{-1}}{\sigma_m K_{\sigma} + \psi_{\sigma} \sigma_m} \geq [S], \quad (6.19)$$

$$\sigma_m = \frac{F_{sfr} + F_h / 2}{F_h} - \text{kuchlanishning o'zgarmas qismi};$$

$$\sigma_a = \frac{F_h}{2A_h} - \text{kuchlanishning o'zgaruvchan qismi},$$

$\sigma_{-1}$  – bolt materialining toliqish chegarasi;

$K_{\sigma}$  – rezbadagi kuchlanish konsentratsiyasining samarali koefitsienti;

$\psi_{\sigma} \approx 0.1$  kuchlanish sikl assimetriyasining sezgirlik koefitsient.


Statik mustahkamlit bo'yicha materialning oquvchanlik bo'yicha zaxirasi:

$$S_{oq} = \frac{\sigma_{oq}}{\sigma_{max}} = \frac{\sigma_{oq}}{(\sigma_m + \sigma_a)}. \quad (6.20)$$

**4-holat. Bolt yordamida biriktirilgan detallarni suruvchi kuch ta'siridan boltni hisoblash.**

**Yuklanish bolting o'qiga tik yo'nalishda ta'sir etadi.** Bunday hollarda boltni ikki xil tarzda o'rnatish mumkin. Birikmaning ishonchlilik sharti tutashmadagi detallarning surilmashlik sharti bo'ladi.

**1. Bolt o'rnatiladigan teshiklarning diametri bolting diametridan kattaroq qilib tayyorlanadi. Bolt sterjeni bilan detal orasida tirqish hosil bo'ladi (6.18-shakl).**



6.18-shakl. Biriktiriladigan detal teshigida tirqish bilan o'rnatilgan bolt

Birikmaga ta'sir etuvchi tashqi  $F$  kuch detallarning tutashgan joyida bolning sirib tortilganligi tufayli hosil bo'lgan ishqalanish kuchi hisobiga muvozanatlashadi. Tashqi kuch ta'sirida detallar bir-biriga nisbatan siljimasligi kerak. 6.15-shakldagi 2-detalning mustahkamligi:

$$F \leq i \cdot F_{rshq} = iF_{str}f \quad \text{yoki} \quad F_{str} = \frac{Kf}{if},$$

$f$  – detallarning tutashgan joyidagi ishqalanish koefitsienti ( $f \approx 0,15 - 0,20$ );

$\lambda$  – ehtiyyot koefitsienti, statik yuklanishda  $K = 1,3 - 1,5$ ; o'zgaruvchan yuklanishlar uchun  $K = 1,8 - 2$ ;

$i$  – detallarning tutash tekisliklar soni 6.15-shaklda,  $i = 2$ ; faqat ikkita detal tutashtirilsa  $i = 1$ .

Boltning mustahkamligi ekvivalent kuchlanish bo'yicha hisoblanadi (6.15-formula).

Bolt tirqish (zazor) bilan o'rnatilgan hollarda  $F$  kuch bolning sterjeniga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etmaydi. Boltning sterjeni, asosan, taranglik kuchi ta'sirida cho'zilgan bo'ladi. Shuning uchun:

$$\sigma_{ekv} = \frac{1,3F_{str}}{\pi d_I^2} \leq [\sigma].$$


4

Tashqaridan qo'yilgan kuch bolt sterjeniga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etmaganlidigan yuklanish o'zgaruvchan bo'lgan hollarda ham boltni keltirilgan formulalar vositasida hisoblash mumkin. Buning uchun ehtiyyot koefitsientining katta qiymatlari (1,8–2) qabul qilinadi.

**2. Bolt tirqish (zazor)siz o'rnatiladi (6.19-shakl).** Bolt o'rnatiladigan teshiklar tig'zlik bilan joylashadigan qilib tayyorlanadi. Bunda tashqaridan qo'yilgan kuch detal orqali to'g'ridan to'g'ri bolt sterjeniga ta'sir qiladi. Bunda boltning gaykasini sirib tortishga hojat qolmaydi. Shuning uchun bunday boltni hisoblashda detallarning tutashgan joyidagi ishqalanish kuchiga e'tibor berilmaydi. Bolt sterjeni kesilishiga va ezilishga hisoblanadi.

Kesuvchi kuchlanish bo'yicha mustahkamlik sharti:

$$\tau = \frac{F}{i \frac{\pi d^2}{4}} \leq [\tau] \quad (6.21)$$



6.19-shakl. Tirqishsiz o'rnatilgan boltni hisoblash sxemasi

Ezuvchi kuchlanish bo'yicha mustahkamlik sharti:

$$\left. \begin{array}{l} \text{o'rtadagi detal uchun} \quad \sigma_{ez} = \frac{F}{d\delta_2} \leq [\sigma_{ez}] \\ \text{chetdagi detal uchun} \quad \sigma_{ez} = \frac{F}{2d\delta_1} \leq [\sigma_{ez}] \end{array} \right\} \quad (6.22)$$


bu yerda,  $i$  – kuch ta'sirida kesilishi mumkin bo'lgan kesimlar soni;  $F$  – tashqi kuch;  $d$ ,  $\delta_1$ ,  $\delta_2$  – shakldagi o'lchamlar.

Ezilishga hisoblashda formulalar bolt va detalga bir xil taalluqli. Ruxsat etilgan kuchlanishning qiymati bolt va detalning qaysi biri uchun kichik bo'lsa, o'shanisi qabul qilinadi.

Umuman olganda, birikmalarda bolt tirqishsiz o'rnatilgani ma'qul, chunki boltlarning o'lchami (diametri) sezilarli darajada kichik, ishlashi esa yetarli darajada ishonchli bo'ladi.

### 5. Egilgan boltning mustahkamlik hisobi (5-holat)

Ta'sir qiluvchi yuklanishdan bolt sterjenida eguvchi moment hosil bo'ladi (6.20-shakl).



6.20-shakl. Boltning egilishidagi hisobiy sxema

Detalning gayka sirti bilan tutashadigan yuzasi notejis bo'lmaganda yoki kallagi ko'zda tutilmagan ilgak sifatida tayyorlangan boltlardan foy-dalanilganda, uning sterjenida cho'zuvchi kuchdan tashqari, eguvchi moment ham hosil bo'ladi. Bunday boltlarni hisoblashda, cho'zuvchi kuchdan tashqari, eguvchi momentni ham hisobga olish zarur. Cho'zuvchi kuchdan hosil bo'lgan kuchlanish:

$$\sigma = \frac{F_{st}}{\pi d_i^2}.$$

4

Eguvchi moment ta'siridan hosil bo'lgan kuchlanish:

$$\sigma_{eg} = \frac{F_{st}x}{0,1d_i^3} \quad \text{yoki} \quad \sigma_{eg} = \frac{M}{W_{eg}} \approx \frac{Ed\alpha}{2l_h},$$

bu yerda,

$$M = \frac{EJ}{p}; \quad p = \frac{l_h}{\alpha}; \quad tg\alpha \approx \alpha \text{ (radian)}; \quad W_{eg} = \frac{J}{d/2}$$

Mustahkamlik sharti:

$$\sigma = \sigma_{cho'z} + \sigma_{eg} \leq [\sigma].$$

Odatda, hisobiy yuklanish sifatida  $\sigma_{eg}$  dan kichigi tanlab olinadi.

$$\text{Amalda } \frac{\sigma_{eg}}{\sigma_{cho'z}} \approx 7,5.$$

Demak, boltning ekssentrik yuklanishi uning mustahkamligini keskin kamaytirib yuboradi.

Birikma konstruksiyasini loyihalash va tayyorlashda ekssentrik (markaziy bo'lmanan) siqilishga yo'l qo'ymaslik chorasi qo'llash kerak. Masalan, bolt yoki gayka ostiga qiya shayba qo'yish mumkin.


## 6.5. Bir necha boltli birikmalarni hisoblash

Bir necha boltli birikmalarni hisoblashda eng katta yuklanish tushadigan boltni aniqlab, avval ko'rilgan 5 ta holat bilan hisoblash uchun quyidagi soddalashtirishlar qabul qilingan: tutashish sirtlari yuklanishning ta'sir etish hollari hamma sharoitlarida ham tekis (deformatsiyalanmaydigan) bo'lib qoladi (aslida bu holat yetarli bikir detallar uchun to'g'ri bo'ladi). tutashish sirtlari kamida ikki simmetriya o'qiga ega bo'ladi, boltlar esa bu

o'qlarga nisbatan simmetrik joylashadi, birikmaning hamma detallari bir xil bo'ladi va teng qilib sirib tortiladi.

**Bir necha boltli birikmani hisoblashda uch xil holat ajratiladi.**

**1. Teng ta'sir etuvchi yuklanish tutashish sirtiga perpendikulyar va uning og'irlilik markazidan o'tadi.** Bu holat doiraviy va to'g'ri burchakli qopqoqlarni biriktirishda tipik hol hisoblanadi (6.21-shakl).



6.21-shakl. Doiraviy va to'g'ri burchakli qopqoqlarni biriktirish

Bunda boltlar birikmaning zinchligini yetarli qilib sirib tortiladi. Bunday birikmaning hamma boltlari teng yuklanish bilan yuklanadi. Bitta boltga to'g'ri keladigan tashqi yuklanish:


$$F = \frac{R}{z},$$

bu yerda,  $z$  – boltlar soni.

Boltlarning hisobiy yuklanishini (6.18) boshqa formulalar yordamida ham hisoblab topish mumkin.

**2. Birikmaning yuklanishi tutash detalni suradi.** Bunga misol – kronshteynning qotirilishi (6.22-shakl). Birikmani hisoblashda kuchni tutashuv markaziga ko'chiramiz va undan hosil bo'lgan  $T=R\ell$  momentini ham ko'rsatamiz. Moment va kuch kronshteynni burish va surishga harakat qiladi.  $R$  kuchdan boltlarga tushadigan yuklanish tekis taqsimlanadi:

$$F_R = \frac{R}{z}.$$



6.22-shakl. Kronshteynni boltlar yordamida qotirish

Momentdan boltlarga tushadigan yuklanish ( $F_{11}$ ,  $F_{12}$ , ...  $F_{1z}$ ) kronshteynning burilishidagi boltlarning deformatsiyasiga proporsional taqsilanadi. O'z navbatida, deformatsiyalar boltlardan tutashuv og'irlilik (burilish) markaziga bo'lgan masofaga proporsional bo'ladi. Boltlar reaksiyasi yo'nalishi radiuslarga  $r_1, r_2, \dots, r_z$  perpendikulyar bo'ladi.

Muvozanat shartidan,

$$T = F_{T_1}r_1 + F_{T_2}r_2 + \dots + F_{T_z}r_z \quad \left. \begin{array}{l} \\ \frac{F_{T_1}}{F_{T_2}} = \frac{r_1}{r_2}; \dots; \frac{F_{T_1}}{F_{T_z}} = \frac{r_1}{r_z} \end{array} \right\} \quad (6.23)$$

bu yerda 6.22-shakldagi misol uchun

$$T = 4F_{T_1}r_1 + 2F_{T_2}r_2.$$

Har bir boltdagi natijaviy yuklanishning yig'indisi mos kuchlar  $F_R$  va  $F_T$  larning (6.22-shaklda birinchi bolt uchun yuklanish ko'rsatilgan) geometrik yig'indisiga teng.

Natijaviy yuklanishlarning eng kattasi hisobiy yuklanish bo'ladi. Reaksiyalarning qiymatlari va yo'nalishini solishtirib, 6.22-shakldagi birikmalar uchun eng ko'p yuklanishli boltlar 1 va 3 ( $F_R$  va  $F_T$  reaksiyalar

yo'nalishi bo'yicha yaqin) yoki 2 ( $F_R$  va  $F_T$  bir xil yo'nalgan, lekin  $F_{T2} < F_{T1}$  va  $F_{T3}$ ) bo'ladi.

Konstruksiyada boltlar birikmasi tirkishsiz va tirkish bilan o'rnatilishi mumkin.

**Boltlar tirkishsiz o'rnatilgan.** Yuklanish bevosita boltlar bilan qabul qilinadi. Boltlar va detallarning mustahkamligi kesuvchi va ezuvchi kuchlanishlar (6.21 va 6.22-formulalar) bo'yicha hisoblanadi


**Boltlar tirkish bilan o'rnatilgan.** Yuklanish boltlarning sirib tortilishidan tutashuvda hosil bo'lgan ishqalanish kuch bilan muvozanatlashadi. Har bir boltning sirib tortilishidan hosil bo'lgan ishqalanish kuchining teng ta'sir etuvchisi taxminan kesimning markaziga qo'yilgan deb hisoblanadi.

Agar har bir boltning ostidagi ishqalanish kuchining teng ta'sir etuvchisi, mos ravishda,  $F_R$  va  $F_T$  kuchlarning teng ta'sir etuvchisidan katta bo'lsa, birikma mustahkam deb hisoblanadi. Har bir bolt bir xil kuch bilan sirib tortilgani uchun umumiy sirib tortuvchi kuch eng ko'p yuklangan bolt bo'yicha aniqlanadi. Boltlarni sirib tortuvchi zarur kuch:

$$F_{sir} = \frac{K F_{max}}{f}, \quad (6.24)$$

bu yerda,  $K = 1,3-2$  – ehtiyot koefitsienti;  $F_{max}$  – eng ko'p yuklangan boltga tushadigan kuch. masalan,  $F_I$  ga teng;  $f$  – detallarning tutashuvidagi ishqalanish koefitsienti.

Boltlarning mustahkamligi (6.15) formula bo'yicha hisoblanadi.



6.23-shakl. Flanesni boltlar bilan biriktirish

Shu holatdagi boltlarning yuklanishiga vallarning flanesli mustalar bilan biriktirishni ham misol qilish mumkin. Bunday konstruksiyalarda, odatda, markazlashtiruvchi chiqiqlar (6.23, a-shakl) yoki markazlashtiruvchi shaybalar (6.23, b-shakl) qo'llaniladi. Ularning har biri ham birikma ning ko'ndalang kuchdan yuklanishini kamaytiradi.

Tirqishsiz o'rnatilgan boltlarning hisobiy yuklanishi:

$$F = \frac{2T}{zD_n}. \quad (6.25)$$

Tirqish bilan o'rnatilgan boltlarning hisobiy yuklanishi;

$$F_{sir} = \frac{2KT}{zD_n f}. \quad (6.26)$$

**3. Birikmaning yuklanishi detallar tutashuvini ochadi.** Bu holat amaliyotida ko'p uchraydi (turli xil kronshteyn, tirkak va sh.k.larni qotirish). 6.24-shakldagi misolning yechimini ko'ramiz.

$R$  kuchini  $R_1$  va  $R_2$  teng ta'sir etuv-chilarga ajratamiz. Bu teng ta'sir etuv-chilarning ta'sirini markazga qo'yilgan kuchlar va moment ta'siri bilan almash-tiramiz

$$M = R_2 l_2 - R_1 l_1,$$


$R_1$  va  $M$  – tutashuvni ochadi,  $R_2$  esa detallarni suradi. Tutashuvning ochilish va detallarning surilish xavfini boltlarning  $F_{sir}$  kuchi bilan sirib yo'qotiladi.

Tutashmaning ochilib ketmaslik shartidagi hisob:  $R$  kuch qo'yilguncha boltlarni sirib tortishdan tutashuvda ezuvchi kuchlanish hosil bo'ladi:

$$\sigma_{sir} = \frac{F_{sir} \cdot z}{A_{tut}}. \quad (6.27)$$

Ezuvchi kuchlanishni tutashuv sirti bo'yicha tekis taqsimlangan deb olamiz. (6.27) formulada:  $z$  – boltlar soni,  $A_{tut}$  – tutashuv yuzasi.

$R_1$  – kuch boltlarni cho'zadi va  $\sigma_{sir}$  – ni quyidagi miqdorga kamayti-radi.



6.24-shakl. Kronshteynning hisobiy sxemasi

$$\sigma_{RI} = \frac{R_I(1-\chi)}{A_{tot}} \approx \frac{R_I}{A_{tot}}, \quad (6.28)$$

bu yerda,  $R_I(1-\chi)$  tutashuvdagagi yuklanishni kamaytiradigan tashqi yuklanish miqdori. Yechimni soddalashtirib,  $\chi=0$  deb olamiz, bu tutashuv ochilmaslik sharti bo'yicha zaxira bo'lib hisoblanadi.

Tutashuvning burilish o'qini simmetriya o'qida deb olib, tutashuvning ochilib ketmaslik shartini ko'ramiz.

Sirib tortuvchi kuch va yuklanishning qiymatiga qarab, tutashmadagi jami kuchlanish epyurasining 6.24-shakldagi  $I$  yoki  $II$  variant bo'yicha o'zgarishini ko'ramiz. Bu yerda,

$$\begin{aligned}\sigma_{max} &= \sigma_{sr} \pm \sigma_{R_I} + \sigma_M \quad \text{tutashmadagi maksimal kuchlanish,} \\ \sigma_{min} &= \sigma_{sr} \pm \sigma_{R_I} - \sigma_M \quad \text{tutashmadagi minimal kuchlanish.}\end{aligned}$$

$II$  variant bo'yicha tutashma chekkasi ochilib ketishi mumkin, chunki bu yerda kuchlanish nolga teng, bunga esa yo'l qo'yib bo'lmaydi.  $I$  variant bo'yicha tutashma ochilmaydi va uni hisobiy deb olamiz.

Tutashmaning ochilib ketmaslik shartidan,

$$\begin{aligned}\sigma_{min} &> 0 \\ \text{yoki } \sigma_{sr} &\geq \pm\sigma_{R_I} + \sigma_M \\ \text{yoki } \sigma_{sr} &= K(\pm\sigma_{R_I} + \sigma_M).\end{aligned} \quad (6.29)$$

bu yerda,  $K=1.3 - 2$  tutashmaning ochilmasligida ehtiyyot koefitsient (6.29) formula bo'yicha  $\sigma_{sr}$  va so'ngra (6.27) formula bo'yicha  $F_{sr}$  aniqlanadi.

**Tutashmadagi detallarni siljimaslik sharti bo'yicha hisoblash.** Tutashmadagi detallar siljimasligi uchun ishqalanish kuchi R kuchidan katta bo'lishi kerak, ya'ni

$$(F_{sr} \pm R_1)f \geq K'R_2, \quad (6.30)$$

bu yerda,  $f$  – tutashuvdagagi ishqalanish koefitsienti,  $I \approx 1.3 - 2$  ehtiyyot koefitsienti.

(6.30) formulada moment  $M$  ning qiymati e'tiborga olinmaydi, chunki moment detallarni surmaydi va tutashmadagi ishqalanish kuchining jami qiymatini o'zgartirmaydi.

Agar (6.30) shart bajarilmasa, (6.29) shart – tutashmaning ochilmaslik sharti ushbu birikma uchun asosiy bo’lmaydi va sirib tortishni detallarning siljimaslik (surilmaslik) sharti bo’yicha aniqlash kerak:

$$F_{\text{sh}} = (K'R_2 \pm R_1 f) / (\varepsilon f) \quad (6.31)$$

yoki boltlarni tirqishsiz o’natish zarur.

Siljituvcchi yuklanishlar katta bo’lsa, yuklanishni kamaytiruvchi maxsus qurilmalar – shtift, vtulka, shponka, tirkak va sh.k.lar qo’yiladi.

Boltlarning mustahkamligini hisoblashda (6.29) va (6.30) shartlardan topilgan sirib tortuvchi kuchlarning eng kattasi hisobga olinadi. Boltga  $R_i$  kuchdan to’g’ri keladigan tashqi yuklanish quyidagi tenglikdan aniqlanadi:

$$M = i(F_1 2e_1 + F_2 2e_2 + \dots + F_n 2e_n)$$

bu yerda,  $i$  – ko’ndalang qatordagi boltlar soni (6.21-shaklda  $i = 2$ );  $n$  – burilish o’qidan bir tarafdagisi ko’ndalang qatorlar soni (6.21-shaklda  $n = 2$ ).

$F_1, F_2$  kuchlar ulardan burilish o’qigacha bo’lgan masofaga proporsional:  $\frac{F_1}{F_2} = \frac{e_1}{e_2}$  va h.k.

Shuni hisobga olib,  $F_1, F_n$  momentdan hosil bo’lgan eng katta yuklanish kuchi  $F_n$  bilan almashtirib, ifodani ixchamlasak,

$$F_M = M e_1 / \left[ i \left( 2e_1^2 + 2e_2^2 + \dots + 2e_n^2 \right) \right].$$

Jami yuklanish  $F = F_M \pm F_{R_i}$  bo’kadi. (6.32)

$F_{\text{sh}}$  va  $F_R$  ma’lum bo’lsa, mos hisobiyi qiymatni va bolning mustahkamligini hisoblaymiz.

## 6.6. Rezbali birikmalar materiallari va ruxsat etilgan kuchlanishlar

Rezbali detallarni FOCT 1759-70 bo’yicha tayyorlashda uglerodli (Cr3, Cr10, Cr20, Cr35, Cr45) va legirlangan (30X, 30XICHA, BT16) po’latlar ishlataladi. Ba’zi hollarda rezbali birikmalarni tayyorlashda rangli metallar qotishmalari (latun, bronza)dan foydalaniladi.

Rezbali birikma materialini tanlashda ishlatalish sharoiti (harorat, zanglash va sh.k.), yuklanishning qiymati va xarakteri (statik yoki o’zga-

ruvchan), tayyorlash usuli va ishlab chiqarish soni hisobga olinadi. Massalan, umumiy vazifali standart mahkamlash rezbsasi Сталь 10, Сталь 35 kabi past va o'rta uglerodli po'latlardan tayyorlanadi. Bu arzon po'latlardan bolt, vint va gaykalarning ko'plab partiyalarini sovuqlayin cho'ktirib yoki shtampovkalab, so'ngra rezbani «nakatka» (presslab bosish) yo'li bilan tayyorlash mumkin. 35X, 30ХГСА legirlangan po'latlari yuqori yuklanishdagi detallarga o'zgaruvchan va zarbiy kuchlanish ta'sir etganda, yuqori haroratlarda, tajovuzkor muhitda va boshqa holatlarda qo'llaniladi.

Mustahkamlik, zanglashga bardoshlilik va issiqbardoshlilikni oshirish uchun termik va kimyoviy-termik ishlov berishlarning maxsus turlari hamda galvanik va boshqa qatlamlar berish, masalan, yaxshilash, ruxlash yoki kadmiyli xromlash va boshqalar qo'llaniladi.

Rezbali birikmalar uchun ruxsat etilgan kuchlanishlar va mustahkamlik zaxirasining qiymatlari jadvallarda keltiriladi. Bu qiymatlarni hisobiy ifodalarining aniqligi, yuklanish xarakteri, birikmani yig'ish sifati nazorat qilinadigan yoki nazorat qilinmaydigan sirib tortish va sh.k. hisobiga olinadi.

Sirib tortishni nazorat qilinadigan hollar uchun mustahkamlik zaxirasi sezilarli kamaytiriladi, ayniqsa, kichik diametrli boltlar uchun. Bu holat kichik diametrli boltlarda nazorat qilinmaydigan sirib tortishlarda kuchlanish qayta taqsimlanishi va hatto uzilishi mumkinligi bilan bog'liq.

Agar bolt diametrining qiymati massaning ortishiga olib kelsa va bu hol rezbaning ishlash sharoiti bilan chegaralansa, masalan aviasozlikda, nazorat qilinadigan sirib tortish qo'llaniladi.


Sirib tortishni nazorat qilish uchun boltlar deformatsiyasini o'lchash, elastik shaybalar qo'llash yoki momentlarning chegara qiymatlari uchun maxsus kalitlarni qo'llash bilan amalga oshiriladi.

## 6.7. Klemmali birikmalar

Klemmali birkmalar detallarni vallar, o'qlar, silindrik kolonnalar va shu kabilarga biriktirish uchun mo'ljallangan bo'lib, boltlarning o'zini sirib tortish hisobiga kuchlanish hosil bo'ladi.

Konstruktiv belgisi bo'yicha klemmali birimlar 2 xil bo'ladi: kesik gupchakli (6.25, *a*-shakl) va ajraladigan gupchakli (6.25, *b*-shakl). Ajraladigan gupchak birikma massasi va narxini biroz oshirib yuboradi, lekin bunda klemmani valning istalgan joyida o'matish imkonini paydo bo'ladi.

Detallarni klemma yordamida biriktirishda boltlarni sirib tortishda hosil bo'lgan ishqalanish kuchidan foydalaniladi. Bu ishqalanish kuchlari birkmaga ta'sir etadigan burovchi moment ( $T=Fl$ ) ni va bo'ylama kuch  $F_a$  ni ham qabul qiladi. Ishqalanish kuchi katta yuklanishni qabul qilmagani uchun klemmalni birikmalarni katta yuklanish uzatishda qo'llab bo'lmaydi.




6.25-shakl. Richagni valga qotiradigan klemmalni birikma

Klemmalni birikmalarning afzalligi o'rnatish va ajratishning soddaligi, o'ta yuklanishdan saqlash hamda detallarning ham bo'ylama, ham aylanma yo'nalishlarda o'zaro holatlarini o'zgartirish mumkinligi kiradi.

#### **Klemmalni birikmani mustahkamlikka hisoblash.**

**Birinchi holat.** Klemmaning bikirligi yetarli katta bo'lib, detal katta tirqish bilan o'rnatilgan (6.26, a-shakl).



6.26. a-shakl. Klemmalni birikmalarning hisobiy sxemalari

Bunda klemmaning ichki sirti val bilan to'g'ri chiziq bo'yicha tutashadi deb qabul qilinadi. Bunda birikmaning mustahkamligini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\left. \begin{aligned} F_{\perp}d = F_n f d &\geq T = P\ell \\ 2F_n f &\geq F_a \end{aligned} \right\}; \quad (6.33)$$

bu yerda,  $F_n$  – tutashgan joydagи reaksiya kuchi,  $F_a$  – val bo'yicha yo'nalgan kuch;  $f$  – ishqalanish koeffitsienti,  $T$  – moment.

Klemma istalgan yarmining muvozanat shartidan,

$$\begin{aligned} F_N &= 2F_{nr}; \\ 2F_{nr}fd &\geq T; \\ 4F_{nr}f &\geq F_a, \end{aligned}$$

$F_{sr}$  – boltni sirib tortuvchi kuch,

$$\left. \begin{aligned} F_{sr} &\geq \frac{T}{2fd}; \\ F_{sr} &\geq \frac{F_a}{4f}, \end{aligned} \right\} \quad (6.34)$$

Bolt topilgan  $F_{sr}$  kuchning kattasi bilan sirib tortilgan deb hisoblanadi.

**Ikkinchи holat.** Klemma yetarli darajada elastik, detallar tutash sirtlari silindrsimon shaklda, birikmadagi tirqish nolga teng. Bu holda detallarning tutash sirtida bosim tekis taqsimlangan deb qabul qilinadi (6.26, b-shakl).

Agar val o'matiladigan teshik valning sirtiga aniq moslab ishlansa, boltni sirib tortish natijasida hosil bo'ladijan bosim uning sirtiga bir tekisda taqsimlanadi. Bu holda birikmaning mustahkamlik sharti:

$$pf\pi db \frac{d}{2} \geq T; \quad pf\pi db \geq F_a. \quad (6.35)$$

Yarim klemmaning muvozanatidan,

$$\begin{aligned}
 p &= \frac{2F_{sr}}{db}; & \pi F_{sr} fd &\geq T; & F_{sr} &\geq \frac{F_a}{2\pi f}, \\
 \pi 2F_{sr} f &\geq F_a; & F_{sr} &\geq \frac{T}{\pi f d}. 
 \end{aligned} \tag{6.36}$$

Zamonaviy mashinasozlikda klemmali birikma o'chamclarini  $H8/h8$  o'matma tipida tayyorlash tavsiya etiladi.

Agar klemmali birikmaga bir vaqtida burovchi moment  $T$  va bo'ylama kuch  $F_a$  ta'sir etsa, ularning teng ta'sir etuvchisini hisoblash kerak,

$$F_{sr} = K \sqrt{F_t^2 + F_a^2} / 5zf. \tag{6.37}$$

Topilgan  $F_{sr}$  kuch bo'yicha boltlarning mustahkamligi hisoblanadi. (6.37) formulada ehtiyyot koefitsienti  $K=1,3-1,8$ ; ishqalanish koefitsienti  $f \approx 0,15-0,18$ .

### Nazorat savol va topshiriqlari

1. Mashina detallarining birikmalarida qanday rezbali birikmalar ko'p ishlataladi?
2. Vintli juft nazariy masalalarining muhandislik amaliyotida qanday ahamiyati bor?
3. Nima sababdan mahkamlash rezbalari o'z-o'zidan tormozlashish xususiyatiga ega bo'ladi?
4. Mahkamlash rezbalarining o'z-o'zidan buralishini oldini olishning asosiy sababini ko'rsating va qanday qotirish vositalarini bilasiz?
5. Rezbani mustahkamlikka hisoblashdagi asosiy holat va tamoyillarini aniqlang.
6. Yuk ko'taruvchi ilgakning rezbali qismida qanday kuchlanish hosil bo'ladi?
7. Sirib tortilgan rezbada qaysi kuchlanish:  $\sigma$  yoki  $\tau$  ning qiymati katta bo'ladi?
8. Tashqaridan boltli birikmaga kuch ta'sir etganda boltni sirib tortuvchi kuchning qiymati nimaga teng bo'ladi?


9. Yuklanish bolning o'qiga tik ta'sir etganda, boltni qanday holda o'matgan ma'qul? Javobingizni asoslab bering.
10. Bolt bilan siqligan detalning beriluvchanligini hisoblashda deformatsiyalangan qismining yuzasi qanday hisoblanadi?
11. Boltga eguvchi kuch ta'sir etganda, kuchlanish siquvchi kuch ta'sir etgan holga nisbatan qanday o'zgaradi?
12. Boltlar birikmasini hisoblashda qanday holatlar ajratiladi?
13. Yuklanish tutashmasidagi detallarni surganda, bir boltga tushadigan kuchning teng ta'sir etuvchisi qanday hisoblanadi?
14. Yuklanish tutashmadagi detallarning tutashuv joyini ochishga harakat qilganda, boltni sirib tortuvchi kuch qanday hisoblanadi?
15. Rezbali birikma detallari qanday materiallardan tayyorlanadi?
16. Klemmaning bikirligi katta bo'lganda yoki elastik bo'lganda, mustahkamlikka hisoblash shartini ko'rsating.

## VII. SHPONKALI BIRIKMALAR

### 7.1. Shponkali birikmalarni mustahkamlikka hisoblash

Shponkalarning hamma turlarini ikki: ponasimon va prizmasimon turlarga bo'lish mumkin. Ponasimon shponkalar zo'riqtirilgan, prizmasimon shponkalar zo'riqtirilmagan birikmalarni hosil qiladi. Shponkalarning o'lchamlari va me'yordan hetga chiqishlari standartlashtirilgan.

**Ponasimon shponkalar** (masalan, 7.1-shakl) gupchakni valga erkin o'rnatish (tirqish bilan); shponkani yon yoqlari bo'yicha o'yiqcha (paz)da tirqish bilan o'rnatish (shponkaning enli qirrasi ishchi bo'ladi), burovchi momentni valdan gupchakka, asosan, shponkani tig'izlab o'rnatish hisobiga paydo bo'ladigan ishqalanish kuchini uzatishi kabilalar bilan xarakterlanadi.




7.1-shakl. Ponasimon shponkali birikma

Ponasimon shponkali birikmada shponkani tig'izlab kiritish hisobiga val va gupchakning markazi biror masofaga siljydi. Uchburchak masofa detallarning o'lcham qo'yimlari va deformatsiyasidagi tirqishning yarmiga teng bo'ladi. Bu siljish disbalansni keltirib chiqaradi va mexanizmlarning katta aylanish chastotalarida salbiy oqibatlarga olib keladi. Zo'riqtirilgan birikmalarda kuchlanish tashqi yuklanish qo'yilgunga qadar paydo bo'ladi.

Ponasimon shponkalarining keng yog'i bo'yiga tomon biroz (odatda, 1:100 nisbatda) qiya bo'ladi.

Ponasimon shponkalar ishlatilganda shponka o'yiqqa bir qadar kuch bilan, odatda, bolg'a zarbi bilan urib joylashtiriladi. Detalda ham shponkaga mos o'yqlik hosil qilinadi. Zarb ta'siridan shponkaning ustki va ostki yoqlari o'yiqqa ma'lum tig'izlik bilan o'mashadi. Shponkaning yon yoqlari esa o'yiqning yon yoqlariga, umuman olganda, urinib turmaydi. Burovchi moment shponkaning ustki va ostki yoqlaridagi tig'izlikdan hosil bo'lgan ishqalanish kuchi hisobiga uzatiladi. Birikmada yuklanish bo'limganda ham shponkaning ustki va ostki yoqlarida kuchlanishlar mavjud bo'ladi.

Birikmaning mustaxkamligini hisoblash uchun burovchi moment ta'sirida bo'lgan valning muvozanat shartini ko'rib chiqamiz (7.2-shakl). Hisoblash uchun keltirilgan shaklda (7.2-shakl)  $\sigma_1$  va  $\sigma_2$  kuchlanishlar teng ta'sir etuvchi  $N$  bilan almashtirilgan. Ta'sir etuvchi burovchi moment valni aylantirishga intiladi. Bunga ishqalanish kuchi  $F=Nf$  dan hosil bo'lgan moment hamda shponkaning qisilishi aks ta'sir ko'rsatadi. Shponkaning qisilishi natijasida uning chap yoniga qo'shimcha yuklanish tushadi, o'ng yog'i esa bo'shashadi. Bu holda shponka uchun tuzilgan kuchlanishlar epyurasi vertikal kateti  $\sigma$  bo'lgan  $\Delta$  ko'rinishida bo'ladi. Teng ta'sir etuvchi  $N$  kuch qo'yilgan nuqta val o'qidan  $\left(\frac{2}{3}b - \frac{1}{2}b\right) = \frac{1}{6}b$  masofada joylashadi.  $\sigma$  ning qiyimatini quyidagi munosabatdan aniqlash mumkin:



7.2-shakl. Ponasimon shponkani hisoblash sxemasi

$$\sigma bI/2 = N \text{ va } T = Nfd + Nb/6,$$


bu yerda,  $b$  – shponkaning eni;  $I$  – shponkaning uzunligi;  $d$  – valning diametri ( $F - F$  juftning yelkasi).

Tenglamalarni yechib, quyidagilarni hosil qilamiz (7.2-shakl). Ponasimon shponkani hisoblash sxemasi:

$$\sigma = \frac{2T}{bl\left(\frac{fd}{6} + \frac{b}{6}\right)} \leq [\sigma_c] = 80 \dots 100 \text{ MPa}.$$

Shponkaning ponasimon shakli biriktirilayotgan detalning yon tarafining val o'qiga nisbatan perpendikulyar holatini o'zgartirib, qisilishiga olib keladi. Bundan tashqari, shponkaning qiyaligini gupchak qiyaligiga mos qilish qo'shimcha mehnat talab etadi. Bu holatga, ayniqsa, detalni ko'plab ishlab chiqarishda yo'l qo'yib bo'lmaydi. Mana shu sabablar tufayli ponasimon shponkalardan foydalanish keskin kamayib bormoqda.

**Prizmasimon shponkali** birikmada zo'riqtirilmagan birikma hosil bo'ladi. Ular val va teshikning yuqori aniqlikda tayyorlanishini talab qiladi. Ko'pincha gupchak valga tig'izlik hisobiga o'matiladi. Vallar aylantiruvchi momentni gupchakka shponkaning kalta tarasi bilan uzatadi. Shponkaning yon tarafida ezuvchi kuchlanish, ko'n-dalang kesimida esa kesuvchi kuchlanish hosil bo'ladi (7.3-shakl).



7.3-shakl. Prizmasimon shponkali birikma

Prizmasimon shponkali birikmalardagi kuchlanishlar quyidagi formulalar bo'yicha hisoblanadi:

$$\sigma_{cz} = \frac{F}{A_{cz}} \leq [\sigma_{cz}],$$

$$\tau_{kes} = \frac{2T}{dl_h b} \leq [\tau_{kes}]. \quad (7.1)$$

bu yerda,  $F$  – birikmadagi aylana kuch;  $T$  – uzatilayotgan aylan-tiruvchi (burovchi) moment;  $A_{cz}$  – ezilish yuzasi;  $d$  – val diametri;  $l_h$  – shponkaning uzunligi;  $b$  – shponkaning eni.

$F = \frac{2T}{d}$ ;  $A_{cz} = (h - t_1)l_h$  ekanligini hisobga olsak,

$$\sigma_{cz} = \frac{2T}{dl_h(h - t_1)}. \quad (7.2)$$

(7.2) formulada  $l_h$  – shponkaning hisobiy uzunligi;  $l_h = l - b$ ;  $h$  – shponkaning balandligi;  $t_1$  – valdagagi shponka o'yiqlichasi chuqurligi.


Standart shponkalarda  $b$  va  $h$  o'lchamlar shunday tanlanganki, birikmaning mustahkamligini, asosan, ezuvchi kuchlanish bo'yicha tekshirish ko'pincha yetarli bo'ladi.

**Segmentsimon va silindrisimon shponkalar** prizmasimon shponkalarning boshqa turlari hisoblanadi, chunki ularning ish tarzi prizmasimon shponkalarga o'xshash bo'ladi. Segmentsimon shponkali birikma 7.4-shaklda ko'rsatilgan. Bu shponkalarning valda chuqurroq o'mnashishi ularning ustivorlik holatini belgilaydi. Lekin o'yiqlichaning chuqur bo'lishi val mustahkamligini kamaytiradi, shu sababli segmentsimon shponkalar detallarni valga kam yuklangan hollarida qo'llash uchun tavsiya etiladi. Segmentsimon shponkali birikmalarning mustahkamligi:

$$\sigma_{cz} \approx \frac{2T}{Kld} \leq [\sigma_{cz}]. \quad (7.3)$$


bu yerda,  $K$  – shponkani gupchak o'yiqlichasiidagi chuqurligi  $K = (h - t_1)$ .

Gupchak uzun bo'lgan hollarda val o'qi bo'ylab ikkita segmentsimon shponkani o'rmatish tavsiya etiladi.



7.4-shakl. Segmentsimon shponkali birikma

Silindrsimon shponkali birikmaning konstruksiyasi 7.5-shaklda ko'rsatilgan. Stilindrsimon shponka detallarni valning uchida biriktrish uchun qo'llaniladi. Shponka uchun teshik gupchakni valga o'rnatigan holda parmalab, so'ngra razvertka (teshikka toza ishlov beruvchi kesuvchi asbob) bilan toza ishlov berish bilan tayyorlanadi. Katta yuklanishlarni uzatganda ikki yoki uchta silindrsimon shponkalarni  $120^\circ$  yoki  $180^\circ$  da o'rnatib qo'llash tavsiya etiladi. Silindrsimon shponka teshikda tig'izlik bilan o'rnatiladi. Ba'zi hollarda stilindrik shponka konussimon shaklda tayyorlanadi.



7.5-shakl. Slindrsimon shponkali birikma

Silindrsimon shponkali birikmaning ezuvchi kuchlanish bo'yicha mustahkamlik sharti:

$$\sigma_{ez} \approx \frac{16T}{\pi d_{sh} l d} \leq [\sigma_{ez}]. \quad (7.4)$$

bu yerda,  $d_{sh}$  – shponka diametri,  $d$  – val diametri,  $l$  – shponka uzunligi.

## 7.2. Shponka materiali

Standart shponkalarning cho'zilgan mustahkamlik chegarasi  $\sigma_v \geq 500 \text{ MPa}$  bo'lган uglerodli va legirlangan po'lat simdan tayyorlanadi. Ruxsat etilgan kuchlanishlarning qiymati ishlatalish sharoiti, val va vtulka materialining mustahkamligi, vtulkani valga o'tkazish tipiga bog'liq bo'ladi.

Qo'zg'almas birikmalar uchun oraliq o'tkazishlarda  $[\sigma_{ez}] = 80 - 150 \text{ MPa}$ , tig'izlik bilan o'rnatishlarda  $[\sigma_{ez}] = 110 \dots 120 \text{ MPa}$  olish tavsiya etiladi. Kichik qiymatlar cho'yan gupchak va yuklanishni keskin o'zgarish holatlari uchun tavsiya etiladi.

Bo'ylama yo'nalishda qo'zg'aluvchan birikmalarda qirilish va yejilish ruxsat etilgan kuchlanishni sezilarli darajada kamaytiradi. Bu holat uchun  $[\sigma_{ez}] = 20 \dots 30 \text{ MPa}$  olinadi.

Muhandislik amaliyotida, talabalarning kurs loyihibarida po'lat gupchak va ravon yuklanish ta'sir etganda  $[\sigma_{ez}] \leq 100 \text{ MPa}$  olish tavsiya etiladi.  $[\sigma_{ez}]$  qiymatini yuklanish o'zgaruvchan bo'lgan hollarda 20–25% qiymatga, zarbiy yuklanishlarda 40–50% ga kamaytirish tavsiya etiladi. Cho'yan gupchaklar ishlataliganda  $[\sigma_{ez}]$  qiymatini ikki bora kamaytirish tavsiya etiladi.

## 7.3. Shponkali birikmalarning qo'llanishi va ularni hisoblash bo'yicha mulohazalar

Shponkali birikmalar mashinasozlikning turli tarmoqlarida keng qo'llanadi. Bu birikmalarning eng muhim afzalliklari – ularning soddaligi va nisbatan arzon narxi.

Kamchiliklari: birikmada val bilan gupchakning shponka o'yiqchasi tufayli mustahkamligi kamayadi; shponka o'yiqchasi zonasida kuchlanish konsentratsiyasi (to'planishi) valning toliqishdagi mustahkamligini pasaytiradi; birikmaning mustahkamligi val va gupchakning mustahkamligidan past bo'ladi. Shu sababli shponkali birik-malarni tezyurar, dinamik yuklanish ta'sir etadigan vallarda qo'llash tavsiya etilmaydi. Shponkali birikmalarning texnologik kamchiligi – ularni o'zaro almashuvchan qilib tayyorlashning qiyinchiligi, ya'ni shponkani o'yiqcha (paz) bo'yicha tanlash qo'shimcha ishni talab qiladi. Bunday texnologik kamchilik birikmani ko'plab ishlab chiqishda qiyinchilik tug'diradi. Qo'shimcha ishlov bilan shponkaning o'yiq-

chada ustivor holatini ta'minlashga harakat qilinadi. Chunki shponkaning og'ishi (buralib ketishi) birikma mustahkamligini jiddiy kamaytiradi. Chuqur o'yiqchali segmentsimon shponka bu jihatdan od-diy prizmasimon shponkaga nisbatan afzallikka ega. Segmentsimon shponkani yalpi ishlab chiqarishda qo'llagan ma'qulroq.

**Shponkali birikmani hisoblashning o'ziga xosligi.** Shponkaning hamma o'lchamlari va uning chetka chiqishlari standartlashtirilgan. Standart bo'yicha valning har bir diametriga shponkaning ko'ndalang o'lchamlari (eni va balandligi) to'g'ri keladi. Shu sababli shponkali birikmani tanlashda valning  $d$  diametri bo'yicha ma'lumotnomadan shponkaning  $b \times h$  o'lchamlari tanlanadi va shponkaning mustahkamlik shartidan uning uzunligi  $l_x$  aniqlanadi. Uzunlikning hisobi qiymati standart qatordagi qiametlardan gupchak uzunligiga moslab olinadi.

Shponkali birikmalarni hisoblash uchun keltirilgan formulalar birikmada tig'izlik bilan o'rnatishda hosil bo'lgan ishqalanish kuchini hisobga olmaydi. Bu ishqalanish kuchlari shponkali birikmaning qisman yuklanishini kamaytiradi va uning ta'siri birikma uchun ruxsat etilgan kuchlanish qiyamatini tanlaganda hisobga olinadi.

Berilgan aylantiruvchi momentni bitta shponka uzata olmasa, ikki yoki uchta shponka qo'llanishi mumkin. Lekin bunday ko'p shponkalarni ishlatish texnologik qiyinchilik bilan bog'liq bo'ladi va bunda val bilan gupchakning mustahkamligi kamayadi. Shu sababli bunday hollarda tishli (shlitsali) birikmalarni qo'llash zarur bo'ladi.

### Nazorat savol va topshiriqlari


- 1) Shponkali birikmalarning turlarini qaysi holatlarda qo'llagan ma'qul?
- 2) Ponasimon shponkali birikma aylantiruvchi momentni nimaning hisobiga uzatadi?
- 3) Prizmasimon shponkali birikmaning mustahkamligini tekshirishda nima sabadan ezuvchi kuchlanish bo'yicha hisoblash yetarli deb hisoblanadi?
- 4) Qanday hollarda segmentsimon va silindrsimon shponkali birikmalarni qo'llash tavsiya etiladi?
- 5) Shponkali birikmada hosil bo'ladigan ishqalanish kuchi qanday hisobga olinadi?

## VIII. TISHLI (SHLITSALI) BIRIKMALAR

Valdan gupchakka katta burovchi (aylantiruvchi) moment uzatish zarur bo'lsa, shponkali birikmaning orniga tishli (shlitsali) birikmani qo'llagan ma'qul. Avtomobilsozlik, stanoksozlik, traktorsozlikda tishli birikmalar qo'zg'aluvchan birikmalar sifatida ko'p qo'llaniladi.

### 8.1. Tishli (shlitsali) birikmalarning tuzilishi va turlanishi

Tishli (shlitsali) birikmalar valda tashqi va gupchakda ichki tish tayyorlaganda hosil bo'ladi (8.1-shakl). Tishli birikmalarning o'chamlari va uning chegaralari standartlashtirilgan.




8.1-shakl. Tishli (shlitsa) birikma

Valdag'i tishlar frezalash, randalash yoki qizdirib bosish natijasida deformatsiyalanib tayyorlanadi. Teshikdag'i tishlar esa sidirgich yoki o'y-gich bilan tayyorlanadi.

Standart bo'yicha tishli birikmalar yengil, o'rta va og'ir seriyada ishlab chiqiladi. Ularning balandligi va tish (shlitsa)lari soni o'zgaradi. Tish (shlitsa)lar soni 6 dan 20 tagacha bo'ladi. Og'ir seriyadagi birikmalarda tishlar balandligi va ularning soni ko'proq bo'ladi, bu esa katta yuklanish uzatish imkonini beradi. Tish (shlitsa)ning profili bo'yicha to'g'ri yonli, evolventali va uchburchak turlari mavjud. Uchburchak profilli tishlar kam tarqalgan.

**To'g'ri yonli tishli birikmalar.** Ularning yon qirralari  $b$ , tashqi diametri  $D$  va ichki diametri  $d$  bo'yicha markazlashtirish qo'llaniladi (8.2-shakl, a, b, d). Markazlashtirish usulini tanlaganda quyidagilarga rioya qilinadi.



8.2-shakl. Tish (shlitsa)li birikmalarni markazlashtirish:


a – yon tomon qirralari bo'yicha; b – tashqi diametri bo'yicha;  
d – ichki diametri bo'yicha

$D$  va  $d$  bo'yicha markazlashtirish yon qirralari bo'yicha markazlashtirishga qaraganda val va gupchakning yuqori o'qdoshligini ta'minlaydi.

Yon qirralari  $b$  bo'yicha markazlashtirish (shlitsa)lar bo'yicha yuklanishning tekis taqsimlanishini ta'minlaydi. Bu sirt bo'yicha markazlashtirishni og'ir ish sharoitlari (zarbiy va reversiv yuklanishlar)da qo'llash tavsiya etiladi.

Markazlashtirish diametri  $D$  va  $d$  ni tanlash texnologik sharoitlarga bog'liq. Agar vtulka materialining qattiqligi sidirgich bilan ishlov berishga ( $\leq 350\text{ HB}$ ) yo'l qo'ysa, u holda  $D$  bo'yicha markazlashtirish qo'llaniladi. Bunda markazlashtiruvchi sirtlar teshik sidirgich bilan kalibrlanadi, valning markazlashtiruvchi sirti esa silliqlanadi. Vtulka materialining yuqori qattiqligida  $d$  bo'yicha markazlashtirish qo'llaniladi. Bu holda teshik va valning markazlashtiruvchi sirtlarini silliqlash mumkin.

**Evolventa tishli birikmalarini** (8.3-shakl) vallarning katta diametrida qo'llash maqsadga muvofiq, chunki teshik va valda tish kesish uchun tishli g'ildiraklar kesishdag'i o'ta mukammal texnologiyalardan foydalanish mumkin. Nisbatan kichik va o'rta diametrligi vallarda ko'pincha to'g'ri yonli tishli birikmalar qo'llaniladi, chunki evolventali tish kesadigan sidirgichlar to'g'ri yonli shlitsani kesadiganlarga qaraganda qimmatroq bo'ladi. Shu sababli tishli birikmalar uchun standartda: to'g'ri yonli shlitsali birikmalar valning diametri 125 mm, evolventa shlitsali birikmalar – 500 mm gacha bo'lganda qo'llaniladi.



8.3-shakl. Evolventa shlitsali birikmalar

Evolventa tishli birikmalar yon tomoni yoki valning tashqi diametri bo'yicha markazlashtiriladi (8.3-shakl, a, b). Birinchi usul ko'proq qo'llanildi.

Tishli g'ildiraklardan farqli ravishda evolventali birikmalarning profil burchagi  $30^\circ$  ga oshirilgan, balandligi esa 0,9–1 modulgacha kamaytirilgan. Evolventali va to'g'ri yonli shlitsali birikmalarni val o'qi bo'yicha qo'zg'aluvchan birikmalarda qo'llash mumkin.

## 8.2. Tishli birikmaning ishdan chiqish turlari va hisoblash asoslari

Tishli birikmalarning ishlash qobiliyati va hisoblash mezonlari quyidagilardan iborat:


1) ishechi sirtlarning ezilishga qarshiligi;

2) fretting-korroziyadan (inglizchasiga "fret-eb" tashlash) yeyilishga qarshilik. Fretting-koroziyadagi yeyilish – bu tutash sirtlarning nisbatan kichik tebranma siljishlaridagi korrozion-mexanik yeyilish. Tishli birikmlarda bunday siljishlar deformatsiya va tirkisAhlar bilan bog'liq bo'ladi.

Agar birikma valning aylanishida o'zining holatini o'zgartirmaydigan ko'ndalang kuch  $F$  bilan yuklangan bo'lsa (8.4-shakl, masalan, tishli ilashmadagi kuchlar), unda birikmadagi tirkishlar galma-gal qarama-qarshi tomonlarga yo'naladi, ya'ni tebranma siljishlar hosil bo'ladi.

Bundan tashqari,  $F = \sqrt{F_1^2 + F_2^2}$  kuch gupchak markazidan siljigan bo'ladi va  $M_{ag} = Fl$  ag'daruvchi momentni, bu moment esa gupchakning yaqin chekkasida yuklanish to'planishi (konsentratsiyasi)ni hosil qiladi. Bo'ylama kuch  $F_a$  ta'siridan ham ag'daruvchi moment hosil bo'ladi.

$M_{ag'2} = 0,5 F_a d_w$ , bu erda,  $d_w$  – g'ildirak boshlang'ich aylanasi radiusi.  $M_{ag} = M_{ag} \pm M_{ag'2}$  ning ta'siridan nafaqat yuklanish konsentratsiyasi, balki birikmadagi siklik ko'chishlar ham hosil bo'ladi.



8.4-shakl. Tishli (shlitsali) birikmaning yuklanishi

Demak, tishli gardishni gupchak o'rtasida joylashtirish bilan birikmadagi korroziya-mexanikaviy yeyilishni kamaytirish mumkin. Birikmaning yuklanish qobiliyatini oshirish uchun yana tayyorlash aniqligi va ishchi sirtlar qattiqligini ham oshirish mumkin.

Agar birikma faqat burovchi moment bilan yuklansa ( $F$  va  $F_a$  kuchlar nolga teng), masalan, valning mufta qilib birikishida, bunda nisbiy tebranma ko'chishlar, demak, yeyilish ham bo'lmaydi.


### 8.3. Tishli birikmalarni hisoblash

Tish ishchi sirtlarining ezilish va yeyilishi bitta parametr – bosim  $\sigma_e$  ga bog'liq bo'ladi. Demak,  $\sigma_e$  ni ezilish va yeyilishga hisoblashda umumlashgan hisoblash mezoni sifatida ko'rish mumkin. Bunda ruxsat etilgan kuchlanish qiymatini o'xshash konstruksiyalarni ishlatalish tajribasi asosida belgilash mumkin. Binday hisob umumlashgan mezon bo'yicha soddalashgan hisob deb ataladi.

**Umumlashgan mezon bo'yicha soddalashgan hisob.** Soddalashgan hisobiyl modelda (8.5-shakl) yuklanish tishning uzunligi bo'yicha tekis taqsimlangan deb hisoblanadi. Bunda:

$$\sigma_{ez} = \frac{2T}{K_t z h d_{oz} l} \leq [\sigma_{ez}], \quad (8.1)$$

bu yerda,  $T$  – uzoq ta'sir etadigandan nominal burovchi moment eng kattasi;  $K_t=0,7-0,8$  yuklanishning tishlar bo'yicha notejis taqsimlanish koefitsienti;  $z$  – tishlar soni;  $h$  – tishlarning ishchi balandligi;  $l$  – tishlarning ishchi uzunligi,  $d_{oz}$  – birikmaning o'rtacha diametri.



8.5-shakl. Shlitsali birikmaning hisobiy sxemasi

To'g'ri yonli tishlar uchun:

$$h = 0,5(D - d) - 2f, \quad d_{o'r} = 0,5(D + d).$$

Evolentali tishlar uchun:

$$h \approx m; \quad d_{o'r} = zm.$$

$$\text{Uchburchak profilli tishlar uchun } h = \left( \frac{D-d}{2} \right), \quad d_{o'r} = 0,5(D+d),$$

bu erda,  $z$  – tishlar moduli;  $[\sigma_{ez}]$  – ruxsat etilgan kuchlanish.

$[\sigma_{ez}]$  ning qiymatlari jadvalda mashinasozlikning tarmoqlariga qarab beriladi. Uning qiymati birikmalarning ishlash sharoiti hamda ularni tashkil etuvchi detallarning termik ishlanganligiga qarab belgilanadi. Masalan, ruxsat etilgan kuchlanishning qiymati qo'zg'almaydigan va o'rtacha sharoitda ishlaydigan birikmalar uchun:

- shlitsalarning sirti termik ishlanmagan bo'lса,  $[\sigma_{ez}] = 60 - 160 \text{ MPa}$ ;
- shlitsalarning sirti termik ishlangan bo'lса,  $[\sigma_{ez}] = 100 - 140 \text{ MPa}$ ;
- qo'zg'aluvchan birikmalar uchun  $[\sigma_{ez}] = 5 - 15 \text{ MPa}$ .

**Aniqlashtirilgan hisob.** Bu hisob faqat vallarning tishli g'ildirak, musta va shunga o'xshash detallar bilan biriktiradigan to'g'ri yonli tishli birikmalar uchun ishlab chiqilgan. Boshqa detallar (shkvilar, parazit shes-temya va boshqalar)ning tishli birikmalar bilan birikishida hisobiy sxema o'zgaradi va shu sababli ularning yuklanishi boshqacha bo'ladi.

Aniqlashtirilgan hisobda detallarni tayyorlash bilan bog'liq yuklanishning tish va uning uzunligi bo'yicha notekis taqsimlanishi, tishlarning ishlashib ketishi, xizmat muddati hisobga olinadi.

Birikma ezilish va yeyilishga hisoblanib, ularning kichik qiymati bo'yicha yuklanish qobiliyati aniqlanadi.

**Ezilishga hisoblashda** tishning ishchi sirtlaridagi o'ta yuklanish holatidagi plastik deformatsiyalarning oldi olinadi. Bu hisobda hamma tuzatuvchi koefitsientlarning qiymatlari ruxsat etilgan kuchlanishlarni aniqlagan-da hisobga olinadi.

Bunda (8.1) formula quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\sigma_{ez} \approx \frac{2T}{zh d_{or} l} \leq [\sigma_{ez}] \quad (8.2)$$

Ruxsat etilgan kuchlanish

$$[\sigma_{ez}] = \frac{\sigma_{eq}}{SK_T K_x K_{bo'y} K_d}, \quad (8.3)$$

bu yerda,  $\sigma_{eq}$  – material ishchi sirtlarining oquvchanlik chegarasi;  $S=1,25-1,4$  – mustahkamlikning zaxira koefitsient;  $K_T$  – tishlar orasida yuklanishning notekis taqsimlanish koefitsienti;  $K_{bo'y}$  – yuklanishning bo'ylama konsentratsiya koefitsienti;  $K_x$  – yuklanishning tayyorlash xatoligidan to'planish koefitsienti;  $K_d$  – yuklanishning dinamiklik koefitsienti.

**Yeyilishga hisoblash** quyidagi shart bo'yicha bajariladi:

$$\sigma_{ez} = \frac{2T}{zh d_{or} l} \leq [\sigma_{ez}], \quad (8.4)$$

bu yerda,  $[\sigma_{ez}]$  – yeyilish bo'yicha ruxsat etilgan kuchlanish.

$$[\sigma_{ez}]_v = \frac{[\sigma_{ez}]_{shart}}{K_T K_{bo'y} K_x K_{tv} K_m K_{o'q}} \quad (8.5)$$

bu yerda,  $K_T$  – birikma tishida yuklanish va turlicha sirpanishning notejis taqsimlanish koeffitsienti;  $K_{bo'y}$  – yuklanishning bo'ylama konentratsiya koeffitsienti;  $K_{yuk}$  – yuklanishning o'zgaruvchanlik koeffitsienti;  $K_{ts}$  – to'la xizmat muddatida birikmada mikrosiljish sikllari soni koeffitsienti;  $K_m$  – qo'zg'aluvchan birikmani moylash sharoiti koeffitsienti;  $K_{o'q}$  – birikmada bo'ylama harakatchanlik koeffitsienti.



**Yeyilishsiz ishlash hisobi** cheksiz katta xizmat muddatida quyidagicha hisoblanadi:

$$\sigma_{ez} = \frac{2T}{zh d_{o'q} l} \leq [\sigma_{ez}]_{vy ish} \quad (8.6)$$

bu yerda,  $[\sigma_{ez}]_{vy ish}$  – tishlarning yeyilishsiz ishlash shartidan ish sirtlaridagi ruxsat etilgan bosim;  $[\sigma_{ez}]_{vy ish} = 0,028 HB$  – tishlarga termik ishlov berilmasa,  $[\sigma_{ez}]_{vy ish} = 0,032 HB$  yaxshilangan tishlar uchun;  $[\sigma_{ez}]_{vy ish} = 0,3 HRC$  tish toblangan bo'lса;  $[\sigma_{ez}]_{vy ish} = 0,4 HRC$  tish sementatsiya qilingan bo'lса.

#### 8.4. Profil birikmalar to'g'risida umumiy ma'lumot

Profil birikmalar aylantiruvchi momentni valdan gupchakka uzatish uchun xizmat qiladi. Profil birikmalarda val bilan gupchak doiraviy bo'lma-gan sirtlar bo'yicha tutashadi. Profil birikmalar ko'ndalang kesim yuzasida val va gupchakni tutashuv sirti bo'ylab doiraviy bo'lma-gan profilga ega bo'ladi. Ko'pincha uchbur-chak profilli teng o'qli birikma qo'llaniladi (8.6-shakl).



8.6-shakl. Profil birikmalar

Profil birikmalar bo'ylama yo'nalishda silindrik yoki konussimon bo'ladi.

**Profil birikmalarning afzalliklari:** buralishdagi kuchlanish kon-sentratorlarining yo'qligi; birikma detallarining yaxshi markazlashishi; tig'izlik bilan biriktirilgan birikmalarga nisbatan mustahkamlik bo'yicha yuqori ishonchhliligi.

**Kamchiliklari:** tayyorlash murakkabligi; birikma burovchi moment uzatganda ancha katta kesuvchi kuchlarning paydo bo'lishi.

### Nazorat uchun savollar


1. Tishli birikmalarning qanday turlarini bilasiz?
2. Tishli birikmalarni markazlashtirishda qaysi sirtlar qanday hollarda qo'llaniladi?
3. Tishli birikmalarning qanday ishdan chiqish turlarini bilasiz?
4. Tishli birikmalarning umumlashgan mezon bo'yicha soddalashgan va aniqlashgan hisobining qanday asosiy farqlarini ko'rsata olasiz?
5. Profil birikmalarning qanday afzallik va kamchiliklarini ko'rsatib bera olasiz?

## IX. PARCHIN MIXLI BIRIKMALAR

Parchin mixli birikmalar ajralmas birikmalardir. Ko'p hollarda ular dan list va shakldor prokat profillarni biriktirish uchun qo'llaniladi. Bu birikmalarning asosiy elementi parchin mixdir.

### 9.1. Parchin mixli birikmalar konstruksiyasining tayyorlanishi, turlari, qo'llanish sohasi

Parchin mixli birikma parchin mix sterjenni detal teshigiga kiritib, parchinlash orqali hosil qilinadi (9.1-shakl).



9.1-shakl. Parchin mixni parchinlash:


1 – siqish; 2 – mashinada parchinlashdagi qisqich; 3 – cho'ktirilgan kallak;  
4 – tayyor kallak; 5 – tirkak

Parchinlashda plastik deformatsiya ta'siridan parchin mix qalpog'i hosil bo'ladi, mix sterjeni esa teshikdagi tirkishni berkitadi.

Detallardagi teshik bosib yoki parmalab tayyorlanadi. Parmalashda ish unumдорligi past bo'ladi, lekin yuqori mustahkamlikni ta'minlaydi. Teshikni bosim bilan teshishda teshik chetlarida mayda yoriqlar hosil bo'ladi, asbob chiqadigan tomonda o'tkir qirralar hosil bo'lib, u parchin mix sterjenini kesib yuborishi mumkin. Shu sababli bosib teshish ba'zan keyingi parmalash bilan qo'shib olib boriladi.


Parchinlash (sterjenni cho'ktirish)ni qo'lda yoki mashinada pnevmatik bolg'a, press va shu kabilar yordamida bajarish mumkin. Mashinada bolg'alashda birikma sisfatli chiqadi, chunki bunda parchin mixning bir jinsliligi ta'minlanadi va detallarni siquvchi kuch ortadi. Kichik diametri (10 mm gacha) po'lat parchin mixlar va barcha rangli metallardan tayyorlangan parchin mixlar sovuqligicha parchinlanadi. Diametri 10 mm dan katta bo'lgan po'lat parchin mixlar qizdirilgandan so'nggina ( $1000^{\circ}\text{C}$  atrofida temperaturagacha) parchinlanadi. Parchin mixlarning qizdirilishi parchinlash jarayonini yengillashtiradi va birikma sisatini oshiradi (teshik to'laligicha to'ldiriladi va detallarning tutashuvidagi tig'izlik yuqori bo'ladi).

Birikmaning konstruksiyasidan qat'iy nazar, geometrik o'lchamlari standartlashtirilgan turli xil parchin mixlar ishlataladi. 9.2-shaklda parchin mixlarning asosiy turlari tasvirlangan (*a* – yarim doiraviy kallakli; *b* – yarim yashirish kallakli; *c* – yashirish kallakli; *d* – quvursimon). Agar parchin mixning parchinlanadigan kallagiga yo'l bo'lmasa (masalan, samolyotning ichi bo'sh qanoti), unda bir tomonidan parchinlanadigan parchin mixlar qo'llaniladi. Masalan, 9.2, *d*-shakldagi yopuvchi kallak konussimon opravkani konussimon teshik orqali sidirishda hosil bo'lsa, 9.2, *g*-shakldagi parchin mix oz miqdordagi pitrani portlatib, do'mboqcha shakliga keltiradi.



9.2-shakl. Parchin mixning turlari

Parchin mixlar vazifasiga ko'ra mustahkam, mustahkam-jips va jips chokliga ajratiladi. Mustahkam choklarda birikmaning yetarli darajada mustahkam bo'lishi ta'minlanadi (ular ko'pincha metall konstruksiylarda qo'llaniladi). Mustahkam-jips choklar katta mexanik kuchga chidashdan tashqari chokning jips bo'lislini ham ta'minlab, zarur hollarda qo'llaniladi (masalan, bug' qozonlarida, yuqori bosim ostidagi rezervuarlarda); jips choklar ta'sir etuvchi bosim katta bo'lmay, germetik bo'lish talab etilgan hollarda (masalan, uncha katta bo'lмаган ichki bosimli rezervuarlarda) qo'llaniladi.





9.3-shakl. Parchin mixning ta'sir etish zonasasi

Har bir parchin mix o'zining ta'sir zonasiga ega bo'lib (9.3-shakl), bu zonaga detallarning tutashuvidagi siqlish deformatsiyasi ta'sir etadi. Agar qo'shni parchin mixlarning ta'sir zonalari tutashgan bo'lsa, birikma jips bo'ladi. Ba'zan birikma jips bo'lishi uchun biriktirilayotgan detal (list) parchin mix atrofi bo'yicha pnevmatik bolg'a yordamida cha-qalanib chiqiladi.

Konstruktiv belgisi bo'yicha ustma-ust va uchma-uch bir qatorli va ko'p qatorli, bir kesimli va ko'p kesimli parchin mixli birikmalar farqlanadi. 9.4-shaklda: *a* – ustma-ust, bir qatorli, bir kesimli chok; *b* – uchma-uch ikkita ustqa'yimali bir qatorli, ikki kesimli chok ko'rsatilgan.

Parchin mixli birikmalar yomon payvandlanadigan materialdan tayyorlangan detallarni biriktirishda qo'llaniladi. Bundan tashqari ular yemirilish jarayonini sekinlashtirish maqsadida ham qo'llanilishi mumkin.



9.4-shakl. Parchin mixli birikmali konstruksiyalar

Masalan, payvand birikmalarda yoriq hosil bo'lishi kuchlanishning yuqori to'planishi (konstentratsiyasi) bilan bog'liq bo'lib, yemirilish jarayonini tezlashtiradi. Parchin mixning, masalan, samolyot qanotidagi minglab parchin mixdan bir yoki bir nechtasining yemirilishi birdan qanotning yemirilishiga olib kelmaydi, bu holda ishdan chiqqan mixlarni topib, tezda alimashtirish mumkin.

Parchin mixli birikmalar samolyotlarning ustki qobig'ini yasashda, kemasozlikda, yuk ko'targich kranlarining fermalari hamda ko'priklarni qurishda keng ko'lamba ishlataladi.

## 9.2. Parchin mixli choklarni mustahkamlikka hisoblash

Choklarni hisoblashda ayrim soddalashtirishlar kiritiladi. Masalan, chokka ta'sir etuvchi kuch parchin mixlarga bir xilda, listning eni bo'ylab esa bir tekisda taqsimlanadi deb olinadi. Chokning yemirilishi parchin mixning kesilishi, parchin mixning yoki teshik devorining ezilishi, listning uzilishi, eng chetda joylashgan parchin mix ta'sirida listning kesilishi oqibatida yuz berishi mumkin.

Parchin mixli birikmaning asosiy o'lchamlariga me'yorlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularda listning qalnligi  $\delta$  va prokat profilning o'lchami bo'yicha  $d$ ,  $t$ ,  $l$  va  $\delta_l$ , larning qiymati tavsiya etilgan, bunda hisob tekshiruvchi hisob tusini oladi.

Quyida parchin mixli birikmalarning ba'zi xususiyatlari va ularni hisoblashning o'ziga xosligi ko'rsatilgan.

Enli listlarni biriktirishda (9.4-shakl) hisobiy yuklanish sifatida bir qadamda ta'sir etuvchi  $F$ , kuch qiymatini, odatda, listning parchin mix bilan kuchsizlantiradigan  $a-a$  kesimidagi cho'zilishdagi kuchlanish  $\sigma$  bo'yicha olinadi.  $\sigma$  kuchlanish asosiy hisoblardan ma'lum bo'lsa,

$$F_t = \sigma't\delta \text{ bo'ladi.}$$


Listning  $b-b$  kesimidagi mustahkamlik sharti:

$$\sigma = \frac{F_t}{(t-d)\delta} \leq [\sigma].$$

$$\text{Nisbat } \frac{\sigma'}{\sigma} = \frac{(t-d)}{t} = \varphi \quad (9.1)$$

parchin mixli chokning mustahkamlik koeffitsienti deyiladi.

$\varphi$  ning qiymati parchin mixlar bilan biriktirilganda listlarning mustahkamligi qancha kamayishini bildiradi. Masalan, 9.4,  $a$ -shakldagi bir qatorli bir kesimli chokda standart o'lchamlar uchun  $\varphi=0.65$  bo'lsa, demak, parchin mixli birikmaning qo'llanishi listning qalnligini 35% ga kamaytiradi. Detallar mustahkamligining pasayishi parchin mixli birikmalarning eng muhim salbiy xarakteristikasidan biri hisoblanadi.  $\varphi$  ning qiymatlarini oshirish uchun ko'pqatorli va ko'p kesimli choklar ishlataladi (9.4 va 9.5-shakllar).



### 9.5-shakllar. Uch qatorli ikki kesimli chokli birikma

9.5-shaklda mustahkam-jips uch qatorli o'zgaruvchan qadamli parchin mixli birikma ko'rsatilgan (chokning o'ng tarafi chap tarafiga simmetrik bo'lib, shaklda ko'rsatilmagan). Bunda  $t_1$  frontda asosiy chokda oltita parchin mix joylashgan. Har bir parchin mix ( $1/6$ )  $F_t$  yuklanishni qabul qiladi. Shunga mos ravishda 9.5-shaklda list va ustqo'ymaning turli kesimlarida hosil bo'ladigan bo'ylama kuch epyu-rasi ko'rsatilgan. Listning kesimi parchin mixning birinchi qatorida to'liq  $F_t$  kuch bilan yuklangan. Bu kesimning mustahkamligini ozgina pasaytirish uchun unda bitta parchin mix joylashtirish mumkin va h.k. Parchin mixga tushadigan kuchning kamligi va kesim tekisligining ikkitaligi mix diametrini sezilarli kamaytirish imkonini beradi. Diametrning kamayishi chok mustahkamligini oshirishga olib keladi (9.1 formulaga qarang), masalan, ko'rilibotgan chok uchun  $\varphi \approx 0.9$  bo'ladi. Lekin  $\varphi$  ning qiymatini oshirish birikma konstruksiyasining murakkab-lashishiga va narxining qimmatlashishga olib keladi.

Umuman olganda, chokdagи bitta parchin mixda ta'sir etuvchi kuch bo'ylama kuch epyurasidan aniqlanadi. Bitta parchin mixga tushuvchi kuchni  $F_0$  bilan belgilasak,

$$F_0 = \frac{F_t}{n} \quad \text{bo'ladi.}$$

bu yerda,  $n$  – chokning bir qatoridagi parchin mixlar soni. Bu kuch ta'siridan parchin mix va chokda hosil bo'ladigan kuchlanishlar:

$$\tau_{kes} = \frac{F_0}{\pi d^2} \leq [\tau_{kes}]; \quad (9.2)$$

$$\sigma_{ch} = \frac{F_0}{(t - d_0)\delta} \leq [\sigma_{ch}]; \quad (9.3)$$

$$\sigma_{ez} = \frac{F_0}{d_0 \delta} \leq [\sigma_{ez}]; \quad (9.4)$$

$$\tau_{ter} = \frac{F_0}{2 \left( t_i - \frac{d_0}{2} \right) \delta} \leq [\tau_{ter}]; \quad (9.5)$$

bu yerda,  $d_0$  – listdagи teshikning diametri (hisoblash vaqtida parchin mixning diametri o'rnida olinadi);

$t$  – 2 parchin mix markazlari orasidagi masofa, qadam;

$t_i$  – eng chetda joylashgan parchin mix markazidan list qirrasigacha bo'lган masofa;

$\delta$  – biriktirilayotgan listlarning qaliligi;

$[\tau_{kes}]$  – ruxsat etilgan kesuvchi kuchlanish;

$[\sigma_{ch}]$  – ruxsat etilgan ezuvchi kuchlanish;

$[\tau']$  – listning chetki qismi uchun ruxsat etilgan kesuvchi kuchlanish.

Odatda,  $[\sigma_{ez}] = (1.4 \div 1.7)[\tau_{kes}]$ , bu e'tiborga olinsa,

$$\frac{\pi d_0^2}{4} \cdot \frac{[\sigma_{ez}]}{(1.4 \div 1.7)} = [\sigma_{ez}] \cdot d_0 \delta \quad \text{bo'ladi.}$$

Bundan  $d_0 = (1.8 \div 2.2)\delta$  kelib chiqadi.

$$[\tau_{kes}] \approx [\sigma_{ch}] \text{ dan } \delta = \frac{d_0}{2} \text{ bo'ladi. } \frac{\pi d_0^2}{4} [\tau_{kes}] = (l - d_0) \frac{d_0}{2} [\tau_{kes}] \text{ tenglikdan}$$

$t_1 = 2.57 d_0$  ni topish mumkin. Amaliy hisoblarda shularni e'tiborga olsak,  $t_1 = (3-5)d$  qilib olinadi.

$$[\tau_{kes}] = 0.8 [\tau_{kes}] \quad \text{va} \quad \delta = \frac{d_0}{2} \quad \text{da}$$


$$\frac{\pi d_0^2}{4} [\tau_{kes}] = 2(l - d_0) \frac{d_0}{2} \cdot 0.8 [\tau_{kes}] \text{ bo'ladi. Bu tenglikdan } t_1 < 1.5 d_0 \text{ ke-}$$

lib chiqadi.

Amaliy hisoblashlarda  $t_1 = (1.5-2)d_0$  va  $d_2 = 1.5 d_0$  olinadi.

#### Eguvchi moment ta'sir etuvchi chokni hisoblash.

Dastlab chokning taxminiy sxemasi belgilab olinadi. Sxemada chokdagi parchin mixlarning soni, ularning o'zaro joylashishi ko'rsatilgan bo'ladi.



9.6-shakl. Eguvchi moment ta'sir etadigan parchin mixli birikma

Ta'sir etuvchi moment  $M$  ni parchin mixlardagi just kuchlar momen-tiga tenglashtirish usuli bilan hisoblaymiz (9.6-shakl).

$$M < F_1 l_1 + F_2 l_2 + F_3 l_3 + \dots \quad (9.6)$$

$F_1, F_2, F_3$  – har bir gorizontal qatordagi parchin mixlarga ta'sir etuvchi kuchlar;

$I_1, I_2, I_3$  – neytral o'qqa nisbatan baravar oraliqlarda joylashgan qatorlar orasidagi masofa,

$$\frac{F_2}{F_I} = \frac{I_2}{I_I}; \quad F_2 = F_I \frac{I_2}{I_I}; \quad \frac{F_i}{F_I} = \frac{I_i}{I_I}; \quad F_i = F_I \frac{I_i}{I_I}.$$

Demak, (9.6) tenglamani quyidagicha yozish mumkin:

$$M = F_I \frac{I_1^2}{I_I} + F_I \frac{I_2^2}{I_I} + F_I \frac{I_3^2}{I_I} = \frac{F_I}{I_I} \sum I_i^2; \quad (9.7)$$

bu yerda,  $i = 1, 2, 3$ .  $F_I = \frac{MI_I}{\sum I_i^2}$

$M$  – masalaning shartida beriladi.

$I_1, I_2$  va  $I_3$  cxemadan olinadi. Bitta parchin mixga tushadigan kuch  $F_n = \frac{F_I}{n_1}$ ;  $n_1$  – birinchi qatorda joylashgan parchin mixlar soni. Shakl uchun  $n_1=2$ . Bitta parchin mixga ta'sir etuvchi kuch bo'yicha parchin mix mustahkamligi hisoblanadi.

Parchin mixli chokka eguvchi momentdan tashqari ko'ndalang kuch  $F_r$  hamda cho'zuvchi kuch  $N_{ch}$  ham ta'sir etsa, bitta parchin mixga ta'sir etuvchi kuchlarning teng ta'sir etuvchisi:

$$F_n = \sqrt{\left( \frac{F_I}{n_1} + \frac{N_{ch}}{n} \right)^2 + \left( \frac{F_r}{n} \right)^2}. \quad (9.8)$$

$n$  – chokdagi parchin mixlarning umumiy soni;  $\frac{N_{ch}}{n}$  – kuch  $N_{ch}$  ning bitta parchin mixga to'g'ri keladigan qiymati;  $\frac{F_r}{n}$  – kuch  $F_r$  ning bitta parchin mixga to'g'ri kelgan qiymati. Parchin mixning mustahkamligi  $F_n$  dan foydalanib topiladi.

### **9.3. Parchin mixlar materiallari va ruxsat etilgan kuchlanishlar**

Parchin mixlar po'lat, mis, latun, alyuminiy va boshqa materiallardan tayyorlanadi. Parchin mix materiali plastik bo'lib, toblanmasligi kerak. Materialning yuqori plastikligi parchinlashni osonlashtiradi va yuklanishning parchin mixlarga tekis taqsimlanishini ta'minlaydi. Parchin mix uchun material tanlaganda mix va biriktirilayotgan materialning haroratdan chiziqli kengayish koefitsientlari teng yoki yaqin bo'lishini ta'minlash kerak.

Aks holda haroratlар o'zgarganda birikmada haroratdan kuchlanishlar paydo bo'ladi. Turli materialdan foydalanish o'ta xavfli bo'lib, ular galvanik juft hosil qilishadi. Galvanik tok birikmani tez yemiradi. Bunday hodisa kimyo sanoatida va kemasozlikda kuzatiladi. Shu sababli alyumin detallarni biriktirishda alyumin parchin mix, mis detallar uchun mis parchin mix qo'llaniladi.

Parchin mix uchun ruxsat etilgan kuchlanish teshikka ishlov berishga (parmash yoki bosib teshish) va tashqi yuklanishga bog'liq bo'ladi (statik, dinamik).

Agar kuch chokka o'zgaruvchan ta'sir etsa, ruxsat etilgan kuchlanishning qiymati 10 – 20% ga kamaytiriladi.

#### **Nazorat uchun savollar**

1. Parchin mix qanday materiallardan tayyorlanadi?
2. Tuzilishi bo'yicha qanday parchin mixlarni bilasiz?
3. Parchin chok mustahkamlik koefitsientini qanday oshirish mumkin?
4. Parchin mixli choklarda qanday kuchlanishlar hosil bo'ladi?
5. Parchin mix materialini tanlaganda nimalarga e'tibor berish kerak?

## X. PAYVAND BIRIKMALAR HISOBI

Payvand birikma ajralmaydigan birikmadir. U detal materialini tutashish zonasida eritish orqali amalga oshiriladi hamda qo'shimcha yordamchi elementni talab qilmaydi. Birikmaning mustahkamligi payvand choc materialining bir jinsliligi va uzlusizligiga hamda uni o'rab turuvchi zonaga bog'liq bo'ladi.

Payvandlash turlaridan eng ko'p tarqalgani elektr payvandlash hisoblanadi. Elektr payvandlashning ikkita asosiy turi mavjud: elektr yoy payvandlash va kontakt payvandlash.

Elektr yoy payvandlash metallni eritishda elektr yoyidan foydalananishga asoslangan. Bunday payvandlash flus ostida avtomatik ravishda bajarilsa, uning unumдорлиги 20 baravar oshadi. Kontakt payvandlashda esa detallarning tutashish zonasidagi yuqori qarshilik  $R$  dan foydalaniлади.


Payvandli birikma biriktirilayotgan qo'shma detalni yaxlitga o'xshatish imkonini beradi. Payvand birikmada detalning teng mustahkamlik shartiga, massasini kamaytirish va narxini arzonlashtirishga osон erishish mumkin.

Payvandlash nafaqat detallarni biriktirish, balki ularni tayyorlash usuli ham hisoblanadi. Payvand birikmalar ko'p hollarda quyma va shtamplangan detallar o'rниga ishlatiladi. Payvand birikmalarni tayyorlash uchun qolip, model yoki shtamplar kerak bo'lmaydi. Quyma detal-larga nisbatan payvand detallarda tayyorlangan devorlarning qalinligi yupqa bo'ladi, bu esa detal massasini kamaytiradi va material sarfini qisqartiradi. Payvandlab tayyorlanadigan konstruksiyalar material sarfini yoki massasini 30–50% ga kamaytiradi va mahsulot tannarxini 1,3–2 marta arzonlashtiradi.

### 10.1. Uchma-uch payvand birikmalar

Uchma-uch payvand birikma eng sodda va qulay hisoblanadi. Biriktirilayotgan detallarning qalinligiga qarab ularning chetlariga ba'zan ishlov beriladi (10.1-shakl).

Detalning qalinligi kichik bo'lsa, uning qirrasiga ishlov berish shart emas, o'rta va katta qalinliklarda detalning chetki qirrasiga ishlov berish detalning butun uzunligi bo'yicha chocning hosil bo'lish talabidan kelib chiqadi.



10.1-shakl. Uchma-uch payvand choklar turlari

Uchma-uch chok bilan nafaqat list yoki polosa, balki quvur, burchaklik, shveller va boshqa shaklli profillarni ham payvandlash mumkin. Hamma holatlarda ham yig'ma detal yaxlitga yaqin chiqadi.

Uchma-uch chokning buzilishi chekka detalning termik ta'sir etish zonasidagi kesimida bo'lishi mumkin.

Amaliyotdan kuzatilishicha, payvandlash sifatli amalga oshirilsa, po'lat detallar birikmasi, asosan, termik ta'sir zonasida buziladi. Shu sababli uchma-uch payvand birikmani mustahkamlikka hisoblash mazkur zonadagi kesim uchun amalga oshiriladi. Bunda detal mustahkamligining kamayishi ruxsat etilgan kuchanish belgilanganda hisobga olinadi. Masalan, uchma-uch biriktirilgan polosa uchun (10.1-shakl):

$$\left. \begin{array}{l} \text{cho'zilishda} \\ \sigma = \frac{F}{A} = \frac{F}{b\delta} \leq [\sigma]; \\ \\ \text{egilishda} \\ \sigma = \frac{M}{W} = \frac{6M}{b\delta^2} \leq [\sigma]; \end{array} \right\} \quad (10.1)$$

bu yerda,  $b$  va  $\delta$  polosa eni va qalinligi;  $[\sigma]$  – payvand birikma uchun ruxsat etilgan kuchlanish;  $[\sigma]$  ning asosiy detal metalli ruxsat etilgan kuchlanishiga nisbati payvand birikmaning mustahkamlik koefitsienti deb ataladi:

$$\varphi = \frac{[\sigma]}{[\sigma]_h}. \quad (10.2)$$

Uning qiymati 0,9 dan 1,0 gacha bo'ladi, ya'ni uchma-uch chok deyarli biriktirilgan detallar bilan teng mustahkam bo'ladi. Agar birikmaning mustahkamligini oshirish zarur bo'lsa, qiya chok qo'llaniladi (10.2-shakl). Qiya chokning mustahkamligini (10.1) formula bilan tekshirilganda,  $[\sigma] = [\sigma]_h$  olinadi.




10.2-shakl. Qiya uchma-uch chok

## 10.2. Ustma-ust payvand birikmalar hisobi

Ustma-ust payvand birikmalarda burchak choklar ishlatiladi. Ko'ndalang kesim shakli bo'yicha burchak choklar normal 1, botiq 2 va qavariq 3 turlarga (10.3-shakl) bo'linadi. Amaliyotda normal chok ko'p ishlatiladi. Qavariq chok qo'llanganda detal kesimi keskin o'zgaradi, bu esa kuchlanishning yuqori to'planishiga olib keladi. Botiq chok kuchlanish to'planishini kamaytiradi va o'zgaruvchan yuklanish ta'sir etganda qo'llash uchun tavsiya qilinadi. Botiq chok mexanik ishlov yo'li bilan amalga oshiriladi, bu esa birikma tannarxini oshiradi. Shu sababli bunday chok qo'shimcha xarajatlar o'zini oqlagandagina qo'llanishi maqsadga muvofiq.

Burchak chokining asosiy geometrik o'lchamlari – chokning kateti  $k$  va balandligi  $h$ ; normal choklar uchun  $h = \sin 45^\circ \approx 0.7k$ . Payvandlash texnologiyasidan ist qalinligi  $\delta \geq 3$  mm bo'lsa,  $k \geq 3$  mm deb olinadi. Ko'p hollarda  $k = \delta$ .




10.3-shakl. Burchak choklarning turlari:

1 – normal; 2 – botiq; 3 – qavariq

Choklarning joylashishiga qarab ro'para, yonbosh va qiya choklar bo'ladi.

Ta'sir etuvchi kuchga nisbatan ro'para chok perpendikulyar (tik), yonbosh chok esa parallel joylashadi. Odatda, bir vaqtida yonbosh va ro'para chokli aralash kombinastiyali chok ishlatalishi mumkin. Avval faqat yonbosh chokli va ro'para chokli, so'ngra aralash chokli birikmalarining hisobini ko'rib chiqamiz.



10.4-shakl. Yonbosh chokning hisobiy sxemasi

Yonbosh choklar (10.4-shakl)  $m-m$  kesim bo'yicha urinma kuchlanish ta'siridan yemiriladi.  $m-m$  kesim burchak chokning bissektrisasiga tog'ri keladi. Yonbosh chokning uzunligini oshirish kuchlanishning notekis taqsimlanishiga olib keladi. Shu sababli uzun yonbosh choklarni qo'llash maqsadga muvofiq emas.

Amaliyotda yonbosh choklar uzunligini  $l \leq 50k$  shart bilan chegara-lab qo'yiladi. Bunday choklar hisobi taxminan kuchlanish o'rtacha qiymati bo'yicha olib boriladi, mustahkamlilik sharti quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\tau = \frac{F}{2l \cdot 0,7k} \leq [\tau], \quad (10.3)$$


bu yerda,  $0,7k$  – chokning  $m-m$  bissektrisasi bo'yicha qalinligi.

Yonbosh chokning mustahkamligi yetarli bo'lmasa, detallarning o'rtasidan qo'shimcha chok o'tkazib (10.5-shakl), birikmaning mustahkamligini oshirish mumkin.

Mustahkamlilik sharti  $\tau = \frac{F}{2k(0,7l_{\text{yon}} + l_f)} \leq [\tau]$ , bu yerda,  $k = \delta$ .

Agar choklar detalning markazidan turli xil –  $e_1, e_2$  – uzoqlikda bo'lса, u holda choklarning uzunligi  $\frac{l_1}{l_2} = \frac{e_2}{e_1}$  bo'ladi (10.6-shakl). Unda mustahkamlilik sharti:


$$\tau = \frac{F}{0,7\kappa(l_1 + l_2)} \leq [\tau].$$



10.5-shakl. Qo'shimcha chokli birikma

Agar yonbosh chokli birikmaga moment ta'sir etsa (10.7-shakl), chokdagi kuchlanish quyidagicha bo'ladi:  $\bar{T} = \frac{M}{W_p}$ .


bu yerda,  $W_p$  – chokning yemirladigan kesimining buralishga bo'lgan qarshilik momenti. Amalda ko'proq uchraydigan choklar uchun ( $l=b$ )  $W_p=0,7klb$ .



10.6-shakl. Asimmetrik detallarning biriktirish sxemasi


U holda.

$$\tau = \frac{T}{0.7 k l b} \leq [\tau]. \quad (10.4)$$



10.7-shakl. Momentning yonbosh chokka ta'sir etishi

Ro'para choklarda (10.8-shakl) kuchlanish notekis taqsimlanadi. Ro'para choklarda detallarning tutashuv yuzasida hosil bo'ladigan kuchlanishdan tashqari, perpendikulyar kesimdagagi normal kuchlanish ham asosiy hisoblanadi.



10.8-shakl. Ro'para chokli birikma

Muhandislik amaliyotida ro'para choklar faqat  $\tau$  kuchlanish bo'yicha hisoblanadi. Xuddi yonbosh choklardagi kabi hisobiy kesim  $m\text{-}m$  bissektrisa bo'yicha olinadi. Aynan shu kesimda chokning yemirilishi amaliyotda ham o'z isbotini topgan.

Ro'para chokning mustahkamlik sharti:

$$\tau = \frac{F}{0,7\kappa\ell} \leq [\tau]. \quad (10.5)$$


Agar choklar ikkita bo'lsa,

$$\tau = \frac{F}{2 \cdot 0,7\kappa\ell} \leq [\tau] \text{ bo'ladi.}$$

Hamma burchak choklar  $m\text{-}m$  kesim bo'yicha faqat  $\tau$  kuchlanish bo'yicha hisoblanadi. Bu amalda hisobni soddalashtiradi va juda qulay hisoblanadi.

Qiya chokning (10.9-shakl) mustahkamlik sharti:


$$\tau = \frac{F}{0,7\kappa\ell} \leq [\tau]. \quad (10.6)$$



10.9-shakl. Qiya chok

10.10-shaklda ro'para chokli birikmaga moment ta'sir etgan hol ko'rsatilgan. Bunda  $\sigma$  normal kuchlanish polosaning yoni bo'yicha xuddi balkaning egilishidagi normal kuchlanishga o'xshash taqsimlanadi. Ro'para chokning eguvchi moment ta'siridan hisobi:

$$\tau = \frac{T}{W} = \frac{6T}{0,7\kappa b^3} \leq [\tau]. \quad (10.7)$$



10.10-shakl. Moment ta'sir etgandagi ro'para chokning hisobiy sxemasi

Yonbosh va ro'para chok bir vaqtida ishlatilganda birikmaga kuch ta'sir etsa (10.11-shakl),


$$\tau_F = \frac{F}{0.7k(2l_{\text{yon}} + l_{\text{ro'p}})} \leq [\tau]. \quad (10.8)$$

Moment ta'sir etganda (10.12-shakl),


$$\tau_T = \frac{T}{0.7kl_{\text{yon}}l_r + 0.7k\frac{l_r^2}{6}} \leq [\tau]. \quad (10.9)$$

Bir vaqtning o'zida kuch va moment ta'sir etsa,

$$\tau = \tau_T + \tau_F \leq [\tau]. \quad (10.10)$$



10.11-shakl. Aralash (yonbosh va ro'para) chokli birikmaga cho'zuvchi kuchning ta'siri



10.12-shakl. Aralash chokli birikmaga momentning ta'siri


Ustma-ust birikmaga baho berishda quyidagini ta'kidlash mumkin, ular shakli va material sarfi bo'yicha uchma-uch birikmalardan quyida bo'ladi, lekin bunda detal chekkalariga ishlov berish talab qilinmaydi.

### 10.3. Tavrli payvand birikmalar hisobi

Tavrli payvand birikmalarda payvandlanadigan detallar o'zaro bir-biriga tik joylashadi. Bu birikmalarning chekka qirrasiga ishlov berib, uchma-uch (10.13. a-shakl) yoki chekka qirrasiga ishlov bermay, burchak choklar (10.13. b-shakl) bilan payvandlash mumkin. Birikma-ning eguvchi moment va cho'zuvchi kuch ta'siridan mustahkamlik sharti:

$$\text{uchma-uch birikma uchun} \quad \sigma = \frac{6M}{\delta \ell^2} + \frac{F}{\delta \ell} \leq [\sigma]; \quad (10.11)$$

$$\text{burchak choc uchun} \quad \tau = \frac{6M}{2\ell^2 \cdot 0,7K} + \frac{F}{2\ell \cdot 0,7K} \leq [\tau]. \quad (10.12)$$



10.13 shakl. Tavrli payvand birikmalar;  
a – uchma-uch chocli; b – burchak chocli


#### 10.4. Kontakt payvand birikmalar

Listlar kontaktlab payvandlanganda uchma-uch, ustma-ust choklar hosil bo'ladi.

Uchma-uch payvandlangan choklarning mustahkamligi listning mustahkamligiga teng bo'ladi.

Ustma-ust payvandlash ikki xil usulda bo'ladi: nuqtaviy va lentali. Nuqtaviy kontakt (10.14-shakl) payvandlash, asosan, yupqa list materiallarning qalnligi  $\leq 3$  nisbatda bo'lganda qo'llaniladi. Bunda ustma-ust qo'yilgan listlar bir nechta nuqtada o'zaro biriktiriladi. Har bir nuqtaning diametri listning qalnligi  $\delta$  ga qarab tanlanadi:

$$\begin{array}{ll} \delta \leq 3 \text{ mm da} & d = 1,2\delta + 4 \text{ mm;} \\ \delta > 3 \text{ mm da} & d = 1,5\delta + 5 \text{ mm.} \end{array}$$



10.14-shakl. Nuqtaviy kontakt payvandlash

Nuqtalar orasidagi va qirralardan eng chetdagi nuqtalargacha bo'lgan masofalar quyidagicha olinadi:

$$t = 3d; \quad t_1 = 2d; \quad t_2 = 1,5d.$$

Birikmaning mustahkamligi:

$$\tau = \frac{F}{z \frac{\pi d^2}{4} i} \leq [\tau], \quad (10.13)$$

bu yerda,  $z$  – payvand nuqtalar soni,  $i$  – kesilishi mumkin bo‘lgan tekisliklar soni. Mustahkamlikni oshirish uchun nuqtalar soni va ularning diametrlerini oshirish mumkin.


10.14,  $a$ -shakldagi sxema uchun  $z = 4$ ,  $i = 1$ ; 10.14,  $b$ -shakl uchun esa  $z = 2$ ,  $i = 2$ .

Nuqtaviy payvand birikmalar ko‘pincha asosiy yuklanishni qabul qiladigan ishchi birikma sifatida emas, balki bog’lovchi, masalan, karkasga qoplamanini biriktirish sifatida ham qo’llaniladi.

Lentali kontakt payvandlashda (10.15-shakl) listlarning biriktiriladigan qismlarida lenta shaklidagi choc hosil bo‘ladi. Lentali chocdagi kuchlanish

$$\tau = \frac{F}{b\ell} \leq [\tau], \quad (10.14)$$

bu yerda,  $b$  – payvand chocning eni;  $\ell$  – chocning uzunligi.




10.15-shakl. Lentali payvand choc sxemasi

## 10.5. Payvand birikmaning mustahkamligi

Payvand birikmaning mustahkamligi quyidagi omillarga bog’liq: payvandlashga loyiqlik, payvandlash texnologik jarayonining takomilashganligi bilan bog’liq asosiy materialning sifati; birikmaning konstruksiyasi; payvandlash usuli; ta’sir etuvchi yuklanish xarakteri (o‘zgarmas yoki o‘zgaruvchan). Kam va o‘rtacha uglerodli po‘latlar yaxshi

payvandlanadi. Yuqori uglerodli po'lat, cho'yanlar va rangli metall qotishmalari yomon payvandlanadi. Payvandlashning mustahkamligini quyidagi nuqsonlar sezilarli darajada kamaytiradi: to'liq payvandlamaslik, kertik, (10.16-shakl), shlak va gaz to'plamlari, choklar kesishadigan joyda metall to'planishi va sh.k. Bu nuqsonlar payvandlashda darz hosil bo'lishining asosiy sabablari sanaladi. Payvandlashning texnologik nuqsonlari o'zgaruvchan va zarbij yuklanishlar ta'siridan yanada kuchayadi.



*Payvandlanmagan*

### 10.16-shakl. Payvand chocning nuqsonlari

Quyidagilar payvand birikmalarning mustahkamligini oshiruvchi samarali choralar hisoblanadi: flus ostida avtomat va muhofazalovchi gaz muhitida payvandlash; payvand konstruksiyaga termik ishlov berish (kuydirish), chokka pitra bilan ishlov berish va chaqalash. Bu choralar qo'shma payvand detallarning mustahkamligini o'zgaruvchan yuklanish ta'sir etganda 1.5–2 marta oshiradi va uning mustahkamligini yaxlit detal mustahkamligiga yaqinlashtiradi.

Payvand birikma mustahkamligiga ta'sir etuvchi omillarning turlliigi hamda hisobiy formulalarining shartli va taqribiyligi ruxsat etilgan kuchlanishlarni eksperimental aniqlash zaruriyatini tug'diradi. Kam va o'rtacha uglerodli po'latlardan payvand detallar hamda kam legirlangan po'latlar (14ГС, 15ГСНД, 09Г2, 19Г va boshqalar) uchun statik yuklanishda ruxsat etilgan kuchlanishlarning me'yoriy qiymati 10.1-jadvalda berilgan.

O'zgaruvchan yuklanishda 10.1-jadvaldan tanlangan ruxsat etilgan kuchlanish qiymati  $\gamma < 1$  koefitsientga ko'paytirish yo'li bilan kamaytiriladi. hisob esa siklning maksimal kuchlanishi  $\sigma_{max}$  yoki  $\tau_{max}$  bo'yicha olib boriladi, unda kuchlanish xuddi statik bo'lgan holdagiday bo'ladi.

O'zgaruvchan kuchlanishda payvand choc mustahkamligidan tashqari, bu choc zonasida detalning mustahkamligini ham tekshirib ko'rish zarur.

## Choklarning ruxsat etilgan qiymatlari

Payvandlashning texnologik jarayoni	Choklarning ruxsat etilgan kuchlanishi		
	$[\sigma]_h$ cho'zilishda	$[\sigma]_s$ siqilishda	$[\tau]_k$ kesilishda
1. Flus ostida avtomatik, E42A va E50A elektrodlari bilan dastaki, kontakt uchma-uch birikma	$[\sigma]_h$	$[\sigma]_s$	$0.65 [\sigma]_h$
2. E42 va E50 elektrodlari bilan dastaki, gazli payvandlash	$0.9 [\sigma]_h$	$[\sigma]_s$	$0.6 [\sigma]_h$
3. Nuqtaviy va lentali kontakt	-	-	$0.5 [\sigma]_h$

*Eslatma.*  $[\sigma]_h = \sigma_{eq}/s$  biriktirilayotgan detallar uchun statik yuklanishda materialning cho'zilishdagi ruxsat etilgan kuchlanishi. Metall konstruksiyalar uchun mustahkamlik zaxirasi  $S \approx 1,4 - 1,6$ .

Bu chok zonasida detallarning ruxsat etilgan kuchlanishini γ koeffisientga ko'paytirib, kamaytiriladi. Uglerodli po'latlar uchun quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\gamma = \frac{1}{(0.6K_{sm} \pm 0.2) - (0.6K_{tom} \mp 0.2)R} \leq 1 \quad (10.15)$$

bu yerda,  $R = \frac{\sigma_{min}}{\sigma_{max}}$  yoki  $\frac{\tau_{min}}{\tau_{max}}$  kuchlanish siklining asimmetriya koeffitsienti,  $K_{sm}$  – kuchlanish to'planishi (konsentratsiyasi)ning samarali koeffitsienti,  $\sigma$  va  $\tau$  ning ikkisiga ham tegishli (qiymati jadvallarda beriladi). (10.15) formuladagi «+», «-» ishoralarining yuqoridagisi kuchlanishning absolyut qiymati bo'yicha cho'zuvchi bo'lganda, pastdagisi esa siquvchi bo'lganda qo'llaniladi. Bu ishoralar kesuvchi kuchlanishga ham taalluqli bo'ladi. O'tuvchi zonada ( $R=-1$  yoki unga yaqin bo'lsa) hisob eng xavfli kuchlanish bo'yicha olib boriladi.

Agar  $\gamma$  ni (10.15) formula bo'yicha hisoblashda  $\gamma < 1$  bo'lsa, hisobda  $\gamma = 1$  olinadi. Bu odatda siklining katta asimmetriyasiga mos bo'ladi ( $R>0$ ) va bu stikl uchun toliqishga qarshilik emas, balki statik mustahkamlik hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

## **Nazorat savol va topshiriqlari**

1. Zamonaviy mashinalarda payvand birikmalar nima sababdan ko‘p qo‘llaniladi?
2. Uchma-uch birikmada qanday kuchlanish asosiy hisoblanadi?
3. Ustma-ust birikmalar qaysi kesim bo‘yicha yemirilishi mumkin?
4. Nima sababdan asimetrik detallarni payvandlab biriktirishda choklar uzunligi har xil olinadi?
5. Tavrli birikmalar qanday choklar yordamida payvandlanadi?
6. Kontakt payvand birikmalarda qanday kuchlanishlar hosil bo‘ladi?
7. Payvand choklarning mustahkamligini pasaytiradigan omillarni ko‘rsating.
8. Chok zonasida uning mustahkamligi qanday hisobga olinadi?

---

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Сулаймонов И. Машина деталлари – Т.: «Ўқитувчи», 1981. – 304 б.
2. Иванов М. Н., Финогенов В. А. Детали машин. – М.: «Высшая школа», 2006. – 408 с.
3. Решетов Д. Н. Детали машин. – М.: «Машиностроение», 1989. – 496 с.
4. Детали машин: Учебник для вузов / Под. ред. Ряховского О. А. – М.: Изд – во МГТУ им Н. Э. Баумана, 2007. – 520 с.
5. R. Tojiboyev. A. Jo'rayev, R. Maqsudov. Mashina detallari. – Т.: «Fan va texnologiya», 2010. – 216 б.
6. Туранов Х. Т. Прикладная механика в сфере грузовых перевозок: Учебное пособие. – Екатеринбург: Ур ГУПС. 2008. – 347 с.
7. Ковалевский В. И. Детали машин и основы конструирования: Лекции. – Краснодар: Филиал РГУПС в г. Краснодаре. 2011. – 136 с.
8. Шообидов Ш. А. Машина деталлари: Ўқув кўлланма. Т.: ТошдТУ, 2000. – 88 б.
9. Курсовое проектирование деталей машин: Учеб. пособие. / С. А. Чернавский и др. – М.: “Машиностроение”, 1989. – 416 с.
10. Тожибоев Р. Н., Шукров М. М., Сулайманов И. Машина деталлари курсидан масалалар тўплами. – Т.: “Ўқитувчи”, 1992. – 144 б.
11. Тожибоев Р. Н., Шукров М. М. Машина деталларини лойихалаш – Т.: “Ўқитувчи”, 1997. – 314 б.
12. Детали машин в примерах и задачах. / Под общей редакцией Ничипорчука С. Н. – Минск: «Вышешая школа», 1981. – 432 с.

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

### BIRINCHI BO'LIM MEXANIK UZATMALAR

#### I. TASMALI UZATMALAR

1.1. Tasmali uzatmalar. Ularni hisoblashning asoslari.....	4
1.2. Tasma tarmoqlaridagi kuchlar va ular orasidagi munosabat.....	7
1.3. Tasmadagi kuchlanishlar .....	9
1.4. Tasmali uzatmadagi sirpanish. Uzatmani taranglash usullari.....	14
1.5. Yassi tasmali uzatmalar.....	22
1.6. Ponasimon tasmali uzatmalar.....	32
1.7. Tishli tasmali uzatmalar.....	40

#### II. ZANJIRLI UZATMALAR

2.1. Umumiy ma'lumotlar.....	48
2.2. Zanjirli uzatmaning asosiy tasniflari.....	49
2.3. Zanjirli uzatma asosiy elementlarining tuzilishi.....	51
2.4. Zanjirli uzatmadagi kuchlar.....	54
2.5. Zanjirli uzatmaning kinematika va dinamikasi.....	55
2.6. Zanjirli uzatmalarning ishchanlik qobiliyati va hisoblash mezoni.....	58
2.7. Zanjirli uzatmaning amaliy hisobi.....	60

### IKKINCHI BO'LIM

#### VALLAR, PODSHIPNIKLAR, MUFTALAR

#### III. VALLAR VA O'QLAR

3.1. Val va o'qlarning turlari, ularning materialllari.....	64
3.2. Vallarning loyihalovchi hisobi.....	64
3.3. Vallarning aniqlashtirilgan hisobi.....	66
3.4. Valni bikirlikka hisoblash.....	71
3.5. Valni tebranishga hisoblash..... *	73

### IV. PODSHIPNIKLAR

4.1. Sirpanish podshipniklari bo'yicha umumiy ma'lumotlar va ularning turlari.....	76
4.2. Sirpanish podshipniklarining ish sharoitlari va yemirilish turlari. Suyuqlikda ishqalanish nazariyasining asoslari.....	78
4.3. Sirpanish podshipniklarining amaliy hisobi.....	83
4.4. Sirpanish podshipniklari konstruksiyalari va materialllari.....	87
4.5. Dumalash podshipniklari.....	92
4.6. Dumalash podshipniklarining ishlash sharoitlari.....	97
4.7. Dumalash podshipniklарини amaliy hisoblash (tanlash). ....	103

## V. MUFTALAR

5.1.	Umumi ma'lumotlar. Ularning vazifasi va tasnifi .....	111
5.2.	Boshqarilmaydigan (doimiy biriktirilgan) qo'zg'almas muftalar.....	112
5.3.	Boshqarilmaydigan kompensatsiyalovchi muftalar.....	114
5.4.	Boshqarilmaydigan elastik muftalar.....	121
5.5.	Ilashish asosidagi boshqariladigan muftalar.....	131
5.6.	Avtomatik boshqariladigan muftalar.....	140

## UCHINCHI BO'LIM

### MASHINA DETALLARINING BIRIKMALARI

## VI. REZBALI BIRIKMALAR

6.1.	Rezbali birikmalar bo'yicha umumi ma'lumotlar.....	148
6.2.	Vintli juft nazariyasining asosiy holatlari.....	153
6.3.	Rezbani mustahkamlikka hisoblash.....	156
6.4.	Vint sterjeni (bolt)ni yuklanish turlicha ta'sir etganda mustahkamlikka hisoblash.....	158
6.5.	Bir necha boltli birikmalarni hisoblash.....	166
6.6.	Rezbali birikmalar materiallari va ruxsat etilgan kuchlanishlar.....	172
6.7.	Klemmalli birikmalar.....	173

## VII. SHPONKALI BIRIKMALAR

7.1.	Shponkali birikmalarni mustahkamlikka hisoblash.....	178
7.2.	Shponka materiali.....	183
7.3.	Shponkali birikmalarning qo'llanishi va hisoblash bo'yicha mulohazalar.....	183

## VIII. TISHLI (SHLITSALI) BIRIKMALAR

8.1.	Tishli (shlitsali) birikmalarning tuzilishi va turlanishi.....	185
8.2.	Tishli birikmaning ishdan chiqish turlari va hisoblashning asoslari.....	187
8.3.	Tishli birikmalarni hisoblash.....	188
8.4.	Profilli birikmalar to'g'risida umumiylar ma'lumot.....	191

## IX. PARCHIN MIXLI BIRIKMALAR

9.1.	Parchin mixli birikmalar konstruksiysi tayyorlanishi, turlanishi, qo'llanish sohasi.....	193
9.2.	Parchin mixli choklarni mustahkamlikka hisoblash.....	197
9.3.	Parchin mixlar materiallari va ruxsat etilgan kuchlanishlar.....	202

## X. PAYVAND BIRIKMALAR HISOBI

10.1.	Uchma-uch payvand birikmalar.....	203
10.2.	Ustma-ust payvand birikmalar hisobi.....	205
10.3.	Tavrlı payvand birikmalar hisobi.....	211
10.4.	Kontakt payvand birikmalar.....	212
10.5.	Payvand birikma mustahkamligi.....	213
	Foydalilanigan adabiyotlar.....	217

## ОГЛАВЛЕНИЕ

Введение.....	3
---------------	---

### ПЕРВЫЙ РАЗДЕЛ

#### МЕХАНИЧЕСКИЕ ПЕРЕДАЧИ

##### I. РЕМЕННЫЕ ПЕРЕДАЧИ

1.1. Ременные передачи. Основы их расчета.....	4
1.2. Силы и силовые зависимости на ветвях ремня.....	7
1.3. Напряжения в ремне.....	9
1.4. Скольжение в ременной передаче. Способы натяжения ремня.....	14
1.5. Плоскоременные передачи.....	22
1.6. Клиноременные передачи.....	32
1.7. Передачи с зубчатыми ремнями.....	40

##### II. ЦЕПНЫЕ ПЕРЕДАЧИ

2.1. Общие сведения.....	48
2.2. Основные характеристики цепной передачи.....	49
2.3. Структуры основных элементов цепных передач.....	51
2.4. Силы в цепной передаче.....	54
2.5. Кинематика и динамика цепной передачи.....	55
2.6. Критерии работоспособности и расчета цепной передачи.....	58
2.7. Практический расчет цепной передачи.....	60

### ВТОРОЙ РАЗДЕЛ

#### ВАЛЫ, ПОДШИПНИКИ, МУФТЫ

##### III. ВАЛЫ И ОСИ

3.1. Виды валов и осей, их материалы.....	64
3.2. Проектный расчет валов.....	64
3.3. Уточненный расчет валов.....	66
3.4. Расчет вала на жесткость.....	71
3.5. Расчет вала на колебание.....	73

##### IV. ПОДШИПНИКИ

4.1. Подшипники скольжения – общие сведения и их классификация.....	76
4.2. Условия работы и виды разрушения подшипников скольжения. Основы теории жидкостного трения.....	78
4.3. Практический расчет подшипников скольжения.....	83
4.4. Конструкции и материалы подшипников скольжения.....	87
4.5. Подшипники качения.....	92
4.6. Условия работы подшипников качения.....	97
4.7. Практический расчет (подбор) подшипников качения.....	103

## V. МУФТЫ

5.1. Общие сведения, назначение и классификация.....	111
5.2. Глухие муфты.....	112
5.3. Муфты компенсирующие жесткие.....	114
5.4. Муфты упругие.....	121
5.5. Муфты управляемые или сцепные.....	131
5.6. Муфты автоматические или самоуправляемые.....	140

## ТРЕТИЙ РАЗДЕЛ

### СОЕДИНЕНИЯ ДЕТАЛЕЙ МАШИН

#### VI. РЕЗЬБОВЫЕ СОЕДИНЕНИЯ

6.1. Общие сведения о резьбовых соединениях.....	148
6.2. Теория винтовой пары.....	153
6.3. Расчет на прочность резьбы.....	156
6.4. Расчет на прочность стержня винта (болта) при различных случаях нагружения.....	158
6.5. Расчет соединений, включающих группу болтов.....	166
6.6. Материалы резьбовых изделий и допускаемые напряжения.....	172
6.7. Клеммовые соединения.....	173

#### VII. ШПОНОЧНЫЕ СОЕДИНЕНИЯ

7.1. Расчет на прочность шпоночного соединения.....	178
7.2. Материалы шпонок.....	183
7.3. Общие замечания по применению и расчету шпоночных соединений.....	183

#### VIII. ЗУБЧАТЫЕ (ШЛИЦЕВЫЕ) СОЕДИНЕНИЯ

8.1. Устройства и виды зубчатых (шлицевых) соединений.....	185
8.2. Основные критерии работоспособности и расчета зубчатых соединений.....	187
8.3. Расчет зубчатых соединений.....	188
8.4. Общие сведения о профильных соединениях.....	191

#### IX. ЗАКЛЕПОЧНЫЕ СОЕДИНЕНИЯ

9.1. Конструкции, технология, виды, области применения заклепочных соединений.....	193
9.2. Расчет на прочность заклепочного шва.....	197
9.3. Материалы заклепок и допускаемые напряжения.....	202

#### X. РАСЧЕТ СВАРНЫХ СОЕДИНЕНИЙ

10.1. Стыковые сварные соединения.....	203
10.2. Расчет нахлесточных сварных соединений.....	205
10.3. Расчет тавровых сварных соединений.....	211
10.4. Контактные сварные соединения.....	212
10.5. Прочность сварных соединений.....	213
Список литературы.....	217

---

## CONTENTS

Introduction.....	3
-------------------	---

### THE FIRST SECTION.

#### MECHANICAL TRANSMISSION (CONTINUED)

##### I. BELT DRIVES

1.1. Belt transmission. The basis of their calculation .....	4
1.2. Strength and power dependence on the branches of the belt .....	7
1.3. The stresses in the belt .....	9
1.4. Slipping in the belt transmission. Methods for the belt .....	14
1.5. The flat transmission .....	22
1.6. V-belt transmission .....	32
1.7. Transmission with toothed belts .....	40

##### II. CHAIN DRIVES

2.1. General .....	48
2.2. The main characteristic of a chain drive .....	49
2.3. The device is the main parts of the chain drive .....	51
2.4. Force in the chain transfer .....	54
2.5. The kinematics and dynamics of a chain drive .....	55
2.6. Performance criteria and calculation of the chain drive .....	58
2.7. Practical calculation of chain transfer .....	60

### THE SECOND SECTION.

#### SHAFTS, BEARINGS, COUPLINGS.

##### III. SHAFTS AND WASPS

3.1. Types of shafts and axles, their materials .....	64
3.2. Project calculation of shafts .....	64
3.3. Adjusted (test) estimates of Gross .....	66
3.4. The calculation of the shaft stiffness .....	71
3.5. The calculation of the shaft vibration .....	73

##### IV. BEARINGS

4.1. Plain bearings - general information and classification .....	76
4.2. Working conditions and failure modes bearings. Fundamentals of the theory of hydrodynamic lubrication .....	78
4.3. Practical calculation of bearings .....	83
4.4. Structures and materials bearings .....	87
4.5. Roller bearings .....	92
4.6. Terms of bearings .....	97
4.7. Practical solution (selection) bearings .....	103

## V. COUPLINGS

5.1. General information, appointment and classification .....	111
5.2. Deaf coupling .....	112
5.3. Couplings compensate hard .....	114
5.4. Flexible couplings .....	121
5.5. Clutches managed or coupling .....	131
5.6. Clutch automatic or self-managed .....	140

## THE THIRD SECTION.

### CONNECTION OF MACHINE PARTS.

## VI. FITTINGS

6.1. General information about the threaded connections .....	148
6.2. Theory screw pair .....	153
6.3. Calculation of the strength thread .....	156
6.4. Calculate the strength of the screw shaft (bolt) for different cases.....	158
6.5. Calculation of compounds including a group of bolts .....	166
6.6. Materials threaded products and allowable stress .....	172
6.7. Clamp connections .....	173

## VII. KEYED

7.1. Strength analysis of key connection .....	178
7.2. Materials keys .....	183
7.3. General comments on the application and calculation of the dowel joints.....	183

### VII. GEAR (SLOTTED) CONNECTION

8.1. The device and the types of gear (schlitsevyh) connections .....	185
8.2. Key performance criteria and calculation of gear connections.....	187
8.3. Calculation of gear connections .....	188
8.4. General information about the relevant connections .....	191

## IX. THE RIVETS

9.1. Design, technology, types, applications, riveted.....	193
9.2. Strength analysis of rivet joints .....	197
9.3. Materials rivets and allowable stress .....	202

## X. CALCULATION WELDS

10.1. Butt welds .....	203
10.2. Calculation of lap welds .....	205
10.3. Calculation of T-welds .....	211
10.4. Contact welds .....	212
10.5. Strength of welded joints .....	213
References .....	217

MAXMUD MUXANOVICH KURGANBEKOV  
ADXAM MOYDINOV

# MASHINA DETALLARI

## II qism

*O‘quv qo‘llanma*

**«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»  
Davlat ilmiy nashriyoti**

**Toshkent–2014**

*Muharrir*                    *A. Zulfiqorov*  
*Kompyuterda*            .  
*sahifalovchi*              *D. Hasanova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 160, 14.08.2009-y.

Bosishga ruxsat etildi 05.12.2014 y. Bichimi 60x84<sup>1/16</sup>. Shartli b.t. 16,38.  
Nashr. t. 14,21. Buyurtma № 2. Adadi 200. Narxi shartnomaga asosida.

«AVTO-NASHR» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri, 8-mart ko‘chasi, 57-uy.